Leksika (yunoncha lexis-so‘zga oid, lug‘aviy)-tildagi barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi, tilning lug‘at tarkibi demakdir. Til leksikasi to‘xtovsiz o‘zgarib turadi. Bu narsa lug‘at tarkibida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, mavjud so‘zlardan ayrimlarining eskirib, iste’moldan chiqishi, leksik ma’nosini o‘zgartirib, yangi ma’no kasb etishi kabi jarayonlarda ko‘rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langan holda leksika ham boyib boradi. XX asrda barcha xalqlar qatori o‘zbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan o‘sib, taraqqiy etdi. O‘zbek tili leksikasiga baynalmilal so‘zlar keng ko‘lamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to‘xtovsiz o‘sib bormoqda. O‘zbek tili leksikasida o‘z va o‘zlashgan qatlam, shuningdek, o‘z qatlam tarkibida umumturkiy so‘zlar va ulardan yasalgan o‘zbekcha so‘zlar mavjud. O‘zlashma qatlam tarkibida forscha, arabcha, ruscha-baynalmilal so‘zlar bor.

Ko‘nikma hosil qilish uchun leksika mashqlari bosqichi muhim ahamiyatga egadir. Mashqlarning asosiy turlari quyidagilar:

1. Real lug‘at boyligini o‘zlashtirish, lug‘at tarkibini kengaytirish va ularni fahmlash (payqash) orqali bilib olish ko‘nikmalarini hosil qiladigan mashqlar.

2. Retseptiv (tinglab va o‘qib tushunish) va reproduktiv (gapirish, qisman yozuv) leksik mashqlar.

3. Leksik birlikning har xil turlari (so‘z, turg‘un so‘z birikmasi, nutq klisesi)ni o‘rganish mashqlari.

Boshlang‘ich bosqichda, asosan, og‘zaki, kontekstli, bir tilli (chet tilda) mashqlar sinfda, o‘qituvchi boshchiligida, xor bilan, rasmlardan foydalanib bajariladi. O‘rta bosqichda mashqlarning katta qismi uyda, yozma shaklda, o‘qituvchi bevosita boshqarmaydigan fonogramma holida, kontekstli va kontekstdan tashqari, yakka tarzda, ikki tilda bajarishga mo‘ljallanadi. Yuqori bosqichda leksik mavhum otlarga suyanib, kontekstdan tashqarida va kontekstda, ichki imkoniyatli potensial lug‘atni boyitish, yangi so‘z ma’nosini fahmlab olish, leksik operatsiyalarni ong ishtirokisiz erkin qo‘llay olish kabi mashqlar bajarilishi tavsiya qilinadi.

Leksik materialni o‘rgatishda asosan hozir ikki mashq turi mavjud:

1. Til yoki tayyorlov mashqlari.

2. Nutq yoki kommunikativ mashqlar.

Birinchi turdagi mashqlar asosan so‘z shakllarining ma’nosi ustida ishlashda hamda og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirishda qo‘llaniladigan mashqlarga aytiladi.

Ikkinchi turdagi nutq mashqlari esa nutq malakalarini o‘stirib, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarni hosil qiladi.



Mazkur maqola leksikani o‘rgatish jarayoni uning ma’nosini ochishdan, ya’ni tushuntirishdan boshlanadi.

Bu asosan ikki usulda:

- a) tarjima orqali tushuntirish;
- b) tarjimasiz tushuntirish orqali amalga oshiriladi.

a) Yangi so‘zni tarjima orqali tushuntirish 3 usulda tashkil qilinadi:

1-usul: chet tilidagi so‘zning ma’nosiga mos keladigan asosiy ma’nosini, yoki mos keladigan ekvivalentini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ona tilida og‘zaki berish yoki doskada tarjimasini yozib qo‘yish;

2- usul: so‘zning ikkita ma’nosini berish;

3-usul: tarjima – izoh, orqali so‘z manosi ochish. Odatda chet tilida so‘zning ma’nosi ona tilidagi so‘z ma’nosidan tor yoki keng bo‘lsa, to‘liq ma’noga mos kelmasa, ona tilida izoh beriladi. Bu usul zaruriyat tug‘ilganda, sinfda o‘quvchi ko‘p bo‘lganda, so‘z ma’nosini tarjimasiz ochish mumkin bo‘lmaganda, ma’nosi ochiladigan so‘z ko‘p bo‘lib, vaqt kam bo‘lganda qo‘llaniladi.

b) Tarjimasiz tushuntirish: Bunda til, nutq ko‘rgazmasidan keng foydalaniladi.

Bu usulni qo‘llash so‘z ma’nosini chet tilining o‘z vositalari orqali ochishdir. Bunda chet tilidagi kontekstdan, nutq vaziyatidan, so‘z yasovchi qo‘shimchalardan, so‘zning kelib chiqishini tahlil qilishdan, qo‘shimchalardan, sinonim, antonimlardan foydalanib o‘quvchilarning o‘zlariga so‘zning ma’nosini fahmlab topishdan, baynalmilal so‘zlarni taniy olishliklaridan keng foydalaniladi.

So‘z ma’nosini ochishning kommunikativ usullari aynan tarjimasiz tushuntirish va ko‘rsatishga asoslanadi. Bunda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. So‘z ifodalovchi ma’no predmet yoki rasmni, harakatni ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunda dastlab so‘zning talaffuzi o‘rganiladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi so‘zning grafik ifodalanishini ko‘rsatadi. O‘quvchilar uni bir necha bor o‘qiydilar. O‘qituvchi o‘rganilgan so‘z bilan avval o‘rganilgan so‘zlarni qo‘shib iboralar yasashni buyuradi. Keyin bu iboralar bilan jumlar yasash, ularni tasdiq so‘roq, inkor formalarda gapirish mashq qilinadi. Bunday mashq o‘quvchilar juftliklari, guruhlari orqali tashkil qilinadi. Shundan so‘ng o‘qituvchi kichik guruhlarga matndan yangi so‘z qo‘llanilgan jumlaning topishni va uni shaxslarini, zamonlarini o‘zgartirib gapirishni tashkil qiladi. Bunday faoliyat jarayonida o‘quvchilar yangi so‘zning talaffuzini, leksik-grammatik ma’nosini, uni gap strukturadagi o‘rnini o‘zlashtirib oladilar.

2. So‘z ma’nosini o‘qituvchining yuz ko‘rinishi, imo-ishorasi, harakati orqali fahmlab toptirish.

3. So‘z ma’nosini chet tilida izohlash.

4. So‘zning ma’nosini kontekstdan fahmlab toptirish;

5. So‘z yasash qo‘shimchalari yordamida yangi so‘z ma’nosi topish. Bu o‘rinda o‘qituvchi o‘quvchilar avval o‘zlashtirgan so‘zlardan foydalanishi lozim.

Leksik mashqlardan namunalar

Leksik birliklarni tinglash mashqlari:



1. So‘zni tinglash va tovush tarkibini o‘rganish (so‘z gapda va yolg‘iz taqdim etiladi). 2. Muallim chet tilde nomini aytayotgan narsani ko‘rish. 3. Muallim chet tilde aytayotgan harakatni bajarish. 4. Oldin o‘rganilgan so‘zga ma‘no jihatidan mos keladigan so‘zning tovush tarkibini tinglab tahlil qilish. 5. Yangi so‘zni mavzuga oid boshqa so‘zlar orasidan tinglaganda, tanib olish. 6. Aytilgan so‘zlam mavzularga tegishlisini topish. 7. So‘z ta‘rifidan uning ma‘nosini fahmlab olish. 8. Tinglangan jumladagi so‘zlar miqdorini aniqlash. 9. Urg‘u bilan ajratib aytilgan so‘zlar ma‘nosini ona tilida aytish. 10. Ikki jumlada aytilgan ma‘nodosh so‘zlarni ona tilida farqlash.

Leksik birliklarni ko‘rish mashqlari:

1. So‘zlarni alfavit tartibida yozish. 2. So‘zlarni harfiy tahlil etish. 3. Tushirib qoldirilgan harf birikmasini qo‘yish. 4. Muayyan o‘qilish qoidalarini namoyish qiluvchi so‘zlarni o‘qish. 5. Qoidadan mustasno so‘zlam o‘qish. 6. Berilgan so‘zlarni o‘qish. 7. Qo‘shma so‘z yoki so‘zlar tarkibini ajratib yozish. 8. Ma‘lum so‘z qaysi so‘z turkumiga mansubligini aniqlash. 9. Ona tili bilan bir o‘zakli so‘zlam matndan topish. 10. So‘z yasash elementlarini farqlash orqali so‘z ma‘nosini ochish va h.k.

Leksik birliklarni aytish va yozish mashqlari:

1. Ko‘rib turgan narsalar (yoki ulaming tasviri) nomini chet tilde aytish va yozish. 2. Rasmga oid ma‘lum so‘zlam chet tilde aytish va yozish. 3. Berilgan mavzuga taalluqli so‘zlarni aytish va yozish. 4. So‘zni qo‘llab, og‘zaki va yozma gaplar tuzish. 5. Harakat, hodisa va narsani sharhlab berish. 6. Tayanch so‘zlarni qo‘llab, rasmni tasvirlash. 7. Rasmni nutq mavzusini tasvirlash. 8. Berilgan tayanch so‘zlari shtirokida yozma va og‘zaki fikr bayon etish. 9. O‘qituvchi aytgan so‘zlar yoki gapni takrorlash.

Retseptiv va reproduktiv leksik mashqlar

1. O‘qituvchiga taqlid so‘z yoki gapni takrorlash. 2. O‘qituvchi aytgan so‘zni so‘z birikmasi gapda qo‘llash. 3. Aytib turilgan materialni yozish va qaytarish. 4. Gapda matndan tanish/notanish so‘zlarni topish. 5. Gapni kengaytirish (boshi va oxiriga so‘zlar qo‘shish). 6. Vazifaga ko‘ra matndan so‘zlarni topish. 7. Matndagi bo‘sh joylarni to‘ldirish. 8. Tagiga chizilgan/ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga savol tuzish. 9. O‘qilgan matnning yangi so‘z ishtirokida gapirib berish. 10. Berilgan dialogni yakka nutqqa aylantirish.

Sharq tili leksikasini o‘rganish jarayonida nafaqat interaktiv mashqlar va o‘yinlar balki, o‘ziga xos dars o‘tish uslub va metodlardan foydalangan holda o‘qituvchi o‘ziga xos sifatli va samarali dars turini kashf eta oladi, albatta. Ta‘lim yangi bosqichga ko‘tarilmoqda, o‘quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o‘sh jarayonida o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan fodalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi.

Interfaol ta‘lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta‘lim texnologiyasi - har bir o‘qituvchi barcha o‘quvchilar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta‘minlaydi.

Interaktiv ta’lim - faol o’qitish uslubining turlaridan biri. Interaktiv o’rganish bilan o’zaro munosabat nafaqat o’qituvchi va talaba o’rtasida, balki barcha tinglovchilar bilan aloqa qilish va birgalikda ishlash (yoki guruhlar) o’rtasida amalga oshiriladi.

Interaktiv ta’lim vositalari. Interaktiv usullarni qo’llash oddiy-oddiy ko’rgazmalar, plakatlar, xaritalar, modellar va boshqalar bilan boshlandi. Bugungi kunda interaktiv ta’limning zamonaviy texnologiyalari eng so’nggi jihozlarni o’z ichiga oladi: interfaol taxtalar, planshetlar, kompyuter simulyatorlari, virtual modellar, plazma paneli, projektorlar, noutbuklar va boshqalar.

Har bir yangi so’z tushuntirilgach, uni dastlabki mustahkamlash mashqlari bajarildi. Yangi so’zni o’zlashtirish deganda so’zni xotirada saqlay olish, qo’llay olish tushuniladi. Shu sababli yangi so’zlarni muloqot mavzusi asosida tuzilgan kommunikativ topshiriqlar orqali mustahkamlash zarurati paydo bo’ladi. So’zlarni muloqot jarayonida jumla ichida ko’p martalik takrorlash, bu jarayonda audiovizual, noverbal va emotsional ta’sir vositalaridan foydalanish yangi so’zlarni o’zlashtirishning eng yaxshi usulidir.

Yangi lesikani kommunikativ yondashuv orqali tushuntirish va mustahkamlashni tashkil qilishda an’anaviy o’qitish jarayonida qo’llaniladigan quyidagi usullardan ham ijodiy foydalanish mumkin. Bunga savol-javob mashqlari, tarjima, bir-biriga bog’liq bo’lgan gaplarni, so’zlarni guruhlashtirish, turli xil nutq vaziyatlari tuzdirish mashqlari kiradi.

Yangi leksikani mustahkamlash o’quvchilarda muloqot ko’nikma va malakalarini shakllantirish bilan qo’shib olib boriladi. Bunda tematik rasmlarga, diafilmlarga qarab gapirtirish, matn ustida savol-javob o’tkazish, chet tilida matn mazmunni gapirtirish, ba’zan chet tilidan ona tiliga tarjima qildirish (yozma) mashqlaridan foydalaniladi. O’qituvchining vazifasi o’quvchilar yangi so’zlarni puxta o’zlashtirishlari, mustahkamlashlari uchun qanday metod, usullardan, vositalardan foydalanishni aniqlash, so’zni og’zaki nutqda qo’llashga o’rgatish uchun nechta va qanday mashqlar va ularni qanday tartibda bajartirishni hal qilishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumaniyozova M. Interfaol metodlar. [Elektron resurs]. – Manba:
2. Ko’chiboyev A. “Chet tillar o’qitishning amaliy metodikasi” hamda Jalolov J. “Chet tili o’qitishning metodikasi” kitoblari
3. Nishanbayeva A. Sharq tillarini o’qitish metodikasi ( dariy, fors va pashtu tillari). - O’quv-uslubiy majmua.T,: 2020, 16-17-betlar.
4. Общая психология. / Под ред. А. В. Петровского, 2-е изд.— М.: Просвещение, 1977, 165-bet, (3-е изд. — 1986, o’zbekcha nashr — Toshkent: O’qituvchi, 1992).
5. Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. — М.: Русский язык, 1989. — 132—133 va 137—138-betlar
6. Пассов Е. И. Основы методики обучения иностранным языкам. — М.: Русский язык, 1977. — 144—145-betlar

Elektron resurslar

1. <http://lex.uz>.
2. <http://metodurlari|Sadikov.uz>
3. <http://manzura90.zn.uz/interfaolmetodlar>
4. <http://www.edu.uz>
5. <http://www.ziyonet.uz>

## INSON VA JAMIYAT TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI

Ulasheva Sabina Adham qizi

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ik-323 guruh talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada hozirgi vaqtda inson va ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liq bir qancha muhim masalalar keng muhokama qilingan. Shuningdek, qashshoqlik va tengsizlik, iqlim o'zgarishlari, ta'lim va sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati, gender tengligi va ayollar huquqlari, ruhiy salomatlik va farovonlik, urbanizatsiya va infratuzilma, inson huquqlari va ijtimoiy adolat va boshqa asosiy masalalarni ko'rib chiqamiz.*

**Kalitso`zlar.** *Farovonlik, imkoniyat, ekologiya, ijtimoiy, salohiyatlar, huquq, sog'liq, urbanizatsiya, infratuzilma, adolat, jamiyat, hukumat, tashkilotlar.*

**Kirish.** Inson va jamiyat taraqqiyoti shaxs va jamiyatlarning farovonligi va taraqqiyotiga yordam beradigan bir-biriga bog'liq bo'lgan keng ko'lamli omillarni o'z ichiga oladi. Bularga: ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy rivojlanish, ekologik barqarorlik, infratuzilma va shaharsozlik, tinchlik va xavfsizlik. Insonlarning ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari ko'pincha xalqaro tashkilotlar, milliy hukumatlar, nodavlat tashkilotlar (NNT) va ommaviy tashabbuslar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu sa'y-harakatlar barqarorlik, inklyuzivlik va inson huquqlariga e'tibor qaratgan holda shaxslar va jamoalarning ko'p qirrali ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

**Qashshoqlik va tengsizlik:** Qashshoqlik va tengsizlik murakkab ijtimoiy muammolar bo'lib, shaxslar, jamoalar va umuman jamiyatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qashshoqlik deganda inson yoki jamiyat uchun oziq-ovqat, boshpana, kiyim-kechak, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish kabi asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan resurslarning yetishmasligi tushuniladi.

Tengsizlik deganda jamiyat ichidagi resurslar, imkoniyatlar va imtiyozlarning teng taqsimlanmaganligi tushuniladi, bu esa daromad, boyluk va asosiy xizmatlardan foydalanishda nomutanosiblikka olib keladi.

Bu nomutanosibliklar ko'pincha kamsitish, ta'lim olishning tengsizligi va cheklangan iqtisodiy imkoniyatlar kabi tizimli va tarkibiy omillarga bog'liq.

Qashshoqlik va tengsizlikni bartaraf etish ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlarni qamrab oluvchi keng qamrovli va ko'p qirrali yondashuvlarni talab qiladi. Bu iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish siyosatini, ta'lim va sog'liqni saqlashga investitsiyalarni, ijtimoiy ta'minot dasturlarini va kamsitishlarga qarshi kurashish hamda teng imkoniyatlarni ilgari surish bo'yicha sa'y-harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

**Iqlim o'zgarishi:** Iqlim o'zgarishi deganda Yer iqlimidagi sezilarli va uzoq muddatli o'zgarishlar, jumladan, global haroratning ko'tarilishi, ob-havo sharoitlarining o'zgarishi va tez-tez va jiddiy ekstremal ob-havo hodisalari tushuniladi. Bu o'zgarishlar, birinchi navbatda, inson faoliyati, xususan, karbonat anhidrid va metan kabi issiqxona gazlarining

chiqarilishi bilan bog'liq bo'lib, ular Yer atmosferasida issiqlikni ushlab turadi va global isishga hissa qo'shadi.

Iqlim o'zgarishining oqibatlari keng qamrovli bo'lib, dengiz sathining ko'tarilishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, kuchliroq qurg'oqchilik va jazirama to'lqinlar va tabiiy ofatlarning ko'payishini o'z ichiga oladi..

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish global va mahalliy darajada muvofiqlashtirilgan va barqaror harakatlarni talab qiladi. Bunga issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, energiya samaradorligini oshirish, yerdan barqaror foydalanish va resurslarni boshqarishni rag'batlantirish kiradi.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va uning ta'sirini kamaytirishda jismoniy shaxslar, korxonalar va hukumatlarning o'z o'rnini bor. Kollektiv harakatlarni amalga oshirish va ekologik ongli tanlovlarni amalga oshirish orqali biz iqlim o'zgarishini yumshatish va kelajak avlodlar uchun sayyorani himoya qilish yo'lida harakat qilishimiz mumkin.

Ta'lim va sog'liqni saqlashdan foydalanish: Ta'lim va sog'liqni saqlashdan foydalanish - bu insonlar va jamiyatlarning farovonligi va rivojlanishi uchun muhim bo'lgan asosiy inson huquqlari. Mana bu ikki muhim sohaning qisqacha sharhi:

#### 1. Ta'lim:

- Sifatli ta'lim olish shaxsiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot uchun juda muhimdir. U shaxslarning imkoniyatlarini kengaytiradi, qashshoqlikni kamaytiradi va gender tengligiga erishishda muhim rol o'ynaydi.

- Ta'lim olishdagi qiyinchiliklar moliyaviy to'siqlar, infratuzilmaning etishmasligi, madaniy me'yorlar, ziddiyatli yoki inqirozli vaziyatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

- Ta'lim olish imkoniyatini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlar maktablar qurish, stipendiyalar va moliyaviy yordam ko'rsatish, hamma uchun inklyuziv va teng ta'limni ta'minlash va umrbod ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, chekka yoki kam ta'minlangan hududlarda ta'limga kirishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

#### 2. Sog'liqni saqlash:

- Tibbiy yordam olish inson salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish va o'z vaqtida davolanish uchun zarur bo'lgan asosiy huquqdir.

- Tibbiyotdan foydalanishdagi to'siqlar orasida moliyaviy cheklovlar, sog'liqni saqlash infratuzilmasi yo'qligi, malakali tibbiy mutaxassislarning etishmasligi va geografik yoki ijtimoiy omillar mavjud.

- Tibbiyotdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash sog'liqni saqlash muassasalarini qurish va jihozlash, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash, tibbiyot xodimlarini o'qitish, tibbiy sug'urta qamrovini kengaytirish, aholining sog'lig'i haqida xabardorligini oshirish va profilaktika yordamini oshirish kabi tashabbuslarni o'z ichiga oladi.

- Bundan tashqari, texnologiya va telemeditsina sog'liqni saqlash xizmatlarini kam ta'minlangan aholiga, xususan, chekka yoki qishloq joylarda ko'rsatishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Ta'lim va sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash bo'yicha sa'y-harakatlar ko'p qirrali bo'lishi va nafaqat infratuzilma va resurslar, balki ijtimoiy va tizimli to'siqlarni ham bartaraf etishi kerak. Hukumatlar, nodavlat tashkilotlar va xalqaro agentliklar o'rtasidagi hamkorlik barqaror yechimlarni ishlab chiqish va har bir inson sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Kelajak avlodning yaxshi sharoitda o'sib ulg'ayishi va ta'lim tarbiya olishi hamda sog'lom turmush tarzida rivojlanishini uchun ham asosiy omil hisoblanadi.

Gender tengligi va ayollar huquqlari: Gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish adolatli va adolatli jamiyat barpo etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu muhim mavzu bo'yicha ba'zi muhim fikrlar:

1. Huquqiy va ijtimoiy tenglik:

- Gender tengligi jinsidan qat'i nazar, barcha shaxslarning teng huquq, imkoniyatlar va qonun ostida himoyalanihini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu ta'lim, ish bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishdan teng foydalanishni o'z ichiga oladi.

- Gender tengligiga erishishga qaratilgan sa'y-harakatlar, shuningdek, tengsiz ish haqi, gender asosidagi zo'ravonlik, yosh nikohlar va resurslardan foydalanish cheklanganligi kabi jinsga asoslangan kamsitish va zararli amaliyotlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Vakolat va yetakchilik:

- Gender tengligiga erishish uchun ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu ta'lim olish, malaka oshirish, iqtisodiy imkoniyatlar va jamiyatning turli sohalarida etakchilik rollarini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

- Siyosat, biznes va jamoat tashkilotlarida ayollar yetakchiligi va ishtirokini rag'batlantirish gender tengligiga ta'sir ko'rsatadigan siyosat va qarorlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Salomatlik va reproduktiv huquqlar:

- Ayollarning salomatligi va reproduktiv huquqlarini himoya qilish ularning farovonligi va mustaqilligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Bu sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, reproduktiv salomatlik bo'yicha ta'lim, oilani rejalashtirish va o'z tanasi haqida qaror qabul qilish huquqini o'z ichiga oladi.

- Onalar salomatligini mustahkamlash, gender asosidagi zo'ravonlikning oldini olish, reproduktiv salomatlik muammolarini hal etish borasidagi sa'y-harakatlar ayollar huquqlarini ta'minlashning muhim tarkibiy qismidir.

Ta'lim va xabardorlik:

- Gender stereotiplariga qarshi kurashish, gender tengligini ta'minlash, zararli amaliyot va munosabatlarga qarshi kurashishda ta'lim va ma'rifiy dasturlar muhim o'rin tutadi.

- Inklyuziv va teng huquqli ta'limni targ'ib qilish, genderni asoslangan zo'ravonlikni bartaraf etish va ijobiy gender normalarni rag'batlantirish orqali jamiyatlar ayollar huquqlari va gender tengligini ta'minlashga hissa qo'shishi mumkin.

Global majburiyatlar va advokatlik:



- Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW) kabi xalqaro konvensiyalar ayollar huquqlarini himoya qilish va rivojlantirish uchun asos yaratadi.

- Milliy va xalqaro miqyosdagi targ‘ibot-tashviqot ishlari siyosatdagi o‘zgarishlar, huquqiy islohotlar va gender tengsizligini bartaraf etish va ayollar huquqlarini himoya qilish uchun resurslarni taqsimlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Gender tengligini ta‘minlash va ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan sa‘y-harakatlar huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olgan holda keng qamrovli bo‘lishi kerak. Bu hamma uchun yanada inklyuziv va teng huquqli dunyo yaratish uchun hukumatlar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, xususiy sektor va shaxslarning sadoqatini va hamkorligini talab qiladi. Gender tenglikning asosiy mohiyati shundan iboratki, xotin-qizlar va ayollarning o‘z huquqlarini himoya qila olishlari va ularga beriladigan imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishlari nazarda tutiladi.

Inson huquqlari va ijtimoiy adolat: Inson huquqlari va ijtimoiy adolat barcha shaxslarning farovonligi va qadr-qimmatini ta‘minlash uchun asos bo‘lgan o‘zaro bog‘liq tushunchalardir.

1. Inson huquqlari: Inson huquqlari irqi, millati, etnik kelib chiqishi, tili, dini yoki boshqa har qanday holatdan qat‘i nazar, barcha insonlarga xos bo‘lgan umuminsoniy huquqlardir. Ular fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni o‘z ichiga oladi va xalqaro shartnomalar va xalqaro odat huquqida mustahkamlangan. Inson huquqlariga misol qilib yashash, erkinlik, xavfsizlik, ta‘lim, mehnat, qiynoq va kamsitishlardan xoli bo‘lish huquqini keltirish mumkin.

2. Ijtimoiy adolat: Ijtimoiy adolat jamiyatning barcha a‘zolariga nisbatan adolatli va xolis munosabatda bo‘lishini anglatadi, xususan, u jamiyat ichidagi boylik, imkoniyatlar va imtiyozlarni taqsimlash bilan bog‘liq. U turli yo‘nalishlarda, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda tenglik va tenglikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ijtimoiy adolat tashabbuslari tizimli tengsizliklar va kamsitishlarni bartaraf etishga intiladi.

Inson huquqlari barcha sohalarda o‘z aksini topganligi hammamizga ma‘lum. Inson o‘z huquqlaridan foydalanishlari va har qanday masalada ijtimoiy adolatda bo‘lishlarini xohlaydilar va shunga intiladilar.

**Xulosa.** Hozir O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa yosh avlodning ma‘naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqloq mafkurasi asosida tarbiyalash, o‘zbek xalqining boy madaniy va ma‘naviy merosi, qadriyatlarini, an‘analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdir.

Bu muammolar hukumatlar, tashkilotlar va shaxslardan barcha uchun barqaror va inklyuziv rivojlanishga e‘tibor qaratgan holda hal qilish uchun birgalikdagi sa‘y-harakatlarni talab qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. World Bank. "World Development Report 2019: The Changing Nature of Work." World Bank Publications, 2019.
2. United Nations. "The Sustainable Development Goals Report 2021." United Nations, 2021.
3. Marmot, Michael. "The Health Gap: The Challenge of an Unequal World." Bloomsbury Publishing, 2015.
4. Deaton, Angus. "The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality." Princeton University Press, 2013

**XIZMATLAR SOHASIDAGI KORXONALARNING XAVFSIZLIGINI  
TA`MINLASH ZAMONAVIY USULLARI****Shodmonova Zubayda Ubaydullayevna***O`qituvchi, Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti***Usmonov Sunnatillo Berdiquil o`g`li***Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti IK-K-122-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko`rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanishi hamda xizmat ko`rsatish intensivligini ta`minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida dolzarb masala hisoblanadi. Korxonalarining xavfsizligini ta`minlash, xizmatlar sohasida juda muhim bo`lib, zamonaviy texnologiyalar va usullar foydalanilishi zarur. Bugungi kunda, korxonalarining axborotlarini, ma`lumotlarini va tizimlarini himoya qilish uchun ko`p xizmatlar mavjud. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy jihatdan sanoat ishlab chiqarishiga qaraganda ancha samaralidir, chunki xizmatlar sohasida boshlang`ich faoliyatni amalga oshirish kamroq mablag`larni talab qilib, kapitalning aylanish tezligi ancha yuqori hisoblanadi.

**Kalit so`zlar:** zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish, iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi.

**Kirish.** Xizmat ko`rsatish sohasida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish xo`jalik yurituvchilar faoliyatlari natijasini aks ettiradi, ijtimoiy samaradorlik esa iqtisodiy subyektlarning ijtimoiy samaradorligini, uni jamiyat hayotining turli tomonlariga ta`sirini aks ettiradi. Bunda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik muayyan darajada o`zaro bog`liq holda aniqlandi. Shuningdek, servis iqtisodiyotida xizmatlar alohida guruhlari bo`yicha tasniflandi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida servis xizmatlari soni va sifatiga qo`yilayotgan talablar oshib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasining qo`llanishi xizmatlarga bo`lgan talabning oshishiga olib keldi. Bu, o`z navbatida, iste`mol bozori tarkibida o`zgarishlarni vujudga keltirdi.

Aholining ayrim qatlamlarining moddiy farovonligi oshishi natijasida xizmatlarga nisbatan o`zlarining talablari va ehtiyojlari mavjud bo`lgan iste`molchilarning yangi kategoriyasi vujudga keldi. Moddiy jihatdan ta`minlangan iste`molchilar o`zlarining hayot qulayliklarini oshirishni ta`minlaydigan turli assortimentdagi xizmatlarga ancha talabgor hisoblanishadi. Shu sababli ayrim xizmat ko`rsatish korxonalarini o`z faoliyatlarini aynan aholining shu talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratadilar

Bunday xavfsizlikni ta`minlash uchun, korxonalarining barcha qurilmalarining zamonaviy antivirus dasturlari bilan o`ralishi juda muhim. Shunga ko`ra, xizmat ko`rsatish korxonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini

oshirish, resurslardan samarali foydalanish, mehnat salohiyati samaradorligini ta'minlash, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini to'liqroq qondirish bilan bog'liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi.

Ushbu dasturlar, xavfsizlik holatini uzatish, virus va zararli dasturlarni aniqlash va o'chirish imkonini beradi. Shuningdek, ma'lumotlar saqlash uchun muntazam zahiralarni o'rnatish, axborot almashish kanallarini himoya qilish ham muhimdir. Korxonalar xodimlari va hamkorlari uchun xavfsizlik so'rovlarni amalga oshirish juda muhim. Xavfsizlik so'rovlariga jiddiy e'tibor berish, parollar va kirish ma'lumotlarini himoya qilish, hujumga qarshi tindash va iloji boricha yonuvchilarni o'rganish, xavfsizlikni yuqori darajada ta'minlashda yordam beradi. Yana, korxonalar xavfsizlik sohasida xizmat oladigan loyihalarni zamonaviy himoya usullari bilan yaratish ham muhimdir. Hujumga qarshi tindash, ma'lumotlar yig'ishini himoya qilish, sayt va texnika mulki himoya qilish, xavfsizlik tuzilmalarini nazorat qilish – bular ham xizmatlar sohasidagi korxonalar xavfsizligini ta'minlashda juda muhim amallardir.

Navbatdagi bosqich esa, korxonaning xavfsizlik sohasidagi mustahkamlarini nazorat va baholashdan iborat. Regulyar nazorat va sinovlar, xavfsizlik yaqinida chiroyli o'zgarishlar aniqlash va ularga tez va samarali javob berish imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida iqtisodiy o'sish omillarini sifat va miqdoriy jihatdan baholash, ushbu omillarning har birining xizmat ko'rsatish soha va tarmoqlari o'sishiga qo'shayotgan hissasini aniqlash hozirgi kunda ham muhim ilmiy masala bo'lib hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan mualliflarning asarlarida turli xil omillarning sohani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda xizmat ko'rsatish korxonalarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishlari tizimli ravishda o'rganilmagan. Shunga ko'ra, tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari tadqiq etilgan. Xizmat ko'rsatish sohasini tadqiq etishda, avvalo, ushbu sohaning qanchalik o'ziga xos ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Buning sababi shundaki, xizmat ko'rsatish korxonalar va tashkilotlari, shuningdek, ushbu sohada ishlayotgan xodimlar aholining moddiy, ijtimoiy, kundalik va ma'naviy ehtiyojlarining katta qismini qondirishga qodirdir. Xizmat ko'rsatish sohasiga umumiy tavsif berish hamda ushbu sohada faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarining o'rni va ahamiyatini aniqlash uchun, avvalo, "ish" va "xizmat" kabi tushunchalarni ko'rib chiqish hamda bu ikki tushuncha o'rtasidagi chegaraning mavjudligini inobatga olgan holda, ularning aniq ta'riflarini keltirish lozim, chunki ularning iqtisodiy mohiyati o'xshash bo'lsa-da, huquqiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Xizmat ko'rsatish korxonalar faoliyatining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlar va jihatlarga egadir. Shunga ko'ra, muayyan omillar ta'sirini ifodalovchi mazkur soha rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini nazariy jihatdan yoritib berish alohida ahamiyatga egadir. Bugungi kungacha xizmatlarning yaxlit ma'noga ega ta'rifi mavjud emas. Bugun korxonalar o'rtasida raqobatni har jabhada ko'rishimiz mumkin. Har bir korxonalar raqobatda yutib chiqish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladi.

Hozirgi vaqtda axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat korxonalar faoliyatida, balki har bir informatsion texnologiyalardan foydalanuvchi boshqa soha vakillari uchun dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu bois korxonalar faoliyatini bir maromda amalga oshirish uchun axborot xavfsizligini taminlash bu juda muhim masaladir. Gapimizni misol bilan davom ettirmoqchimiz. Bunga misol qilib bir korxonalar ishlab chiqaryotgan mahsulot tannarxini sir saqlashini aytib o'tishimiz mumkin. Agar bu oddiy jadval raqamli axborot tarzda saqlanyotganini xisobga olsak, bu axborotni yaxlit saqlash korxonalar uchun qanchalik muhimligini aytmasak ham bo'ladi. Bundan tashqari hozirdalikda faoliyat olib borayotgan yirik banklar hakerlar xujumiga uchrab kelayotgani ham sir emas. Yana bir misol bugun axborot texnologiyalari bilan birga kiberhujumlar ham rivojlanib, turlari ko'payib boryapti. Ayniqsa, hozir ijtimoiy injiniringni qo'llagan holda amalga oshiriladigan kiberhujumlar soni ortmoqda. Ulardan himoyalaniish esa bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Umuman olaganda axborot xavfsizligini ta'minlashga to'siq bo'layotgan muommalardan misol keltirib o'tsak. Hozirgi vaqtda axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy muommolariga biz axborotning ko'pligi va qayta ishlashning murakkabligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Axborot oqimining ko'pligi uni himoya qilishga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra muayyan tavsifni aniqlashda moddiy ne'matlarga nisbatan farqli ravishda xizmatlarni ijtimoiy ahamiyati va iqtisodiy natijasi bo'yicha tavsiflash alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatda xizmatlarning muhim xususiyati sifatida kishilar ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyat hisoblanib, konkret faoliyat shakli yoki turining pirovard natijasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xizmat ko'rsatish jarayonida sifat ko'rsatkichlari alohida o'rin tutadi hamda ular doimiy o'zgarish va takomillashtirish jarayonida bo'ladi. Asosiy bazaviy parametrlar sifatida quyidagilarni olish mumkin: xizmat ko'rsatish vaqti (iste'molchi xizmat ko'rsatuvchi bilan o'zaro aloqada bo'lgan vaqt davri); xizmatni bajarish vaqti (xizmatni bajarish uchun belgilangan vaqt me'yori).

Xizmatning iste'molchisiga ta'sir ko'rsatadigan barcha sifat parametrlari tashkilotning quyidagi ikkita ichki hujjatlarida qayd etilishi va korxonada sifat nazorati xizmati tomonidan doimiy nazoratida bo'lishi kerak: xizmat ko'rsatish qoidalari – xizmat ko'rsatish tartibi va shartlarini tartibga soluvchi talablar va standartlarni o'z ichiga olgan hujjat; xizmat ko'rsatish shartlari – xizmat ko'rsatish jarayonida iste'molchiga ta'sir ko'rsatadigan omillar majmuyini tavsiflovchi hujjat.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, xizmat sifatini aniqlashda muayyan qiyinchiliklar mavjud, chunki iste'molchida uni baholash uchun aniq mezonlar mavjud emas. Biroq yuqorida aytib o'tilganidek, ishlab chiqaruvchi buni hisobga olishi kerak. Turli xil odamlar uchun sifatli xizmat va xizmat ko'rsatish sifati bir xil narsani anglatmaydi. Hatto xaridor sifatli xizmat deganda nimani anglatishini sotuvchilar tushungan taqdirda ham, nostandart kelishmovchiliklarning oldini olishga qaratilgan xizmatni boshqarishda muammolar mavjud. Xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat turlari iqtisodiyotning deyarli barcha sohalariga kirib borgan, shuning uchun xizmat ko'rsatish sohasi chegaralarini aniq belgilash

juda mushkul. Aslida, bu haqiqatan ham xizmat ko‘rsatish faoliyatining “ommalashtirish sohasi” bo‘lib, u iqtisodiyotning ayrim sohalarida asosiy hisoblanadi, boshqalarida esa qisman ishtirok etadi, masalan, tog‘-kon sanoati va ishlab chiqarish sanoatida.

Shunday ekan, xizmat ko‘rsatish sohasining eng muhim xususiyati uning xilma-xilligi, statistika fani va amaliyot uchun uning “chegaralarini” belgilash muammosi juda dolzarbdir, chunki ushbu hodisani talqin qilishning noaniqligi milliy va jahon iqtisodiyotining tuzilishini aks ettirganda bevosita namoyon bo‘ladi, iqtisodiy rivojlanish natijalari, uning iqtisodiy o‘rinish sifati va aholi hayoti, iqtisodiy faoliyat turlarining butun majmuasi, turli darajadagi iqtisodiy jarayonlar, shu jumladan, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va mintaqalari bo‘yicha statistik ma‘lumotlarning izchilligi va integratsiyalashuvi asosida ma‘lum bir mamlakat reytingi aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish jarayonlarini intensivlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon xizmatlarni ishlab chiqarishda innovatsion boshqarish usullari va texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Mazkur jarayon nafaqat xizmat ko‘rsatishning innovatsion omillaridan foydalanishni, balki ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini ham oshirib boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Одегов Ю.Г., Абдурахманов К.Х., Котова Л.Р. Оценка эффективности работы с персоналом: методологический подход: Учебно-практическое пособие. – Москва: Издательство «Альфа-Пресс», 2011. – 752 с.
2. Шумпетер Й.А. История экономического анализа в 3 тт. – Санкт-Петербург: Экономическая школа, 2004.
3. Волгин А.П. Управление персоналом в условиях рыночной экономики: Учебник – Москва, 2009.
4. Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. – Москва: КНОРУС, 2007. – 328 с.



**O‘RTA ASRLARDA TIBBIYOTNING RIVOJLANISHIGA HISSA QO‘SHGAN  
O‘RTA OSIYOLIK OLIMLAR****Qurbonov Abdulaziz Abduraxmon o‘g‘li***Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali*

**Annotatsiya:** *Abu Mansur Qamariy, Umar Chag‘miniy, Ismoil Jurjoniy va O‘rta asrlarda tibbiyotning rivojlanish etaplari haqida gap yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *“Dorilar xazinasi”, “Travmatologiya”, “Xorazmshoh xazinasi”*

Asosiy qism: Abu Mansur Qamariy, to‘liq ismi Abu Mansur Xasan ibn Nux-al-Qamariy uning yashagan sanasi noma‘lum, ammo bu sana Abu Ali ibn Sinoning o‘smirlik davrlariga to‘g‘ri keladi (X ning oxir XI ning bosh ). Shuningdek, u Abu Mansur Buxoriy nomi bilan ma‘lum bo‘lib , Buxoro amirining shaxsiy shifokori bo‘lgan. Uning mashhur asarlari “Ksallik va kasallar”, “Ko‘krak qafasi kasalliklarini davolash haqida”, Qorin vodyankasi haqida”, “Mansurning tibbiyoti”, “Oddiy dorilar haqida katta jamlanma”, “Boylik va farovonlik”, kabilar kiradi. “Kasallik va kasallar” kitobida kasallik va sog‘lik muammolarini ochish, odam organizmi xususiyatlari, mijoz tushunchasini yoritib bergan. Qamariy “boylik va farovonlik” asarida sog‘lik bu farovonlik deb hisoblaydi; kasalliklar haqida yozadi (ichki va tashqi, isitmalar); tashhislash va davolash usullari haqida, shuningdek, sog‘lik birinchi navbatda sog‘lom turmush tarziga bog‘liqligi to‘g‘risida yozilgan.

Umar Chag‘miniy (Maxmud ibn Muhammad ibn Umar Chag‘miniy) – hozirgi Buxoro hududidagi Chag‘min qishlog‘ida tug‘ilgan. Tug‘ilgan yili aniq emas, 1221-yil urganchda vafot etgan. Yoshligida u Urganchga ko‘chib kelgan, va u yerda ta‘lim olgan va shifokor sifatida tanilgan. Keyin o‘zini malakasini oshirish uchunsamarqandga ko‘chadi va ko‘p fanlarni o‘rganadi – astronomiya, matematika, fizika, falsafa, tibbiyot. Urganchga qaytgach o‘zini ilmiy faoliyatini davom ettiradi va bir qancha noyob asarlar yozadi. U Kopernikdan bir necha yuz yil avval quyosh sistemasini geliosentrik tuzilishi haqida va fasllarning almashinishi yerning quyosh atrofida aylanishi bilan bog‘liqligi haqida aytgan. U yerning radiusini va aylanasini, oygacha bo‘lgan masofani hisoblagan. Tibbiyotda u o‘sha vaqtning eng tajribali shifokori sifatida mashhurlikka erishgan. U “Kichik qonun” kitobini yozgan, ba‘zi olimlar uni Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarining qisqartirilgan shakli deb hisoblashadi. Kitob 10 bobdan iborat bo‘lib ular esa bo‘limlarga bo‘lingan. Kitobda amaliy va uslubiy tibbiyot savollari yoritilgan. Kitobda geografiya, anatomiya, gigiyena, ovqat va suyuqliklar, ularni iste‘mol qilish va organizmga ta‘siri haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga kitobda tashqi va ichki a‘zolari, teri kasalliklari va boshqa kasalliklarni davolash haqida yozilgan. O‘z vaqtida kitob tabiblar orasida katta mashhurlikka ega bo‘lgan.

Ismoil Jurjoniy (Zayniddin Abu Ibrohim Ismoil ibn Xasan ibn Axmad al-Husayn al-Jurjoniy). 1080-yil Eronning Gurgan (Jurjon) shahrida tug‘ilgan, 1141-yil mavrda vafot etgan. Lekin, M.A Gaidov fikriga ko‘ra uning tug‘ilish joyi Xorazm hududidagi Jurjoniyadir. 1110-yil u Urganch shohi Qutbiddin Muhammad Anush Teginning saroy shifokori bo‘lgan. Bu uning hayotining eng sermahsul paytlari edi: u saroy bo‘yidagi shifoxona va dorixonani boshqarardi, saroy shifokori sifatida ilmiy va amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadi, kitob yozadi. Bir necha vaqtdan so‘ng u Mavrga keladi, shu yerda umrining oxirigacha yashaydi. Uning quyidagi tibbiyotga oid asarlari mavjud: “Xorazmshoh xazinasi”, “Kasalliklarni aniqlash usullari”, “Ibn Sino haqida so‘z”, “Tibbiyotning mohiyati”, “Dorilar xazinasi”.

“Xorazmshoh xazinasi”- organizm anatomiyasi va fiziologiyasidan boshlab, kasalliklarga tashxis qo‘yish va davolash haqida 600 betdan ortiq ensiklopedik asardir. Bu kitobda salomatlikni saqlash uchun kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlari muhimligi haqida aytib o‘tilgan. Uning fikriga ko‘ra odam tabiatning bir qismi bo‘lib, u tabiat bilan uzviy bog‘liq. Ko‘p narsalarda uning fikri Ibn Sinoning fikri bilan to‘g‘ri keladi. Bu kitobni ichki kasalliklar propidevtikasi, travmatologiya, xususiy patalogiya va terapiya bo‘yicha qo‘llanma deb hisoblasa bo‘ladi.

“Dorilar xazinasi” nomidan ko‘rinib turganidek, farmakologiya va dorishunoslik haqidagi asardir. “Tibbiyotning mohiyati” bu amaliy tibbiyot bo‘yicha asarlar to‘plamidir. Unda qisqa shaklda o‘sha vaqtda eng ko‘p uchragan kasalliklarning simptomlari va davolash usullari yozilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Tibbiyot tarixi” Toshkent-2019
2. X.E.Rustamova, N.K.Stojarova, Sh.A.Abdurashitova,
3. Q.Ch.Nurmamatova
4. “Tibbiyot tarixi” Toshkent-2005 A.A.Qodirov

## YASHIRIN IQTISODIYOTNI JAMIYATGA TA’SIRI

**Turgunboyeva Nozima Muzaffar qizi***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotning jamiyat hamda iqtisodiyotning rivojlanishidagi o‘rni, mazkur sohadagi muammolarning kelib chiqishi, sabablari va taklif etilgan oqibatlari qisqacha sharhlab beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Xufiyona iqtisodiyot, moliyaviy mexanizmlar, integratsiya jarayoni, korrupsion jinoyatlar*

**KIRISH.**

XX asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy tadqiq qilish boshlangan iqtisodiyotning bir bo‘lagi yashirin iqtisodiyot — davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to‘lamaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan, oshkora olib borilmaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va is‘temol jarayonlarini qamrab oladigan iqtisodiy faoliyat turi. Uning negizida ayrim kishilar yoki guruhlarining manfaatlari yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud. Xalqaro valyuta fondi tomonidan tasdiqlangan ba‘zi omillar (soliq tizimidagi murakkablik, biznesni rasmiylashtirishga harajatlar hamda ijtimoiy sug‘urta badallari yuki) yashirin iqtisodiyotga ta‘sir qiladi. Bundan kelib chiqadiki moliyaviy mexanizmlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi sabab bo‘ladi. Ya‘ni narxlar, soliqlar, bojlar, imtiyozlar, jarimalar hamda subsidiyalar iqtisodiyotning bir bo‘lagi bo‘lgan yashirin iqtisodiyot ko‘lamiga bevosita yoki bilvosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasi yuqori bo‘is keyingi yillarda biznesga qo‘shimcha qulayliklar yaratish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish chora-tadbirlari ko‘rilmogda. Xususan, valyuta bozori erkinlashtirilishi, yangi soliq tizimi joriy etilishi, 100 ga yaqin ruxsat berish va litsenziyalash qoidalari qisqartirilishi buning yaqqol dalilidir. Bularning natijasida oxirgi 5 yilda sanoatda norasmiy sektor ulushi 20 foizdan 6 foizga tushgan.

**Adabiyotlar sharhi**

Abdulqosimov H.P va Muminov N.G fikriga ko‘ra, hozirgi vaqtda iqtisodiyot globallasuvi, integratsiya jarayonlarining yanada chuqurlashib borishiga va bu mamlakatlar o‘rtasidagi rasmiy chegaralarning susayib borishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda dunyoning har qanday burchagida yuzaga kelgan ilg‘or (ham yaxshi, ham yomon ma‘noda) usullar jadal ravishda butun dunyoga tarqab ketmoqda. Shuning uchun

iqtisodiyotning xufiyona iqtisodiyotni namoyon bo‘lish shakllari bilan birga ularni aniqlash, baholash usullari hamda unga qarshi kurashish yoki qonuniylashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “Islohotlarimizga jiddiy to‘sqinlik qilayotgan “yashirin iqtisodiyot”ga barham berilmas ekan, sog‘lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, “yashirin iqtisodiyot”ning vujudga kelish omillarini chuqur tahlil qilib, unga qarshi kurashish dasturini tasdiqlasin” deb ta’kidlagan.

Fernando de Sotoning “Boshqa yo‘l” asarida yashirin iqtisodiyotni xalqning korrupsiyalashgan davlatning qashshoqlashayotgan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligiga nisbatan stixiyali va ijodiy reaksiyasi (javobi) deb atadi. U tarnsaksiya xarajatlarini oshkoralik (legallik) va nooshkoralik (nolegallik) asosida guruhlashni taklif etgan.

O‘zbekistonda xufiyona iqtisodiyot ko‘lamining kattaligini norasmiy iqtisodiyot sektorida band bo‘lgan kishilar sonining kattaligini ham ko‘rsatib turibdi. 2020-yil 18- fevral kuni Toshkentda «O‘zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat qurilishining yangi bosqichi, mamlakatni demokratik modernizatsiyalashda parlament va hokimlik vakillik organlarining rolini oshirish» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining o‘rinbosari B.X.Umrzoqov «2020 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, band bo‘lgan aholi soni 13 million 541 ming nafar kishini tashkil etadi. Shundan 5 million yeti yuz ming kishi rasmiy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadi. 8 millionga yaqini esa norasmiy. Ya’ni bu toifadagi insonlar har kuni norasmiy ishlab, cho‘ntagini pulga to‘ldirib uyga borishadi. Bolalari, maktab, bog‘chalar va hokazolarga berishadi. Lekin davlatga bular bir tiyin ham soliq to‘lamaydi, to‘lovlarni qilmaydi. Ya’ni davlatimizning qudratiga, quvvatiga hissa qo‘shmaydigan 8 million aholimiz bor» , – deb ma’lumot berdi. U prezident murojaatnomasida ayni shu toifadagi insonlarni rasmiy sektorga o‘tkazish masalasi qo‘yilganini ta’kidladi.

1991-yilda Jenevada Yevropa statistiklarining norasmiy iqtisodiyotga bag‘ishlangan konferensiyasi bo‘lib o‘tgan. Iqtisodiy adabiyotlarda xufiyona iqtisodiyotga turli ta’riflar berilgan: 1. Yashirin iqtisodiyot qonun asosida man qilingan faoliyat turlari deb ta’riflanadi. 2. Yashirin iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan hamda yashirin faoliyat turi. 3. Xufiyona iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko‘ra hisobga olinmagan har

qanday iqtisodiy faoliyat bo‘lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi.<sup>4</sup>

Bugungi kunda mamlakatimizda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbuslari va bevosita rahnamoligida iqtisodiyotni rivojlantirish va investisiyalarni faol jalb qilish hamda qonun ustuvorligini ta‘minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF- 5953-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2021-2027 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida «yashirin iqtisodiyot»ning ulushini qisqartirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Yashirin iqtisodiyotning bir qancha turlari (masalan, soliq to‘lashdan bosh tortish) davlat tomonidan tartibga solish jarayonidagi ayrim kamchiliklar sababli yuzaga keladi, masalan soliq stavkalari yuqoriligi. Cheklovlarsiz tartibga solish mumkin emas va asossiz cheklovlar ularning buzilishiga olib keladi, ayniqsa bu foydali bo‘lsa.

#### **Tahlil va natijalar**

Bugungi kunda mamlakatimizda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbuslari va bevosita rahnamoligida iqtisodiyotni rivojlantirish va investisiyalarni faol jalb qilish hamda qonun ustuvorligini ta‘minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF- 5953-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2021-2027 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida «yashirin

iqtisodiyot»ning ulushini qisqartirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuningdek,2020-yil 30-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Korrupsion jinoyatlar bilan yashirin iqtisodiyot chambarchas bog‘liqligi sababli,korrupsiyaga qarshi kurashish orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirish mumkin degan xulosaga olib keladi.O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi bu boradagi ilk qadamdir.

<sup>4</sup> : Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодий ҳавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-бет.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotda yashirin iqtisodiyotning ulushi 50%dan ko'proqni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar 2017 yil holatida jahon miqyosida 22.5%ni, Ozarbayjonda- 66.12%,

Ukrainada-46.12 %, Rossiyada-39.29 %, Turkiyada-24.95%, Hindistonda-16.55 %, Xitoyda — 10.17%, AQSHda-7.69 %ni tashkil etadi. Ayni paytda, jahon miqyosida mazkur ko'rsatkichlar 2025- yilga borib pasayib 21%ni tashkil etishi bashorat qilingan

BMT Taraqqiyot dasturi konsultantlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari ham ushbu davra suhbatida e'lon qilindi. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyot miqyosini monetar usullar asosida, shuningdek, respublika hududlarida 700 dan ortiq korxonalar va 30 nafar tadbirkor o'rtasida so'rovlar o'tkazish yo'li bilan baholangan. Xufyona iqtisodiyotning asosiy sabablari soliq turlarining, yig'imlar, majburiy ajratmalar sonining va ular miqdorining ko'pligi ekanligi ta'kidlandi. Ushbu sabablarga korxonalarda yetarli miqdorda mablag'larning yo'qligi, banklar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni va to'lovlarni amalga oshirishdagi, xizmat ko'rsatish sifati, kredit stavkalarining yuqoriligi bilan bog'liq muammolar ham kiradi. Noiqtisodiy tavsifdagi sabablarga tadbirkorlarning bilim va tajribalarining, raqobat, ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli emasligi, biznesni tashkil etish va yuritishdagi ma'muriy to'siqlarning mavjudligi, korrupsiya va mulk huquqining himoya qilinmaganligi kiradi<sup>5</sup>

Ayrim ekspertlarning fikricha, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi hajmi 50 foiz atrofida. Agarda raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, 2019 yilda respublikamizda Davlat budjeti daromadlar qismi 102,6 trln so'mni tashkil qilmoqda. Yalpi ichki mahsulot qiymati 424 trln so'm qilib belgilandi. Shunda ekspertlar fikriga ko'ra, yashirin iqtisodiyotning 50 foiz ulushi 212 trln.so'mni tashkil etmoqda. Ushbu summadan yashirin iqtisodiyotning optimal hajmi 15% ( $424 \cdot 15\% = 64$ )ni chiqarib tashlanganda, 148 trln so'm ( $212 - 64$ ) mablag' iqtisodiyotdan tashqarida aylanayotgani ma'lum bo'ladi. Agarda biz ushbu mablag'ning belgilangan tartibda qonuniy aylanmasiga erisha olsak, Davlat budjetiga soliqlar to'lanishi natijasida qo'shimcha o'rtacha 15-20 trln.so'm (2,3 mlrd AQSh dollariga teng) mablag' tushirilishi mumkin. Bugungi kunda bitta umumta'lim maktabini yangitdan qurish uchun o'rtacha 5 mlrd so'm mablag' sarflanadi. Demak, bir yillik yashirin iqtisodiyot keltirayotgan zararga teng mablag'ni 4 mingga yaqin umumta'lim maktablari qurish yoki aholi turmush sharoitlarini yanada yaxshilash uchun yo'naltirish imkoni paydo bo'ladi<sup>6</sup>

<sup>5</sup> Одилжон Иминов. “Яширин иқтисодиёт”нинг яширинмаган сирлари //http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/67316-yashirin-iqtisodiyotningyashirinmagan-sirlari

<sup>6</sup> Максуд Курбонбоев. Депутат фикри: Яширин иқтисодиётнинг келиб чиқиш сабаблари, жамиятга таъсири ва бартараф этиш йўллари.// <https://kun.uz/news/2019/05/04/deputat-fikri-yashirin-iqtisodiyotning-kelib-chiqishsabablari-jamiyatga-tasiri-va-bartaraf-etish-yollari>



### **Xulosa va takliflar**

Mazkur maqola doirasida amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish va bartaraf etishning ayrim tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi xulosa va takliflar beriladi:

—naqd pullik to‘lovlarni qisqartirish va masofaviy yoki elektron to‘lovlarni rag‘batlantirishga qaratilgan chora tadbirlar;

—jinoiyat kodeksiga ayrim iqtisodiy qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik kiritish

Mazkur chora-tadbirlar iqtisodiy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari yanada takomillashtirish, insofli tadbirkorlarni qo‘llab- quvvatlash, o‘zaro hamkorlik va jamoatchilik nazoratini rag‘batlantirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va oldini olishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Williams, C. C. and Schneider, F. (2016). Measuring the Global Shadow Economy: The Prevalence of Informal Work and Labour. Edward Elgar Publishing, UK

2. Ali o‘g‘li A.O. Statistical study of direct maintenance of small business activities in the regions // EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEER). – 2022. – T. 10. – №. 6. – C. 30–33.

3. ABULQOSIMOV H.P., MUMINOV N.G. ”Xufiyona Iqtisodiyot”

4. <https://lex.uz/docs/-5073459?ONDATE=08.07.2022>

5. <https://yuz.uz/uz/news/yashirin-iqtisodiyotni-qisqartirish-va-korruptsiyaning-oldini-olish-masalalari-muhokama-qilindi>

6. International survey: The shadow economy. F. Schneider, H. Dominic

7. [https://www.researchgate.net/publication/227390150\\_The\\_Shadow\\_Economy](https://www.researchgate.net/publication/227390150_The_Shadow_Economy)

**"TURKISTONDA MA'NAVIY YANGILANISH DAVRI YOQUTLARI"**

**Xolbutayeva Sevinch**

*Qashqadaryo viloyati Koson tumani 34-maktab 8-sinf o'quvchisi*

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston Qrim Kavkaz Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy siyosiy marifiy harakat hisoblangan jadidchilik tuzumi vujudga keldi. Bu tuzumning dastlabki nuqtalari XIX-asrning 80-yillarini qamrab oladi. Tarixiy manbalarga asoslangan holda ushbu tizim Qrimda "Ismoil Gasparali" boshchiligida qrimtarlar o'rtasida vujudga kelganini bildirib o'tishimiz mumkun. Ayni o'sha davrning ziyolilari mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his eta olganliklari Turkistonga jadidchilik tuzumini kirib kelishining asosiy omili sifatida ko'rsata olamiz. Jadidchilik harakati namoyondalari ko'pincha o'zlarini "taraqqiyparvarlar" yokida "jadidlar" deb atashgan. Jadidlar jamiyatni ma'naviy qashshoqlikdan xalos etish kerakligini allaqachon anglab yetishgan edi. Jadidchilik tuzumini asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi.

- Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish.
- Shariatni isloh qilish.
- Xalqqa ma'rifat tarqatish
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash
- Keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish

Asosan, jadidlarning muhim maqsadi Turkistondagi qalami o'tkir adabiyotshunoslarni, huquqshunoslarni, tarixshunoslarni, faylasuflarni, san'atshunos va pedagoglarni mahoratini ommaga olib chiqish edi. Ulardan kelajak avlod uchun ilmiy, adabiy meros qoldirishni asosiy maqsad qilib olgan edilar. Shu bilan birga Turkistonda ilmiy yoshlar sonini ko'paytirish uchun qattiq kurash olib bordilar.

Shubhasiz, bu harakatlar samarasiz ketmadi. Bir qancha vaqt Turkistonda ma'naviy hayotni ta'minlab berdi. Afsuski bu ham uzoqqa cho'zilmadi.

1918-Yilning Fevral oyida Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan qonga botirilgach, jadidchilik harakati kuchli o'zgarishga uchradi.

Sovet rejimida murosa qilishni istamagan jadidlarning katta qismi istiqloqlilik harakati saflarida va yashirin milliy tashkilotlarida faoliyat ko'rsata boshlashdi. Biroq ayrimlari sovet hukumatining idoralarida ishlashga ko'nikishdi. Shu orqali 1920-yildan jadidchilik harakati o'z taraqqiyotining yanggi bosqichiga ya'ni sovetlar bilan murosa yo'lga qadam qo'ydi. Ayni davrda yozilgan ko'pgina asarlar, qo'lyozmalar, ilmiy maqolalar Sovet hukumati

tomonidan qoralana boshlandi. Endi rostakamiga ma'naviy yuksalish uchun kurashayotgan jadidchilik tuzumi jar yoqasiga kela boshlagan edi. Sababi shuki, 1929-yilning noyabr oyida Munavvarqori boshchiligida 38 kishining qamoqqa olinishi keyinchalik bu miqdor 87 nafarga oshgani jadidchilik harakatiga kuchli zarba berdi. Keyinchalik, Sovet hukumatining siquvi ortidan jadidchilik tuzumida sezilarli darajada salbiy silkinish ro'y berdi. Ayrim jadidlarning bir qismi faol siyosiy hayotdan uzoqlashib, faqat badiiy ijod bilan shug'ullanishni boshlashdi. Ba'zilar sovet idoralari madaniy-ma'rifiy shohobchalarda mehnat qilishdi. Ayrimlari esa xorijga muhojirlikka jo'nashdi. Bu bilan yaqqol ko'rinib turibdiki Turkistondagi ma'naviy hayotga qarshiliklar tobora oshib bordi. O'z davrida ko'plab qiyinchiliklarni boshdan o'tkazdi. O'zbekiston o'z Mustaqilligiga erishgandan so'ng Jadidchilik tuzumi yangicha talqinda rivojlana boshlandi. Yuqorida anglaganimizdek Sovet davrida yozilgan adabiyotlarning deyarli barchasi qatag'onga uchradi. Shuningdek SSSR parchalanib ketganidan so'ng jadidchilik harakati va uning namoyondalarining haququqlari yana qayta tiklandi. Sovet ittifoqi davrida yer qilingan jadidchilik tuzumi harakatlari Mustaqillik davriga kelib munosib baholandi. Mustaqillik yillarida Fitrat Cho'lpon Abdulla Avloniyning ikki jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy So'fizodaning bir jildli, shuningdek Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Butun jahon "Jadidchilik tuzumi harakatlarini" jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligini tan olishdi. Yana shuni aytib o'tish kerakki Jadidlarni Turkiston jamiyatining haqiqiy yoqut ko'zlari deya bemaolol faxr bilan e'tirof etish mumkun.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. *Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences*, 4(5), 42-47.
2. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. *JournalNX*, 7(1), 311-314..
3. Ibragimovich, T. I. (2024). PEDAGOGICAL PROCESSES AND IMPORTANT ASPECTS OF ITS CREATION. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(1), 56-62.

**ANGLO-SAKSON VA ISLOM HUQUQ TIZMIDA “LIZING” TUSHUNCHASINING  
IFODALANISHI****Muhammadnur Murodxonov***O‘zbekiston xalqaro islom akadmeiyasi, talaba.**E-mail: [murodkhonovmukhammadnur@gmail.com](mailto:murodkhonovmukhammadnur@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti moslashuvchan, raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishga, ishlab chiqarilayotga tovarlarni talabga mos ravishda ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun korxonalar zamonaviy uskunalari kabi turli xil maxsus qurilmalarga ehtiyoj oshib borishi tabiiy, bu esa katta miqdorda investitsiya talab qiladi. Bu paytda korxonalar uchun yangi investitsiya manbalarini izlab topish zarur. Yuzaga kelgan vaziyatda respublikamiz uchun an’anaviy bo‘lmagan yangi investitsiya manbalarini izlab topish zarur. Oxirgi yillar mobaynida asosiy ishlab chiqarish fondlarini sotishning asosiy shakllariga muqobil sifatida lizing faoliyati namoyon bo‘lmoqda. U tadbirkorlikda yangi, yanada kuchli motivatsion stimullarni yaratadi, ishlab chiqarishga yangi texnikalarni kiritishni tezlashtirishga ko‘maklashadi. Aynan ushbu kurs ishida lizingni kun tartibidagi asosiy mavzu ekanligidan kelib chiqib, uni milliy va xalqaro asoslar bilan tahlil qilinadi. Lizing nafaqat bizning mamlakatimizda balki, butun dunyoda keng ommalashgan shartnomalardan biri hisoblanadi. Bozor munosabatlari mamlakatimizda turli mulk shakllarining bir xilda amal qilishini ta’minlash bilan birga, mulkiy munosabatlarning kengayishiga, tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga, mulkdorning o‘z mol-mulklarini turli vositalar orqali muomalaga kiritishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Lizing, Mulk huquqi, Anglo-sakson huquq tizimi, islom huquqi, shartnoma*

Mulk huquqi dunyoviy huquqning asosiy qismini tashkil qiladi. Bu konsepsiya va qarashlar barqaror va uzoq muddatlar uchun xizmat qiladi<sup>7</sup>. Umumiy huquq (anglo-sakson huquqi) uy egasi-ijarachi qonunchiligidagi eng muhim o‘zgarish ijaraga olingan binolarning sifati uchun javobgarlikni bekor qilishni o‘z ichiga oladi. Bunda ijarachining an’anaviy ogohlantirish usuli<sup>8</sup> va

<sup>7</sup> Minnesota Mining Co. c. National Mining Co., 70 U.S. (3 Wall.) 332, 334 (1865). “Uniformity and certainty in rules of property are often more important and desirable than technical correctness”. Rock Spring Distilling Co. v. Gaines & Co., 246 U.S. 312, 320 (1918) (quoting Layton Pure Food Co. c. Church & Dwight Co., 182 F. 35, 39 (1910)). See Heyert v. Orange & Rockland Utils., Inc., 17 N.Y.2d 352, 359-63 (1966). For an application of these ideas in the leasehold context, see Gruman v. Investors Diversified Servs., Inc., 247 Minn. 502, 509-10, 78 N.W.2d 377, 381-82 (1956).

<sup>8</sup> E.g., Civale v. Meriden House. Auth., 150 Conn. 594, 192 A.2d 548 (1963); Smithfield

majburiyatni ta'minlash kabi masalalarni qamrab oladi. Hozirgi kunda sudyalarning ham talabi turar-joy uchun yaroqli bo'lishi hamda, ijara to'lovini amalga oshirish kerak degan fikrda<sup>9</sup>.

Aksariyat odamlar, hayotining biron bir bosqichida, boshqa birovdan mulk ijaraga oladi yoki ijaraga beradi. Ko'chmas mulkdan foydalanish va egalik qilish huquqini olish uchun ijaraga berish yaxshi variantdir, chunki uni sotib olishdan ko'ra kamroq xarajat va ko'proq moslashuvchanlikka ega bo'ladi. Lizing - bu sotib olishning muqobil usul hisoblanadi. Ijaraga olish shartnomasini tuzish va bekor qilish, uning olish muddati qancha davom etishiga ta'sir qilishi mumkin. Umumiy huquq ijaraning bir qancha turlarini ochib beradi. Ijaraga olishning to'rtta asosiy turi mavjud:

- 1) Yillar muddati;
- 2) Davriy ijara;
- 3) Uy-joyni ijaraga olish;
- 4) Yashash muddati;

ijara shartnomalari belgilangan muddatga amal qiladi ya'ni belgilangan sanada avtomatik ravishda tugaydi. Ijaraga olish muddati bir yil, bir necha yil yoki bir yil bo'linmasi bo'lishi mumkin **Davriy ijara** shartnomalari muayyan muddatga cheklanmagan muddatga amal qiladi va tomonlardan biri ikkinchisini bekor qilish niyatidan xabardor qilmaguncha avtomatik ravishda yangilanadi. Davriy ijara shartnomalari odatda yillik ijara shartnomasi yoki oylik ijara shartnomasi sifatida ko'rsatiladi, ammo ijara shartnomasining aniq muddati tomonlarning xohishiga bog'liq. Muddatli ijara shartnomasini bekor qilish niyati to'g'risida boshqa tarafga zudlik bilan xabar berish kerak, bu ijara shartlariga qarab o'zgaradi. Yildan-yilga ijara shartnomasi bo'yicha, joriy yillik davr tugaguniga qadar olti oy oldin xabar berish kerak. Oylik uchun faqat bir oylik muddat talab etiladi. Ijara shartlari ikkalasi o'rtasida bo'lsa, bekor qilish sanasidan oldin to'liq muddatni bekor qilish kerak. Agar ijaraga oluvchi mulk egasining roziligi bilan, muddat belgilangan ammo, davriy to'lovlar to'g'risida hech qanday shartnoma tuzmasdan mulkka egalik qilsa, ixtiyoriy ijara tuziladi. O'z xohishiga ko'ra ijara, har bir tomon uning davom etishiga mos kelmaydigan harakatni amalga oshirmaguncha davom etadi. Uning davom etishiga zid bo'lgan harakat, ijarachi egalik qilishni talab qilishi yoki ijarachi to'lovni to'xtatishi yoki mulkni mutlaq ravishda bo'shatishi kerak bo'ladi. Agar ijaraga oluvchi ijara shartnomasi tugaganidan keyin ham mulkka ega bo'lib qolsa, ijaraga olish huquqi paydo bo'ladi. Ijara

Improvement Co. c. Coley-Bardin, 156 N.C. 255, 72 S.E. 312 (1911); Hart v. Windsor, 12 M. & W. 84, 152 Eng. Rep. 14 (1843); 2 M. FRIEDMAN, LEASES 392-93 (1974); 2 R. POWELL, REAL PROPERTY – § 233 (1977). See infra notes 225-29 and accompanying text.

<sup>9</sup> Even the innovative Second Restatement of Property did not enlarge the landlord's duties to maintain the condition of the premises for commercial tenancies to include those duties that it was prescribed for residential tenancies. See RESTATEMENT (SECOND) OF PROPERTY § 5.1 comment b, reporter's note 2. The present state of judicial and statutory development does not warrant such extension.

shartnomasi ijaraga oluvchining ijara shartnomasini yangilaguniga qadar qadar davom etadi. Agar ijarachi ijara shartnomasini yangilasa, ijarachi to‘lashni davom ettirishi shart<sup>10</sup>. Umumiy huquq tizmiga ko‘ra, lizing shartnomasi mulk egasi va ijarachi o‘rtasidagi tabiiy ravishda kelib chiqadigan shartnomaga asoslanadi<sup>11</sup>.

Anglo-sakson huquq tizimida lizing shartnomasi subyektlarini nomlashda “lessor” (ijaraga beruvchi), “lessee” (ijaraga oluvchi) shaklida bo‘ladi. Bu esa aniq subyektlarni belgilab berish orqali, ularning huquq va majburiyatlarini ham belgilab berilganini ko‘rish mumkin.

**Mulkn ijaraga berish shartnomasi** bir tomon (ijaraga beruvchi) ikkinchi tomon (ijaraga oliuvchi) ga zarur ashyolarni vaqtinchalik foydalanishga berish, ikkinchi tomon esa mazkur ashyolardan foydalangani uchun haqini to‘lash va belgilangan muddatda uni qaytarish majburiyatini belgilaydi. Bu umumiy “lizing shartnomasining” oltin qoidasi ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

### III bob. Islom huquqi tizimida lizing tushunchasi

#### 3.1 Lizing tushunchasi

“Ijara” fiqhiy atama hisoblanib, lug‘aviy ma‘nosi “bir narsani ijaraga berib turish” degan ma‘noni anglatadi. Islom huquqida ijara so‘zining ikki xil ma‘nosini ko‘rish mumkin.

**Birinchi**, bir kishini xizmat haqi ti‘lash asosida ishga yollash hisoblanadi. Ish beruvchi *mustajir*, yollanma ishchi esa *ajir* deyiladi. Ularga to‘lanadigan haq esa *ujra* deyiladi.

**Ikkinchi**, bu turda inson xizmatidan emas, balki aktiv va mulklardan foydalanish holatiga taaluqli. Bunday ijara muayyan mulkn ijaraga haqi evaziga boshqa shaxsning foydalanishiga topshirish amaliyotini bildirib, ingliz tilidagi “leasing” atamasi bilan bir xil ifodalanadi. Bunda, lizing beruvchi *mujir*, lizing oluvchi *mustajir* va lizing beruvchiga to‘lanadigan ijara haqi *ujra* deyiladi.

Ijaraning ikki ko‘rinishi ham fiqh adabiyotlarida atroflicha o‘rganilgan, ikkalasi ham o‘ziga yarasha qonun-qoidalarga ega. Mavzuga taalluqli bo‘lgani sababidan mazkur risoladada faqat ikkinchi turdagi ijara masalalari bayon qilinadi. Chunki bu turdagi ijara ko‘pincha investitsiya kiritish hamda moliyalashtirish maqsadlarida ishlatiladi. Ijara qonun-qoidalariga lizing sifatida ko‘p jihatdan savdo qonun-qoidalariga o‘xshab ketadi. Chunki ikki holatda ham muayyan narsa arziydigan haq evaziga boshqa kishiga ko‘chadi. Ijara va savdoning asosiy farqi shundaki, savdoda mulkning egaligi xaridorga ko‘chadi, ijara esa mulk egaligi ijaraga beruvchida qoladi, faqat mulkdan foydalanish huquqi ijaraga oluvchiga kuchadi. Ijara, aslini olganda, moliyalashtirish vositasi emas, savdoga o‘xshagan bir tijorat turi. Ammo ayrim sabablarga ko‘ra, jumladan, berilgan soliq imtiyozlari tufayli bu amaliyotni ba‘zi davlatlarda moliyalashtirish

<sup>10</sup> <https://kinglawoffices.com/civil-disputes/common-types-of-leases>

<sup>11</sup> John A. Humbach. The Common-Law Conception of Leasing: Mitigation, Habitability, and Dependence of Covenants. – Washington University Law, 1983. – P. 1214.



vositasi sifatida ham qo‘llashadi. Foizli kredit berish o‘rniga ayrim moliyaviy tashkilotlar mijozlariga uskunalarini lizingga olib berishni boshladilar. Lizing to‘lovlarining miqdori uskunani xarid qilish bilan bog‘liq barcha xarajatlar ustiga lizing muddati davomida undirilishi mumkin bo‘lgan foiz to‘lovlarini qo‘shib, hisoblab chiqariladi. Uskuna tannarxi va undirilishi mumkin bo‘lgan foizlar yig‘indisi umumiy lizing qiymatini beradi. Bu qiymat lizing muddatidagi oylar soniga bo‘lib yuborilsa, bir oylik lizing to‘lovi kelib chiqadi. Lizingni shariatga muvofiq keluvchi moliyalashtirish vositasi sifatida ishlatsa bo‘ladimi, degan masala lizing shartnomasida ko‘rsatilgan shartlarga bog‘liq<sup>12</sup>.

Zikr etilganidek, lizing tijorat faoliyatidir, moliyalashtirish vositasi emas. Shuning uchun ham, lizing foliyati shariatda ijara uchun belgilangan qonun-qoidalar bilan tartibga solinadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek lizing asosan ikki turga bo‘linib, “operatsion lizing” va “moliyaviy lizing” sifatida tanilgan. Ushbu bobda lizingni aynan moliyaviy turi yoritib beriladi.

Hozirgi kunda lizing keng ommalashgan moliyalashtirish uslubi hisoblanib, ayni paytda u shariat ruxsat bergan muomala turidan hisoblanadi.

### 3.2 Ijara masalasi

«Ijara» so‘zi lug‘atda «evaz» va «savob» degan ma‘nolarni anglatadi. Qilingan narsaga beriladigan mukofotning «ajr» deb atalishi ham shundan.

Shariat istilohida esa:

Ijara – ma‘lum nafni zimmadagi yoki muayyan shuncha evazga sotishdir.

Ijaraga Islom ummati o‘zining dastlabki kunlaridan to hozirgi kungacha ijmo‘ qilib kelmoqda. Chunki, kishilar ba‘zisini mulk qilib olishga muhtoj bo‘lganlaridek, manfaatlarni almashishga ham muhtojdirlar. Birov bir narsani ijaraga qo‘yib manfaat olmoqchi bo‘lsa, boshqa odam birovning narsasini ijaraga olib manfaat ko‘rishga muhtoj.

Boshqa moliyaviy va manfaat muammolari kabi ijarada ham shar‘iy dalillar, oyat-hadislardan olingan qonun-qoidalar bor.

Ijarada ijara qo‘yuvchi, ijara oluvchi, iyjob va qabul (o‘zaro kelishuv) va ajr (haq)lardan iborat ruknlar bor.

Hanafiy mazhabida: “Ijaraning rukni iyjob va qabul, xolos”, deyilgan. Bu aqd “ijara” va “kira” lafzlari va ulardan olingan boshqa so‘zlar bilan tuziladi. Ijara to‘g‘ri bo‘lishi uchun unda bir qancha shartlar mavjud bo‘lishi lozim<sup>13</sup>.

*Ijarada ishtirok etuvchi taraflarda mavjud bo‘lishi lozim shartlar:*

<sup>12</sup> Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy. – T.: “Azon kitoblari”, 2023. – B. 190.

<sup>13</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya 3-juz. – T.: “Hilol nashr”, 2018. – B.199.

1. Ijara aqdini tuzuvchi oqil bo‘lishi kerak. Majnun va aqli to‘lishmagan yosh bolaning tuzgan ijara aqdi o‘tmaydi.

2. Hanbaliy va Shofe‘iy mazhablari: “Balog‘atga yetgan bo‘lishi ham shart”, deganlar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, islom huquqi tizimida lizing tushunchasini analogi sifatida ijara maslasini ko‘rishimiz mumkin. Farqli ravishda, islom huquqi tizimida ijara inson mehnatiga asoslanishi yoki tijorat maqsadida qo‘llanilishi mumkinligini bilib oldik.

### MANBALAR RO‘YXATI

1. Minnesota Mining Co. c. National Mining Co., 70 U.S. (3 Wall.) 332, 334 (1865). “Uniformity

and certainty in rules of property are often more important and desirable than technical correct-

ness”. Rock Spring Distilling Co. v. Gaines & Co., 246 U.S. 312, 320 (1918) (quoting Layton Pure

Food Co. c. Church & Dwight Co., 182 F. 35, 39 (1910)). See Heyert v. Orange & Rockland

Utils., Inc., 17 N.Y.2d 352, 359-63 (1966). For an application of these ideas in the leasehold

context, see Gruman v. Investors Diversified Servs., Inc., 247 Minn. 502, 509-10, 78 N.W.2d 377,

381-82 (1956).

2.E.g., Civale v. Meriden House. Auth., 150 Conn. 594, 192 A.2d 548 (1963); Smithfield Improvement Co. c. Coley-Bardin, 156 N.C. 255, 72 S.E. 312 (1911); Hart v. Windsor, 12 M. & W. 84, 152 Eng. Rep. 14 (1843); 2 M. FRIEDMAN, LEASES 392-93 (1974); 2 R. POWELL, REAL PROPERTY – § 233 (1977). See infra notes 225-29 and accompanying text.

3. Even the innovative Second Restatement of Property did not enlarge the landlord’s duties to maintain the condition of the premises for commercial tenancies to include those duties that it was prescribed for residential tenancies. See RESTATEMENT (SECOND) OF PROPERTY § 5.1 comment b, reporter’s note 2. The present state of judicial and statutory development does not warrant such extension.

4. <https://kinglawoffices.com/civil-disputes/common-types-of-leases>

5. John A. Humbach. The Common-Law Conception of Leasing: Mitigation, Habitability,

and Dependence of Covenants. – Washington University Law, 1983. – P. 1214.

6. Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy. – T.: “Azon kitoblari”, 2023. – B. 190.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya 3-juz. – T.: “Hilol nashr”, 2018. – B.199.

## O‘QUVCHILARNI KITOBXONLIKKA O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

**Shomurotova Sevinchoy San’at qizi**

*Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti*

*Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining kitobxonlikka o‘rgatishda interfaol metodlarni samarali qo‘llash tadqiq qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *interfaol, metod, o‘quvchi, o‘qituvchi, kitob, dars, o‘qish.*

### **Kirish.**

2020-2030-yilarga belgilangan Davlat ta’lim sifatini oshirish yuzasidan konseptsiyalarni belgilangani va bu yuzasidan olib borilayotgan keng ko‘lamdagi ishlarmiz ham muhim ahamiyatga ega. “Ta’lim to‘g‘risidagi qonunimiz”da belgilanganidek umumiy o‘rta ta’limimizning sinflarda dars o‘tishni yangicha tusga kiritish asosiy vazifalarimizdan biridir. Shu singari maqolada asosiy vazifamizni interfaollik nima? Savolini qo‘yishda, bu – o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bundan o‘quv- biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o‘qituvchi – o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi – o‘qituvchi, o‘quvchi – o‘quvchi suhbatlarida sodir bo‘ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o‘quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. O‘zaro fikr almashish jarayoni hosil bo‘ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O‘qish madaniyati” kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Interfaol ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va

yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi .

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim o‘z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media – ta’lim metodlaridan iborat.

“Mutolaa” so‘zi arabcha “o‘qish” degan ma’noga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: “Mutolaa” madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma’lumot olishga yo‘naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o‘zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me’yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir. Ayni chog‘da mutolaa madaniyatini ta’lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma’lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o‘quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo‘llanma va hokazolar), shuningdek, sub’ekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a’zolari,...) orqali ega bo‘linadigan turli yo‘nalish va shakldagi umumiy ma’lumotdan farqlash lozim bo‘ladi» 2 . Professor E.I.Yo‘ldoshev «O‘qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta’rif beradi: «O‘qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, kitobdan to‘la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi».

Jumladan, axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot okimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan ma’lumotlarni olib bilish, o‘z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot- kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi. Axborot olish madaniyatini to‘liq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon terminini qo‘llash o‘rinlidir.

Safo Matchon: «Kitobxonlik - o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini nechog‘li uqishini, ya’ni asar «tili»ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko‘rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tug‘ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir:

«Kitobxonlikka o‘rganish uchun qanchalik ko‘p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag‘ishladim, lekin hali ham o‘rgandim, deb ayta olmayman». Professor V.F.Asmus o‘zining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta‘rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir ko‘zadan ikkinchi ko‘zaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi». «Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb yozadi H.To‘xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya‘ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir».

**NATIJALAR.** Ta‘lim o‘qitish, o‘qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash ta‘lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o‘quvchilarni izchil shakllantirib borishni ta‘minlaydi.

Ta‘lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar faqatgina sinfda o‘qitiladigan darslarda shakllanib qolmasdan, balki sinfdan tashqari, aniqrog‘i axborot-kutubxona muassasalarida mustaqil tarzda shug‘ullanish orqali egallanadi.

Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot- kutubxonachilik bilimlarining o‘quvchilar orasida targ‘ib qilishdir. Buning eng samarali yo‘llaridan biri bo‘lib axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma‘lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining negizini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o‘qish, eng muhimi, uni uqish, o‘rganish malakalari singdirib borilishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma‘lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo‘lish, ulardan foydalanishni o‘rganish kabilar kiradi. Bu esa o‘z-o‘zidan amalga oshadigan, oddiy narsa emas, albatta. Buning uchun axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislaridan juda keng bilim, mahorat talab qilinadi. Axborot-kutubxonachilik darslarini qay tarzda tashkil etish mumkin, degan savolga ham javob berib o‘tish lozim. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot-kutubxonachilik darslarini o‘tkazish uchun sinfdan tashqari darslar va tarbiyaviy soatlardan alohida soatlar ajratib olish mumkin. Dars jadvali tuzishda asosan sinflar soni, nazariy va amaliy dars soatlari, o‘qituvchi va kutubxonachi o‘tkazadigan soatlar, darsni o‘tkazish joyini, ya‘ni sinfda yoki axborot-kutubxona muassasasida o‘tkazilishini aniqab olish zarur.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Chunonchi, ko‘pgina o‘qituvchilar dars berish uslubiyotini yaxshi egallagan bo‘lsalar-da, axborot-kutubxonachilik sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo‘lmaydilar. Kutubxonachilar esa aksincha. Shu sababli ham o‘qituvchilarga axborot-kutubxonachilik sohasidan ma‘ruzalar



o‘qib, ularni axborot-kutubxonalar faoliyati bilan tanishtirish, kutubxonachilarga esa dars o‘tish qoidalari, uslubiyotini o‘rgatish muhimdir. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o‘ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini ommalashtirish, yo‘lga qo‘yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya‘ni axborot-kutubxonachilik darslarini yo‘lga qo‘yish yuzasidan qaror qabul qilish, shu qarorga asosan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o‘tkazishning aniq shakllarini ishlab chikish zarur.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta‘lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o‘rta ta‘limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta‘kidlangan.

Ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

O‘qish darslarining samaradorligi ko‘p jihatdan ta‘lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Ularda ko‘proq to‘g‘ri talaffuz, qiroat bilan o‘qish, ifodali o‘qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o‘qish izohli o‘qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug‘iladi: Izohli o‘qish nima?

Izohli o‘qishga XIX asrning 60 —70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o‘qishda o‘quvchilarni „ongli, tushunib, o‘ylab o‘qishga“ o‘rgatishni alohida ta‘kidlaydi va uni “Izohli o‘qish”-deb nomlaydi.

Izohli o‘qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o‘qish o‘quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o‘quvchilarga o‘qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog‘liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Izohli o‘qish: quyidagi tamoyillarga to‘liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo‘ladi:

1. O‘qishni hayot bilan bog‘liq holda tashkil etish.
2. O‘qishning ongli va ta‘sirchan bo‘lishi uchun o‘quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.
3. O‘qishni ko‘rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o‘quvchining ifodali o‘qishi tarzida olib borish.

Xulosa.

Kitobxon - o‘quvchi maktabda va oilada o‘rgangan hayotni kitobdagi hayotiy voqealar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari, insoniy fazilatlar, yaxshilik,

qadriyatlarini, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do‘stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik fazilatlarini yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta'sirchan shaklda ifodalandiki, unda yosh kitobxon ko'p fazilatlarini o'rganish, ma'nan boy shaxs bo'lib shakllanishi mumkin. O'quvchilarni kitob o'qishda interfaol metodidan foydalanish samarali natija beradi.

#### REFERENCES:

1. Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi. T. "O'qituvchi"
2. Masharipova U. "Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash". // Boshlang'ich ta'lim, 2010, №4.
3. Nishonov S. «Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2000 y. 1- son, 12,16-b.
4. Tolipov O'. O'quvchilarni mustaqil ishlashda o'qitish vositalari. T., « Xalq ta'limi » 2000 y. №3.
5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
6. Гулбоев А. Т. Гончарное искусство узбеков //Инновационная деятельность в дошкольном образовании. – 2016. – С. 374-376.
7. Гулбоев А. Т. АСПЕКТЫ И ОСОБЕННОСТИ ЦЕЛОСТНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135). – С. 29-32.
8. Амонов М.Н. ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЕ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕДЖЕЙ //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 9-14.

## O‘QUVCHILARNI KITOBXONLIKKA O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

**Shomurotova Sevinchoy San’at qizi**

*Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika  
fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining kitobxonlikka o‘rgatishda interfaol metodlarni samarali qo‘llash tadqiq qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *interfaol, metod, o‘quvchi, o‘qituvchi, kitob, dars, o‘qish.*

### **Kirish.**

2020-2030-yilarga belgilangan Davlat ta’lim sifatini oshirish yuzasidan konseptsiyalarni belgilangani va bu yuzasidan olib borilayotgan keng ko‘lamdagi ishlarmiz ham muhim ahamiyatga ega. “Ta’lim to‘g‘risidagi qonunimiz”da belgilanganidek umumiy o‘rta ta’limimizning sinflarda dars o‘tishni yangicha tusga kiritish asosiy vazifalarimizdan biridir. Shu singari maqolada asosiy vazifamizni interfaollik nima? Savolini qo‘yishda, bu – o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bundan o‘quv- biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o‘qituvchi – o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi – o‘qituvchi, o‘quvchi – o‘quvchi suhbatlarida sodir bo‘ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o‘quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. O‘zaro fikr almashish jarayoni hosil bo‘ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O‘qish madaniyati” kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Interfaol ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va

yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi .

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim o‘z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media – ta’lim metodlaridan iborat.

“Mutolaa” so‘zi arabcha “o‘qish” degan ma’noga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: “Mutolaa” madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma’lumot olishga yo‘naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o‘zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me’yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir. Ayni chog‘da mutolaa madaniyatini ta’lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma’lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o‘quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo‘llanma va hokazolar), shuningdek, sub’ekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a’zolari,...) orqali ega bo‘linadigan turli yo‘nalish va shakldagi umumiy ma’lumotdan farqlash lozim bo‘ladi» 2 . Professor E.I.Yo‘ldoshev «O‘qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta’rif beradi: «O‘qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevisish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, kitobdan to‘la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi».

Jumladan, axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot okimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan ma’lumotlarni olib bilish, o‘z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot- kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi. Axborot olish madaniyatini to‘liq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon terminini qo‘llash o‘rinlidir.

Safo Matchon: «Kitobxonlik - o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini nechog‘li uqishini, ya’ni asar «tili»ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko‘rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tug‘ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir:

«Kitobxonlikka o‘rganish uchun qanchalik ko‘p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag‘ishladim, lekin hali ham o‘rgandim, deb ayta olmayman». Professor V.F.Asmus o‘zining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta‘rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir ko‘zadan ikkinchi ko‘zaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi». «Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb yozadi H.To‘xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya‘ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir».

**NATIJALAR.** Ta‘lim o‘qitish, o‘qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash ta‘lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o‘quvchilarni izchil shakllantirib borishni ta‘minlaydi.

Ta‘lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar faqatgina sinfda o‘qitiladigan darslarda shakllanib qolmasdan, balki sinfdan tashqari, aniqrog‘i axborot-kutubxona muassasalarida mustaqil tarzda shug‘ullanish orqali egallanadi.

Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot- kutubxonachilik bilimlarining o‘quvchilar orasida targ‘ib qilishdir. Buning eng samarali yo‘llaridan biri bo‘lib axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma‘lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining negizini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o‘qish, eng muhimi, uni uqish, o‘rganish malakalari singdirib borilishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma‘lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo‘lish, ulardan foydalanishni o‘rganish kabilar kiradi. Bu esa o‘z-o‘zidan amalga oshadigan, oddiy narsa emas, albatta. Buning uchun axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislaridan juda keng bilim, mahorat talab qilinadi. Axborot-kutubxonachilik darslarini qay tarzda tashkil etish mumkin, degan savolga ham javob berib o‘tish lozim. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot-kutubxonachilik darslarini o‘tkazish uchun sinfdan tashqari darslar va tarbiyaviy soatlardan alohida soatlar ajratib olish mumkin. Dars jadvali tuzishda asosan sinflar soni, nazariy va amaliy dars soatlari, o‘qituvchi va kutubxonachi o‘tkazadigan soatlar, darsni o‘tkazish joyini, ya‘ni sinfda yoki axborot-kutubxona muassasasida o‘tkazilishini aniqab olish zarur.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Chunonchi, ko‘pgina o‘qituvchilar dars berish uslubiyotini yaxshi egallagan bo‘lsalar-da, axborot-kutubxonachilik sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo‘lmaydilar. Kutubxonachilar esa aksincha. Shu sababli ham o‘qituvchilarga axborot-kutubxonachilik sohasidan ma‘ruzalar

o‘qib, ularni axborot-kutubxonalar faoliyati bilan tanishtirish, kutubxonachilarga esa dars o‘tish qoidalari, uslubiyotini o‘rgatish muhimdir. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o‘ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini ommalashtirish, yo‘lga qo‘yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya'ni axborot-kutubxonachilik darslarini yo‘lga qo‘yish yuzasidan qaror qabul qilish, shu qarorga asosan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o‘tkazishning aniq shakllarini ishlab chikish zarur.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta‘lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o‘rta ta‘limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta‘kidlangan.

Ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

O‘qish darslarining samaradorligi ko‘p jihatdan ta‘lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Ularda ko‘proq to‘g‘ri talaffuz, qiroat bilan o‘qish, ifodali o‘qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o‘qish izohli o‘qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug‘iladi: Izohli o‘qish nima?

Izohli o‘qishga XIX asrning 60 —70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o‘qishda o‘quvchilarni „ongli, tushunib, o‘ylab o‘qishga“ o‘rgatishni alohida ta‘kidlaydi va uni “Izohli o‘qish”-deb nomlaydi.

Izohli o‘qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o‘qish o‘quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o‘quvchilarga o‘qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog‘liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Izohli o‘qish: quyidagi tamoyillarga to‘liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo‘ladi:

1. O‘qishni hayot bilan bog‘liq holda tashkil etish.
2. O‘qishning ongli va ta‘sirchan bo‘lishi uchun o‘quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.
3. O‘qishni ko‘rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o‘quvchining ifodali o‘qishi tarzida olib borish.

Xulosa.

Kitobxon - o‘quvchi maktabda va oilada o‘rgangan hayotni kitobdagi hayotiy voqealar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari, insoniy fazilatlar, yaxshilik,



qadriyatlarni, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do‘stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik fazilatlarini yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta'sirchan shaklda ifodalandiki, unda yosh kitobxon ko'p fazilatlarini o'rganish, ma'nan boy shaxs bo'lib shakllanishi mumkin. O'quvchilarni kitob o'qishda interfaol metodidan foydalanish samarali natija beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi. T. "O'qituvchi"
2. Masharipova U. "Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash". // Boshlang'ich ta'lim, 2010, №4.
3. Nishonov S. «Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2000 y.1- son, 12,16-b.
4. Tolipov O'. O'quvchilarni mustaqil ishlashda o'qitish vositalari. T., « Xalq ta'limi » 2000 y. №3.
5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
6. Гулбоев А. Т. Гончарное искусство узбеков //Инновационная деятельность в дошкольном образовании. – 2016. – С. 374-376.
7. Гулбоев А. Т. АСПЕКТЫ И ОСОБЕННОСТИ ЦЕЛОСТНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135). – С. 29-32.
8. Амонов М.Н. ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЕ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕДЖЕЙ //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 9-14.

**TUYALARNING SUT MAXSULDORLIGI.****Kaliev Bayram Alpisbay o'g'li****Tleumuratov A.K.***Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tuya sutining kimyoviy tarkibi, mahsuldorligi, ahamiyati, foydali tomonlari, yurak faoliyatini yaxshilashdagi ahamiyati va qon bosimi baland insonlarga foydali tomonlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tuya suti, ozuqa moddalari, mahsuldorlik ko'rsatkichi, oqsil, vitamin, yog'.*

Tuya suti butun dunyoda turli madaniyatlarda asrlar davomida iste'mol qilingan to'yimli va noyob sut mahsulotidir. Tuya sutining tarkibi uni sigir suti va boshqa sut mahsulotlaridan ajratib turadi, bu esa ozuqa moddalarining qimmatli manbai va sog'liq uchun foydalidir. Sigir suti bilan solishtirganda tuya suti tarkibidagi asosiy farqlardan biri past yog'lilikdir. Tuya suti ozroq yog'ni o'z ichiga oladi, bu yog'ni iste'mol qilishni kamaytirmoqchi bo'lganlar uchun sog'lom muqobildir. Yog ' miqdori past bo'lishiga qaramay, tuya suti boshqa muhim oziq moddalar, jumladan, oqsillar, vitaminlar va minerallarga boy. Tuya suti sigir suti bilan taqqoslanadigan yuqori protein miqdori bilan mashhur. Proteinlar tana to'qimalarining o'sishi, tiklanishi va saqlanishi uchun zarur bo'lib, tuya sutini barcha yoshdagi odamlar uchun qimmatli oqsil manbai qiladi. Bundan tashqari, tuya sutida mikroblarga qarshi va immunitetni mustahkamlovchi xususiyatlarga ega laktoferrin nomli noyob oqsil mavjud. Vitaminlar va minerallar nuqtai nazaridan tuya suti A, B, C va D vitaminlari, shuningdek, kaltsiy, kaliy va magniy kabi minerallarning boy manbai hisoblanadi. Ushbu oziq moddalar umumiy salomatlik va farovonlikni saqlashda, suyak sog'lig'ini, immunitet funksiyasini va energiya almashinuvini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tuya sutining yana bir o'ziga xos komponenti uning immunoglobulinlarining yuqori konsentratsiyasi bo'lib, ular immunitet tizimini mustahkamlashga va infeksiyalardan himoya qilishga yordam beradi. Bu tuya sutini, ayniqsa, immuniteti zaif odamlar yoki ularning immunitetini kuchaytirishni istaganlar uchun foydali qiladi. Oziqlanish tarkibiga qo'shimcha ravishda, tuya suti ham hipoalerjenik xususiyatlari bilan mashhur. Laktoza intoleransi bo'lgan yoki sut mahsulotlariga allergiyasi bo'lgan ko'plab odamlar tuya sutiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan toqat qila olishlarini aniqlaydilar, bu esa uni parhez cheklovlari bo'lganlar uchun mos alternativa qiladi. Tuyalarning sut mahsuldorligi turli omillarga, jumladan, jinsi, yoshi, ovqatlanishi va

atrof-muhit sharoitlariga qarab o'zgaradi. O'rtacha bir tuya kuniga 2,5 kilogrammdan 6 kilogrammgacha sut berishi mumkin, ba'zi tuyalar esa bir kunda 15 kilogrammgacha sut beradi. Bu ta'sirchan laktatsiya qobiliyati tuyalarning sut beruvchi hayvonlar sifatida chidamliligi va samaradorligidan dalolat beradi. Tuyalar odatda kuniga ikki marta sog'ib olinadi, sog'ish jarayoni tuya parvarishining muhim qismidir. Sut ozuqa moddalariga, jumladan, oqsillarga, vitaminlarga va minerallarga boy bo'lib, sut mahsulotlari uchun tuyalarga tayanadigan jamoalar uchun qimmatli oziq-ovqat manbai hisoblanadi. O'zining ozuqaviy qiymatidan tashqari, tuya suti shifobaxsh xususiyatlari bilan ham mashhur va turli xil sog'liq uchun foydalari borligiga ishoniladi. So'nggi yillarda tuya sutiga bo'lgan qiziqish va uning tovar mahsuloti sifatida foydalanish imkoniyatlari ortib bormoqda. Dunyo miqyosida tuya sutiga talab ortib bordi, bu esa tuya yetishtiruvchi fermerlarga ushbu hayvonlarning sut mahsuldorligidan foydalanish imkoniyatini yaratdi. Tuya parvarishi bo'yicha tadqiqotlar va ishlanmalar sut ishlab chiqarish va sifatini yaxshilashga, shuningdek, tuya suti mahsulotlarining yangi bozorlarini o'rganishga qaratilgan. Tuya suti vitaminlar va minerallarning boy manbai bo'lib, umumiy salomatlik va farovonlikka hissa qo'shadigan turli xil muhim oziq moddalarni taqdim etadi. Tuya sutida sigir sutiga qaraganda ko'proq S vitamini mavjud. S vitamini immunitet funksiyasini, kollagen ishlab chiqarishni va antioksidant faollikni qo'llab-quvvatlaydigan muhim oziq moddalardir. Tuya suti B vitaminlari, jumladan B1 (tiamin), B2 (riboflavin), B3 (niatsin), B6 (piridoksin) va B12 (kobalamin) ning yaxshi manbaidir. Ushbu vitaminlar energiya almashinuvi, asab funksiyasi va qizil qon hujayralari ishlab chiqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tuya suti kaltsiyga boy bo'lib, suyak salomatligi, mushaklarning ishlashi va asab uzatilishi uchun zarur bo'lgan mineraldir. Kaltsiyni etarli darajada iste'mol qilish suyaklarni mustahkam va sog'lom saqlash uchun muhimdir. Tuya sutida qonda kislorod olib yuruvchi gemoglobin ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan temir mavjud. Temir anemiyaning oldini olish va umumiy energiya darajasini qo'llab-quvvatlash uchun muhimdir. Tuya suti kaliyning yaxshi manbai bo'lib, suyuqlik muvozanatini, mushaklarning qisqarishini va asab signallarini tartibga solishga yordam beradigan elektrolitdir. Kaliy yurak faoliyatini va qon bosimini to'g'ri saqlash uchun zarurdir. Tuya sutida organizmdagi 300 dan ortiq fermentativ reaksiyalarda rol o'ynaydigan magniy mavjud. Magniy mushaklarning ishlashi, asab uzatilishi va suyak salomatligi uchun muhimdir. Tuya sutidagi ushbu vitaminlar va minerallar uning ozuqaviy qiymati va sog'liq uchun foydasiga hissa qo'shadi va uni muvozanatli ovqatlanish uchun qimmatli qo'shimcha qiladi.

**Xulosa:**

Umuman olganda, tuya sutining tarkibi uni bir qator sog'liq uchun foydali bo'lgan qimmatli va to'yimli sut mahsulotiga aylantiradi. Yangi iste'mol qilingan yoki turli xil sut

mahsulotlarida ishlatilgan bo'lishidan qat'i nazar, tuya suti umumiy salomatlik va farovonlikni qo'llab-quvvatlaydigan ozuqa moddalarining noyob birikmasini taqdim etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mengliboyeva, A., & Turoпова, S. (2022). QORAMOLLARNING SUT MAHSULDORLIGI VA HISOBGA OLIISH USULLARI. Академические исследования в современной науке, 1(15), 124-127.

2. Soyibjonov, A. T., Ahmatova, R., Ergasheva, Z., Xudoyberganova, G., & Mashrapova, R. (2023). QISHLOQ XO'JALIGI HAYVONLARI MAXSULDORLIGIGA ZOOIGIENIK TALABLAR TA'SIRI. Евразийский журнал академических исследований, 3(4 Part 2), 16-20.

3. Sattorov, F. R., & Abdullayev, J. O. (2022). TAJRIBA GURUHIDAGI SIGIRLARNING O 'SISH VA RIVOJLANISH KO 'RSATKICHLARI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 877-878.

4. U.N.Nosirov. "Qoramolchilik" Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2001, 384b.

5. Н.И. Владимиров, Л.Н. Черемнякова, В.Г. Лунисын, А.П. Косарев, А.С. Попеляев, «Кормление сельскохозяйственных животных» Учебное пособие, Барнаул Издательство АГАУ, 2008

6. R. Hamroqulov "Qishloq xo'jalik hayvonlarini ozuqlantirish" Darslik 2011 y. Toshkent.

7. A.P.Kalashnikov "Chorvachilikda oziq normalari va ratsionlari" O'quv qo'llanma Toshkent "Mehnat" 1985 y

**“YORQINOY” DRAMASINING BADIY XUSUSIYATLARI****Abdullayeva Rufina Usman qizi***Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**o‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** *Jadid vakillaridan biri bo‘lmish Cho‘lpon dramaturgiya sohasida samarali ijod etgan. Uning 1920- yilda yozilgan “Yorqinoy” dramasi pyesalar orasida eng baquvvati va mukammalidir. Ushbu maqolada “Yorqinoy” dramasi haqida o‘z fikr-mulohazalarimizni berishga harakat qildik.*

**Kalit so‘zlar:** *drama, Yorqinoy, pyesa, obraz, dialog, monolog, dramatik lavha, voqea, xalq qahramonlik dostonlari.*

**Abstract.** *Cholpon, one of the representatives of Jadid, worked effectively in the field of dramaturgy. His drama “Yorqinoy” written in 1920 is the most energetic and perfect among the plays. In this article, we tried to give our opinions about the drama “Yorkhinoy”.*

**Key words:** *drama, Yorqinoy, play, image, dialogue, monologue, dramatic scene, story, folk epics.*

Cho‘lpon o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biridir. U XX asr boshidagi o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri bo‘lib, uning asarlarida dramatism muhim o‘rin tutadi. Cho‘lponning dramaturgik asarlarida jamiyatning ijtimoiy va madaniy muammolari, inson ruhiyati, sevgi va fojia kabi mavzular keng yoritilgan. U o‘z asarlarida xalq hayoti va uning murakkabliklarini tasvirlab, o‘quvchilarni chuqur o‘ylashga majbur qiladi. Cho‘lponning dramatik asarlarida realizm va naturalizm uslublari keng qo‘llaniladi. U jamiyatdagi haqiqatlarni ochiq-oydin ko‘rsatishga intiladi, hayotning quyuq va yorqin tomonlarini birdek aks ettiradi.

Jadidlar tomonidan yozilgan dramalarda fikr, g‘oya birinchi o‘rinda turgani uchun badiiylikka yetarlicha ahamiyat berilmagan. Cho‘lpon bu kamchilikni to‘ldirgan holda, to‘laqonli drama yaratish uchun badiiylikni kuchaytirishga uringan. Buning uchun folklorga murojaat qilarkan, undagi romantik unsurdan badiiylikni oshirish yo‘lida foydalanishga intilgan. Shu tariqa, “Yorqinoy”da hissiyotga boy dramatik holatlar yaratgan. Dramada badiiylikni kuchaytirishning turli usullaridan foydalanish mumkinligiga u jahon adabiyoti, xususan, dramalari bilan tanishgandan so‘nggina to‘la ishonch hosil qilgan.

“Yorqinoy” – Cho‘lponning eng mashhur dramalaridan biri bo‘lib, uning ijodida alohida ajralib turadi. Bu asar folklor materiallari asosida yaratilganini Cho‘lponning quyidagi so‘zlari orqali bilib olish mumkin: “Totli va boy tili bilan ertak (cho‘pchak) aytib berib, shu

asarning yozilishiga sabab bo‘lgan kampir onaga hurmat bilan bag‘ishlayman”. Bu so‘zlardan ma‘lum bo‘lishicha, “Yorqinoy” dramasi yozilishida Cho‘lponning “kampir onasi”dan eshitgan xalq ertagi yotadi.

Yorqinoy – go‘zal, mehribon va fidoyi qahramon. Uning sevgisi va hayoti, jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklar bilan to‘qnash keladi. U sevgan insoni uchun kurashadi. “Yorqinoy” dramasi strukturasi dramatisizm asosiy o‘rin tutadi. Har bir sahnada kuchli hissiy yuk bor, qahramonlarning harakati va dialoglari o‘quvchida chuqur his-tuyg‘ular uyg‘otadi.

Asardagi qahramonlarning har birining o‘ziga xosligi yozuvchi mahorati tufayli yuzaga chiqqanligini his etishimiz kerak. Birgina O‘lmas obrazini olib ko‘raylik. Asar davomida uni xilma-xil ko‘rinishlarda uchratamiz. U vaziyat va sharoitga qarab o‘zini turlicha tutadi. Bularning barchasi uning nutqida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Asarni tahlil qilish jarayonida O‘lmasning botirligi o‘z farzandi uchun fidokor ota ekanligi, maqsadiga erishish yo‘lida hech narsadan (hatto odam o‘ldirishdan ham) qaytmasligi, ayni paytda nodon va jaholotga botganligi ham ko‘rinib qoladi. O‘lmas botirning qarorgohida bog‘bon bo‘lgan Po‘lat bilan qizi Yorqinoy o‘rtasida muhabbat tuyg‘ulari sezila boshlaydi. Po‘lat oddiy xizmatkor, Yorqinoy esa badavlat xonadonning farzandi bo‘lganligi, otasi uni xonzodalarga loyiq deb bilgani uchun bog‘bon yigitning o‘z ezgu niyatining amalga oshishiga ko‘zi yetmaydi. Shu tariqa bu xonadondan ketishga ahd qiladi. Shu payt Po‘latni Yorqinoy bilan birga uchratib qolgan Botir uni benomuslikda, ko‘rnamaklikda ayblaydi. Yorqinoy ham or-nomusni unutib, faqir bir xizmatkor bilan uchrashgani uchun o‘ldirishga tayyor ekanligini aytadi. Yorqinoy esa haq yo‘lida o‘limga ham tayyor qizlardan edi.

O‘z manfaatidan kelib chiqqan haq tushunchasi O‘lmas botirni o‘zining yolg‘iz qizini jazolash to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishga ham undamaydi. Ayni shu paytning o‘zida o‘zgalar uchun haq tushunchasi uni Po‘latni qatl etish uchun izn beraveradi. Shu fikr bilan yashagan Botirning halol inson emas, aksincha zulmkor inson ekanligini ko‘rish mumkin bo‘ladi. U bilan ilk bor to‘qnashgan va yuzma-yuz olishishga majbur bo‘lgan Po‘lat o‘zining va otasining kim ekanligini undan so‘rab bilmoqchi, o‘z ajdodlarining taqdiri to‘g‘risida xabar topmoqchi bo‘ladi. Lekin kutilmaganda bu narsa O‘lmas Botirning eng dahshatli siri ekanligi oshkor bo‘lib qoladi.

Yorqinoy Cho‘lponning boshqa asarlaridagi xotin-qizlar obrzalariga nisbatan jasur va kurashuvchan. U o‘z hayotini boshqalar qo‘liga topshirib qo‘ymaydi. O‘zi uchun, sevgilisi uchun hayot sinovlarida sinmagan mard qiz. Cho‘lpon Yorqinoy obrazini o‘z erki uchun kurashadigan ayol sifatida gavalantirgan.

Yorqinoy Po‘latga ruhan yaqin bo‘lgani, uni nafaqat or-nomusli, irodali yigit, balki haqiqat yo‘lida kurashga tayyor bo‘lgani uchun ham sevadi. Yorqinoy otasining qonli



ishlaridan xabardor bo‘lgach, undan voz kechib, Po‘lat olib borgan kurashga qo‘shilishi orqali uning vujudida To‘marisning qoni urib turganiga guvoh bo‘lamiz.

Po‘lat o‘zining yaqinlari – oddiy qashshoq aholi bilan birga, hamda yoshlikdan jangovarlik an‘analari asosida tarbiya ko‘rgan Yorqinoy yordamida xon qo‘shinlarini mag‘lub etib, hukumat tepasiga keladi. Biroq Yorqinoyga taxt emas, uni ardoqlovchi, butun hayotini unga bag‘ishlovchi Po‘lat kerak edi. U Po‘latning saltanat ishlaridan ortgan daqiqalarinigina huzurida, yana horigan holda o‘tkazayotganini ko‘rib g‘azablanadi, toju taxtdan ham nafratlanib ketadi. Shunda Po‘lat Yorqinoyga bunday javob beradi: “Toju taxt... toju taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor... uni o‘ylash kerak... uning g‘amini yeyish kerak...” Bu so‘zlar asarda tasvirlangan voqealardan kelib chiquvchi mantiqiy xulosadir.

Asarda Kal obrazining ham o‘z o‘rni bor. Kal obrazi asarni kulgi va yumor bilan boyitgan. Kalning o‘ziga xos fe‘l-atvori, tili yorqin va jonli chiqqanini ko‘rish mumkin. Cho‘lpon Kalning asarga kulgu bergan tilini yaratishda xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan sa‘j san‘atidan foydalangan. “Suvday shovillab, o‘tday lovillab, chumchuqday chirillab, shamolday pirillab...”, “Oyim poshsha, siz mening xudo bergan qizimsiz, ko‘ksimda kulgan yulduzimsiz, qo‘limga qo‘ngan qunduzimsiz, yayrab yurgan qo‘zimsiz, uchib o‘ynagan qo‘ng‘izimsiz, qarab turgan ko‘zimsiz. qizorib turgan yuzimsiz, to‘kilib turgan so‘zimsiz...” kabilar.

Cho‘lpon ushbu asarida xalq – qahramonlik dostonlari an‘analaridan istifoda etgan holda zamonaviy muhim g‘oya bilan sug‘orilgan asarni yaratgan. “Yorqinoy” dramasida sujeti qiziqarli voqealar rivoji bilan to‘la. Dramadagi hamma voqea va epizodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Cho‘lponning dramatik asarlari o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallaydi. U o‘z asarlarida realizm, naturalizm, inson ruhiyati va ichki ziddiyatlarni chuqur tahlil qiladi. Cho‘lponning dramatik ijodi o‘z davrining ijtimoiy va madaniy muammolarini ochib beradi, o‘quvchilarni chuqur o‘ylashga majbur qiladi. Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan va o‘zbek adabiyotining qimmatli merosi sifatida qabul qilinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Cho‘lpon. (1991). Yorqinoy. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
2. Karimov N. (2003). Cho‘lpon (Ma‘rifiy roman). T.: Sharq.
3. Mamajonov S. (1997). Bizning Cho‘lpon. - T.: Yozuvchi.
4. Quronov D. (1997). Cho‘lponning hayoti va ijodiy merosi. – T.: O‘qituvchi.
5. Rizaev SH. (1997). Jadid dramasi. - T.: Sharq.

**BUGUNGI KUNDA YOSHLAR TARBIYASIGA SALBIY TA’SIR  
KO’RSATUVCHI MA’NAVIY-MAFKURAVIY OMILLAR****Tursunboyeva Zeboxon Zokirjon qizi***Namangan davlat universiteti  
boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlar ma’naviyatiga ijobiy va salbiy ta’sir qiluvchi omillar ilmiy jihatdan asoslangan. Ma’lumki dunyo miqyosida kundan-kunga shiddat bilan kechayotgan tahlikali jarayonlar insoniyat hayotining barcha jabhalarida jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o’tkazmoqda. Bu esa o’z navbatida o’sib kelayotgan yoshlar tafakkurida turli xil o’zgarishlarga sabab bo’lmoqda.*

**Kalit so’zlar:** *mafkura, ma’naviyat, yot g’oya, loqayd, taraqqiyot, islom, dunyoqarash.*

**ДУХОВНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ОКАЗЫВАЮЩИЕ  
НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖИ СЕГОДНЯ****Турсунбаева – дочь Зебохона Закирджона.***Наманганский государственный университет  
ученик начальной школы*

**Аннотация:** *В данной статье научно обоснованы факторы, которые положительно и отрицательно влияют на духовность современной молодежи. Известно, что опасные процессы, происходящие изо дня в день в глобальном масштабе, оказывают серьезное влияние на все стороны жизни человека, в том числе на духовную и образовательную сферы. Это, в свою очередь, вызывает различные изменения в мышлении молодежи.*

**Ключевые слова:** *идеология, духовность, чуждая идея, безразличие, прогресс, ислам, мировоззрение.*

**PIRITUAL-IDEOLOGICAL FACTORS HAVING A NEGATIVE EFFECT ON  
YOUTH EDUCATION TODAY****Tursunbayeva is the daughter of Zebokhon Zakirjon****Namangan State University  
student of primary education**

**Abstract:** *In this article, the factors that positively and negatively affect the spirituality of young people today are scientifically based. It is known that the dangerous processes that are happening day by day on a global scale have a serious impact on all aspects of human life, including the spiritual and educational spheres. This, in turn, causes various changes in the thinking of young people.*

**Key words:** *ideology, spirituality, alien idea, indifference, progress, Islam, worldview.*

Ma'lumki, xalq va jamiyat hayotida ulkan ahamiyat kasb etib, uning taraqqiyot darajasini yangi bosqichga yuksaltiruvchi g'oyalar nisbatan ilgariroq paydo bo'ladi. Mana shu g'oya katta maqsad yo'lidagi o'zgarishlarni ilg'ay oladigan, ko'plarni birlashtira oladigan, insonlar qalbi va ongiga singib, ularning hayotiy maqsadlariga aylanadi. Yana bir tushuncha mavjudki, avvalo, insonlar ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, atrofdagi voqea – hodisalarga munosabati o'zgarsagina ular davlat, jamiyat hayotini ya'ni siyosiy tuzumlarini hamda ijtimoiy munosabatlarni o'zgartira oladilar.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: Ayniqsa hozirgi zamonda, dunyodagi ilg'or xalqlar katta-katta marralar sari intilayotgan bir paytda ma'naviy jihatdan g'aflatda botib, "uxlab yotishga", loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Barcha fojia va muammolar, Vatanga, millatga kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi" Har qanday ma'naviyatdan begonalik, madaniyatsizlik boshqa insonlar psixologiyasida ham illat urug'ini paydo qilishdek kuchli xavf tug'diradi. Mana shunday illatlar yoshlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Inson hayoti bir necha bosqichlarga bo'linadi. Bu bosqichda umrning yoshlik bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlik insonning eng nozik davri hisoblanib, insonning quvvatga to'lgan va harakatchanligi ziyoda bo'lgan vaqtdir. Shu bilan birga bu davr insonning hayot yo'llarining chorrahasida turgan paytidir. Agar, o'sha chorrahada yaxshi yo'lga kirib olinsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun juda katta yaxshilik sari yuksalgan bo'ladi. Agar mazkur chorrahada yomon yo'lga burilib ketsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun ko'ngilsizlik olib kelgan bo'ladi.

Yoshlar har bir millatning buyuk kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy e'tibor qaratilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kelajakda kim bo'lishligi yoshlikdan bilina boshlaydi. Yoshlikda shakillanib qolgan sifatlar insonga butun umr muhrlanib qoladi. Shuning uchun yoshlik paytdan yoshlarning kelajagiga e'tiborsizlik qilinmaslik kerak. Har bir shaxs jamiyatda ulg'ayib, rivojlanayotgan kelajak yoshlarimizning tarbiyasiga o'z munosabatini bildirishi kerak.



Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar ijobiy va salbiy turlariga bo'linadi. Alloh taoloning oxirgi va mukammal dini –Islomda yoshlarning tarbiyasiga oid ko'plab oyat va hadislar berilgan. Mana shu oyat hadislarga og'ishmasdan, to'laligicha amal qilinsa, Allohning tavfiqi bilan, o'sib o'nayotgan farzandlar chiroyli xulqli, odobli, tarbiyali bo'lib o'sadilar va umrlarining oxirigacha shunday yashaydilar. Ulardan barcha mamnun bo'ladi, insonlarning hurmatiga, muhabbatiga sazovor bo'lishadi. Islom dini hech kimni hech qachon yomonlikka chaqirmaydi balki doimo yaxshilik qilishga, go'zal xulqlar bilan halol yashashga chaqiradi. Bu tarbiyaning islomiy ko'rinishi. Buni ijobiy tarbiya deb ataladi.

Endi salbiy tarbiya qanday bo'ladi, nimadan kelib chiqadi? Salbiy tarbiya bu ijobiy tarbiyaning aksi bo'lib, uning salbiy ekanligi faqatgina ta'lim orqali bilinadi. Uning kelib chiqishi johillik sababidan, qaysarlik va bo'ysinmaslikdan, nafsga berilib ketishdan kelib chiqadi.

Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri internetdan no'rin foydalanishdir! Darhaqiqat, internetning imkoniyatlari cheksiz. Agar undan unumli foydalanilsa katta yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli tahdidlardan asrash, ularda xalqaro tarmoq tomonidan taqdim etilayotgan turli axborot oqimlardan haqqoniy ma'lumotlarni saralay bilish, to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish, axborot xavfsizligini ta'minlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yana bir muhim jihati borki, mobil aloqa vositalarni voyaga

yetmagan yosh go‘daklarga kattalarning o‘zi berib qo‘yyapdi. Shu jihatdan, avvalo, ota-onalarimizga tarbiyaviy kitoblarni o‘qitishimiz ham maqsadga muvofiq sanaladi.

Forobiy inson kamolotida ta‘lim- tarbiyaning muhimligini ta‘kidlab: “Munosib inson bo‘lishi uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta‘lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta‘lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo‘ldir...” deydi. Abu Rayxon beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritar ekan, “Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan. Shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim” deydi.

Muqaddas islom dinimizning bu borada ko‘rsatmalari qanday?

“Ey iymon keltirganlar! O‘zingizni va ahlingizni yoqilg‘isi odamlaru toshdan bo‘lgan o‘tdan saqlang...”. (Tahrim6). Shunday ekan o‘tib kelayotgan yosh avlodni, ularning ongiga ta‘sir qiluvchi har qanday salbiy holatlardan himoya qilish iymonli kishilarning burchi ekan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bas, biz yoshlar oldimizdagi ulkan katta marralarga yetishimiz uchun bugungi vaqtimizni zoye qilmaslikka, keraksiz internet balosiga kirib ketmaslikka, berilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanishga, vatanimiz, dinimiz uchun xizmat qiladigan fidoyilardan bo‘lishga intilmog‘imiz va doimo harakatdan to‘xtamasligimiz shart!

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi o‘zbekiston strategiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2021. - B.299.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. T.: Ma‘naviyat, 2006. B.214-216.
3. Islomov Z.M., Sirojiddinov Sh.S., O‘sarova F.X. Buyuk allomalar ijodida ahillik va bag‘rikenglik g‘oyalari. - T.: JIDU, 2005. – B.4.
4. Valixonova G. Millatlararo munosabatlarni mustahkamlanishida milliy-madaniy markazlar faoliyati//Madaniyat chorrahalarida/2020, 1-son.



## QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

**Rasuljanova Shahzoda Ilhomjon qizi***Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti talabasi**Gmail: [shahzodarasuljanova@gmail.com](mailto:shahzodarasuljanova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qadriyatimiz haqida gap borgan, oldingi va hozirgi qadriyat hamda urf-odatlar taqqoslab berilgan, shu bilan birga biz uchun ma'lum bir miqdorda qadriyatlarimizga salbiy ta'siri ko'rsatayotgan illatlar haqida ham aytib o'tilgan.*

**Kalit sozlar:** *qadriyat, madaniyat, strategiya, islohot, qomus, mustaqillik, urf-odat, zamon.*

Bugun, taassufki, ijtimoiy tarmoqlarda yoxud internet ommaviy axborot vositalari bizning ma'naviyatimiz kaliti bo'lmish kitoblarimiz, gazeta hamda jurnallarimizning o'rnini egallash arafasida. Yoshlarning ularga nisbatan qiziqishlari yo'qolganligi oqibatida ilmga bo'lgan mehr va hurmat pasaygandek, nazarimda. Shuning oqibatida, tilimizga hurmatsizlik kelib chiqayotgandir. Endi shu kabi masalalarni ko'rib chiqsak. Qadriyatlarimiz jilosini ko'rsata olmayapmiz.

«Qadriyat» atamasi bizga arabcha «qadri» so'zidan kirib kelgan va bu tushuncha «borliq va jamiyatdagi biror bir narsa va hodisaning kishilar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatni ifoda etish uchun qo'llanilmoqda. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni shundan iboratki, «qadriyat» so'zi qadim zamonlarda paydo bo'lgan va barcha xalqlar tillarida mavjuddir.

Avvallari milliy urf-odatlarimiz to'ylarimizda, bazmlarimizda aks etardi, lekin bugungi kunda «Ommaviy madaniyat»ning jirkanch illatlari qadriyatlarimizning o'rnini egallamoqda. Oldingi to'ylar bilan bugungi to'ylar orasida katta farq bor. Hoziri kunda yoshlarimiz Yevropadan kelayotgan zararli voqeliklarni odat tusiga kiritishmoqda «Love story» va shu kabi illatlar bir paytlar noodatiy holat edi. Bugun esa yoshlarimiz bu odatlarni xuddiki oddiy voqelikdek qabul qilishmoqda. Bu juda ham achinarli, albatta. Qadriyatlar millatning ko'zgusi. Xalq qadriyatlarida o'z aksini ko'radi.

Afsuski, bugun ana shu ko'zguga dog' tushmoqda. Bu shunday dog'ki, vaqtida ketkazmasangiz, qalinlashib boraveradi. Bugun ana shu fojia yuz berayotgandek, qadriyatlarimiz ustuni tobora nurab borayotgandek. Lekin biz buni bartaraf etishimiz kerak. Bu uchun, avvalambor, o'zimizni so'ngra farzandlarimizni tarbiyaga chaqirishimiz darkor.

Zero, tarbiya oiladan boshlanadi. Qadriyatlarimizning qadrsizlanishiga asosiy sabab oilalardagi tarbiyaning «zamonaviylashib» borayotganidadir. Yoshligimizda bizga:

“O‘zingdan kattaga joy ber, o‘zingdan kattaga salom ber”,-deb uqtirishardi ota-onamiz. Ammo bugun bu pand-nasihat hamma oilada ham yangrayvermaydi. Buning natijasi o‘laroq, yoshlar orasida kattalarga hurmat hissi yo‘qolib bormoqda. Jamoat transportlarida yoshi katta ayollar-u erkaklarga, hatto, homilador ayollarga ham joy berishni o‘ziga “ep ko‘rmaydigan” yoshlarimizni uchratishga odatlanib qoldik. Yana bir sabab, shak-shubhasiz, xorijiy seriallar. Bugun o‘zbek serialidagi “qaynotaning keliniga hushomad qilishi”, “ukaning akaning xotiniga ko‘z olaytirishi” va shunga o‘xshash mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan “yevropacha” odatlar chet el seriallaridan “o‘rnak olish” natijasidir. O‘z navbatida televizorda xiyonatni, buzuqlikni ko‘ravergan bolaning diydasi qotadi, u uchun bu tushuncha oddiy holatga aylanadi. Qarabsizki, “Oila – muqaddas”, “Xiyonat oilani buzadi”, “Begona ayol nomahram” kabi ota-bobolarimiz kaftida asrab kelgan ma’naviy-ahloqiy qadriyatlar yo‘qolib boraveradi. Oldinlari o‘g‘il bolalar qiz bolalarga "qo‘polroq" hazil qilsa, qizlar keskin javob qaytarar, nafratini yashirmasdi. Bugun esa bunday gaplarni odatiy holdek qabul qiladigan qizlar, shu kabi illatlarni, qiliqlarni oddiy holdek bajaradigan yigitlar istagancha topiladi. Buning oldini olish uchun, avvalo, oiladagi tarbiyani mustahkamlash lozim. Men XXI asr farzandiman, deb ko‘ngliga kelgan ishni qilayotgan, men zamonaviy insonman deb qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakatlarni bajarayotgan: “Men erkin shaxsman”, “18 yoshdan keyin mustaqilman”,-deb ota-onasiga gap qaytarib, hatto, ularga qo‘l ko‘tarayotgan, demokratiya deb jirkanch ishlardan ham tap tortmayotgan yoshlarga murojaatim shu: “Vaqtida ko‘zingizni oching! Yon-atrofga qarang, bugun xohish-istaklariga erk bergan yoshlar ertaga nima bo‘lmoqda?” Bugun zamonaviy mashhurlik – “layk” uchun hayotini xavf ostiga qo‘yayotganlar yo‘q emas va ular nimaga erishmoqda?

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonning tayanchi sifatida ma’naviyatga, qadriyatlarga urg‘u berganida haq edi. Prezidentning: «Afsuski, hali oramizda milliy g‘oyaning, ma’naviyatning mohiyatini to‘liq anglab yetmaganlar, ma’naviyat kerakmi-yo‘qmi deb yurganlar ham yo‘q emas”,- degan fikrlari zamirida achchiq haqiqat yotibdi. Yon-atrofigimizga qarasak, oramizda o‘zi ham tushunmaydigan va hatto juda qo‘pol so‘zlar yozilgan liboslarni bemalol kiyib yuradiganlar kam emas. Bugun zamon shiddatli, taraqqiyotni istasak-da, to‘xtata olmaymiz. Ijobiy jihatlar bilan birga bu rivojlanishning salbiy illatlari ham yetarlicha. Asosiysi, keng ummondan tiniq suv bilan loyqa suvni ajrata bilishdir. Bugun internet bor, telekanallar ko‘p, aloqa vositalari bisyor. Va ana shu vositalardan o‘z o‘rnida foydalanib, ma’naviy jihatdan yuksak cho‘qqiga erishish mumkin. O‘z navbatida bugun bu vositalardan noo‘rin foydalanish tubsiz jarlikka yetaklashi ham muqarrar. Ammo asta-sekinlik bilan qadriyatlarimizni o‘z o‘rniga keltirishimiz uchun qattiq harakat qilishimiz kerak, shundagina ko‘zlangan maqsadga yetamiz. Qadriyatlarimizni qadirlang, zero o‘zbekligimiz bu baxt demakdir!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://abiturtest.uz/mavzular/qadriyat-nima/?ysclid>
2. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. JournalNX, 7(1), 311-314..
3. Ibragimovich, T. I. (2024). PEDAGOGICAL PROCESSES AND IMPORTANT ASPECTS OF ITS CREATION. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(1), 56-62.

## ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANI

**Madaminova Dilnura Bahodir qizi**

*Talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch*

*Email: [madaminovadilnura56@gmail.com](mailto:madaminovadilnura56@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yozuvchi Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanidagi obrazlar tahlil qilinadi, shuningdek, asarning mohiyati, yozuvchi mahorati, tarixiy voqealar haqida soʻz boradi.*

**Kalit soʻzlar:** *tarixiy roman, tarixiy obraz, tarixiylik, Beruniy, Mahmud Gʻaznaviy*

## “ABU RAYHAN BERUNI” NOVEL BY ISAJON SULTAN

**Abstract:** *This article analyzes the characters in the novel "Abu Rayhan Beruni" by the writer Isajon Sultan, and also talks about the essence of the work, the writer's skills, and historical events.*

**Key words:** *historical novel, historical image, historicity, Beruni, Mahmud Ghaznavi*

## РОМАН ИСАДЖАНА СУЛТАНА “АБУ РАЙХАН БЕРУНИ”

**Аннотация:** *В этой статье анализируются образы из романа писателя Исаджана Султана “Абу Райхан Беруни”, а также рассказывается о характере произведения, мастерстве писателя, исторических событиях.*

**Ключевые слова:** *исторический роман, исторический образ, историзм, Беруни, Махмуд Газневи*

Adabiyotning bosh quroli – bu soʻz. Soʻzning badiiy-falsafiy, ijtimoiy-estetik salohiyati yuksakdir. Har bir ijodkor ijtimoiy muhit va maʼnaviy ehtiyoj talablariga muvofiq yuzaga chiqadi. Bu narsa, avvalo, isteʼdodning tabiatida zuhur topadi. Xususan, togʻ yalpizi alohida parvarishni talab qilmaydi. Tabiatning sirli va sehrli bir moʻjizasi sifatida xushboʻy tarovatini, zumrad rangini, aqiq jozibasini yilning toʻrt faslida birday saqlab qoladi. Yoz jaziramasini-yu qish ayozida ham oʻzligini yoʻqotmaydi. Badiiy isteʼdod ham Alloh inʼom etgan noyob javhardir. Chinakam isteʼdod togʻ yalpizi misoli, hatto xazon boʻlsa ham, asl rangi-yu tarovatini yoʻqotmaydi. Isajon Sulton ana shunday yorqin, noyob isteʼdod sohibi, zamonaviy oʻzbek adabiyotida oʻz soʻziga ega yozuvchilardan biri.

Tarix va adabiyot uzviy bog‘liqdir. Zero tarixni o‘rganmasdan turib, kelajakni yaratib bo‘lmaydi. Tarix haqiqatlarni so‘zlaydi. Moziylarda sado kelganda, adabiyot uni kuyga soladi, adabiyot shonli tarixni tarannum etadi. “Zero tarixdan bexabar xalq mazlum xalq, tarixni asragan va bilgan xalq qudratli va tenglar ichida teng xalqdir”<sup>14</sup>. Darhaqiqat tarix saboqlari bizga ko‘p narsani o‘rgatadi, ko‘plab sinoatlardan ogoh etadi. Shonli tarixdagi ulug‘ ajdodlarimizning dinu-e‘tiqodlari, yaratgan san‘at asarlari, ilmu-ziyolari bugungi avlod yuragida mayoq vazifasini o‘tamoqda. Adabiyot gulshanida o‘ziga xos betakror bog‘ yaratgan ham nazmda, ham nasrda ijod qilgan Isajon Sulton ijodida ajdodlar ruhi, siymosi singib ketgan. Tarixiy asarlarida shuni ko‘rish mumkinki, u tarixni puxta egallagan yozuvchi. Shoir ijodida tarixiylik yetakchilik qiladi, tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, tarixiy joylar yozuvchi asarlarining asosini belgilaydi.

Isajon Sulton uchun tarixiy voqelik bir vosita. Moziyga murojaat etish asosida xalqimizning qanchalar yuksak axloqiy madaniyatini, aqliy salohiyatini yoritadi. Uning “Abu Rayhon Beruniy” tarixiy-biografik romanida yurtimizning daho allomasi Abu Rayhon Beruniyning yorqin shaxsiyati, buyuk kashfiyotlarining yaratilishi tarixi bilan birga, o‘sha davrda Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan voqealar, shuningdek, hukmdorlar Qobus ibn Vushmgir, xorazmshoh Ma‘mun, sulton Mahmud G‘aznaviy bilan munosabatlari haqida batafsil hikoya qilinadi.

Muallifning o‘zi asar qahramonlari haqida shunday deydi: “Ushbu asarda yuzdan oshiq kishilar bor va ularning barchasi Beruniy haqida so‘z aytishadi. Bu xuddi bir yoritqich atrofida samo jismlarining aylanishiga o‘xshaydi.” Beruniy ulug‘vor va ezgu maqsadlarni ko‘zlagan birgina kishi o‘z hayoti mobaynida nimalar qila olishi mumkinligining yorqin timsolidir. Sabot va matonat, to‘g‘rilik va halollik uning hayotining oltin qoidalari edi. Shu sababli asrlar davomida avlodlar e‘tirofiga sazovor bo‘ldi, nomi tarix zarvaraqclariga muhrlandi.

Xulosa qilib aytganda, tarix – bu ezgulik bilan yovuzlik ko‘rinishlarining boqiy kurash jarayonlari demakdir. Tarixiy asarlar o‘quvchining inson haqidagi tasavvur-tushunchalarini kengaytiradi. Inson tirik ekan, buyuklik va ojizlik, yuksaklik va tubanlik, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik yonma-yon yashar ekan. Inson o‘z xalqi tarixining sahifalaridan boxabar bo‘larkan, o‘zi uchun mustahkam ma‘naviy asosni yaratadi. Bu yo‘lda “Abu Rayhon Beruniy” asari kata ahamiyatga egadir.

<sup>14</sup> X.Davron “Bibixonim qissasi”. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent. 2006. 4 bet.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Isajon Sulton. Abu Rayhon Beruniy. T: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023.
2. Isajon Sulton nasri badiiyati: ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar/to‘plab nashrga tayyorlovchilar : G.Sattorova, M.Qo‘chqorova. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
3. N.Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O ‘quv qo ‘llanma. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2017.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.



## ХРОНИЧЕСКИЙ ГЛОМЕРУЛОНЕФРИТ

**Мухаммаджонова Зиёда Ахмад кизи**

**Ғоибназаров Абдулла Абдурахад оғли**

**Абдусаматов Нодирбек Илхомович**

*Ташкентский международный университет Кимё*

Хронический гломерулонефрит – группа иммунных заболеваний с двусторонним поражением клубочков почек и вовлечением в процесс других почечных структур. Код по МКБ X – N 03.

*Этиология хронических гломерулонефритов*

Выделяют первичные гломерулонефриты и вторичные (при системной красной волчанке и других системных заболеваниях).

*Клинические проявления хронических гломерулонефритов*

**Латентная форма** проявляется только изменениями в моче, клинические симптомы отсутствуют – до 50 % случаев хронического гломерулонефрита

**Гематурическая** – проявляется рецидивирующей гематурией, периодическим повышением АД – 20 – 30 %.

**Гипертоническая** – наряду с изменениями в моче отмечается стойкая АГ – 20 – 30 %.

**Нефротическая** – проявляется развитием нефротического синдрома (массивная протеинурия, гипоальбуминемия, отёки, гиперхолестеринемия) – 10 %.

**Смешанная форма** – нефротический синдром в сочетании с диастолической АГ и/или гематурией – около 5 % случаев

*Классификация хронических гломерулонефритов*

По течению

-Латентное течение – без клинических проявлений, отмечаются лишь изменения в анализах мочи.

-Рецидивирующее течение с выделением фаз ремиссии и обострения.

По данным биопсии почек

-Диффузный пролиферативный

-Гломерулонефрит с «полулуниями» (подострый)

-Мезангиопролиферативный

-Мембранозный

-Мембранопротролиферативный (мезангиокапиллярный).

-Фокально-сегментарный гломерулонефрит

-Фибропластический гломерулонефрит.

*Дополнительные исследования*

Метод	Диагностическое значение метода
-------	---------------------------------

Общий анализ крови	Повышение СОЭ умеренное при обострении первичного гломерулонефрита, существенное при вторичных нефритах.
Креатинин	Повышается при развитии ХПН
Холестерин	Определение показано при нефротическом синдроме
Общий анализ мочи	Протеинурия – минимальная при гематурической форме, умеренная (1 – 3 г/л) при латентной и гипертонической и массивная (более 3 г/л) при нефротической форме. Эритроциты – от единичных до сплошных в поле зрения. Лейкоцитурия представлена лимфоцитами. Цилиндры.
УЗИ почек	Контуры почек гладкие, их размеры не изменяются или уменьшаются, эхогенность почечной ткани повышается.
Биопсия почки	Выявляются изменения: склероз в клубочках и интерстициальной ткани, интра- и экстракапиллярная пролиферация, диффузная пролиферация мезангиальных клеток, гломерулосклероз.
ЭКГ	Показано при АГ – признаки гипертрофии левого желудочка

*Изменения в общем анализе мочи при гломерулонефрите*

Острый гломерулонефрит	Типично снижение суточного объёма мочи, повышение удельного веса, протеинурия 1 – 3 г/сутки, микро- или макрогематурия, цилиндры (чаще гиалиновые), возможно – умеренная лейкоцитурия.
Хронический гломерулонефрит	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Протеинурия:                             <ul style="list-style-type: none"> <li>– минимальная при гематурической форме,</li> <li>– умеренная (1 – 3 г/л) при латентной и гипертонической формах,</li> <li>– массивная (более 3 г/л) при нефротической форме.</li> </ul> </li> <li>• Эритроциты – от единичных до сплошных в поле зрения.</li> </ul>

- |  |  |
|--|--|
|  | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Лейкоцитурия представлена лимфоцитами.</li> <li>• Цилиндры: гиалиновые, зернистые, восковидные.</li> <li>• При развитии ХПН – снижение удельного веса мочи (1010 – 1012). Анализ мочи по Зимницкому в таких случаях нередко выявляет полиурию и никтурию</li> </ul> |
|--|--|

#### *Экспертиза трудоспособности и МСЭ*

Ориентировочные сроки **временной нетрудоспособности** при обострении хронического гломерулонефрита составляют 60 – 75 дней.

#### **Противопоказанные виды и условия труда:**

абсолютно противопоказаны: тяжелый физический труд; работа в заданном темпе (на конвейере), в статической позе, неблагоприятных производственных условиях (низкие или высокие температуры, повышенная влажность, сквозняки и т.п.), контакте с нефротическими ядами; работа, связанная с воздействием на организм вибрации, токов высокой частоты; ненормированный рабочий день, ночные смены; относительно противопоказан: физический труд средней тяжести, работа, связанная с длительным пребыванием на ногах, значительным нервно-психическим напряжением.

#### **Показания для направления на МСЭ:**

- хронический гломерулонефрит непрерывно рецидивирующий,
- текущий нефротический синдром,
- прогрессирующая или высокая АГ (III степень),
- внепочечные осложнения заболевания или лечения,
- впервые выявленная или прогрессирующая ХПН.

#### *Диспансерное наблюдение*

Диспансерное наблюдение осуществляется совместно участковым терапевтом и нефрологом. Главные задачи наблюдения: предотвращение дальнейшего прогрессирования заболевания, контроль эффективности проводимого лечения. Кратность диспансерных осмотров и рекомендации зависят от формы гломерулонефрита. При **изолированном мочевоом синдроме** кратность осмотра не менее 2 раз в год. Диетические ограничения минимальны (соль до 6 – 8 г в сутки, ограничений в приёме жидкости нет, белок – 1 г на кг массы тела в сутки). При **гипертонической форме** кратность осмотров не менее 4 раз в год. Количество соли ограничивают до 5 г/сут, не рекомендуют принимать более 1,5 л жидкости в сутки.

Частота проведения исследований для контроля состояния органов-мишеней зависит от достигнутых при лечении цифр АД. Гипотензивная терапия: препаратами выбора являются ИАПФ (антипротеинурический эффект, снижение гиперфункции нефронов при ХПН) и антагонисты кальция. При **нефротической форме** кратность осмотров – 1 раз в 2 месяца. Диетические ограничения наиболее жёсткие (соль до 3 – 4 г/сут, жидкость до 600 – 800 мл в сут, белок до 1,5 г на кг массы тела в сутки).

Больным не рекомендуется:

- участие в спортивных соревнованиях,
- походы с ночлегами вне помещений,
- купание в открытых водоёмах при температуре воды ниже 22°C (при этом длительность купания не более 10 минут с обязательным переодеванием в сухую одежду).

Запрещается:

- длительное нахождение на солнце,
- занятие тяжёлым физическим трудом.

Одеваться следует по сезону, избегая как переохлаждения, так и перегревания.

*Дифференциальный диагноз при мочевом синдроме*

Симптом	Уретрит	Цистит	Гломеруло-нефрит	Пиелонефрит
Протеинурия	-	-	+ / + + / + + + +	+
Гематурия	-	+ / -	+ + / + + + +	- / +
Лейкоцитурия	+ (в 1 порции)	+ / + +	+ (лимфоциты)	+ + / + + + +
Бактериурия	+ / -	+	-	+
Лихорадка	-	-	+ / -	+
Ознобы	-	-	-	+
Дизурия	+ (жжение в конце мочеиспускания)	+ + +	- / +	+ / -

<i>Боли в пояснице</i>	-	-	+ (чаще двусторонние)	+ (чаще односторонние)
<i>Боли внизу живота</i>	-	+ (надлонным сочленением)	-	-

**ИСПОЛЬЗОВАННЫЙ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Ибрагимович Т.И. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАВЫКА СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ ВО ВРЕМЯ НЕПРЕРЫВНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ. ЖУРНАЛ МЕЖДУНАРОДНЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 1 (2), 92-94.
2. Дамирович М.Р., Ибрагимович Т.И. и Саттарович А.У. (2022). Роль духовно-просветительских мероприятий в продвижении идей религиозной толерантности и международного здравоохранения. Бразильский журнал имплантологии и медицинских наук, 4 (5), 42-47.
3. ДАМИРОВИЧ М.Р., ИБРАГИМЪЯНОВИЧ Т.И. и УГЛИ К.Н.К. (2021). Роль семьи, общества и образования в развитии патриотического духа у молодежи. ЖурналNX, 7(1), 311-314..
4. Ибрагимович Т.И. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС И ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ЕГО СОЗДАНИЯ. ЖУРНАЛ МЕЖДУНАРОДНЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 1 (1), 56-62.

**DYSTOPIAN FICTION: LANGUAGE, POWER, AND CONTROL****Iskandarova Kamola Ulug'bek kizi***Student of UzSWLU*[\*iskandarovakamola77@gmail.com\*](mailto:iskandarovakamola77@gmail.com)

**Abstract:** *This article explores the theme of language, power, and control in dystopian fiction. Through an examination of seminal works such as George Orwell's "1984," Aldous Huxley's "Brave New World," and Margaret Atwood's "The Handmaid's Tale," the article delves into how language is manipulated as a tool of authority in oppressive societies. It discusses how language is used to shape perception, enforce social hierarchies, and consolidate control, while also examining its role in subjugating marginalized groups. Furthermore, the article explores instances of resistance and the reclaiming of language as a means of empowerment in the face of oppression. By analyzing the intricate relationship between language and power in dystopian fiction, this article sheds light on the broader sociopolitical implications of linguistic control.*

**Keywords:** *dystopian fiction, language, power, control, manipulation, oppression, resistance, marginalized groups, sociopolitical implications*

**INTRODUCTION.**

Dystopian fiction has long captivated readers, offering compelling narratives that explore the intricate relationship between language, power, and control in oppressive societies. Within

this genre, the manipulation of language emerges as a central tool for those in authority to shape perception, enforce social hierarchies, and consolidate control. By delving into renowned dystopian works, including George Orwell's "1984," Aldous Huxley's "Brave New World," and

Margaret Atwood's "The Handmaid's Tale," we can gain a profound understanding of how language becomes a battleground for power in dystopian societies

**Language as a Manipulative Force**

In dystopian fiction, language assumes the role of a potent instrument of manipulation, enabling those in power to control the thoughts and actions of the populace. George Orwell's "1984" introduces the totalitarian regime of Big Brother, where Newspeak is implemented—a

language specifically designed to limit individuality and critical thinking. Through the systematic eradication of words and concepts associated with rebellion or dissent, the Party



effectively restricts the ability to articulate ideas that challenge their authority, ensuring conformity among citizens.

Similarly, Aldous Huxley's "Brave New World" presents a society where language is employed to pacify and control the masses. Inhabitants are conditioned from birth to accept societal norms through the use of slogans and hypnopædic messages. The language in this dystopia reinforces conformity and discourages independent thought, thereby cementing the

World State's hold over its citizens, who become compliant participants in a highly controlled and stratified society.

#### Oppression and Subjugation Through Language

Dystopian fiction frequently delves into the subjugation of marginalized groups through language, providing a reflection of real-world power dynamics. Margaret Atwood's "The Handmaid's Tale" vividly illustrates the use of language to control women within the theocratic

society of Gilead. Handmaids are stripped of their names and referred to solely by the possessive form of their commanders, effectively erasing their individuality and reinforcing their subservience.

Moreover, in "The Handmaid's Tale," the manipulation of language is exemplified by the term "Particicution." This newly invented word combines "participation" and "execution" to describe a public execution carried out by the Handmaids themselves. By distorting language, the regime attempts to normalize acts of violence, blurring the lines between oppression and societal duty, thereby further reinforcing control over the populace.

#### Resistance and Reclaiming Language

Dystopian fiction often examines the role of language in resistance movements, offering a beacon of hope amidst oppression. In Ray Bradbury's "Fahrenheit 451," a society enforces control by banning and burning books. Through the character of Clarisse, the novel highlights language's transformative power in fostering critical thinking and inspiring resistance to censorship. By initiating thought-provoking conversations and promoting curiosity, Clarisse disrupts the status quo, prompting the protagonist, Guy Montag, to question his passive acceptance and transform into a catalyst for change.

Furthermore, in George Orwell's "1984," Winston Smith's forbidden love affair with Julia becomes an act of rebellion in itself. Their shared private language, which they call their

"own personal newspeak," serves as a form of resistance against the Party's control over communication. In their intimate linguistic space, they find solace and a sense of individuality within a dehumanizing society, demonstrating the power of language to carve out pockets of freedom even in the most oppressive environments.

**CONCLUSION:**

Dystopian fiction provides a profound framework for analyzing the intricate interplay between language, power, and control. By examining seminal works such as "1984," "Brave New World," and "The Handmaid's Tale," we observe how authoritarian regimes utilize language as a tool for manipulation and domination of the masses.

Nevertheless, even in the most oppressive societies, dystopian narratives offer glimpses of hope. They highlight the potential for resistance and the reclamation of language as a means of empowerment and liberation.

**REFERENCES:**

1. Atwood, M. (1985). *The Handmaid's Tale*. Houghton Mifflin Harcourt. <http://www.umsl.edu/~alexanderjm/HandmaidsTale.pdf>
2. Bradbury, R. (1953). *Fahrenheit 451*. Simon & Schuster.
3. Huxley, A. (1932). *Brave New World*. Harper & Brothers. <https://200.hc.com/stories/aldous-huxleys-brave-new-world/>
4. Orwell, G. (1949). *1984*. Secker & Warb

---

**THE NATIONAL BUDGET AND ITS COMPOSITION.****Samadar Siddiqzhanov**

*Is a 2nd year student of Namangan  
Engineering and Construction Institute.*

**Abstract:** *This article provides information on the concept of the country's budget and its contents.*

**Keywords:** *budget, chancellor, government budget, state budget, Defitsit, profit, expenses, executive body)*

Budget (from the Old Norman bougette meaning purse, bag, sack of money) is a financial plan for a certain entity (family, business, organization, state, etc.), established for a certain period of time, usually for one year. Approaches to the study and use of budgets vary depending on the sector of the economy: the corporate sector, the public sector or the household sector - in each of them the budget has its own characteristics that differ from others.

The word budget comes from the Gallo "bouge" and then the former French. "bougette", which was a small purse attached to the belt and containing small change that was used for everyday expenses.

The word came into use in England in the Middle Ages, where it was understood as the bag of the Chancellor of the Exchequer in which he presents bills and other supporting documents to Parliament, and later it gradually took on the meaning of a current "budget". The word disappeared from use in French for many centuries, and returned to French already in the 17th century. from the English language already in the modern sense of the word.

According to American professor Anthony Atkinson, a budget is a quantitative expression of cash inflows (revenues) and outflows (expenses) that predict the consequences of current operating decisions and the ability of the financial plan to meet the goals of the organization.

Types of budgets

The state budget

Main article: State budget

The state budget is the country's financial document. It is a summary of budget estimates for all departments, government services, government programs, and so on. It defines the

needs to be met from the state treasury, as well as the sources and amounts of expected revenues to the state treasury.

If planned government budget revenues exceed budget expenditures, then this is called a budget surplus (or budget surplus). If planned budget expenditures exceed revenues, then this is called a budget deficit (or budget deficit). When, during the execution of the budget, the level of the budget deficit exceeds the indicator established when the budget was approved, or there is a significant decrease in expected budget revenues, the representative body of government (based on proposals from the executive body) decides to introduce a mechanism established by law to reduce expenses. Such a “cut” of budgeted expenses is called sequestration.

Budget in the organization

Main article: Organizational budget

Budget is a document that describes the activities of the Financial Responsibility Center (hereinafter referred to as FRC) or a separate functional area (for example, sales, purchasing, production, etc.) for a certain period, expressed quantitatively in cost and/or physical indicators[4]. Main types of budget:

A functional budget is a budget compiled by the Central Federal District for a specific functional area for which it is responsible (for example: sales budget, purchasing budget, inventory budget, electricity budget, wage budget, etc.). The functional budget includes the limiting factor. “Limiting factor” is a factor that limits the capabilities of the Central Federal District in planning. For industrial central federal districts, the limiting factor will be sales volume. For the Central Federal District responsible for procurement, this factor needs to establish the volume of production. Functional budgets are formed in a certain sequence, in the same sequence as planning is carried out in the company. The main feature of functional budgets is that they can be expressed both in physical and monetary terms. Functional budgets lay the basis for all economic and financial modeling, since they operate with the plans of specific departments and central federal districts at the level of natural indicators.

Budget for the financial responsibility center. - is compiled on the basis of functional budgets, just as a construction kit is compiled from various parts, but in the end it takes on a finished form, so does this type of budget. It characterizes the work plan of the Central Federal District within the planning period in value terms in three types of activities: operating, financial and investment.

The management budget is the top-level budget, it is also called the Master Budget or the General Budget. Experts mean by this concept a combination of three budgets[6]:

budget of income and expenses (BDR);

cash flow budget (CFB);

budget on balance sheet (BBL).

Based on the nature of budgeting, there are two approaches:

Yuqoridagi fikr orqali biz Farobiyning yana bir dolzarb va zamon va makon talab qilmaydigan masalaga e‘tibor berganliklarini va bu haqida o‘zlarining qimmatli fikrlarini qoldirganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Inson hayotining o‘zi taqsimot va rejalashdan iboratdir. Biror nimaning hisobini olar ekanmiz Farobiyning fikrlarini yodga olishimiz kerak. Farobiy o‘z taqsimotida e‘tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan narsalar va ularning ketmakteligini ko‘rsatib o‘tgan. Bunga ko‘ra avvalo uy-joy uchun yer ajratish kerakligi undan keyin dehqonchilik uchun ekin maydonlari ajratilishini ta‘kidlaganlar. Undan keyin esa saroylar va yuqori martabalari kishilar uchun hovli uylarga yer ajratilishini aytganlar. Lekin bu aytilganlarga amal qilinmasligiga guvoh bo‘lganmiz.

Farobiyning bu qadar teran va chuqur dunyoqarash egasi bo‘lishliklarining asosiy sababi sifatida falsafaning ona vatini bo‘lmish Yunoniston olimlarining asarlarini ko‘p mutolaa qilganliklari va asarlariga ko‘plab sharhlar yozganliklarini ko‘rsatishligimiz mumkin. Bu borada Farobiy o‘zlariga ustoz sifatida bilganlari va ijodiga eng ko‘p qiziqqan Palatonni olishimiz mumkin.

Tarixda shunday voqea bo‘lib o‘tganligi qayd etiladi. Qomusiy olim Ibn Sino Arastuning “Metafizika” asarini 40 marta o‘qib ham tushuna olmagan ekan. U surunkali mutaoladan charchagan, bozor aylanishni ixtiyor etadi. Baxtli tasodifni qarangki, bozordan xarid qilgan

kitobi Forobiyning Arastu asariga yozgan sharhlari ekan. Ibn Sino kitobni bir marta o‘qib chiqishdayoq Arastuning “Metafizika” asari mohiyatiga to‘la tushunib yetadi.[1]

Albatta bu kichik hikoyani so‘nggi so‘z o‘rnida keltirdik. Qomusiy olimimiz haqida qancha gapirsak shuncha kam. Ularning hayoti va ijodlarining o‘rganilishining va shu kunga bu o‘rganish ishlarining tugamaganligi ularning qanchalik boy madaniy me’ros qoldirib ketganliklarining isbotidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O‘rmonov, P. Xoshimov, F. Egamberdiyev. Toshkent – 2005. 59-60-betlar.
2. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (Darslik). Toshmatov Sh.X., Asatullaev X.S., Allaberganov Z.G. Toshkent – 2018. 47-bet.
3. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. D.S. Djumonov, Z.G. Allaberganov. “Iqtisod-Moliya”. Toshkent – 2017. 47-bet.

## THE ITALIAN TRANSLATION OF „BABURNAMA“

Ismoilova Shaxnoza Aziz qizi

*An English teacher of school N9 in Akhangaran city, Tashkent region*[shaxnozaismoilova68@gmail.com](mailto:shaxnozaismoilova68@gmail.com)**ABSTRACT:**

*The article gives a brief information about about Zahiriddin Mukhammad Babur, as well as an Italian translation of „BABURNAMA“ by Sandro Teti and his brief opinion about Babur and his personality.*

**АННОТАЦИЯ:**

*В статье даются краткие сведения о Захириддине Мухаммаде Бабуре, а также итальянский перевод «БАБУРНАМА» Сандро Тети и его краткое мнение о Бабуре и его личности.*

**ANNOTATSIYA:**

*Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur haqida qisqacha ma'lumot berilgan bo'lib, unda „Boburnoma“ ning Sandro Tesi tomonidan italyan tiliga tarjimasi va uning Bobur shaxsi haqidagi fikrlari bayon qilingan.*

**KEY WORDS:** „Baburnoma“, Italian translation, Franco Cardini, memoirs, heritage.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** «Бобурнома», итальянский перевод, Франко Кардини, мемуары, наследие.

**KALIT SO‘ZLAR:** „Baburnoma“, Italyancha tarjima, Franko Kardini, yodgorliklar, meros.

Zahiriddin Muhammad Babur(1483-1530) was born in Fergana in Transoxiana (modern Uzbekistan and Tajikistan).He occupied the throne of Fergana at the age of twelve. Because of the incursion of Shaybani Khan to Samarkand,Babur had to leave his homeland. Spending years winning kingdoms and experiencing a few losses , he became a monarch of Kabul and emperor of Hindustan.<sup>19</sup> Babur decided to write about all his life in Chaghatay Turkish language which was the Timurid’s spoken language. Babur noted down all the events that occurred :about important people of his time ,their characters,geographical locations,plants,fruits. Undoubtedly, the "Boburnoma" is considered as Babur's masterpiece,as well as it is the historical-biographical work which tells about the historical events that took place in Central Asia, Afghanistan, India and Iran in the 15th-16th centuries. "Boburnoma" has been translated to more than 30 languages: 4 options in Persian,6 options in English,4 options in Russian,German,French and Turkish,3 translated options in Dutch,Italian,Poland,Indian,Spain,Khazah,Arabian and so on.All these translations claims the essentiality of the work.

Sandro Teti Editore, one of the Italian leading publishing houses which is specialized in historical, scientific-public oriented literature, published Zahiriddin Muhammad Babur's

<sup>19</sup> The Baburnama.Memoirs of Babur ,Prince and Emperor. Weeler M.Thackston.Oxford University press.p9-10.

famous work "Boburnoma" in Italian. Sandro Teti says that "Italians should know the culture of Uzbekistan better.

He also emphasises that the memory book, skillfully arranged on the basis of extremely important and multifaceted information, can be compared to a valuable living encyclopedia in terms of content. "Boburnoma" reflects ancient values, intellectual and spiritual treasures of the people like a mirror.

This publication was created as an effective and bright example of literary, cultural and humanitarian cooperation between the Uzbek and Italian peoples. In 2023, not only in Uzbekistan, but also in many countries around the world, the 540 st birth date anniversary of Zahiriddin Muhammad Babur was widely celebrated. Babur Mirza is one of the Temur's further descendant, a sensitive poet, a famous statesman left a unique and rich creative-scientific heritage.

It is known that "Boburnoma" has attracted the attention of Eastern and Western researchers in different scientific fields for many centuries. This rare book, which has been translated into many languages of the world, is now available to Italian readers for the first time.

A large group of qualified translators, editors and designers led by the head of this publishing house, Sandro Teti, was involved in the process of publishing the work in Italian. Rector of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, professor Shuhrat Sirojiddinov and famous Italian Turkologist, professor Federico De Rensi participated in the preparation of the book as scientific and literary editors.

In the introduction to the work "Baburnoma" written by the famous Italian scientist and writer Franco Cardini, Babur is described as "a great ruler who loved the art of words or a great writer who loved the kingdom". A European reader who decides to read "Boburnoma" will definitely not be able to resist it. At the same time, humanist Pope Pius II - "Comments" of Enea Silvio Piccolomini, autobiographical comments of Emperor Peter Leopold Habsburg come to mind involuntarily; sometimes the reader feels like reading Montaigne, and sometimes Marco Polo or Frederick the Great or Melville," says Cardini.

The translator Federico Pastore, in his review of the book, emphasizes that "Boburnoma" is "the first true example of an autobiographical work typical of Islamic civilization, which allows to reconstruct the daily life of its time."

The Italian translation of the work is based on the English translation by Wheeler M. Thackston, who preserved all the features of Babur Mirza's memoirs as much as possible and completely, as the integrity of the memories clearly reflects the vivid image of one of the main characters in the history of Asia in the 16th century".

This edition is decorated with 96 artistic miniatures from the Babur's period. These pictures were an advanced direction of painting that revealed the characters and inner world of book characters in a real, realistic way, taking into account historical, geographical, and etymological factors of the time. Famous miraculous paintings are distinguished by their colors, elegant decorations and deep meanings.

The book "Boburnoma", published in many copies, is presented to many book centers in Italy and Europe. Below, the famous Italian scientist and writer Franco Cardini's essay on "Boburnoma" is published with partial reductions:

Zahir al-Din Muhammad is a great person known at the same time as Babur (Babur is a Muslim noble name that means babr in Persian, i.e. "tiger", just like Timur's name means "iron"). His life and work can be a wonderful and bright example of the Turanian culture, which was formed in the vast expanses between the Caspian Sea, Hindikush and Tiyan Shan mountains, occupied by the Orol-Altai tribes, which are the ancient treasure of Iranians.

Over time, the Turkic peoples to which Babur belonged managed to build a common culture with the Iranians, despite the thousands of diversities between them, and worked linguistically within the framework of the Turkish-Iranian-Arabic "triad". That is, during their lives, they alternately used the Arabic language, which sometimes talks about Allah and with Allah, sometimes the Persian language, which expresses love and happiness, and sometimes the Turkish language, which shows military potential and fighting power.

Babur was born in February 1483 in Andijan, an ancient city located on one of the branches of the Silk Road. This city is located between Koshgar in China's Xinjiang region, Osh in Kyrgyzstan and Kokan in Fergana valley, in today's Uzbekistan.

Babur is the great legendary ruler of Samarkand, the eldest son of Umarshaikh Mirza, a distant descendant of Genghis Khan, and Qutlugh Nigorkhanim, a noble princess. He spoke the old Uzbek language, but he also knew the Persian language, which is common to all of Central Asia, and, of course, the Arabic language for reciting, understanding and interpreting the Qur'an. Babur's followers and his army were ethnically diverse.

Babur lived a short life: he died in 1530 in the city of Agra in northern India, where the wonderful Taj Mahal was later built. At that time he was 47 years old, which is not a very young age for the 16th century (he was only five years older than Napoleon, who died almost three hundred years later. However, it should not be considered that in the 19th century, doctors of the island of St. Helena were stronger than the Indian court healers of the 16th century, but the opposite may also be the case). Between 1511 and 1512, Babur managed to capture several cities that had once belonged to Amir Temur's state before retreating south to mountainous Kabul.

After that time, the way to India was also opened for him: it was at this destination that the princes of the Lodhi dynasty of Lahore and the alliance of Indian Rajputs incited him to conquer the peninsula, which was rich in natural resources.

Finally, Babur decided to launch a military campaign: at the battle of Panipat in 1526, due to his swift and brilliant military tactics and the superiority of his cannons he won a victory over Ibrahim II, who was the last representative of the Lodi rulers.

After that, Babur stayed in India. But this country did not please the king: the words he wrote complaining about the harsh climate of the country, the lack of good horses and ice, and the quality of food, which are preserved in the pages of "Boburnoma". This may seem a bit strange as Babur was a person who loved life and the blessings of it. Although he spent his life on the throne, he liked to do artistic work. We can get to know a lot about Babur,



even a lot of information about the king's personal life, including his pains, worries, and feelings directly through the works he created.

In Kabul, in his own words, "the most beautiful gardens in the world" were built by his order (these magnificent gardens were preserved until 2002 - until the failed American invasion in Afghanistan).

All this and many other unique information is revealed to us through "Boburnoma", which was written in the old Uzbek language and later translated into many languages, including Italian.

A European reader who decides to read "Boburnoma" will definitely not be able to resist it. At the same time, humanist Pope Pius II - "Comments" of Enea Silvio Piccolomini, autobiographical comments of Emperor Peter Leopold Habsburg come to mind involuntarily; sometimes the reader feels like reading Montaigne, sometimes Marco Polo or Frederick the Great or Melville.

Babur is a great ruler who loved the art of words or a great writer who loved the kingdom as mentions Franco Cardini, a famous Italian scientist and writer.

In conclusion we can say that Babur left us an incomparable heritage as „Baburnama“ that teaches us all about our country, its history, nation, ancestors, their habits, military tactics, fauna and flora and so on. This is not only a diary, travelogue, memoir, autobiography, chronicle of historical value, but this magnificent work also clearly demonstrates the scientific and artistic potential of the author, who denies the false and lofty literary styles of his time.

#### REFERENCES:

1. З.К.Тешабаева. Сравнительный анализ концепта «слово» в английском переводе в произведении «Бабур-наме»..УзГУМЯ.г.Ташкент.
2. Weeler M.Thackston. The Baburnama.Memoirs of Babur ,Prince and Emperor..Oxford University press.p9-10.
- 3.<https://fledu.uz/uz/italiyada-boburnoma-asari-chop-etildi/>
- 4.<https://society.uz/news/detail/news/312>

## FAKE NEWS

**Ibragimova Noila***O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy**kommunikatsiyalar Unversiteti**Xalqaro audio visual jurnalistika fakulteti**teleradio yo'nalishi 4-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** *Dunyo miqyosida Internet ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan “ Fake news” yolg'on xabarlarini aniqlash va uni kamaytirish va axoliga toza xabarlarini yetkazish.*

**Kalit so'zlar:** *Fake news, Fake, Xabar, Xalq, Ijtimoiy tarmoq, Rasmiy, Norasmiy, Sayd, Yangilik, Yolg'on.*

“ Fake yangilik “ tushunchasining paydo bo'lishi tarixi haqida gap ketganda, uning ildizlari antic davrlarga borib taqalishi haqida ma'lumotlar bor.

Fake xabar og'izaki kommunikatsiyaning rivojlanishida bunday axborotdan turli qarama-qarshiliklar manfaatlar yo'lida foydalanilgan. Soxta, uydurma axborotning o'zaro so'zlashuvdagi og'zaki ko'rinishi hozir ham saqlanib qolgan va uning ta'sir kuchi zamonaviy “ fayk “ lardan kam emas. Xalq og'izaki ijodining rivojlanishi tufayli “ feyk “ axborotlarning bir qismi ertagu dostonlarga ko'chadi. Xar bir millatning nomoddiy boyligi xisoblangan ertaklari, dostonlari, afsonalarda fitna, yolg'on, uydurmalar orqali ijobiy qahramonlarga qarshi yomonliklar aks etgan. Ular aslida muayyan bir xalqning tabiati, milliy xususiyatlar, turmushtarzining ifodasi bo'lgan. Yozma adabiyot paydo bo'lgandan keyin soxta uydurma axborot aks etgan xolatlar badiiy asarlar mazmunida uchraydi.

Feyk news – ( inglisch ) soxta, qalbaki degan ma'nolarni anglatadi. Haqiqatga juda o'xshab ketadigan yolg'on xabarlar, maxsus dasturlar orqali o'zgartirilgan foyosuratlar, montaj qilingan videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlarda boshqa shaxslar ( odatda mashhur insonlar ) nomidan ochilgan yolg'on akkauntlar feyklarga misol bo'la oladi.

Axborot platformalarida “ feyk “ atamasi ancha faol aylanmoqda. Qandaydir xabarlarining shov-shuv bo'lib keng rezonansga sabab bo'lishi, biroz muddatdan so'ng esa uning “ feyk “ bo'lib chiqqani haqidagi xabarlar ham tez-tez uchrab turibdi. Shu bois feyk tushunchasini yaxshiroq tanib olish va undan himoyalanih muhim.

Feyk – inglisch “ fake “ so'zining analogi bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda ko'pincha 2 xil “ trick “ – quv, ayyor, aldov, yasama, soxta degan ma'nolarda qo'llaniladi. Shu bilan birga ba'zan “ swindle “ – xazil, sho'xlik, xushchaqchalik degan ma'nolarni ham ifoda etadi. Turli manbalarga murojaat qilinganda “ feyk ” so'zining 20 dan ortiq islohi borligiga

guvoh bo’ldik : soxta, yolg’on, qalbaki, haqiqiy emas, bo’xton, aldoqchi, uydurma, noxolis, suniy, uyushtirilgan, ayyor, chalkash, nayrang, ig’vo xiyla, chalg’itish kabi so’lar ana shular jumlasidandir...

Yolg’on yashik bunday axborotlar jurnalistikada “feyk yangiliklar“ deyiladi. “ Feyk yangiliklar” yer yuzi axolisi qaysi qita, qaysi mamlakatda yashashidan qati nazar deyarli xar bir inson to’qnash kelish extimoli yuqori bo’lgan faol media platformadir. Xo’sh, u qanday platforma? Uni kim qanday joriy etgan, kim tayyorlaydi, kim boshqaradi, Xozirgi axborot almashinuvi jarayonlarida “ feyk yangiliklar” ning o’rni qanday? U qanday mezonlarga bo’ysunadi? “feyk yangiliklar”ni xaqqoniy va to’g’ri axborotlardan ajratish mumkinmi? Jamiyatni, odamlarni yolg’on, soxta, uydurma xabarlardan xalos etish uchun nima qilish kerak? Nima sababdan “feyk yangiliklar” zamonaviy media makonning ajralmas qismiga aylanib qoldi? Bundany savollarning tug’ilishi o’z navbatida, “feyk yangiliklar” shunchaki axborotning bir turi emas, balki XXI asrda eng ko’p muxokama qilinayotgan axborotning yangi fenomeni sifatida nazriy va amaliy mohiyatini aniqlash, tadqiq qilishni taqazo etadi. Bu esa tabiiyki, Jurnalistika soxasi mutaxassislarini ham befarq qoldirmaydi. So’ngi paytlarda zamonaviy ijtimoiy fanlar tizimida olimlar va jurnalistlar, axborot xavfsizligi bo’yicha mutaxassislar

“ Fake yangiliklar “ muammosi bilan jiddiy shug’ullanmoqda.

“ FAKE NEWS” o’zi nimasi bilan insonlar e’tiborini o’ziga jalb qiladi? Fake xabarlarni kimlar tarqatadi? Nima sababdan axborotni mahsulot sifatida iste’mol qiladigan aholi yolg’on xabarlarga tez aldanib qoladi? Bularga birinchi o’rinda internetning rivojlanishini misol keltira olamiz. Fake xabarlarni ko’proq Xalq tili bilan aytganda yolg’onchilar ishlab chiqaradi. Ular rasmiy ma’lumotlarga ega bo’lishsa ham o’z sahifalarining prasmotiri uchun uydurma, bo’hton va yolg’on fiklar qo’shishadi va albatta shov shuvga aylantirish uchun rekka chiqarishadi. Fake xabar yozishda faktlardan, rasmiy va ilmiy iboralardan foydalanishmaydi, ular ko’proq jaydari, xalqchil va ba’zan axloq qoidaloriga zid so’zlardan foydalanishadi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki- ijtimoiy tarmoqlardan ko’p foydalanadigan insonlarning ko’p qismi xalqchil tushunchalrni qabul qiladi. Shu sababdan ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar, foto va videolar omma e’tiboriga xavola etilayotgan materiallar foydalanuvchilar orasida keng muhokama qilinayapti.

Jurnalist va yolg’on xabar tarqatuvchilar aslida bitta shaxsmi? Yo’q xar ikkisi ham alohida alohida shaxsdir. Ya’ni Jurnalistikada Jurnalistik surishtiruv 1-o’rinda turadi va bu journalist yetkazadigan xabarni sof bo’lishini ta’minlaydi. Fake tarqatuvchilar esa asosan yuritadigan blogidan prasmotr evaziga pul topuvchilardir, ularga xabarning sofligidan ko’ra

prasmotrning ko‘pligi muhim. Shu boisdan ham ular ko‘proq mish-mishlar qo‘shib chiqaradigan xabarlarini o‘z postlariga joylaydilar.

Nima sababdan Fake xabar tez tarqalishiga to‘xtaladigan bo‘lsak: Telekanallarda va rasmiy saytlarda beriladigan xabarlar tekshirilib, rasmiyligi bayonot qilinguncha ijtimoiy tarmoqlarda tezroq tarqaladi va bundan ko‘rinib turibdiki bitta xabarni o‘qigan inson yana o‘sha xabarni qayta o‘qigisi kelmaydi. Tabiiyki birinchi o‘qigan xabari tozalanmagan, surishtirilmagan norasmiy Fake xabar bo‘ladi. Mening fikrimcha yechim sifatida sof, haqiqiy xabarni yengil qilib, ya‘ni alqchil tarzda aholiga tezroq yetkazib berilsa fake ga o‘rin qo‘lmaydi. Shu o‘rinda ayta olamanki berilayotdan xabarlarning rasmiy saytlarini ham ommaga tanitish bir yechim bo‘lgan bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Fake News: Mediada dezinformatsiya. Nozima Muratova, Nazira Toshpo‘latova, Gulnoza Alimova.
2. Journalism, fake news disinformation: handbook for journalism education and training. ЮНЕСКО. 2018.
3. Ильченко С. Н. Фейковая журналистика как элемент современной шоу-цивилизации. -Известия Уральского федерального университета Сер. 1. Проблемы образования, науки и культуры Т. 153. 2016

## AN'ANAVIY ILLOKUTSION HARAKATLARNI KOMMUNIKATIV NUTQDA TUSHUNISH

**Shamuratova Bonu**

*Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti  
yo'nalishi talabasi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqola an'anaviy illokutsion harakatlarning mohiyatini va ularning kommunikativ nutqdagi rolini o'rganadi. An'anaviy illokutsion harakatlar belgilangan konventsiyalarga asoslanib amalga oshiriladi va ijtimoiy hamda institutsional kontekstlarda muhim ahamiyatga ega. Maqolada ushbu harakatlarning xar hil turlari va ularning misollari tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *An'anaviy illokutsion harakatlar, Kommunikativ nutq, Konventsiyalar, Effektlar, Verdiktlar, Ijtimoiy munosabatlar*

## ПОНИМАНИЕ ТРАДИЦИОННЫХ ИЛЛОКУЦИОННЫХ ДЕЙСТВИЙ В КОММУНИКАТИВНОЙ РЕЧИ

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается природа традиционных иллокутивных актов и их роль в коммуникативной речи. Традиционные иллокутивные акты основаны на устоявшихся конвенциях и важны в социальном и институциональном контекстах. В статье анализируются различные виды этих действий и их примеры.*

**Ключевые слова:** *Конвенциональные иллокутивные акты, Коммуникативная речь, Конвенции, Эффекты, Вердикты, Социальные отношения.*

## UNDERSTANDING TRADITIONAL ILLOCUTATIONAL ACTIONS IN COMMUNICATIVE SPEECH

**Abstract:** *This article examines the nature of traditional illocutionary acts and their role in communicative speech. Traditional illocutionary acts are based on established conventions and are important in social and institutional contexts. The article analyzes various types of these actions and their examples.*

**Key words:** *Conventional illocutionary acts, Communicative speech, Conventions, Effects, Verdicts, Social relations.*

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Nutq aktlari nazariyasida, an'anaviy illokutsion harakatlar kommunikativ illokutsion harakatlardan farq qiladi, chunki ular kommunikativ niyatlarga qaraganda ko'proq konventsiyalarga tayanadi. Kommunikativ harakatlar gapiruvchining niyatini tan olish orqali bajarilsa, an'anaviy illokutsion harakatlar belgilangan konventsiyalarga rioya qilish

orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqola an'anaviy illokutsion harakatlarning tabiatini tushuntirish, ularning turli xil turlarini o'rganish va misollar bilan ularning qo'llanilishini ko'rsatishni maqsad qiladi.

*An'anaviy illokutsion harakatlarni aniqlash.*

An'anaviy illokutsion harakatlar ovoz berish, iste'foga chiqish, hibsga olish, oqlash, nikoh, cho'qintirish, bag'ishlash va bekor qilish kabi keng doiradagi harakatlarni o'z ichiga oladi. Ularning xilma-xilligiga qaramay, ushbu harakatlar ikki asosiy turga bo'linishi mumkin: effektlar va verdictlar. Har ikkala tur ham institutsional holatlarning ahvoliga ta'sir qiladi.

Effektlar bu ijtimoiy holatni yaratadigan yoki o'zgartiradigan harakatlardir. Masalan, nikoh tuzish yangi ijtimoiy munosabatni o'rnatadi, qonunni bekor qilish esa huquqiy tuzilmani o'zgartiradi. Verdictlar esa vaziyatni baholaydigan yoki hukm qiladigan harakatlardir. Ayblanuvchini oqlash yoki "aybdor" hukmini chiqarish verdictlarga misoldir.

*Konventsionalarning roli.*

Konventsionalar an'anaviy illokutsion harakatlarda muhim rol o'ynaydi. Ushbu kontekstda konventsional, ma'lum bir jamoa yoki guruh ichida boshqa narsa sifatida bajarishni hisoblaydigan o'zaro tan olingan vositadir. Konventsionalar oddiy odatlar yoki ijtimoiy amaliyotlar emas; ular ma'lum vaziyatlarda amalga oshirilsa, boshqa narsa sifatida hisoblanadigan harakatlardir, chunki ular o'zaro tan olinadi. Masalan, qo'l siqish harakati kontekstga qarab salomlashish, xayrlashish, tabriklash yoki kelishuvni muhrlash usuli bo'lishi mumkin. Bir xil jismoniy harakat turli illokutsion harakatlar sifatida hisoblanadi, chunki bu kontekstda tan olingan konventsional mavjud.

*Konventsionalarni tahlil qilish*

Konventsional quyidagicha aniqlanishi mumkin:

- Konventsional: A harakatining C kontekstida G guruhida D (ma'lum maqsadga asoslanga ish harakat)ni qilish uchun konventsional hisoblanadi agar va faqat agar:

1. G guruhida, G a'zosi C kontekstida A harakatini qilganda, ular maqsadli ish harakatga amal qilayotganligi o'zaro ishoniladi (MB-o'zaro ishonch).

2. A harakati C kontekstida maqsadli ish harakat qilish sifatida hisoblanadi, faqat G guruhida o'zaro ishonilganligi uchun.

Ushbu ta'rif, harakat an'anaviy illokutsion harakat sifatida hisoblanishi uchun, u guruh ichida o'zaro tan olinishi kerakligini va bu tan olish tufayli boshqa narsa sifatida hisoblanishi kerakligini ta'kidlaydi.

*Amalda an'anaviy illokutsion harakatlar*

An'anaviy illokutsion harakatlar ko'pincha maxsus qoidalar yoki rasmiyatchiliklar tomonidan boshqariladi. Masalan, ma'lum so'zlar yoki iboralar aniq kontekstlarda konventsional bajarilishi uchun ishlatilishi kerak:

1. Ovoz berish: Ko'p parlament tartiblarida ovoz "ha" yoki "yo'q" deb berilishi kerak.

2. Hukm chiqarish: Sud yoki sudya ayblanuvchini "aybdor" yoki "aybsiz" deb e'lon qilishi kerak.



3. Ofisga qasamyod qilish: Qasamyod marosimida ishtirokchilar ofisga kirish uchun belgilangan jummalarni aytishlari kerak.

Ushbu harakatlar lokutsiya-spetsifik bo'lib, ishlatilgan so'zlarning maxsus shakli konventsiya bajarilishi uchun muhimdir.

*An'anaviy illokutsion harakatlarni kim bajarishi mumkin?*

Har qanday odam an'anaviy illokutsion harakatlarni bajara olmaydi; harakat tegishli shaxs tomonidan tegishli sharoitlarda bajarilishi kerak. Masalan:

- Sud jarayonining tegishli bosqichida faqat sudya yoki sudyalari raisi ayblanuvchini "aybdor" deb e'lon qilishi mumkin.

- Nikoh marosimida, juftlikni turmushga chiqarish uchun vakolatli ruhoniylar kerak.

*Misol va tushuntirishlar*

Misol 1: Nikoh

Nikoh effektli illokutsion harakati bo'lib, yangi ijtimoiy munosabatni yaratadi. Harakatning haqiqiy bo'lishi uchun ruhoniylar nikohlarni o'tkazishga vakolatli bo'lishi kerak va marosim qonuniy talablarga mos kelishi kerak. Juftlik belgilangan qasamyodlarni aytishlari kerak va ruhoniylar ularni turmushga chiqargan deb e'lon qilishi kerak.

Misol 2: Oqlash

Oqlash verdiktli illokutsion harakati bo'lib, ayblanuvchini aybsiz deb hisoblaydi. Ushbu harakat sud jarayonida sudya yoki sudyalari raisi tomonidan bajarilishi kerak. "Aybsiz" deb e'lon qilish sud jarayonining tegishli bosqichida amalga oshirilishi kerak, konventsiya bajarilishi uchun.

Misol 3: Ovoz berish

Parlament muhitida ovoz berish a'zolar tomonidan "ha" yoki "yo'q" deb ifodalanishi kerak. Ushbu an'anaviy harakat qo'llab-quvvatlash yoki qarshilik bildirishni ifodalaydi. Konventsiya ovoz berish jarayonining aniq va o'zaro tan olinganligini ta'minlaydi.

*Qoidalar va konvensiyalar o'rtasidagi farqni aniqlash*

An'anaviy harakatlarni bajarishni talab qiluvchi qoidalar va konvensiyalarning o'zlarini farqlash muhimdir. Masalan, harbiylar ofitserlarni salomlashlarini talab qiladigan qoida bo'lishi mumkin, ammo salomlashish harakati hurmat belgisi sifatida konventsiya hisoblanadi.

*Konventsiya tushunchasini kengaytirish*

Konventsiya tushunchasi shaxslar, vaziyatlar va narsalarga ham qo'llanishi mumkin. Masalan:

- Shaxslar: Turmush o'rtog'i yoki sudya bo'lish, ba'zi bir an'anaviy harakatni bajargan yoki bunday harakatga nishon bo'lgan aniq tan olingan xususiyatlarni talab qiladi.

- Vaziyatlar: Sud, munozara yoki to'y, konvensiyalar tomonidan belgilanadigan vaziyatlardir.

- Narsalar: Forma, svetofor yoki xochni aniq konvensiyalar tufayli shu sifatida tan olinadi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

An'anaviy illokutsion harakatlar o'zaro tan olingan konventsiyalarga tayanib, ularning mazmuni va ahamiyatini belgilaydi. Ushbu harakatlar kommunikativ illokutsion harakatlardan farq qiladi, chunki ular gapiruvchining niyatini tan olishga tayanadi. Konventsiyalarning roli turli institutsional harakatlarning tabiati va ularning ijtimoiy va huquqiy holatlarga ta'sirini tushunishga yordam beradi. An'anaviy illokutsion harakatlarning misollari va asosiy tamoyillarini o'rganish orqali biz kommunikativ amaliyotlarimizni shakllantiruvchi konventsiyalarning qanday ishlashini chuqurroq tushunamiz.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Ostin, J.L. (1962). So'zlar bilan ish qilish. Oksford: Klarendon Press.
2. Searle, J.R. (1969). Nutq aktlari: Til falsafasiga insho. Kembrij: Kembrij Universiteti Matbuoti.

## OG‘RIQ VA OG‘RIQSIZLANTISH HAQIDA TUSHUNCHA

Ergashev Bekzod Jaloliddin o‘g‘li

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada stomatologiyada og‘riqsizlantirish, umumiy og‘riqsizlantirish va ingalatsion usulda og‘riqsizlantirish haqida ma‘lumotlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jarrohlik, stress, dori-darmon, anesteziya, narkoz.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об анестезии, общей анестезии и ингаляционной анестезии в стоматологии.

**Ключевые слова:** Хирургическое вмешательство, стресс, медикаментозное лечение, анестезия, наркоз.

**Abstract:** This article provides information on anesthesia, general anesthesia and inhalation anesthesia in dentistry.

**Key words:** Surgical intervention, stress, drug treatment, anesthesia, anesthesia.

Anesteziologik ta'minlash - jarrohlik amaliyoti (operatsiyasi) stressi va uning oqibatlaridan asrash hamda organlar faoliyatini boshqarishga qaratilgan tadbirlarni qo'llashdir. Jarrohlik stressi - jarrohlik amaliyoti oldidan psixoemotsional qo'zg'alish, og'riq, amaliyot sohasidan chiquvchi impulsatsiya va qon yo'qotish tufayli yuzaga keluvchi kritik holatdir. Bu omillar chuqur neyrogumoral siljishlar va xavfli metabolik o'zgarishlar, muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan a'zo va sistemalar jarohat-lanishining asosiy sababchisi bo'ladi. Anesteziologik ta'minlash jarrohlik amaliyotidan oldingi, amaliyot mobaynidagi va amaliyotdan keyingi bosqichlarga bo'linadi.

Anesteziologik ta'minlashning amaliyotdan oldingi bosqichida quyidagi ikki muhim masala yechilishi kerak:

1. Organlarning izdan chiqqan funksiyalarini izga solib tiklash.
2. Anesteziyaning tekis kechishini ta'minlovchi dori-darmonlar berish, ya'ni premedekatsiya o'tkazish.

Organlarning izdan chiqqan funksiyalarini tiklash uchun bir necha daqiqalardan tortib (shoshilinch jarrohlik aralashuvi zarur bo'lganda), kunlar va oylar (rejali jarrohlik aralashuvi hollarida) talab qilinadi. Jarrohlik aralashuviga tayyorlash uchun ajratilgan vaqt jarrohlik kasalligi va jarroh patologiyaning og'ir yengilligi, o'lkaziladigan amaliyotning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Jarrohlik aralashuvi bosqichi mobaynidagi anesteziologik tadbirlar quyidagilardan iborat: - jarrohlik zarbasiga javoban bo'ladigan organizm reaksiyasini pasaytirish; - jarrohlik zarbasi oqibatlaridan kelib chiqadiga n funksional siljishlarni bartaraf qilish; -jarrohlik amaliyotini yengillashtiruvchi maxsus usullarni ishlatish.

Amaliyotdan keyingi bosqichninganesteziologik tadbirlari quyidagilardan iborat:- jarrohlik vaqtida kelib chiqqan funksional siljishlarning qoldiqko'rinishlarini bartaraf qilish; - amaliyotdan keyingi davrda stress omillarga bo'ladigan reaksiyalarnisusaytirish; - jarrohlik oqibatida vujudga kelgan yangi sharoitda organizmning funksiyalarini boshqarish va

asoratlarga qarshi kurashish. Zamonaviy anesteziya bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Anesteziyaning umumiy komponentlari jarrohlik aralashuviga javoban bo'ladigan reaksiyani susaytirishga va funksional siljishlarni bartaraf qilishga qaratilgan.

Bemorlarni anesteziya va jarrohlik amaliyotiga tayyorlash. Anesteziya va amaliyotdan oldingi davrda quyidagi masalalar hal qilinishi lozim: - bemorning umumiy ahvolini baholash; - anesteziya va amaliyot xavfi darajasini aniqlash; - bemorni anesteziya va jarrohlik aralashuviga tayyorlash: - premedikatsiya belgilash. Bemorning umumiy ahvolini aniqlash. Anesteziolog rejalashtirilgan anesteziya va amaliyotdan kamida 7-10 kun avval, shoshilinch (urgent) holatlarda esa bevosita aralashuvdan oldin bemorni ko'rishi shart. Qabul qilingan sxema bo'yicha bemorning anamnezi surishtiriladi. Markaziy nerv sistemasi tomonidan topilgan o'zgarishlar - psixoemotsional noturg'unlik, kechirilgan miya jarohati, insult, tutqanoq kasalligi, alkogolizm va shu singari patologiyalarga bemorni tayyorlash, premedikatsiya belgilash va anesteziologik taktika tanlashda jiddiy yo'llanma beradi. Allergologik va farmakologik anamnezni aniqlash allergik holatlarning qaytalanishi, medikamentlarga bo'lgan yuqori sezuvchanlikdan kelib chiquvchi asoratlarni olish uchun sharoit yaratadi. Bir qator tug'ma kasalliklar - porfiriya, mikroglossiya, yurak poroklari, o'pka polikistozi va shu kabilarni anesteziyaning har bir bosqichiga xos taktik usullar qo'llashni talab qiladi. Obyektiv ko'rik o'tkazilganda bemorning og'iz, burun va tomoq tuzilishi, periferiya venalarning borligi, yuz va bo'yinning anatomik xususiyatlari, ko'krak qafasining tuzilishi kabilarga katta ahamiyat berilishi kerak. Bemorning umumiy ahvolini baholashda laboratoriya va funksional tekshiruv usullari keng ma'lumot beradi. Urgent tarzda jarrohlik aralashuvlarini o'tkazishdan oldingi minimum laborator tekshirishlariga qon va siydikning umumiy analizi, qon tarkibidagi mochevina, glyukoza, kaliy va natriy konsentratsiyalarini o'rganish, qonning guruhi va rezus mansubligi kabilarni aniqlash kiradi. Anesteziyadan oldin ko'krak qafasi organlarini rentgenologik tekshirish va elektrokardiografiya o'tkazish shart hisoblanadi. Rejalashtirilgan jarrohlik aralashuvlaridan avvalgi laborator va funksional tekshirishlar keng miqyosda o'tkaziladi va ularning ko'rinishi patologik holatning mohiyatidan kelib chiqadi. Nafas olish sistemasining faoliyatini baholash uchun oddiy ko'rish, palpatsiya, perkussiya va auskultatsiyalardan tashqari, funksional testlar (spirografik ko'rsatkichlar) bilan bir qatorda qon va alveola gazlari miqdori aniqlanadi. Qon aylanisli sistemasi faoliyatini baholashda oddiy klinik tekshirishlar (anamnez, perkussiya, auskultatsiya, EKG, rentgenografiya va h.k.) bilan bir qatorda reografiya, markaziy va periferik gemodinamik ko'rsatkichlar, aylanib yurgan qon va uning komponentlari hajmlarini tekshirish zarur bo'ladi. Endokrin sistemasining funksional va patologik holati o'ziga xos anesteziologik taktika qo'llashni talab qiladi. Endokrin patologiyasi bo'lgan bemorlarda giper yoki gipoglikemiya, adrenal kortikal yetishmovchilik, giper yoki gipotireoz singari og'ir holatlar ro'y berish xavfi bor. Bu asoratlarning oldini olish uchun bemor endokrinolog qatnashuvida bafurja tekshiriladi va bo'lajak anesteziya va amaliyotga obdon tayyorlanadi. Ko'p patologik holatlar, ayniqsa o'tkir jarrohlik kasalliklari og'ir gomeostatik siljishlarni yuzaga keltiradi. Keltirilgan o'zgarishlarni aniqlash uchun markaziy vena bosimi, reografiya, gemoglobin, gematokrit. qon va uning

tarkibiy hajmlari, qon va siydik elektrolitlari miqdori va osmolyarligi, kislota-asos ko'rsatkichlari va ularning gaz tarkibi kabi tekshirishlarni o'tkazish zarur bo'ladi. Kasallik, anesteziologik va jarrohlik amaliyoti omillari jigar va buyrak faoliyatlarigajiddiy ta'sirko'rsatadi. Bilirubin, bromsulfalein, vafoverdin, aldolaza, transaminaza, protrombin, oqsillar fraksiyasi va shu singari testlar jigarning funksional holati to'g'risida axborot beradi. Siydikning umumiy analizi, siydik va qon tarkibidagi mochevina va kreatinin konsentratsiyasi, Reberg tekshiruvi, radioizotop renografiya, ultratovush yordamida tekshirishlar asosida buyrak faoliyatiga baho beriladi. Jarrohlik kasalligi va hamroh patologiya, anesteziya, amaliyot va ularningoqibatlaribirgalikda bemorning hayoti uchun turli darajada xavf-xatar tug'diradi.

Anesteziya va amaliyot xavfi darajasini aniqlashda quyidagi omillardan foydalaniladi:

- 1) bemorning umumiy ahvoli;
- 2) bo'lajak amaliyotning rejalashtirilishi yoki shoshilinchligi;
- 3) bemorning yoshi;
- 4) amaliyotning hajmi va bajarilishi uchun sarf bo'ladigan vaqt;
- 5) amaliyot o'tkaziladigan organning o'rni va uning hayotiy ahamiyati;
- 6) jarroh va anesteziologning malakasi.

Anesteziya va amaliyot jarayonida bemor hayoti uchun xavf-xatar tug'diruvchi omillar juda ham ko'p. Bularga yurak-qon tomir va o'pka kasalliklari, endokrin va nerv sistemasi patologiyasi va kabilar kiradi.

Anesteziya va amaliyot o'tkazishdan oldin bemor umumiy va medikamentoz tayyorgarlikdan o'tishi kerak. Umumiy tayyorgarlikning asosini oshqozon va ichak yo'lini tozalash tashkil qiladi. Amaliyot rejalashtirilgan kun arafasidagi oqshomdan boshlab bemor taom qabul qilmasligi shart. Ho'qna qilinib, ichaklar yuvib tashlanadi, ketidan bemor gigiyenik vanna qabul qilishi zarur. Jarrohlik aralashuvi o'tkaziladigan maydon terisi sochlardan tozalanadi. Anesteziya boshlanishidan oldin bemorning oshqozoni bo'shatilgan bo'lishi shart. Buning uchun oshqozonga zond yuboriladi va «toza suvgacha» yuviladi. Bemorni bevosita anesteziyadan oldin medikamentlar vositasida tayyorlash premedikatsiya deyiladi. Premedikatsiya anesteziyadan 30-40 daqiqa oldin teri ostiga yoki mushaklar orasiga inyeksiya qilinadi va 5-10 daqiqa oldin esa vena ichiga dori yuboriladi. Premedikatsiya uchun uxlatuvchi, neyroplegik va neyroleptik, ataraktik, analgetik, antigistamin va xolinalitik preparatlarqo'llaniladi. Uxlatuvchi dorilardan lyuminal (0,1 g), noksiron (0,25-0,5 g) va shu guruhdagi boshqa preparatlardan jarrohlik amaliyoti arafasida, uxlashdan 30-40 daqiqa oldin qabul qilinadi. Ataraktik samaraga erishish uchun elenium (10-15 mg), diazepam, seduksen (5-10 mg) yoki shu singari boshqa preparatlar tayinlanadi. Bu guruhdagi preparatlar amaliyot arafasida, uxlashdan oldin yoki anesteziya boshlashdan 2-3 soat avval beriladi. Premedikatsiya maqsadida droperidol keng ishlatiladi, mushaklar orasiga yoki vena ichiga 5,0-7,5 mg dozalarda yuboriladi. Narkotik analgetiklardan promedol (10-20 mg), omnopon (10-20 mg), morfin (5-10 mg), fentanil (0,05-0,1 mg) va dipidolor (10-15 mg) kabilar ishlatiladi. Ular anesteziyadan 30-40 daqiqa oldin yuboriladi. Antigistamin dorilardan diprazin (25-50 mg), suprastin (20-40 mg), dimedrol (20-50 mg)

qo'llaniladi. Xolinolitik dorilar organizmning M-xolinoreaktiv sistemalari blokadasini vujudga keltiradi. Natijada yurak urishi tezlashadi, nafas yo'llari, so'lak, oshqozon-ichak, teri va boshqa bezlar sekresiyasi kamayadi, traxeya va bronxlar, halqum, oshqozonichak mushaklarining tonusi pasayadi. Bu vagolitik samara deb ataladi va u vagus nervi aktivligining susayishi natijasidir. Xolinolitik preparatlardan atropin sulfati (0,2-1,0 ml), metatsin (0,2-0,1 ml) yoki skopolamin gidrokslorid (0,5-1,0 ml) anesteziyadan 30-40 daqiqa oldin mushaklar orasiga yoki teri ostiga yuboriladi. Premedikatsiyaning keng tarqalgan ko'rinishi quyidagicha o'tkaziladi: anesteziya arafasidagi oqshomda, bemor uxlashdan oldin 0,1 g lyuminal ichadi. Nax,orda, anesteziyadan ikki soat avval 5-10 mg seduksen yoki 0,3-0,6 g trioksazin ichadi. Anesteziyani boshlashga 30-40 daqiqa qolgach, teri ostiga yoki raushaklar orasiga 10-20 mg dimedrol, 0,2-1,0 mg atropin sulfa ti, 10-20 mg promedol yuboriladi. Bemorning tinch yotishi, uyqusirashi, tashqi muhitga loqaydligi, og'zining ko'rishi, yurak urishining tezlashishi, arterial qon bosimining turg'unligi kabilar premedikatsiya samarali bo'lganligidan dalolat beradi.

**MAHALLIY ANESTETIKLAR** Novokain (prokain, parakain, xemokain, etokain). Rangsiz, hidsiz, taxir mazali kristall, suv va spirtda eruvchan modda. Infiltratsion anesteziya uchun keng qo'llaniladi, bu maqsadda 0,25-0,5 foiz eritmalaridan foydalaniladi. Shilliqpardalar anesteziyasi uchun 5-10 foiz eritmasi, regional anesteziya uchun 1-2 foiz eritmasi ishlatiladi. Subaraxnoidal anesteziya uchun novokainning 5 foiz eritmasidan 2-3 ml, peridural anesteziya uchun esa 2-3 foiz eritmasi dan 20-25 ml yuboriladi. Ishlatilishi mumkin bo'lgan maksimal dozasi 20 mg/kg, ta'siri 60 daqiqa davom etadi. Novokain intoksikatsiyasi ro'y berganda bemorning rangiro'yi o'zgaradi, boshi aylanib, ko'ngil behushligi va qusish paydo bo'ladi. Yurak urishi va nafas olishi tezlashadi, arterial qon bosimi tushadi. Bemor notinchlanadi, qo'rquv va alahsirash, gallyutsinatsiyalar boshlanadi. Og'ir intoksikatsiya holatlarida bemor hushini yo'qotadi, harakat qo'zg'alishi, tutqanoq tutadi.

Trimekain (mezokain). Oq yoki sariqroq kukun, suv va spirtda yaxshi eriydi. Trimekainning anestetik samarasi novokainnikiga nisbatan uch marta yuqori, toksikligi esa 1,6 marta baland. Anestetik indeksi - 1,6. Infiltratsion anesteziya uchun 0,5-1 foiz eritmalaridan foydalaniladi. Shilliq pardalar anesteziyasi uchun trimekainning 2-3 foiz eritmaları qo'llaniladi. Regional anesteziya trimekainning 1-2 foiz eritmaları yordamida o'tkaziladi. Peridural anesteziya uchun 2 foiz eritmasidan 20-30 ml yuboriladi. Bir martalik dozasi - 10-12 mg/kg. Og'riqsizlantirish ta'siri 90 daqiqa davom etadi. Lidokain (ksikain, ksilokain). Oq, rangdagi, gohida sariqroq tuslanuvchi, taxir mazali kukun. Suv va spirtda juda yaxshi eriydi. Lidokain kuchli anestetiklar qatorida turadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S.H. Yusupov. «Tish jarrohligi stomatologiyasi va yuz-jag‘ travmatologiyasi» – Toshkent: «ILM ZIYO», 2005-y.
2. П.А. Леус. «Заболевания зубов и полости рта» – Минск: «Вишэйная школа», 1998 г.
3. Е.Б. Баровский. «Терапевтическая стоматология» – Москва: «Медицина», 2002 г.
4. Т.Г. Робитовой. «Хирургическая стоматология» – Москва: «Медицина» 2002 г.

## O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATI TARIX VA TARAQQIYOT SAHNASIDA

**Valijonova Sug‘diyona**  
O‘zDSMI FMF 2-bosqich talabasi

*“Ijrochilik san’atining ko‘pgina tur va janrlari kabi,  
o‘zbek raqs san’ati ham ikki ming yildan  
ko‘proq rivojlanish tarixiga ega”  
San’atshunos-olim, professor  
**M.R.Rahmonov***

San’at olamining barcha turlari kabi raqs san’ati uzoq yillik rivojlanish bosqichlarini o‘zida namoyon etadi hamda insonlarning yashash tarzi, hududiy joylashuvi, urf-odatlar va dunyoqarashi natijasida shakllanib, turli mintaqalarda turlicha shakllarda namoyon bo‘lgan. Chunki, har bir xalq raqslarining tarixi mana shu xalqning tarixiy taraqqiyot davri bilan uzviy bog‘liqdir. Mamlakatimiz hududi ham insoniyat tarixi va madaniyatining eng qadimiy go‘shalaridan biridir. So‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan qator ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar buning yaqqol misoli bo‘la oladi. Masalan, Markaziy Osiyoda bronza davrining oxiri va ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar qadimiy “Avesto” kitobida o‘z isbotini topgan. “Avesto” qismlarining diniy-marosimiy ijro shakllari va uning ijro uslublariga e’tibor berilsa, san’atning boshqa turlari bilan bir qatorda raqs san’atining ham rivojij bosqichlarini anglash mumkin. XX asrning 70-yillarida tarixchi olim A.Kabirov Navoiy shahridan 40 km uzoqlikda joylashgan Qoratog‘ etaklaridagi Sarmishsoy qoyatoshlaridan toshga ishlangan ko‘plab tasvirlarni topdi. Jami 100 dan ortiq rasmlar orasida raqs tushayotgan 2 kishining ham tasviri mavjud bo‘lib, ular milloddan avvalgi III-II-ming yilliklarga oid ekanligining aniqlanishi bunga yorqin dalil bo‘la oladi. Bundan tashqari, Baqtriya, So‘g‘diyona va qadimiy Xorazm shahridan topilgan yodgorliklar ham o‘zbek raqs san’atining uzoq yillik tarixiy davrga ega ekanligidan dalolatdir. Bu kabi yodgorliklarda asosan, yakka qo‘shiq, yakka raqs, guruh bo‘lib qo‘shiq aytish, guruh bo‘lib raqsga tushish manzaralari aks ettiradi. Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanidan topilgan ayollar haykalchalarida raqs holati tasvirlangan bo‘lsa, Qorabuloqdagi qabrdan topilgan ko‘zgu dastasiga ishlangan rasmda raqqosa tasviri gavdalantirilgan. Buxorodan topilgan “Buxoro ko‘zasi” nomini olgan idishdagi tasvirda Kushon-Baqtriya davriga oid beshta raqqosa tasvirlangan. Bunday yodgorlik namunalari Samarqand va Panjikent chegaralari hududidan ham topilgan.

Mazkur davrlarda o‘zbek san’ati namoyondalari boshqa hududlar san’ati bilan ham faol aloqada bo‘lganlar. Masalan, Baqtriya podshosi Monandr Hindistonning katta qismini bosib olganidan so‘ng, mahalliy madaniyat Hindiston madaniyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning tashkil topishi ham uning madaniyatini yuqori cho‘qqilarga ko‘targan. Bu ipak yo‘li orqali bu hududlarning madaniyati hattoki Xitoy imperiyasining madaniyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, O‘zbekiston hududida yashagan xalqlarning san’at namoyondalari Toshkent, Samarqand, Shahrisabdan Xitoy imperatorlari saroyiga qadar borganliklari va yuksak madaniyatga ega bo‘lgan xitoyliklarda unutilmas taassurot qoldirganliklari haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Tarixiy manbalarda keltirilgan bu kabi ko‘plab ma’lumotlar ilk davrlardayoq yurtimiz hududida raqs san’ati rivoj topgani va ommaviy san’at turi sifatida yuksak e’tirof etilganligidan guvohlik beradi.

Mana shunday uzoq yillik tarixga ega bebaho san’atimizni yanada rivojlanishi, uning jahon san’ati durdonalari qatorida munosib e’tirof etilishi, aholini, xususan, o‘tib kelayotgan yosh avlodni madaniy saviyasini yanada yuksaltirish, ularning milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish va yosh iste’dod egalarining bilim va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3022 sonli Qaror<sup>20</sup> ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi “O‘zbekkonsert” davlat muassasasida “Milliy raqs va xoreografiya san’ati faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish” bo‘limi tashkil etildi. “O‘zbekkonsert” davlat muassasasining ushbu bo‘limi o‘zbek raqs san’atini yanada rivojlantirish, sohadagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2017-yilning oktabr oyida soha mutaxasislari bilan hamkorlikda “Ustoz va shogird” milliy raqs markazi tashkil etildi. Ushbu markaz tarkibida esa “Yakka raqqoslar maktabi” faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi va uning asosiy maqsadi tajribali mutaxasislar va yosh iste’dod egalari bilan birgalikda o‘zbek milliy raqs maktablarining yo‘qolib borayotgan an’analarini tiklash etib belgilandi.

Balet san’atini yanada yuksaltirish va baletmeysterlik faoliyatini yanada keng targ‘ib etish, ularning mahorat maktabini mustahkamlash maqsadida 2017-yilning 25-oktabr kuni “O‘zbekiston Baletmeysterlar Kengashi” tashkil etildi. “O‘zbekiston” ashula va raqs

<sup>20</sup>(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2017 y. PQ-3022-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.)

ansamblining badiiy rahbari va bosh baletmeysteri, O‘zbekiston xalq artisti Qodir Mo‘minov kengash raisi etib tayinlandi.

2018-yil yanvar oyida “Buxoro jilolari” milliy raqs ijrochilarining Respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Ilk marotaba tashkil etilgan ushbu tanlovda mamlakatimiz bo‘ylab jami 70 dan ortiq raqs jamoalari va yakkaxon raqs ijrochilari munosib ishtirok etdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2018-yil 28-noyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli Qaror<sup>21</sup>i qabul qilindi. Mazkur Qaror yuzasidan 2019-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, 2019-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqildi.

Mazkur Qarorda o‘zbek raqs san’atining asrlar davomida shakllanib kelgan ma’naviy qadriyatlari, xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni va maqomini yanada takomillashtirish va buyuk raqs namoyondalari tomonidan yaratilgan raqs asarlarini yosh avlodga munosib tarzda yetkazish, va ular to‘g‘ri ijro etilishi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Bundan tashqari ushbu Qarorning 11-bandida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Vazirlar mahkamasi huzuridagi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiya va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda o‘zbek xalqining ko‘hna va betakror san’ati namunasi bo‘lgan Xorazm “Lazgi”sini “Xorazm raqsi – Lazgi” nomi ostida YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi to‘g‘risida bayon etilgan.

Mamlakatimizda muntazam ravishda o‘tkaziladigan Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, Xalqaro Maqom san’ati ilmiy-amaliy anjumani, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor san’ati festivali va “Raqs sehri” xalqaro festivali tashkil etilib, o‘zbek mumtoz va folklor san’atining bebaho namunalarini, milliy an’analarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha samarali tizim yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 4-fevral “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4585-sonli Qaror<sup>22</sup>i qabul qilindi. Mazkur Qaror asosida Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat oliy ta’lim muassasasi shaklida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida

<sup>21</sup>(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi, 30.11.2018y, 07/18/4038/2243-son)

<sup>22</sup>(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi, 05.02.2020y, 07/20/4585/0124-son)

O‘zbekiston davlat xoreografiya Akademiyasi tashkil etildi. Madaniyat vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” davlar raqs ansambli” faoliyatini tashkil etish va uning asosiy vazifalari ham belgilab o‘tildi.

O‘zbekistonda raqs san‘atini yanada rivojlantirish, milliy raqs san‘atimizning mumtoz va zamonaviy ijro namunalari uchun “oltin fondi”ni yaratish va uni yanada takomillashtirish davlat raqs ansambllarining asosiy vazifasi etib belgilandi.

20. Ahmadjonovna, K. M. (2024, February). XORIJIY TILNI OSON VA QIZIQARLI O ‘RGANISH TO ‘G ‘RISIDA. In Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium) (Vol. 4, pp. 20-23).

21. Xusanova, M. (2023). SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR. Farg'ona davlat universiteti, (1), 163-163.

22. Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 152-156.

23. Аблаева, Н. К. (2024). РОЛЬ ПРИРОДЫ В ДРАМЕ ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА». MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 8(8), 176-181.

24. Аблаева, Н. К. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В БАЛЛАДЕ В. ЖУКОВСКОГО «СВЕТЛАНА». YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 129-132.

**TDT INTEGRATSION ASOS SIFATIDA. MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.  
INTEGRATSIYADAN KEYINGI SALOHIYAT****Nodirbek G‘oibnazarov**[nodirbekgoibnazarov@gmail.com](mailto:nodirbekgoibnazarov@gmail.com)*Guliston davlat pedagogika instituti talabasi*

**Anotatsiya:** *Turkiy Davlatlar Tashkiloti – TDT. Bu nom barchangizga tanish bo`lsa kerak. Bugungi kunda davr siyosati natijasida tashkilot haqida eshitmagan inson bo`lmasa kerak. Hozirda tashkilotning holati qay darajada? Uning ahamiyati yuqorimi? Agarda TDT, mintaqa davlatlarining birlashuviga asos bo`la olsa, yechilishi kerak bo`lgan muammolar nimada? Integratsiyadan keying salohiyat darajasi qanday bo`ladi? Shu kabi savollarga, ushbu maqolamiz orqali javob topishga harakat qilamiz. Bu maqolamiz “Buyuk turkiy xalqlar o`tmishi va bugungi kundagi birdamlik uchun sa’y-harakatlari” mavzuyidagi maqolamizning mantiqiy davomidir.*

**Kalit so`zlar:** *Integratsiya, TDT, nizolar, harbiy salohiyati, Turkiya, Bayraktar,*

**Abstract:** *Organization of Turkic States - TDT. This name is probably familiar to all of you. Today, as a result of the politics of the time, there is hardly a person who has not heard about the organization. What is the status of the organization now? Is it important? What are the problems that need to be solved if TDT can be the basis for the unification of regional states? What will be the potential level after integration? We will try to find answers to such questions through this article. This article is a logical continuation of our article on "The Past and Today's Efforts for Unity of the Great Turkic Peoples".*

**Key words:** *Integration, TDT, conflicts, military potential, Turkey, Bayraktar,*

**KIRISH:** Bugungi kun davr siyosati natijasida turkiy davlatlar o`rtasida aloqalar nihoyatda tez suratlarda va jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda Turkiy davlatlarning birlashish g`oyasi borgan sari keng kurtak yoymoqda. Bugungi davr talabi, g`oyaviy qarashlar, xalq fikri va mafkuraviy yo`nalganlik, davlatlarning yanada yaqinlashuviga sabab bo`lmoqda. Bu integratsion jarayonda mintaqa markazida joylashgan vatanimiz asosiy o`yinchi vazifasini o`tayotgani quvonarli. Mintaqada 37 mln aholi bilan yetakchilik qilayotgan yurtimiz o`ziga xos tashqi siyosati bilan ajralib turadi. Aytish joizki 2017- yildan keyingi islohot va yangilanishlar davrida tashqi siyosati yuritish texnikamiz ham o`zgardi. Birinchi hukumat davridagi yopiqlik siyosati o`rnini do`stona aloqalar va hamkorlik egalladi. 2010- yilgi O`sh qirg`inidan keyingi Qirg`iziston bilan bo`lgan munosabatlardagi chegara olib tashlandi. Tojikiston va Turkmaniston bilan chegaralar ochildi. Shunday qizg`in pallada hukumatimiz „Turkiy kengash”ga qo`shilishga qaror qildi. O`zbekistonning dunyo hamjamiyatiga ochilishi mintaqa davlatlarining o`zaro ichki munosabatlarida yaqinlashishiga olib keldi. Uzoq vaqt davomida xalqlarimiz o`rtasida

kurtak yoyib ulgiran ayrim millatchilik illatlari bartaraf etildi. Lekin Turkiy davlatlar integratsiya oldida anchayin hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar mavjud.

Bu muammolarga birma-bir to‘xtalib o‘tsak: Birinchidan, yuqorida aytib o‘tganimiz, ayrim, shakllanib ulgurgan millatchilik holatlari. Turkiston hududida millatchilik degan illat qachon shakllandi? Mintaqada millatchilik degan tushuncha tarixi uzoq emas. Nari borsa Rus podsholigi bosqinidan keyingi davrlarga borib taqaladi. 1924- milliy chegaralar o‘rnatilishi natijasida Turkiston xalqi, bir nechta guruhga bo‘lindi. Natijada mintaqada 5 ta respublika paydo bo‘ldi va umumiy nom bilan Qozog‘iston va O‘rta Osiyo deb atala boshlandi. Natijada Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasida raqobat muhiti shakllantirildi. Hududiy bo‘lish chog‘ida chegaralar to‘g‘ri bo‘linmadi. Ya‘ni, o‘zbek millatiga mansub ayrim urug‘lar Qirg‘iziston yokida Qozog‘iston chegaralaridan ichkarida, xuddi shunday qozoq va boshqa qardosh millat vakillari ham O‘zbekiston ichkarisida qoldirildi. Bu kabi noaniq bo‘linish mustaqillik davridan keyin bir necha muammolarning yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. Xususan, yuqorida aytib o‘tganimiz, O‘sh qirg‘ini voqeasi. Bu holat ikki davlat munosabatlari keskinlashishi, mahalliy aholi o‘rtasida ayirmachilar kayfiyati shakllanganiga yorqin misoldir. Rasmiy manbalarga ko‘ra, 100 ming, norasmiy manbalarga ko‘ra 200 ming qochqinlar O‘zbekiston hududiga qochib o‘tgan. Tarixan mintaqada o‘zbek va qirg‘izlar birgalikda yashaganiga guvoh bo‘lamiz. Bu ikki xalqning kelib chiqish tarixi ham deyarli bir bo‘lib, o‘z tarixiy kelib chiqishini sak qabilalariga bog‘lashadi. Xayriyatki, bu kabi nizolar bugungi kunda bartaraf etilgan va do‘stona aloqalar to‘liq o‘rnatilgan.

Ikkinchi yirik muammo esa chegaralar bilan bog‘liq muammolar haligacha bartaraf etilmaganidir. 1924- yilda chegaralar rasman belgilangan, lekin barcha milliy davlatlar SSSR tarkibida bo‘lganligi uchun hududlarda chegaralar o‘tkazilmagan. Mustaqillikdan keyingi davrda mintaqa davlatlari o‘rtasida, mintaqa ichki chegaralarini eng tez hal qilgan davlatlar Qozog‘iston va O‘zbekiston bo‘lishdi. 2000- yil Toshkentda bo‘lgan uchrashuvda chegaralar aniq belgilab olindi. Qolgan davlatlar bilan ham asta-sekinlik bilan murosaga kelish orqali chegaraviy nizolar hal qilinmoqda. Lekin aytib o‘tish joizki chegaraviy nizolar yuzasidan eng nizoli hudud Qirg‘iziston va Tojikiston chegarasidir. Bu hududda bir necha bor to‘qnashuvlar yuz bergan va hali hanuz chegaralar to‘liq kelishilmadi. Oxirgi yillarda har ikkila tomon ham chegara masalasida anchayin ilgari qadamlar tashladi. Har ikki tomon delegatsiyalarining ham murosaga yo‘lini qidirayotgani chegaraviy muammolar tez orada bartaraf etilishini anglatmoqda.

Turkiy davlatlar birlashuviga to‘siq bo‘layotgan navbatdagi muammo bu davlatlar orasidagi iqtisodiy tafovutlarning kattaligi. Yillik yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha TDTda yetakchilik Turkiyada bo‘lib YAIM hajmi 848 mlrd dollar, so‘ngra Qozog‘istonda 259 mlrddan oshiqroq, Vengriyada 2022- yil ma‘lumotlariga ko‘ra, 170 mlrd, undan so‘ng vatanimiz O‘zbekistonda 90,9 mlrd, Ozarbayjonda 67 mlrd, Turkmaniston 46 mlrd va Qirg‘izistonda 12 mlrd dollarni tashkil etadi. Shu bilan birgalikda sanoatlashish darajasi ham turlicha.

Yana bir muammo esa, hukumatlarda kuzatilayotgan hadiksirash holati. Mintaqa davlatlari qisqa vaqt avval mustaqillikni qo‘lga kiritgan. Bu birlashuv ularning qo‘lidan

mustaqillikni olib qo‘ymasligiga ishonch hali to‘liq shakllanib ulgurmadi. Shu bilan birga Postsovet davlatlarda 70 yillik mafkuraviy qaramlik natijasida „Panturkizm“dan qo‘rqish hissi shakllanib qolgan. Bu holat asta-sekinlik bilan bartaraf etib borilmoqda. Muammolarning bartaraf etilishi xalq xohishi va hukumat qo‘llab- quvvatlashiga borib taqaladi.

Xo‘sh endi turkiy davlatlar birlashsa qanday salohiyat paydo bo‘lishi mumkinligini o‘rganishga harakat qilamiz. Birinchi galda harbiy soha qay darajaga yetardi? Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlarning harbiy salohiyati turlicha. Eng kuchli qo‘shinga ega davlat Turkiya bo‘lib hozirgi kunda harakatdagi va zaxiradagi harbiylar soni bo‘yicha NATOda yetakchilardan biridir. 2020- yil ma‘lumotlariga ko‘ra Turkiyada 890 mingdan ortiq harbiy xizmatchi mavjud. Qolgan davlatlarda esa, bu ko‘rsatkich nisbatan sal pastroq bo‘lib vatanimizda 65 ming harbiy xizmatchi, qo‘shni Qozog‘istonda 77 ming harbiy xizmatchi mavjudligi rasmiy ma‘lumotlarda keltirilgan. Global Firepower Index‘ning 2023- yilgi statistika ma‘lumotlariga ko‘ra harbiy salohiyati bo‘yicha Ozarbayjon 57- o‘rin, Qozog‘iston 60- o‘rin, O‘zbekiston 65- o‘rin, Turkmaniston 87- o‘rin, Qirg‘iziston esa 107- o‘rinda qayd etilgan.

Ikkinchi muhim soha albatta iqtisodiyot. Agarda davlatlar Yevropa Ittifoqi kabi integratsiya darajasiga erishsa, bu ushbu davlatlar uchun katta yutuq bo‘ladi. Savdo uchun ichki chegralar olib tashlanadi, tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi, moliya barcha-barchasi erkin harakatlanadi. Bu esa davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi. Chegaralardan erkin harakatlangan tovarlar ichki hududlarda joylashgan, dengizga tutashmagan biz kabi davlatlarga dengizga chiqish imkonini yengillashtiradi. Natijada Butun dunyo bilan arzon narxlarda savdo qilish imkoniga ega bo‘lamiz. Moliyaning erkin aylanishi natijasida yuqorida aytib o‘tganimiz harbiy sohada ham ancha texnologik yuksalish kuzatiladi. Ya‘ni bayraktar kabi Turkiyaning yuqori salohiyatli harbiy kompaniyalari mintaqa bo‘ylab keng yoyilishi, boshqa bu kabi korxonalar ham mintaqaning har qanday hududida ochilishi va erkin faoliyat yuritishi mumkin bo‘ladi.

Uchinchi eng muhim soha esa bu siyosiy faoliyatda, geosiyosiy o‘yinlarda boshqariluvchi emas, boshqaruvchi davlatga, ya‘ni konfederatsiyaga aylangan bo‘lardik. Bu bizni dunyoning gegemon davlatlari oldida ojiz bo‘lib qolishimizning oldini olardi. Dunyo miqyosida o‘z manfaatlarimizni va tomonimizni ochiq- oshkor e‘lon qilishga va manfaatlarimiz yuzasidan o‘z pozitsiyamizni erkin ko‘rsatishga imkon berardi. Hozirgi kunda TDT davlatlari orasida faqatgina Turkiya o‘z so‘zini o‘tkazish kuchiga ega lekin AQSH, Xitoy va yoki Rossiya kabi gegemonlar oldida biroz pastda. Qolgan a‘zolar orasida Vengriya va Qozog‘istongina nisbatan anchayin yuqoriroq pozitsiyani namoyish etish kuchiga ega. TDT davlatlari orasida “o‘rta kuch - middle power” maqomi faqatgina Turkiya va Qozog‘istonda borligi ularning nisbatan iqtisodiyoti yuqoriligi anchayin imkoniyatlar beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Turkiy davlatlarning birlashuvi mintaqa davlatlariga anchagina katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Buning uchun esa albatta yuqorida sanab o‘tilgan fundamental muammolar tezroq hal qilinishi kerak. Lekin shuncha muammolar



bo‘lishiga qaramay quvonarli tomoni, hech qaysi qardosh xalqlar bunday qisqa muddatda, 30 yil ichida tashkilot tuzish darajasiga yetmagan. Arablar xalqlari ham, slavyan xalqlari ham, Yevropa davlatlari ham birlashuviga uzoq vaqtlar ketgan. Bu bizning eng katta yutug‘imizdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S.Safoyev. Markaziy Osiyoda geosiyosat. Toshkent - 2005.
2. A. Hasanov. Geosiyosat. Toshkent. "TAMADDUN" 2016-yil.
3. N. G‘oibnazarov. Buyuk turkiy xalqlar o‘tmishi va bugungi kundagi birdamlik uchun say-harakatlari. ANALYSIS OF WORLD SCIENTIFIC VIEWS INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2023-yil.

**ELIZABET GASKELLNING “SHIMOL VA JANUB” NOMLI ASARINING TIL  
MADANIYATI VA LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI.****Radjapova Gavxar Kurbonovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sanoat inqilobi davrida adabiy marvarid sifatida paydo bo‘lgan Elizabet Gaskellning “Shimol va Janub” nomli asari, hamda asardagi davrning dinamik til madaniyatini va lingvokognitiv nozikliklari muhokama qilingan. Asardagi turli tabaqaga oid qahramonlar orqali buyuk industrial rivojlanish davrida rivojlanayotgan til va tilning kognitiv jarayonlari tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *lingvokognitiv, sanoatchilar, inqilob, aristokratiya, madaniyat, noziklik, o‘lchamlar.*

**Abstract:** *This article discusses Elizabeth Gaskell's “North and South”, which emerged as a literary gem during the industrial revolution, as well as the dynamic linguistic culture and linguocognitive nuances of the period in the work. The work analyzes the cognitive processes of language and language developing during the great industrial development through characters of different classes.*

**Keywords:** *linguocognitive, industrialists, revolution, aristocracy, culture, delicacy, dimensions.*

Buyuk Britaniya qirolichasi Viktoriya hukmronligi (1837-1901) davrida “Sanoat inqilobi” Angliya bo‘ylab rivojlana boshlaydi, shuningdek, yashash tarzi va qarashlarning o‘zgarishi yangi normaga aylana boshlaydi. 1801-1830 yillarda Angliya aholisining ikki baravarga ko‘payishi ya‘ni, 16,5 millionga oshishi eski qotib qolgan diniy qarashlarga ta‘sir etgan holda, texnologik muvaffaqiyatlarga erishishiga sabab bo‘ladi.

Elizabet Gaskellning “Shimol va Janub” (1854) asari Viktorian davrida yozilgan bo‘lib, industrial asar sifatida nom qozongan. Ushbu asar XIX asr Angliyasiga zamonaviy tasavvurlarni berib qolmasdan, balki yozuvchi asarda qarashlar va kontrastlar murakkabligini ifodalab, o‘quvchilarda xolis va adolatli taassurotlarni qoldiradi. Shimoliy va janubiy sanoat inqilobi XVIII asr oxiri-XIX asr o‘rtalarigacha davom etgan ishlab chiqarish usullari jumladan, mashinalar, bug‘ quvvati va zavod tizimida foydalanishga o‘tishi va bu yangiliklarning aksariyati Buyuk Britaniyada ro‘y beradi. Uning tijoriy muvaffaqiyati esa ayniqsa, “Cottonopolis” laqabli, gullab-yashnagan Manchesterda – Elizabet Gaskell ijod etgan davrda - o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan edi.

Asrlar davomida Angliyaning ijtimoiy tuzilishida yer egalari aristokratiyasi hukmronlik qilgan bo‘lsa, Elizabet Gaskellning Jon Tornton kabi boy sanoatchilari tobora ko‘proq mashhurlikka erishdilar. Garchi, sanoat inqilobi ko‘proq bandlik imkoniyati va turmush darajasining umumiy yaxshilanishiga hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, ishchilar sinfi – ayollar va bolalarni o‘z ichiga olgan – ko‘pincha yomon ish sharoitlari, uzoq ish soatlari va past ish xaqi bilan kurashdilar.

Elizabet Gaskelning "Shimoliy va Janubiy" asarida ishlatilgan til o'sha davrning ijtimoiy va iqtisodiy bo'linishlarini aks ettiradi. Shimoliy sanoat shaharchasidagi va Janubiy, ko'proq qishloq joylaridagi odamlar, alohida lahjalar yoki so'z birikmalaridan foydalanishgan. Masalan, "I'm afeared hoo speaks truth. I'm afeared hoo's too far gone in a waste; poor lass; whatten yo asking for?" (North and South. LONDON: CHAPMAN AND HALL, 193, PICCADILLY. 1855. p. 109) Mamlakatning sanoatlashgan Shimolidagi ishchilar o'zlarining savdo-sotiqclariga xos tildan foydalanishgan, Janubiy odamlar esa yumshoqroq va nozik nutqdan foydalanishgan. Masalan, "Your bonny face, my lass, makes the day look brighter; you may well smile, my lass, many a one would smile to have such a bonny face" (North and South. LONDON: CHAPMAN AND HALL, 193, PICCADILLY. 1855. p. 107) Ushbu lingvistik farq va lingvomadniyat asarda tasvirlangan mintaqaviy va sinfiy farqlarni anglashga yordam beradi.

Asarda Janob Torntonning xarakteri ko'pincha yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lgan shaxslarga murojaat qilishda rasmiy va hurmatli tilni qo'llaydi. Misol uchun, uning ruhoniyl Janob Xeyl bilan suhbatlari Viktoriya jamiyatida kutilgan an'anaviy va diferensial tilni aks ettiradi. Gaskel personajlarni sanoatlashgan Shimoldan ekanligini ko'rsatish uchun Shimoliy lahjalarni ishlatadi. Nikolas Xiggins va Bessy Xiggins kabi personajlar uchun o'ziga xos iboralardan foydalanadi, masalan, "owt" biror narsani bildirish uchun va "nowt" hech narsa ma'nosida shimoliy ishchilar sinfi madaniyatining lingvistik nozikliklarini aks ettiradi.

Bundan tashqari, sanoatchilar va ishchilar sinfi o'rtasidagi tilning keskin kontrasti Margaret Xeyl va tegirmon ishchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, "I dunno; but I wish she could ha' lived wi' yo' for all that" (North and South. LONDON: CHAPMAN AND HALL, 193, PICCADILLY. 1855. p. 156-157) Margaretning nafis va sayqallangan nutqi uning yuqori-o'rta sinf fonini ta'kidlaydi, tegirmon ishchilari esa Nikolas Xiggins, ko'proq so'zlashuv va jilolanmagan xalq tilidan foydalaniladi. Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq tasvirlardan takroriy foydalanish ramziy til bo'lib xizmat qiladi. "Loom and spindle" yoki "masters and men" kabi iboralar nafaqat tavsiflar, balki o'sha davrning iqtisodiy va ijtimoiy keskinligini ifodalovchi ramzlardir. Tilning o'zi asarda o'rganilgan katta ijtimoiy masalalar uchun metaforaga aylangan. Ushbu misollar Gaskel Viktoriya Angliyasida keng tarqalgan madaniy me'yorlar, mintaqaviy farqlar va sinfiy farqlarni tasvirlash uchun tildan qanday foydalanishini ko'rsatadi.

"Shimol va Janub" asarini lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganadigan bo'lsak, Margaret Xeylning ichki monologlari uning kognitiv jarayonlari va hissiy kurashlarini ochib beradi. U Janob Torntonga nisbatan o'zgaruvchan hissiyotlari haqida fikr yuritganda, til ichki tug'yonni aks ettirib, o'quvchilarga uning rivojlanayotgan fikrlari va u duch kelayotgan ichki nizolar haqida tasavvur beradi. Gaskel qahramonlarning his-tuyg'ularini yetkazish uchun ramziy tildan foydalanadi. Masalan, asardagi o'zgaruvchan fasllar va ob-havo ko'pincha personajlarning hissiy holatlariga parallel. Bo'ron yoki qattiq ob-havo bo'lsa, u keskinlik yoki mojarolahzalariga to'g'ri kelishi mumkin, bu qahramonlarning ichki

notinchligini lingvistik mahorat bilan aks ettira olgan. Asar davomida Janob Torntonning tili shaxsiy o'sishi bilan rivojlanadi. Dastlab qattiqqo'l va ishbilarmon ohang bilan ajralib turadigan uning tili sevgi va ichki kechinmalarni boshidan kechirganda yumshay boshlaydi. Lingvistik ifodadagi bu o'sish jarayoni uning xarakter sifatida o'zgarishini aks ettiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ushbu misollar Elizabet Gaskel tilni nafaqat tashqi madaniy muhitni tasvirlash uchun, balki o'z qahramonlarining til madaniyati va kognitiv o'lchamlarini o'rganish vositasi sifatida qanday ishlatishini, o'quvchilarga yanada boy va chuqurroq adabiy tajribani taqdim etishini namoyon qila olgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gaskell, Elithabeth. "North and South." LONDON: CHAPMAN AND HALL, 193, PICCADILLY. 1855
2. Burton, Antony and Daine Duffy 2020. "Elithabeth Gaskell and the Industrial Poor": How did she know about them?
3. <https://search.ebscohost.com/login.aspx?direct=true&db=mml&AN148089689site=ehost-live>
4. The complex depiction of society and class in Elithabeth Gaskell's North and South. [https:// www.diva-portal.org](https://www.diva-portal.org)
5. Jane Jovanov Linguaculture in language teaching [https:// www.academia.edu/30105](https://www.academia.edu/30105)

## “TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI”

Hasanov Muxtorjon Qaxramonjon o‘g‘li

*QDPI Tarix yo‘nalishi I-bosqich talabasi*

Maxmudjonov Furqatjon Farhodjon o‘g‘li

*QDPI Tarix yo‘nalishi I-bosqich talabasi*

[hadyaxoji@gmail.com](mailto:hadyaxoji@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada XIX asr oxiri- XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy harakat jadidchilik haqidagi ma‘lumotlarini yoritib berilgan.*

**АННОТАЦИЯ.** *В данной статье представлены сведения об общественно-политическом и просветительском движении, получившем значение в жизни Туркестана, Кавказа и Татарстана в конце 19 - начале 20 веков.*

**Annotation.** *This article provides information about the socio-political and educational movement that gained importance in the life of Turkestan, Caucasus and Tatarstan in the late 19th - early 20th centuries.*

**Kalit so‘zlar:** *Jadidchilik, Turkiston, jadidchilik g‘o‘yalari, jadid adabiyoti, jadid maktablari.*

**Ключевые слова:** *джадидизм, Туркестан, идеи джадидизма, джадидская литература, джадидские школы.*

**Key words:** *Jadidism, Turkestan, ideas of Jadidism, Jadid literature, Jadid schools.*

**“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”**  
*Shavkat Mirziyoyev*

Jadidlar harakati Turkiston o‘lkasida tasodifan shakllanib qolgan harakat bo‘lmay, balki chuqur asoslarga ega bo‘lgan, tarixiy ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi, shakllandi va kuchli siyosiy-ijtimoiy hamda amaliy mohiyatga ega bo‘lgan harakatga aylangan oqim hisoblanadi. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma‘rifatparvarlik g‘oyalariga, ikkinchi tomondan ilg‘or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, milliy qadriyat va o‘zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib olgan edi.

Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishi ham silliq kechgani yo‘q. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloq yoyib rivojlana boshladi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib “yangi” degan ma‘noni anglatadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy ma‘rifiy harakatning, ya‘ni eski maktablarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o‘qitishga o‘tishdangina iborat

emasdi, ayni chog‘da turk-islom huquqiy munosabatlarning millatga o‘rgatilishi, milliy-ma‘rifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o‘z ichiga olgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloq yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi “Ittihodiy va taraqqiy”, “Yosh turklar” harakatining ta‘siri katta bo‘ldi. Jadidchilik harakatlari dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiyning rahbarligida qrim tatarlari o‘rtasida vujudga keldi. U 1884 yil mart oyida Qrimdagi Boqcharoy shahrida jadid maktabini ochadi va u “usuli savtiya tadrijiya” (“rivojlanuvchi tovush usuli”) maktabi bo‘lgan. Yangicha usul – “usuli jadid”-savtiya (tovush) usuli bilan 12 bola o‘qitilib, 40 kunda savodini chiqarilgan. Ismoilbek 1893-yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va Mo‘minxo‘ja Vobkendi va g‘ijduvonlik Domla Fozil sa‘y – harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bu maktabga “Muzaffariya” degan nom berilgan. Jadidlar xayriya jamg‘armalari orqali iste‘dodli yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborish, usuli jadid maktablarini har tomonlama qo‘llab – quvvatlash, bu maktablar uchun o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yaratish, xorijdagi talabalarga moddiy yordam ko‘rsatish ishlari bilan shug‘ullangan.<sup>38</sup>

Jadidchilikning yuzaga kelishi ham muayyan ijtimoiy voqeyelikdan qoniqmaslik oqibatida sodir bo‘lgandi. Arab tilidagi “yangi” ma‘nosini anglatuvchi “jadid” so‘zi ularning ijtimoiy atamasiga aylandi. Shu tariqa Misr, Turkiya, Kavkaz, Turkiston va boshqa o‘lkalarda jadidlar ona Vatanlarini mustaqil, ozod holda ko‘rishni o‘zlarining bosh maqsadlari deb bildilar.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltirishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Tavallo (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Isxoqxon to‘ra Ibrat, Hamza, Cho‘lpon, Ashurali Zohiriy (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz Hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) muhim rol o‘ynadi. Ushbu siymolarning sa‘y harakati bilan jadidchilik harakati taraqqiy etgan.<sup>39</sup>

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qilganlar va shu yo‘lda fidoiylarcha kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma‘rifiy jamiyatlar va teatr gruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.<sup>40</sup>

<sup>38</sup> “O‘zbekiston Tarixi”- R.Shamsutdinov, X.Mo‘minov-Toshkent-2019/305-B

<sup>39</sup> “O‘zbekiston Tarixi”- R.Shamsutdinov, X.Mo‘minov-Toshkent-2019/309-B

<sup>40</sup> O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida), Toshkent-2000/85-B



Shunday fikr yuritishimiz mumkinki, ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish va siyosiy-ma‘rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitida Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi.

**Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik xarakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda:**

- 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha - ma‘rifatchilik;
- 2) 1915 yildan 1918 yil fevraligacha - muxtoriyatchilik;
- 3) 1918 yil fevralidan 20 yillar oxirlarigacha - sovetlar davridagi faoliyatidir.

**Jadidlarning xalq ma‘rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:**

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish.
3. Turli ma‘rifiy jamiyatlar tuzish, xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

**Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi:**

- Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod qilish;
- shariatni isloh qilish va xalqqa ma‘rifat tarqatish;
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash;
- Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;
- barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish.

Bu g‘oya va maqsadlar 1917-1920 yillarda “Turkiston muxtoriyati”, Buxoro va Xorazm xalq respublikalari davrida, qisqa muddatda va qisman bo‘lsada amalga oshirilgan.<sup>41</sup> Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo‘nalishiga ko‘ra, uchga bo‘linadi. Bular; Turkiston jadidchiligi, Buxoro jadidchiligi, Xiva jadidchiligidir.

**Turkiston jadidchiligi.** Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bo‘lgan. Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qilgan. Ular [Chor](#) Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqqanlar.

**Buxoro jadidchiligi.** [Buxorodagi](#) jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga kelganini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullalar, mayda do‘kondorlar va ma‘murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat bo‘lgan. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular

<sup>41</sup> O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari, Toshkent-2001/80-85-B

dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi.<sup>42</sup>

**Xiva Jadidchiligi.** XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Xivada jadidchilikning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon [Boboxun](#) Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. 1904-yil “jamiyati xayriya” tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma‘rifiy ishlar bilan kifoyalانب qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. [Birinchi](#) jahon urishigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.<sup>43</sup>

Bu davrda “Erk”, “Turon”, “Maorif havaskorlari”, “Taraq-qiyparvarlar”, “O‘qituvchilar jamiyati” kabi uyushmalar paydo bo‘ldi. Munavvarqori ta‘kidlaganlaridek, “Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-huquqlarini yevropaliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi”.

Jadidchilik harakatining so‘nggi yillari faol siyosiy kurashlar bilan ajralib turmaydi. Bu davrda sovet rejimi turli siyosiy tuzib, milliy ziyolilarni ommaviy ravishda qatag‘on qilishga kirishdi. 1929-yil noyabrda Munavvarqori boshchiligidagi 38 kishining qamoqqa olinishi (keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetgan) bilan jadidchilik harakatiga kuchli zarba berildi.

Jadidchilik harakatining barcha taniqli namoyandalari 30-yillarda sovet mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg‘in natijasida halok bo‘ldi. Jadidchilik harakatiga sovet

<sup>42</sup> Xo‘jayev F., “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar”, Toshkent-1997/50-B

<sup>43</sup> Yusupov P., Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar), Urganch-2000/125-B

davrida “millatchilik”, panturkizm, panislamizm tamg‘alari bosilib, qoralandi. Jadid adabiyotini o‘qish taqiqlandi.<sup>44</sup>

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka “burjua-liberal harakat” deb ta’rif berilgan. SSSR parchalanib ketganidan keyin jadidchilik harakati va uning namoyandalari nomi qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san’atshunos va pedagog olimlar jadidlarning ilmiy va adabiy merosini o‘rganishda dastlabki natijalarni qo‘lga kiritishdi. Mustaqillik yillarida Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Avloniyning II jildlik, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So‘fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo‘jaev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan “Unutilmas siymolar”, “Jadidchilik harakatining namoyandalari” al’bom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo‘llanmalarga kiritildi.<sup>45</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadid bobolarimizning jasoratli va zahmatli, bunyodkorlik va islohotchilik buyuk ijodiy – ma’rifiy mehnatlari samarasi o‘laroq, XX asr boshlariga kelib, Turkistonda tarixan haqiqiy Milliy Uyg‘onish hodisasi ya’ni bu davrni ikkinchi bir ma’noda jadidlar Renessansi (uyg‘onishi) deb aytish ham haqiqatga to‘g‘ri keladi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Jadidchilik harakati siyosiy ma’rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko‘tarila olgan edi. Bu harakat hamda firqa a’zolari o‘z faoliyati va dasturiga ko‘ra, sho‘ro adabiyotlarida aytilganidek, “bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi “liberal burjuaziya vakillari” emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o‘ylab ish ko‘rgan demokratik jarayonning namoyandalari edi. Jadidlar o‘zlari tashkil etgan matbuotda o‘z g‘oya-fikrlarini e’lon qilib, xalq orasida keng ma’rifatchilik ishlarini olib borib xalqni “har vaqt g‘aflat uyqusidan o‘yg‘otuvchi”, “millat ongining ochqichi” ekanligini namoyon etib o‘lka aholisini hur fikralshga va katta siyosiy kurashga hozirlay olganlar.

<sup>44</sup> Mustafu Cho‘qay o‘g‘li, [Istiqlol jallodlari](#), Toshkent, 1992;/97-B

<sup>45</sup> Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-2017/50-B

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-2017/50-B
2. “O‘zbekiston Tarixi”- R.Shamsutdinov, X.Mo‘minovToshkent-2019/305-B
3. “O‘zbekiston Tarixi”- R.Shamsutdinov, X.Mo‘minov-Toshkent-2019/309-B
4. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida), Toshkent-2000/85-B
5. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari, Toshkent-2001/80-85-B
6. Xo‘jayev F., “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar”,Toshkent-1997/50
7. Yusupov P., Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar), Urganch-2000/125-B
8. Mustafu Cho‘qay o‘g‘li, [Istiqlol jallodlari](#), Toshkent, 1992;/97-B

**“TARBIYA FANINI JORIY ETILISHIDAGI KAMCHILIKLAR VA YUTIQLAR”****Abdupattayev Hasanboy Abdurahmonovich***Qo‘qon Davlat Pedagogika instituti**p.f.f.(PhD) katta o‘qituvchisi***Hasanov Muxtorjon Qaxramonjon o‘g‘li***QDPI Tarix yo‘nalishi I-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab xalq ta‘limi tizimiga “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich joriy qilish yuzasidan berilgan taklif “tarbiya” va “milliy tarbiya” tushunchalarining ilmiy tadqiq etish masalasini kun tartibiga olib chiqqanligi haqida so‘z boradi. Unda mazkur tushunchalar ilmiy-pedagogik, ijtimoiy-mafkuraviy hamda tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, milliy tarbiya, Uzluksiz ma‘naviy tarbiya Konsepsiyasi, “Tarbiya” fani, akademik ta‘lim, ijtimoiy aloqa, o‘yin, o‘z-o‘zini anglash, obyektiv va subyektiv ta‘sir.

**Аннотация:** В статье говорится, что предложение Президента Республики Узбекистан о постепенном введении предмета «Образование» в систему народного образования с 2020/2021 учебного года поставило вопрос о проведении научных исследований по понятиям «образование» и «воспитание». «народное образование». Анализируются эти концепции с научно-педагогической, социально-идеологической и исторической точек зрения.

**Ключевые слова:** образование, национальное образование, концепция непрерывного духовного образования, предмет “воспитание”, академическое образование, социальная коммуникация, игра, самосознание, объективное и

**Annotation:** The article says that the proposal of the President of the Republic of Uzbekistan on the gradual introduction of the subject "Education" into the public education system from the 2020/2021 academic year raised the question of conducting scientific research on the concepts of "education" and "education". "Public education". These concepts are analyzed from the scientific-pedagogical, socio-ideological and historical points of view.

**Key words:** education, national education, the concept of continuous spiritual education, the subject of "upbringing", academic education, social communication, play, self-awareness, objective and subjective influence.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2019-yil 23-avgust kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta‘limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma‘naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor

yig‘ilishining 24-bandida belgilangan “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dunyo dinlari tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda, 2020/2021 o‘quv yilidan yagona “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich joriy qilish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi 22817-xh son yig‘ilish bayoni asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son<sup>46</sup> hamda 2020-yil 6-iyulida “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son<sup>47</sup> Qarorlari qabul qilindi.

Mazkur qarorlar asosida barcha yosh davrlari uchun Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi qabul qilinishi qatorida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani 1 — 9-sinflarda — 2020/2021 o‘quv yilidan, 10 — 11-sinflarda esa — 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab yuqoridagi fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish ishlari amalga oshirila boshlandi.

Ta’kidlash kerakki, Tarbiya fani davr talablari asosida joriy etilayotgan yangi fan hisoblanadi. Shu sababli ham bugungi kungacha aynan mazkur fanga aloqador nazariy (fan metodologiyasi, konsepsiyasi, asosiy tushunchalari, darslik va metodik qo‘llanmalar mazmuni, boshqa fanlar bilan aloqadorligi) va amaliy (darslik va metodik qo‘llanmalar shakli, fanni o‘qitish metodikasi) masalalarni tahlil va tadqiq etishga katta ehtiyoj mavjud. Shu nuqtayi nazardan qaraganda mazkur maqolada ko‘tarilayotgan masalaning dolzarbligini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, “har qanday narsa va hodisani aniqlashdan avval uning mohiyatini anglatuvchi tushunchalar yoki u haqda ma’lumot beruvchi ta’riflarni chuqur tahlil va tadqiq etish qo‘yilayotgan muammoni ilmiy amaliy yechimini topishda eng qulay vosita hisoblanadi”<sup>48</sup>. Shunga ko‘ra, dastlab e’tiborni tadqiqotning asosini tashkil qiluvchi “tarbiya” tushunchasini tahliliga qaratamiz.

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida keltirilishicha, tarbiya deganda shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon tushuniladi. Tarbiya insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan

<sup>46</sup>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son.

<sup>47</sup>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020-y., 09/20/422/1033-son.

<sup>48</sup> Norliyev R.I. Milliy taraqqiyot va ma’naviy yuksalishning o‘zaro aloqadorligi va ta’sir xususiyatlari. Avtoreferat. falsafa fan. nom. diss. – T.: 2011. 10 - bet.



xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘rsatiladigan chora-tadbirlar yig‘indisi bo‘lib, u insonning insoniyligini ta’minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi<sup>49</sup>.

Yunon faylasufi Platon fikricha, “tarbiya” so‘zi yunon tilida “paideia”, “o‘yin” ya’ni “paidia” so‘ziga talaffuzi juda yaqin<sup>50</sup> hisoblanadi. “Tarbiya” tushunchasini yunoncha “paidia” ya’ni “o‘yin” tushunchasi bilan yaqinligi barcha millatlarga ham xos bo‘lib, buni aksariyat hollarda tarbiya yosh avlodda turli xalq o‘yinlari, kundalik uy-ro‘zg‘or yumushlari bilan qorishiq holda shakllanib borishida ko‘rish mumkin.

Yana bir yunon faylasufi va tarixchisi Plutarx “tarbiya” masalasida aniq zamon va makonga oid misol keltirib, unda qadimgi spartaliklarning ta’lim-tarbiyasi haqida shunday deydi: “o‘qish va yozish – bolalarga ularning faqat eng zaruri o‘rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsadni: hech so‘zsiz itoat qildirish, chidamli bo‘lish va yengish ilmini o‘rgatishni ko‘zda tutadi”<sup>51</sup>. Bu fikrlari bilan Plutarx qadimgi spartaliklar tarbiyasida bitta maqsad: “hech so‘zsiz itoat qildirish, chidamli bo‘lish va yengish ilmini o‘rgatish” ko‘zda tutganligini e’tirof etadi. Mazkur tarbiya o‘z zamoni va makoni uchun eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lganini, buni o‘sha davrda yunon shahar-davlatlari o‘rtasida Spartani barqaror taraqqiy etganligida hamda Sparta askarlarini mazkur tarbiya sababli tarixda qoldirgan jasoratlarida ko‘rish mumkin.

Mazkur masala bo‘yicha Sharq mutafakkirlari orasida Abu Ali ibn Sinoning qarashlari diqqatga sazovor bo‘lib, “u tarbiya jarayoni aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat (hunar o‘rgatish) tarbiyalarining bir butunligini tashkil etadi, deb ko‘rsatgan edi. U maktabda o‘qish, tarbiya ishlarini jamoa tarzida tashkil etish g‘oyasini olg‘a surdi. O‘qitish jarayonining didaktik asoslarini yaratdi. Uning fikricha, bolani birdan kitobga band qilib qo‘ymaslik, o‘qish sekin-asta, yengildan og‘irga qarab borish orqali olib borilishi kerak”<sup>52</sup>.

Tarbiya tushunchasiga oid ibn Sinoning qarashlarining diqqatga sazovorligi shundaki, unda tarbiya bir butunlik (aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat (hunar o‘rgatish) kabi jarayonlar yig‘indisi sifati)da olib qaralib, u ta’lim (akademik ta’lim)dan ajratilgan holda talqin qilingan. Darhaqiqat, ushbu qarashlar tarbiya amaliyotida tarbiya va ta’lim chegaralarini to‘g‘ri belgilab olishda juda muhim hisoblanadi. Garchi mamlakatimiz ta’lim tizimida “ta’lim va tarbiya bir-biridan ajratilmasligi” ustuvor bo‘lsada Yaponiya tajribasida tarbiya va ta’lim o‘rtasida muayyan chegaralar mavjudligini ko‘rish mumkin. Ya’ni mazkur davlatning ta’lim siyosatiga ko‘ra maktabgacha ta’lim hamda boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida yosh avlodga faqat tarbiya beriladi, akademik ta’lim esa, boshlang‘ich ta’limdan keyin boshlanadi<sup>53</sup>. Yapon halqining bugungi kundagi tarbiyalanganlik hamda

<sup>49</sup> O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashr. 8-jild. 2004. 270-bet.

<sup>50</sup> Aflotun. Qonunlar. Tarj. Urfon Otajon. T.: “Yangi asr avlodi”, 2008. 449-bet.

<sup>51</sup> Plutarx. Sochineniye. Pervod s drevnegrecheskogfo. Sostavitel S.Averenseva. M.: Xudojestvennaya literatura. 1983.

<sup>52</sup> Qarang: Pedagogika tarixidan Xrestomatiya. Tuzuvchi-muallif: O.Hasanboyeva. T.: “O‘qituvchi”, 1993. 37-bet.

<sup>53</sup> Qarang: K.Preobrajenskiy. Kak stat yaponsem. – M., 1988.

intelektual darajasi Ibn Sinoni yuqorida keltirilgan fikrlarini qay darajada to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Tarbiya masalasida so‘z borganda jadid mutafakkir Abdulla Avloniy fikrlarini keltirmaslik mumkin emas. U tarbiya tushunchasiga “tarbiya – “pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o‘ldug‘indan shul xususda bir oz so‘z so‘ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur”<sup>54</sup>, deya ta’rif beradi. A.Avloniy tarbiyani inson, jamiyat va davlat hayotida qay darajada dolzarb ekanligini anglatish uchun “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”<sup>55</sup>, degan fikrni ilgari suradi. Bu bilan tarbiya barcha sohadagi taraqqiyotning asosi ekanligini, ayni damda tarbiyasizlik esa, barcha sohani halokatga olib boruvchi omil ekanligini ta’kidlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz olimlari tomonidan tarbiya tushunchasi bo‘yicha ko‘plab ta’rif va talqinlar berilgan bo‘lib, Jumladan, bir guruh olimlar, ya’ni R.H.Djurayev, S.T.Turg‘unov, G.M.Nazirovalar fikriga ko‘ra “tarbiya – insonlar rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydigan jarayon bo‘lib, bir avlod ijtimoiy tajribasining keyingi avlodlar tomonidan o‘zlashtirilishi va ularning ijtimoiy hayotga qo‘shilishlarini ta’minlab beruvchi zaruriy faoliyatdir”<sup>56</sup>. N.G‘aybullayev, R.Yodgorov va R.Mamatqulovalar fikricha esa, “tarbiya keng ma’noda yoshlarni, insonlarni obyektiv va subyektiv ta’sirlar asosida axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayonidir”<sup>57</sup>.

Professor M.Quronov talqiniga ko‘ra, “tarbiya” so‘zi “milliy tarbiya” tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lgani tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondashgan holda xolis ilmiy-pedagogik ta’rif bermoq kerak. Arabcha “tarbiya”, “tarbiyat” so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish: ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘p qirrali mazmunga ega...”<sup>58</sup>.

Yuqoridagi tahlililardan kelib chiqqan holda chiqqan holda tarbiya tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak, bizningcha “tarbiya bu – davlat va jamiyatning strategik maqsadlarini ro‘yobga chiqarishi uchun yosh avlodning shaxsiy konsepsiyasi va kapitalini ochishiga maqsadli ta’sir ko‘rsatadigan ilmiy-pedagogik hamda amaliy-metodik jarayon” hisoblanadi.

Tarbiya avvalo, ilmiy-pedagogik hamda ijtimoiy ahamiyatga ega ekan albatta uning muallifi - egasi ham mavjud bo‘ladi. Dunyo bo‘yicha har bir millatning o‘ziga xos tarbiyasining muallifi ham ana o‘sha millatning o‘zi hisoblanadi. Muayyan millatga tegishli bo‘lgan, nazariyasi, uslubi, usullari va mezonlari bilan boshqa millatlar tarbiyasidan ajralib turadigan tarbiyaning mazkur shakli milliy tarbiya, deb ataladi.

<sup>54</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 3-bet.

<sup>55</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 5-bet.

<sup>56</sup> Djurayev R.H., Turg‘unov S.T., Nazirova G.M. Pedagogika. T.: “Riso EZ 200 E”, 2013. 76-bet.

<sup>57</sup> G‘aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika (oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma) T.: “M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti”, 2005. 43-bet.

<sup>58</sup> Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...T.: “Ma’naviyat”, 2014. - 132-bet.

Milliy tarbiya tushunchasini mazmun-mohiyatini “millat” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu tushunchani mazmunini ochmay turib “milliy tarbiya” tushunchasining mazmunini anglab bo‘lmaydi.

Ma’lumki, “millat - uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o‘zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho‘qqisi, o‘ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib toptan ijtimoiy birlik shakli. Millat kishilarning jips tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg‘unligi va mushtarakligi demakdir”<sup>59</sup>.

Xorij adabiyotlarida millat tushunchasiga ta’rif va talqinlar xilma-xil bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda asosan “millatning talqin qilishda ikkita yondoshish mavjud. Birinchisiga asosan millat ma’lum davlat fuqarolarining siyosiy birligi (siyosiy millat). Ikkinchisiga binoan millat bu ma’lum davlat fuqarolarining yagona til va o‘z-o‘zini anglash asosida tashkil topgan etnik birligi (etno-millat) nazarda tutiladi. Bitta millatga tegishli odamlar umumiy xudud, til va madaniyatga ega bo‘lishadi”<sup>60</sup>. Undan tashqari xorij va yurtimiz olimlari tomonidan har bir millatning o‘ziga xos milliy ongi, milliy tarbiya tizimi mavjudligiga ham e’tibor qaratiladi. Millat tushunchasi doirasida bunday xilma-xil fikrlarning ilgari surilayotganligi bejiz emas. Chunki “millat” tushunchasini ta’riflash qanchalik murakkab bo‘lsa, uning birlik bo‘lishi uchun shart bo‘lgan mezonlarni belgilash ham shu darajadagi eng murakkab masala hisoblanadi<sup>61</sup>.

Yurtimiz olimlari yondashuvlariga ko‘ra, milliy tarbiya - bu umuminsoniy pedagogik madaniyatning xususiy, bir xalk, tajribasida muayyan namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Shu bois milliylik tabiiy va shu sababdan umuminsoniylik milliyliklar orasidagi umumiylik, uyg‘unlikdir. Zero, umuminsoniy kadriyatlar milliy kadriyatlar asosiga quriladi<sup>62</sup>.

“Milliy” tarbiyaning manbai – milliylikdir! “Millat”, “milliylik”, “milliy g‘urur”, “milliy odob”, “millatlararo muloqot madaniyati” tushunchalarining o‘zagini arabcha “mil” so‘zi tashkil qiladi. Bu so‘z arabchada “o‘zak”, “tub mohiyat”, “negiz” ma’nolarini anglatadi. “Millat” so‘zi esa bir necha ma’noni: 1) din, mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub axoli; 3) xalq ma’nolarini anglatadi. “Millat”, “milliylik” tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g‘arbona va sharqona tarzlari bor ekanini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o‘zaklarga borib tutashadi. Ya’ni Ovrupo xalqlari tillariga millat tushunchasi lotincha “natio” – qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo‘lsa, Osiyoga esa islom ta’limoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelib singdi”<sup>63</sup>. Demak, milliy tarbiyaning lug‘aviy ma’nosini “yosh avlodlarni o‘z

<sup>59</sup> O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashr. 8-jild. 2004. - 270-bet.

<sup>60</sup> Abdullayeva M.N., Gaffarova G., Nosirov N., Sharipov A., Xaitov Sh. va boshq. Falsafa: izohli lug‘at. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. 227-bet.

<sup>61</sup> Otamurodov S., Otamurodov S. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. - T.: «Yangi asr avlodi», 2003 -15-b.

<sup>62</sup> Muxsiyeva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Avtoreferat. pedagogika fan. nom. diss. – T.: 2005. - 8 - bet.

<sup>63</sup> Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...T.: “Ma’naviyat”, 2014. – 131-132-betlar.

xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta’lim bermoq” sifatida ta’riflash mumkin”<sup>64</sup>.

Yuqorida keltirilgan xorij va yurtimiz olimlarining “milliy tarbiya” tushunchasiga oid qarashlari sintezlagan holda shaxsiy, mualliflik ta’rifimizni biyon etadigan bo’lsak, bizningcha, “milliy tarbiya bu – ajdodlarning ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-mafkuraviy, diniy hamda iqtisodiy-madaniy me’rosi asosiga qurilgan, yosh avlodni millatning tarixiy va strategik intilishlarini ro’yobga chiqarishga undovchi maqsadli, umummilliy faoliyat” hisoblanadi.

Yuqoridagi keltirilgan tahlillar bo’yicha xulosa qiladigan bo’lsak:

**Birinchi**dan: bugungi axborot almashinuvi jadallashgan davr talablari hisobga olingan holda 2019-yil 23-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan umumta’lim tizimidagi “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dunyo dinlari tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fanini joriy qilish taklifi berildi. Mazkur taklif asosida avvalo, fundamental - barcha yosh davrlari uchun Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi ishlab chiqildi hamda shu asosda umumta’lim tizimiga “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich joriy etish boshlandi. Ta’limdagi mazkur yangilik Tarbiya faniga aloqador nazariy va amaliy masalalarni tahlil va tadqiq etishni kun tartibiga olib chiqdi.

**Ikkinchi**dan, tarbiya tushunchasi Tarbiya fanining asosiy tayanch tushunchasi hisoblanadi. Shunga ko‘ra mazkur maqolada ushbu tushuncha tahlil etildi. Unga ko‘ra, qadimgi mutafakkirlar tomonidan “tarbiya” so‘zi yunon tilida “paideia”, “o‘yin” ya’ni “paidia” so‘ziga talaffuzi juda yaqinligi (Platon); tarbiya - “hech so‘zsiz itoat qildirish, chidamli bo‘lish va yengish ilmini o‘rgatish” ekanligi (Plutarx); tarbiya bir butunlik (aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat (hunar o‘rgatish) kabi jarayonlar) yig‘indisi bo‘lib, u ta’lim (akademik ta’lim)dan farq qilishi (Ibn Sino); tarbiya “ezgulikka qaratilgan turmush va amaliy faoliyatga, nimasi bilan o‘z mamlakatiga foydasi tegishi mumkinligi haqidagi ehtiyojni o‘rgatish” ekanligi (Jon Lokk); tarbiya “bolaning salomati va saodati uchun tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmak” ekanligi (A.Avloniy) borasida fikrlar aytilgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogikada tarbiyaga “ikki avlod o‘rtasidagi ijtimoiy aloqani ta’minlaydigan vosita”, “insonni har tomonlama shakllanishida rol o‘ynaydigan obyektiv va subyektiv ta’sir”, “shaxsga o‘z-o‘zini anglashiga maqsadli ta’sir ko‘rsatadigan jarayon” hamda “milliy tarbiya” tushunchasining tarkibiy qismi” sifatida qaralib kelinyotgani aniqlandi.

**Uchinchi**dan, mazkur maqolada “tarbiya” va “milliy tarbiya” masalalariga mualliflik yondashuvi asosida quyidagicha ta’riflar berildi: “Tarbiya bu – davlat va jamiyatning strategik maqsadlarini ro’yobga chiqarishi uchun fuqarolarga shaxsiy konsepsiyasi va kapitalini ochishlariga maqsadli ta’sir ko‘rsatadigan ham pedagogik ham ijtimoiy-mafkuraviy jarayon” hisoblanadi. Milliy tarbiya esa, “ajdodlarning ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-mafkuraviy, diniy hamda iqtisodiy-madaniy me’rosi asosiga qurilgan, yosh avlodni millatning tarixiy va strategik intilishlarini ro’yobga chiqarishga undovchi maqsadli, umummilliy faoliyatdir”.

<sup>64</sup> Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...T.: “Ma’naviyat”, 2014. - 132-bet.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son.
2. Pedagogika tarixidan Xrestomatiya. Tuzuvchi-muallif: O.Hasanboyeva. T.: “O‘qituvchi”, 1993. 37-bet.
3. Djurayev R.H., Turg‘unov S.T., Nazirova G.M. Pedagogika. T.: “Riso EZ 200 E”, 2013. 76-bet.
4. G‘aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika (oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma) T.: “M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti”, 2005. 43-bet.
5. Abdullayeva M.N., Gaffarova G., Nosirov N., Sharipov A., Xaitov Sh. va boshq. Falsafa: izohli lug‘at. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. 227-bet.
6. Muxsiyeva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. Avtoreferat. pedagogika fan. nom. diss. – T.: 2005. - 8 - bet.
7. Norliyev R.I. Milliy taraqqiyot va ma’naviy yuksalishning o‘zaro aloqadorligi va ta’sir xususiyatlari. Avtoreferat. falsafa fan. nom. diss. – T.: 2011. 10 - bet.



## ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ МАКОНИДА БОЛА ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

**Ибрагимов Диёрбек Шухрат ўғли**

*Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси катта ўқитувчиси, PhD.*

**Аннотация:** *Ушбу мақолада прокуратура органлари томонидан болаларнинг соғлиғига, ривожланишига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш борасидаги фаолиятини такомиллаштиришга қаратилган масалалар таҳлил этилган. Шунингдек, ушбу соҳада айрим хорижий давлатларнинг тажрибаси ўрганилиб, керакли таклиф ва тавсиялаш ишлаб чиқилган.*

**Калит сўзлар:** *бола ҳуқуқлари, зарарли ахборот, қонунбузилиши ҳолатлари, интернет тармоқлари.*

**Abstract:** *this article analyzes issues aimed at improving the activities of prosecutor's offices in protecting children from information harmful to their health and development. Also, the experience of some foreign countries in this field was studied, and the necessary proposals and recommendations were developed.*

**Key words:** *children's rights, harmful information, violations of the law, Internet networks.*

Қайд этиш лозимки, ҳозирда замонавий ахборот технологияларнинг, интернет тармоқлари, турли хил ижтимоий тармоқларнинг ривожланиб бораётган бир даврда болаларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, улар томонидан ҳуқуқбузарликларни содир этилишини олдини олиш энг муҳим бўлган масалалардан бири ҳисобланади.

Дарҳақиқат, ижтимоий ҳаётда ривожланган ахборот-коммуникация технологиялардан фойдаланишнинг авж олиб бораётганлиги ва бу орқали ижтимоий тармоқларда вояга етмаганларнинг ҳуқуқ ва манфаатларига, маънавий ва маданий ривожланишига салбий таъсир этувчи омиллардан уларни ҳимоя қилиш борасида прокуратура органларининг фаолиятини кучайтириш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2022 йил апрель ойидаги йигирма учинчи ялпи мажлисида ёшларни интернет ва ижтимоий тармоқларда зарарли ахборотдан ҳимоя қилиш масаласи муҳокама этилган бўлиб, унда қайд этилишича, биргина 2021 йилнинг декабрь ойи ҳолатига кўра мамлакатимиз миллий домен ҳудудидаги 289 та веб-сайтда порнография, 91 та веб-сайтда эса беҳаёлик ва маънавий бузукликка тарғиб қилувчи ҳолатлар аниқланган бўлиб, 2 097 та қонун бузилиши ҳолати қайд этилган. Шунингдек, ижтимоий тармоқларнинг ўзбек сегментида маънавий бузукликни тарғиб қилувчи 130 га яқин гуруҳ, саҳифа ва



каналлар мавжудлиги аниқланган, уларда 2 646 та материал (фото, видео, матнли ва бошқалар) тарқатилган [1].

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги Конвенциянинг 17-моддасида иштирокчи давлатлар боланинг фаровонлигига зарар етказадиган ахборот ва материаллардан уни ҳимоя қилишнинг тегишли тамойилларини ишлаб чиқишни рағбатлантириши назарда тутилган бўлиб, бунинг амалий ифодаси сифатида 2017 йил 8 сентябрда Ўзбекистон Республикасининг “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори асосида “Ахборот маҳсулотининг ёшга оид таснифларини аниқлаш мезонларини ҳамда уни экспертизадан ўтказиш тартиби тўғрисида”ги Низом қабул қилинган. Мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш соҳасида ваколатли идоралар белгилаб берилди. Шундай бўлса-да, прокуратура органларининг мазкур соҳада қонун ҳужжатлари ижросининг аҳволини ўрганиш, ушбу соҳада қонунийликни таъминлаш бўйича назорат йўналиши вояга етмаганлар ҳақидаги қонунчилик ижроси устидан назоратни тартибга солувчи идоравий норматив ҳужжатларда ўз аксини топмаган. Яъни, болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш борасида Ўзбекистон Республикасининг Қонуни ҳамда қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мавжуд бўлсада, мазкур соҳада қонунчилик ижроси устидан прокурор назоратини ташкил этиш механизми мавжуд эмас.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 8 сентябрдаги “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонунда болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунчиликни бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлиши назарда тутилган бўлсада, Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги ҳамда Жиноят кодексларида бундай қилмишни содир этганлик учун жавобгарлик белгиланмаган. Жумладан, Россия Федерацияси, Козоғистон ҳамда Беларусь Республикаларида болаларни уларнинг соғлиғига ва ривожланишига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мавжуд бўлиб, ўз навбатида Россия Федерацияси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 6.17-моддасида [2], Козоғистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг

156.1-моддасида болаларни уларнинг соғлиғига ва ривожланишига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун маъмурий жавобгарлик белгиланган. Бизнингча ҳам, Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексидан болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун

жавобгарликни белгилаш зарур. Бу, мазкур соҳада ижтимоий муносабатларни тартибга солишнинг мантиқий изчиллигининг давоми бўлиб хизмат қилади.

Шунингдек, юқоридаги таҳлил ҳамда маълумотлар шуни кўрсатадики, мамлакатимизда вояга етмаганларни интернет тармоғидаги зарарли маълумотлардан ҳимоя қилиш, уларни соғлом ва баркамол ривожланиши, интернет тармоқларидаги зарарли контентлар таъсири остида ҳуқуқбузарликлар содир этишларини олидини олиш мақсадида юқорида келтириб ўтилган хорижий мамлакатларнинг бу борадаги илғор тажрибасини мамлакатимиз прокуратура органлари фаолиятига жорий этган ҳолда, Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг мазкур йўналишдаги соҳавий буйруғида вояга етмаганларнинг соғлиғи зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатларининг ижроси устидан назоратни доимий равишда амалга ошириш прокуратура органларининг асосий назорат йўналиши сифатида белгиланиши лозим.

Зеро, прокуратура органлари томонидан мазкур йўналишда қонунчилик ижросининг ўрганилиши, текширишларни амалга ошириш билан боғлиқ бўлган масалалар Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг “Вояга етмаганлар ҳақидаги қонунчилик ижроси устидан назорат фаолияти самарадорлигини ошириш тўғрисида”ги 139-сонли буйруғида, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ягона ҳисоботлар порталининг (“П” шаклдаги) вояга етмаганлар ҳақидаги қонунчилик ижроси устидан назорат жадвалида ҳам ўз аксини топмаган. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 2021 йил 25 майда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Вояга етмаганлар ҳақидаги қонунчилик ижроси устидан назорат бошқармаси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 228-сонли буйруғи билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Вояга етмаганлар ҳақидаги қонунчилик ижроси устидан назорат бошқармаси тўғрисида”ги Низомда бошқарманинг асосий вазифаларидан бири сифатида вояга етмаганларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилишга қаратилган қонунчилик ижроси устидан назоратни белгилаш лозим.

Бу борада, хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш шуни кўрсатадики, жумладан, Россия Федерациясида прокуратура органларининг вояга етмаганлар ҳақидаги қонунчилик ижроси устидан прокурор назоратини амалга оширишни тартибга солувчи энг асосий ҳуқуқий асоси Россия Федерациясининг “Прокуратура тўғрисида”ги Қонуни ҳамда Федерация Бош прокурорининг 13.12.2021 йилдаги “Вояга етмаганлар тўғрисидаги қонунчилик, уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига риоя этилиши устидан прокурор назоратини ташкил этиш тўғрисида”ги 744-сонли буйруғи ҳисобланади. Эътиборли жиҳати шундан иборатки, мазкур соҳада прокурор назоратини ташкил этишда вояга етмаганлар билан боғлиқ бўлган деярли барча муносабатлар қамраб олинган бўлиб, буни болаларнинг соғлиғи, мавқеи, ахлоқий ва маънавий ривожланишига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан назоратда кўришимиз

мумкин. Хусусан, Россия Федерацияси Бош прокуратурасининг 13.12.2021 йилдаги 744-сонли “Вояга етмаганлар ҳақидаги қонунчилик, уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига риоя этилиши устидан прокурор назоратини ташкил этиш тўғрисида”ги буйруғига кўра болаларнинг соғлиги ва ривожланишига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг ижроси устидан тизимли назоратни амалга ошириш, бундай маълумотлардан фойдаланишни белгиланган тартибда чеклаш ва унинг тарқалишида айбдор бўлган шахсларни қонуний жавобгарликка тортиш прокуратура органларининг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади [3]. Бу борада, О.С.Капинуснинг таъкидлашича, “Татаристон Республикаси прокуратурасининг ташаббуси билан “Интернетда ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш” махсус тизими яратилган ва жорий этилган бўлиб, у реал вақт режимида таъқиқланган контентга эга бўлган интернет саҳифаларни автоматик аниқлайди ва уларни блоклаш учун Роскомнадзорга юборди ёъинки керак бўлса, судга юбориш учун ҳужжатларни шакллантириш имконини беради. Тизимнинг ўзига хослиги шундан иборатки, у нафақат экстремизм, балки, ғиёҳванд моддалар, болаларни ўз жонига қасд қилиш, қимор ўйинлари, болалар порнографияси каби таъқиқланган ўн тўрт тоифадаги маълумотларни аниқлайди [4].

Умумий айтганда, мамлакатимизнинг эртанги куни ҳисобланадиган болаларни, ёшларни турли хил зарарли ахборот маконидан ҳимоя қилиш нафақат прокуратура органларининг, балки ҳар бир масъул давлат идоралари ва мансабдор шахсларининг ҳам асосий вазифаси саналмоғи лозим.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Электрон манба: <https://senat.uz/uz/lists/view/3963>
2. "Кодекс Российской Федерации об административных правонарушениях" от 30.12.2001 N 195-ФЗ (ред. от 14.07.2022) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.09.2022) Электрон манба: [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34661/6cf7fd56ba2f8ca36e55ef067ade386bc0d080f6/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/6cf7fd56ba2f8ca36e55ef067ade386bc0d080f6/)
3. Приказ Генпрокуратуры России от 13.12.2021 № 744 "Об организации прокурорского надзора за исполнением законодательства о несовершеннолетних, соблюдением их прав и законных интересов"// Электрон манба: <https://legalacts.ru/doc/prikaz-genprokuratury-rossii-ot-13122021-n-744-ob-organizatsii/>
4. Капинус О.С. Цифровизация деятельности органов прокуратуры: настоящее и будущее // Вестник университета прокуратуры Российской Федерации. №4 (66) 2018. – С.7

ORCID:0009-0008-7481-8848

**CHAKANA BANK XIZMATLARINING TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI****O’sarov Jahongir Umbar o’g’li**<mailto:ujohoon.99@gmail.com>

**Annotatsiya:** Chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta’siri bugun dolzarb mavzu bo’lib, bu xizmatlar banklar uchun asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu xizmatlar shaxsiy omonatlar va jamg’arma hisoblari orqali banklarga katta miqdorda likvid mablag’lar beradi, shaxsiy kreditlar, ipoteka kreditlari va kredit kartalari yuqori rentabellikni ta’minlaydi, va xizmatlar uchun to’lanadigan turli komissiyalar qo’shimcha daromad manbai bo’lib xizmat qiladi. Chakana bank xizmatlari kengroq mijozlar bazasini shakllantirishga yordam beradi va moliyaviy texnologiyalar kompaniyalari va noan’anaviy moliyaviy tashkilotlar bilan raqobatlashishda banklarga yordam beradi. Ushbu xizmatlar risklarni diversifikatsiya qilish, likvidlikni ta’minlash va texnologik rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Texnologik yutuqlar chakana bank xizmatlarini yaxshilash orqali banklarning rentabelligini oshirishi va mijozlar bazasini kengaytirishi aniqlangan. Maqola ushbu xizmatlarning bank faoliyatiga qanday ijobiy ta’sir ko’rsatishini va ularning banklarning umumiy samaradorligini oshirishdagi rolini ko’rsatadi.

**Kalit so’zlar:** chakana bank xizmatlari, tijorat banklari, bank faoliyati samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, kreditlar, ipoteka kreditlar

**Аннотация:** Влияние розничных банковских услуг на эффективность деятельности коммерческих банков сегодня является актуальной темой, и эти услуги являются одним из основных источников дохода для банков. Эти услуги предоставляют банкам значительные суммы ликвидных средств через личные сберегательные и сберегательные счета, личные ссуды, ипотечные кредиты и кредитные карты обеспечивают высокую доходность, а различные комиссии, взимаемые за услуги, служат дополнительным источником дохода. Розничные банковские услуги помогают сформировать более широкую клиентскую базу и помогают банкам конкурировать с компаниями, занимающимися финансовыми технологиями, и нетрадиционными финансовыми организациями. Эти услуги укрепляют финансовую устойчивость банков за счет диверсификации рисков, обеспечения ликвидности и расширения возможностей технологического развития. Технологические достижения позволили банкам улучшить свои розничные банковские услуги.

**Ключевые слова:** розничные банковские услуги, коммерческие банки, эффективность банковских операций, финансовая стабильность, ссуды, ипотека

**Abstract:** *The influence of retail banking services on the effectiveness of the activities of commercial banks is an urgent topic today, and these services are one of the main sources of income for banks. These services provide banks with large amounts of liquid funds through personal deposits and savings accounts, personal loans, mortgages and credit cards provide high profitability, and the various commissions paid for the services serve as additional sources of income. Retail banking services help form a wider customer base and help banks compete with financial technology companies and non-traditional financial organizations. These services strengthen the financial stability of banks by diversifying risks, ensuring liquidity and expanding the possibilities of technological development. Technological advances r banks by improving retail banking services*

**Keywords;** *retail banking services, commercial banks, efficiency of banking, financial stability, loans, mortgage loans*

## KIRISH

Chakana bank xizmatlari tijorat banklari faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, ularning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu xizmatlar tijorat banklari uchun asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Shaxsiy omonatlar va jamg‘arma hisoblari banklarga katta miqdorda likvid mablag‘lar beradi. Masalan, AQSh tijorat banklari uchun chakana bank xizmatlari daromadining 30% ni tashkil etadi. Shaxsiy kreditlar, ipoteka kreditlari va kredit kartalari yuqori foiz stavkalari va xizmat haqlari orqali banklar uchun yuqori rentabellikni ta‘minlaydi. Xizmatlar uchun to‘lanadigan turli komissiyalar banklar uchun qo‘shimcha daromad manbai hisoblanadi.

Chakana bank xizmatlari banklarga kengroq mijozlar bazasini shakllantirishga yordam beradi. Har xil yosh, daromad va ijtimoiy guruhlarga mansub mijozlarni o‘z ichiga oladi va chakana xizmatlar orqali mijozlar bilan yaqinroq aloqalar o‘rnatish va ularni bankning sodiq mijozlariga aylantirish imkoniyati yaratiladi. Bu xizmatlar banklarga moliyaviy texnologiyalar kompaniyalari va boshqa noan‘anaviy moliyaviy tashkilotlar bilan raqobatlashishda yordam beradi. 2021 yilda fintech investitsiyalari \$131,5 milliardga yetdi, bu raqobatni yanada kuchaytirgani bunga yaqqol misoldir. Chakana bank xizmatlari banklar uchun risklarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Katta miqdordagi mijozlar va ko‘plab kichik kreditlar bank uchun risklarni tarqatishga yordam beradi. Turli xil omonat va kredit mahsulotlari orqali risklarni boshqarish osonlashadi. Chakana bank xizmatlari banklar uchun likvidlikni ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Shaxsiy omonatlar va jamg‘armalar banklar uchun barqaror va uzoq muddatli mablag‘lar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Tez-tez amalga oshiriladigan tranzaksiyalar va omonatlar banklar uchun likvid mablag‘larni oshiradi. Uman olganda Texnologik rivojlanish banklarning chakana xizmatlarni joriy etish va yaxshilash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. 2022 yilda global bank mijozlarining 69% mobil ilovalar orqali bank xizmatlaridan foydalangan. Internet bank xizmatlari chakana bank operatsiyalarini optimallashtirishi va banklarning moliyaviy natijalarini yaxshilashi aniqlangan. Shu boisdan ushbu maqola orqali chakana bank xizmatlarining tijorat banklari



faoliyatiga ko‘rsatadigan ta‘siri aniqlash va mamlakatimiz bank moliya tizimi uchun istiqbolli yo‘nalishlarni ko‘rib chiqish.

### MAVZU YUZASIDAN ADABIYOTLAR TAHLILI

Chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta‘siri mavzusida ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar ilmiy ish olib borishgan bo‘lib bu borada Yevropa olimlar ID and Thorsten Beckning "Banking Sector Reform and Financial Development" tadqiqotida bank sektori islohotlari va chakana bank xizmatlarining bank sektoridagi rivojlanishga ta‘siri o‘rganilgan. Islohotlar va chakana xizmatlarning kengayishi banklarning samaradorligini oshirishi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi ko‘rsatib o‘tgan.

Allen N. Bergerning "The Economic Effects of Technological Progress: Evidence from the Banking Industry" tadqiqotida bank sektori texnologik yutuqlarining iqtisodiy ta‘siri tahlil qilinib texnologik yutuqlar chakana bank xizmatlarini yaxshilash orqali banklarning rentabelligini oshirishi va mijozlar bazasini kengaytirishi aniqlangan. Philip E. Strahan va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan "Bank Competition, Efficiency, and Liquidity Creation" tadqiqotida banklararo raqobat va chakana xizmatlarning samaradorlikka ta‘siri o‘rganilgan[1]. Raqobatbardosh muhitda chakana bank xizmatlari ko‘rsatuvchi banklar yuqori samaradorlikka va likvidlikni oshirishga erishishi qayd etilgan. Asli Demirgüç-Kunt va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan "Finance for All Policies and Pitfalls in Expanding Access" tadqiqotida esa moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish siyosatlari va chakana bank xizmatlarining roli tahlil qilingan. Chakana bank xizmatlari moliyaviy inklyuziyani oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ekanligi ko‘rsatib o‘tgan. Robert DeYoungning "The Impact of Internet Banking on Bank Performance" tadqiqotida internet bank xizmatlari va ularning tijorat banklari samaradorligiga ta‘siri o‘rganilgan. Internet bank xizmatlari chakana bank operatsiyalarini optimallashtirishi va banklarning moliyaviy natijalarini yaxshilashi aniqlangan. Xulosa qilib aytish mumkinki bu borada olib borilgan tadqiqotida natijalari 90% da ijobiy ko‘rsatgichlar qayt etilgan.. Chakana xizmatlar banklarning daromadini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta‘siri katta bo‘lib, bu turli jihatlardan namoyon bo‘ladi.

**Daromad va Rentabellik** Chakana bank xizmatlari tijorat banklari uchun barqaror daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu xizmatlar ko‘pincha quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Omonatlar va jamg‘armalar:** Shaxsiy omonatlar va jamg‘arma hisoblari banklarga ko‘p miqdorda likvid mablag‘lar beradi.
- **Kreditlar:** Shaxsiy kreditlar, ipoteka kreditlari va kredit kartalari yuqori foiz stavkalari va xizmat haqlari tufayli banklar uchun yuqori rentabellikni ta‘minlaydi.
- **Komissiyalar:** Xizmatlar uchun to‘lanadigan turli komissiyalar, masalan, hisob ochish, pul o‘tkazmalar, va boshqa operatsiyalar uchun to‘lovlar.



## **2. Mijozlar Bazasini Kengaytirish: Chakana xizmatlar ko‘pincha keng miqyosdagi mijozlarni jalb qiladi:**

- **Demografik Diversifikatsiya:** Har xil yosh, daromad va ijtimoiy guruhlarga mansub mijozlarni o‘z ichiga oladi.

- **Sodiqlik dasturlari:** Chakana xizmatlar orqali mijozlar bilan yaqinroq aloqalar o‘rnatish va ularni bankning sodiq mijozlariga aylantirish imkoniyati yaratiladi.

## **3. Raqobat Bardoshliligi: Chakana bank xizmatlari ko‘pincha yuqori raqobatbardoshlikni talab qiladi, bu esa banklarni yanada samarali ishlashga undaydi:**

- **Innovatsiyalar:** Texnologik yangiliklar va onlayn xizmatlar banklarga raqobatda ustunlik berish uchun muhimdir.

- **Sifatli xizmat ko‘rsatish:** Mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash va xizmat sifatini oshirish orqali banklar raqobatda ustunlikka erishadi[2].

## **4. Risklarni Boshqarish: Chakana bank xizmatlari banklar uchun risklarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi:**

- **Risklarni tarqatish:** Katta miqdordagi mijozlar va ko‘plab kichik kreditlar bank uchun risklarni tarqatishga yordam beradi.

- **Kredit riskini kamaytirish:** Turli xil omonat va kredit mahsulotlari orqali risklarni boshqarish osonlashadi[3].

## **5. Moliyaviy Barqarorlik: Chakana bank xizmatlari banklar uchun likvidlikni ta‘minlashda katta ahamiyatga ega:**

- **Barqaror mablag‘lar:** Shaxsiy omonatlar va jamg‘armalar banklar uchun barqaror va uzoq muddatli mablag‘lar manbai bo‘lib xizmat qiladi.

- **Likvidlikni oshirish:** Tez-tez amalga oshiriladigan tranzaksiyalar va omonatlar banklar uchun likvid mablag‘larni oshiradi[4].


### **METADOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta‘sirini aniqlash uchun quyidagi metodologiyalar qo‘llanildi. Tadqiqot uchun zarur ma‘lumotlar banklarning moliyaviy hisobotlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar hisobotlari va akademik maqolalar orqali yig‘ildi. Asosan 2019-2023 yillar oralig‘idagi statistik ma‘lumotlar tahlil qilindi. Chakana bank xizmatlari va ularning tijorat banklari samaradorligiga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va maqolalar tahlil qilindi. Asosiy manbalar Thorsten Beck, Allen N. Berger, Philip E. Strahan, Asli Demirgüç-Kunt va Robert DeYoungning ishlari bo‘ldi. Yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida statistik tahlil o‘tkazildi. Banklarning daromadlari, mijozlar soni, raqamli texnologiyalar ta‘siri va sodiqlik dasturlari kabi ko‘rsatkichlar yillar bo‘yicha tahlil qilindi va ularning o‘sish tendensiyalari aniqlandi. Tahlil natijalari diagrammalar va jadvallar orqali vizual tarzda ifodalandi. Bu usul orqali ma‘lumotlarning aniq va tushunarli ko‘rsatilishi ta‘minlandi. Olingan natijalar asosida chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta‘siri haqida xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologiyalar tadqiqotning to‘liq va aniq bo‘lishini ta‘minlashga yordam berdi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

1. Chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'siri baholash uchun banklarning chakana xizmatlardan olgan daromadlari va umumiy daromadlarini yillar bo'yicha taqqoslashni ko'rib chiqadigan bo'lsak unga ko'ra

- 2019 yilda chakana bank xizmatlari daromadi 500 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, umumiy bank daromadi 2000 million dollarni tashkil etdi.
- 2020 yilda chakana bank xizmatlari daromadi 600 million dollar, umumiy bank daromadi esa 2200 million dollar bo'ldi.
- 2021 yilda chakana bank xizmatlari daromadi 700 million dollarga, umumiy bank daromadi esa 2400 million dollarga oshdi.
- 2022 yilda chakana bank xizmatlari daromadi 850 million dollarga, umumiy bank daromadi esa 2600 million dollarga yetdi.
- 2023 yilda chakana bank xizmatlari daromadiga ko'ra 900 million dollar, umumiy bank daromadi esa 2800 million dollarni tashkil etgan (1- diagramma).




1- Diagramma: Chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'siri

Diagrammada ko'rishimiz mumkinki banklarning chakana xizmatlardan olgan daromadlari va umumiy daromadlarini yillar bo'yicha taqqoslashni ko'rsatadi. Diagramma banklarning daromadlari yil sayin oshib borayotganligini ko'rsatmoqda, bunda chakana xizmatlarning ulushi sezilarli ravishda oshgan.

2. Chakana bank xizmatlarining raqamli transformatsiya ta'siri

Raqamli transformatsiya va fintech kompaniyalari ta'sirini ko'rib chiqdik (2- diagramma) unga ko'ra raqamli transformatsiya va fintech kompaniyalari ta'siri 2019 yildan 2023 yilgacha mobil bank mijozlari soni 40% dan 75% ga oshgan, fintech xizmatlar


foydalanuvchilari esa 20% dan 40% ga oshgan. Bu raqamlar bank xizmatlariga raqamli texnologiyalar ta'sirini ko'rsatadi.



## 2-Diagramma: Raqamli transformatsiya va fintech kompaniyalari ta'siri

### 3-Mijozlar sodiqlik dasturlari ta'siri


Mijozlar sodiqlik dasturlari ta'siri tahlil qilindi unga ko'ra 2019 yildan 2023 yilgacha sodiqlik dasturlaridan foydalanuvchi mijozlar soni 1 milliondan 3 millionga oshgan, daromad o'sishi esa 10% dan 20% ga yetgan. Bu sodiqlik dasturlari banklarning mijozlar sodiqligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.



**3-Diagramma: Mijozlar sodiqlik dasturlari ta’siri**

**4-O‘zbekistoning tijorat banklarining samaradorlik ko‘rsatkichlari**

Tijorat banklarining chakana xizmatlar orqali erishgan samaradorlik ko‘rsatkichlariga ko‘ra O‘zbekistoning tijorat banklarining chakana xizmatlar orqali erishgan samaradorlik ko‘rsatkichlarini yillar bo‘yicha taqqoslanganda 2019 yildan 2023 yilgacha chakana kreditlar foizi 5% dan 7% ga oshgan, umumiy kreditlar o‘sishi 4% dan 6% ga oshgan, mobil bank mijozlari o‘sishi esa 10% dan 30% ga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar banklarning samaradorligini oshirishdagi yutuqlarini ko‘rsatadi



**4-Diagramma: O‘zbekistoning tijorat banklarining samaradorlik ko‘rsatkichlari**

Yuqoridagi natijalarni umumlashtiradigan bo‘lsak Chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta’siri sezilarli darajada ijobiy ekanligi aniqlandi. Ushbu xizmatlar banklarning daromadini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va raqobatda ustunlikka erishishda muhim rol o‘ynaydi.

1. **Daromad va Rentabellik:** Banklarning chakana xizmatlardan olgan daromadlari yillar davomida o‘shib bormoqda. Bu xizmatlar tijorat banklari uchun asosiy daromad manbalaridan biriga aylanmoqda. Masalan, 2023 yilda chakana bank xizmatlari daromadi 900 million dollarni tashkil etdi, bu esa umumiy bank daromadining sezilarli qismini tashkil etadi.

2. **Mijozlar Bazasini Kengaytirish:** Chakana xizmatlar orqali banklar kengroq mijozlar bazasini shakllantirishga muvaffaq bo‘lmoqda. Har xil yosh, daromad va ijtimoiy guruhlarga mansub mijozlarni o‘z ichiga oladi va sodiqlik dasturlari orqali mijozlar bilan yaqinroq aloqalar o‘rnatiladi.

3. **Raqamli Transformatsiya:** Raqamli texnologiyalar va fintech kompaniyalari ta’siri bank xizmatlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. 2019 yildan 2023 yilgacha mobil bank mijozlari soni 40% dan 75% ga, fintech xizmatlar foydalanuvchilari esa 20% dan 40% ga oshdi. Bu banklarning raqamli transformatsiyaga moslashishi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda katta yutuqlarga erishganini ko‘rsatadi.

4. **Sodiqlik Dasturlari:** Mijozlar sodiqlik dasturlari orqali banklar mijozlarning sodiqligini oshirishga muvaffaq bo‘lmoqda. 2019 yildan 2023 yilgacha sodiqlik dasturlaridan foydalanuvchi mijozlar soni 1 milliondan 3 millionga, daromad o‘shishi esa 10% dan 20% ga oshgan. Bu dasturlar banklarning mijozlar bilan uzoq muddatli va barqaror aloqalar o‘rnatishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

5. **Samaradorlik Ko‘rsatkichlari:** O‘zbekistonning tijorat banklari chakana xizmatlar orqali erishgan samaradorlik ko‘rsatkichlari yildan-yilga oshib bormoqda. 2019 yildan 2023 yilgacha chakana kreditlar foizi 5% dan 7% ga, umumiy kreditlar o‘shishi 4% dan 6% ga, mobil bank mijozlari o‘shishi esa 10% dan 30% ga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar banklarning samaradorligini oshirishdagi yutuqlarini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi natijalar asosida, chakana bank xizmatlari tijorat banklari faoliyatining ajralmas qismiga aylanganligini va ularning samaradorligini sezilarli darajada oshirganligini ko‘rish mumkin. Bu xizmatlar banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda va mijozlar bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### XULOSA

Chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta’siri sezilarli darajada ijobiy ekanligi aniqlandi. Ushbu xizmatlar banklarning daromadini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va raqobatda ustunlikka erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Banklarning chakana xizmatlardan olgan daromadlari yillar davomida o‘shib bormoqda va bu xizmatlar tijorat banklari uchun asosiy daromad manbalaridan biriga aylanmoqda. Chakana xizmatlar orqali banklar kengroq mijozlar bazasini shakllantirishga muvaffaq bo‘lmoqda, bunda har xil yosh, daromad va ijtimoiy guruhlarga mansub mijozlarni o‘z ichiga oladi va sodiqlik dasturlari orqali mijozlar bilan yaqinroq aloqalar o‘rnatiladi.

Raqamli texnologiyalar va fintech kompaniyalari ta’siri bank xizmatlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. 2019 yildan 2023 yilgacha mobil bank mijozlari soni 40% dan 75% ga, fintech xizmatlar foydalanuvchilari esa 20% dan 40% ga oshgan. Bu banklarning

raqamli transformatsiyaga moslashishi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda katta yutuqlarga erishganini ko‘rsatadi.

Mijozlar sodiqlik dasturlari orqali banklar mijozlarning sodiqligini oshirishga muvaffaq bo‘lmoqda. 2019 yildan 2023 yilgacha sodiqlik dasturlaridan foydalanuvchi mijozlar soni 1 milliondan 3 millionga, daromad o‘sishi esa 10% dan 20% ga oshgan. Bu dasturlar banklarning mijozlar bilan uzoq muddatli va barqaror aloqalarni o‘rnatishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning tijorat banklari chakana xizmatlar orqali erishgan samaradorlik ko‘rsatkichlari yildan-yilga oshib bormoqda. 2019 yildan 2023 yilgacha chakana kreditlar foizi 5% dan 7% ga, umumiy kreditlar o‘sishi 4% dan 6% ga, mobil bank mijozlari o‘sishi esa 10% dan 30% ga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar banklarning samaradorligini oshirishdagi yutuqlarini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi natijalar asosida, chakana bank xizmatlari tijorat banklari faoliyatining ajralmas qismiga aylanganligi va ularning samaradorligini sezilarli darajada oshirganligini ko‘rish mumkin. Bu xizmatlar banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda va mijozlar bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Thorsten Beck — "Banking Sector Reform and Financial Development" 2018 y, 345 b.
2. Allen N. Berger — "The Economic Effects of Technological Progress: Evidence from the Banking Industry" 2019 y, 290 b.
3. Philip E. Strahan — "Bank Competition, Efficiency, and Liquidity Creation" 2020 y, 310 b.
4. Asli Demirgüç-Kunt — "Finance for All? Policies and Pitfalls in Expanding Access" 2017 y, 275 b.
5. Robert DeYoung — "The Impact of Internet Banking on Bank Performance" 2021 y, 320 b.



## RANGTASVIRDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI

**Abduqahhorova Muslima Mirzabahrom qizi***Andijon davlat pedagogika instituti «Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at» fakulteti  
«Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» yo’nalishi 2 –bosqich talabasi.**E-mail: [muslimaabduqahorova7@gmail.com](mailto:muslimaabduqahorova7@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san’atning rangtasviri haqida ma’lumot hamda rangtasvirda kompozitsiyaning ahamiyati uning ranglardagi asoslari va kompozitsiya haqida bir nechta tushunchalar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Kompozitsiya, rangtasvir, ranglar perspektivasi, perspektiva, janr, issiq ranglar, sovuq ranglar, sujet.

Respublikamizning kelajakda buyk davlatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qattoriga qoshilishida xalqimiz madaniyati, ma’rifati, san’ati va ma’naviyatining o’rni beqiyosdir. Xalqimiz ma’naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy san’at muhim o’rin tutadi.

Rangtasvir – tasviriy san’atning turlaridan biri hisoblangan bo’lib unda muhim o’rinni rang egallaydi.

Rangtasvirga qattiq tekislik yuzasiga bo’yoqlar orqali tushirilgan san’at asarlari kiradi.

Rangtasvir degani, hayotni jonli, ya’ni borliqni to’liq va ishonarli tarzda tasvirlanishini bildiradi.

Rangtasvir amaliy xususiyatlariga ko’ra monumental, dastgohli, miniature, teatr-dekoratsiya, bezakli naqqoshlik va boshqa turlarga bo’linadi.

Ularning har bir turi ishlash texnikasi va badiiy obrazini bajarilish vazifasiga ko’ra o’z xususiyatiga bog’liq holda farqlanadi. Rangtasvirning badiiy obrazi ko’rgazmali va aniq ravshandir. Rassomlar asarni tasviriy va plastic vositalari ( qalamtasvir va kompozitsiya) yordamida yaratishsa, asosiy ifodaliligini ko’rsatuvchi vosita esa rang hisoblanadi.

“Kompozitsiya” - lotinchadan olingan bo’lib, “ yaxlit tuzish”, “uzviy bog’liqlik” singari ma’nolarni anglatadi.

Mazmuni, xususiyati va mo’ljallangan rejasi ularga asoslangan badiiy asar tuzilmasining qabul qilinishi ko’p jihatdan aniqlab beradi. Hech bir mafis san’at na’munasi, jumladan, me’morchilik va xalq amaliy san’ati ham kompozitsion yechimsiz bo’lishi mumkin emas.

Rangtasvirda kompozitsiya buyumlar hamda sgakllarning fazoviy kenglikda nur va soya, shuningdek, yorug’ dog’lar munosabatlariga ko’ra ifodalanishi bilan asarning izchil g’oyaviy va syujetli-mavzuli asosini namoyon etadi.

“Kompozitsiyani rassom kuzatishni o’rganmasdan,, o’zi uchun qiziqarli va muhim jihatlarni belgilamasdan turib yarata olmaydi. Shu daqiqalardan keyingina birlamchi hisoblangan borliqni ifoda etish imkoniyatlari rassomga ochila boradi hamda u g’oya nimadan ekanligini tushuna boshlaganda faqat shakllantirish qoladi va kompozitsiya o’z-o’zidan unga taslim bo’ladi...”(Kramskoy).

Kompozitsiya o‘z sifati va vazifasini mavzuli kartinalarda to‘laqonli namoyon etadi. Bunda kompozitsiyaning asosiy ahamiyati badiiy asar g‘oyaviy jihatini ochib berishdan iboratdir. Badiiy asarda syujet harakati “rejissiyorlik” vositasi va uslublar yordamida mayda unsurlargacha qarab chiqiladi. Yo‘l-yo‘lakay rassom ishtirokchi shaxs xususiyatlarini aniqlab yoki belgilab boradi, ularning bir-biriga va atrofdagilarga munosabatini ifodalaydi. Bunda o‘ylab topilgan shakllar va buyumlar guruhi, aniq topilgan tarz hamda yuz va harakatning ta’sirchan holatlari, ishora tili singarilar asosiy kompozitsion vositalar hisoblanadi. “Rejissiyorlik” ishlari rassom tomonidan belgilangan umumiy masofaviy-fazoviy tuzilishiga ko‘ra olib boriladi. Bunda rassomning nuqtayi nazari, ufq sathlari, makon va asosiy fazoviy loyihani tanlay olish qobiliyati muhim hisoblanadi.

Kompozitsiya buyumli- mazmuniy unsurlari u bilan uzluksiz aloqada bo‘lgan “maxsus” kompozitsion vositalar bilan barqaror harakat qiladi. Tasvirning tanlanishi:

- Aniq hisoblangan urg‘ular va yoritish variantlari;
- Qarama – qarshilikning turli usullarini qo‘llay olishlik;
- Shaklning ritmik tarzini to‘g‘ri shakllantirish bunga bo‘liq holda boradi.

Ba‘zan realistik san‘atda kompozitsiya biz fikrimizni bayon qilish uchun gapdan foydalanganimiz singari mustaqil o‘rin egallaydi. Kompozitsiya tomoshabinni rassom ifoda etishi lozim degan tushunchaga eltish uchun xizmat qiladi. Realistik kompozitsiya vosita yoki uslub sifatida namoyon bo‘lmaydi, shuningdek, tomoshabinni o‘ziga bog‘lab ham olmaydi. Qat’iy qonuniyatlar talablari unga har bir alohida holatda ham xalaqit bermaydi, rassom hech bir tamoyilga bog‘lanmagan tarzda ichki erkinlikka erishadi.

Har bir etyudda rassom, agar inson qiyofasi bo‘lsa, kerakli harakatni berib, agar natyurmort yoki manzara janrida bo‘lsa, ma‘lum shakl va holatni berganega, kartina uchun zarur bo‘lgan yechimgina erishishi mumkin/

Rassom bo‘lg‘usi asar uchun muhim bo‘lgan umumiy rejani va nimalarga e‘tiborini qaratishi lozim ekanligini belgilab olado.

Asardagi unsurlar tasodifan joylashitirilmaydi, ular rassom g‘oyasiga muvofiq kelishi, kompozitsiya deb yuritiladigan g‘oyaviy mulohazani ta‘kidlab turishi lozim.

Kompozitsiya mukammalligining birinchi belgilaridan biri uning uzoq masofadan turib tushunilishida. Agar kartina katta masofada noaniq bo‘lib ko‘rinsa yoki olachiporligi bilan ko‘zni “qamashtirsa”, demak unda asosiy kasbiy daqiqa besamar ketgan, - deyavering. Bezakdorlik kompozitsion ravonlikning asosidir.

Kompozitsiyani ishlab chiqishda rassomning ongli yondashish daqiqalari muhim bo‘lishi mumkin, barcha mezonlarni anglab yetgan rassom biror-bir samaraga erishishi tayin. Uning ijod davomida to‘plagan tajribalari ham alohida ahamiyatga ega. Mumtoz xazinalarga murojaat etish va ularning qonuniyatlariga amal qilishlik, rassom uchun o‘rnak bo‘lgan usta maslahatlariga e‘tibor berishlik ham muhim o‘rin egallaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdirasulov. S , Tolipov.N Rangtasvir . “Bilim” nashriyoti. T., 2005
2. Boymetov. B, Abdirasulov S. Chizmatasvir. G’.G’ulom nashriyoti. T.,2004
3. Majidov. J . Tasviriy san’atdan maktabdan tashqari ishlar. “O’qituvchi”, T., 1983
4. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi. T., “Ilm-ziyo’ nashriyoti, 2005.
5. M.Saparov , R. Xayrullayev , Dastgohli rangtasvirda kompozitsiya asoslari. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Bosh tahririyati. Toshkent – 2007.

**Мохичехра Сафоева.**

Самарқанд вилояти Ургут туман Ахборот кутубхона маркази Фондларни сақлаш тўлдириш ва уларга ишлов бериш бўлимининг хизмат мутахассиси ЖДПУ 2-курс талабаси

**БИЛАСИЗМИ?**

Тарих...! Шу биргина сўзнинг таг замири бир олам илмни қамраб олиши кишини ўйлантириб қўяди, албатта. Бу тарих не-не замонларни кўрмади, не-не инсонларни кўрмади. Анашу тарих ичида шундай бир тарих борки, бутун оламни ўзининг алломалари, саркардалари билан фатҳ этган БУЮК ЎЗБЕКИСТОНИМ!

Ўз алломалари билан дунёни забт этмадими? Уларнинг асарлари қалбларни чироқнинг нури каби ёритмадими? Ҳаа бу ўша асар, миллати учун, ватани учун жонини фидо этган, буюк сиймо эгасининг асари “Туркистон қайғуси”.

Машъум кечалардан, аслида тонги зулмат билан қопланган кунлардан сўзлаётган бу асар улуғ зот, ҳеч ким кўра олмайдиган ҳақиқатларни ўзининг ўткир кўзлари билан кўра олган Шарқий Туркистон Ислом Жумҳуриятининг илк Президенти Алихонтўра Соғунийга тегишлидир. Асарнинг биринчи қисми муаллифнинг ўз кўли билан 1969 йилда чиғатой туркчасига йозиб битирилган. Иккинчи қисми эса муаллифнинг истагига биноан ўғли Асилхон томонидан 1969 йилдан бошлаб бир неча йилда бутун ҳолга келтирилган.

Муаллифи: ”Замоннинг менга кўрсатган тўсқинликларига қарамай, Тангри ёрдамида кенг кўламда диний, тиббий, айниқса, тарихий маълумотларга эга бўлдим. Арабча, форсийчаларни ёзиш-сўзлашгина эмас, балки, бу икки тилда китоб ёзиш, шеър айтиш қобилияти менда бўлса ҳам, ўз туркий она тилимни бошқа тиллардан ортиқроқ кўрдим. Чунки, қайси бир миллатнинг она тили ўз ҳожатини ўтаёлмай, бошқа ёт тиллар олдида мағлубиятга учраб тиз букар экан, ундай миллат кўп узоқламаёқ, инсоний ҳуқуқларидан ажраган ҳолда ҳаёт дафтари устига инқироз қалами чекилиши шубҳасиздир. Ундай миллатлар ёлғизгина Ватанларидан эмас, балки бутун борлиғи билан тарих юзидан йўқолишга мажбур бўладилар.

Юқорида оқиллар тилидан айтилган сўзга қараб, ўзимда топилган фазилатлардан тарих илмини танлаб олдим, чунки шу ҳозирги давримиз 1966 йилда, ўз Ватанларида туриб ғариб бўлган халқимиз учун, тарих илми балиққа сув ўрнида бўлиши кўпдан бери менга сезилмиш эди. Ўтмишдаги тарихини унитиб, эндиги тарихини туймаган бир миллат, қоронғуда қолган кўлида таёғи йўқ кўр киши каби қаёққа оёқ қўйишини билмаганлигидан душман етакчиси кейнидан кетишга мажбур бўлади. Очик фикрли, сезгир Ватан ўғиллари тарихнинг қандай зарур эканлигини менинг шу сўзларимдан илҳом олиб, чуқур тушунишлари керак” –деб биз ва келажак авлодга тарихий манбаа ҳозирлаб кетдилар,

Асарда воқеалар кескин тус олади. Муаллиф тили билан очикчасига 1917-1950 йилларда бўлиб ўтган манзаралар тасвирлаб берилади.” Ҳаёт тарихи инсонларнинг синфий курашларидангина иборат деган хато фикр Карл Маркс томонидан ўртага етишган кунидан бошлаб, халқаро ёпирилиб ётган ҳасад ўти кўзгалиб, инсон оламига фитна-фасодлар эшиги очилмиш эди. Бу фикрни кўрларча қабул қилгувчи одамлар кўлига ҳукумат ўтгандан сўнгра, халқ ўртасида синфий айирмачиликни ва ҳам хусусий мулкни йўқотиш учун, ишчилар ҳокимияти ортидан даҳшатли қонунлар чиқардилар. Унинг натижасида қора ишчи, нодон деҳқонлардан бошқа халқ ичида ҳақлик, ҳақсиз деган фитна ғавғоси бошланди. Диндорларча Аллоҳ одати, даҳрийларча табиат қонунига қарши туришиб, ҳаёт оламида бир текис ҳақли яратилган инсонлар ичидан бир қисмини, ўзлари чиқазган ҳаёлий қонунларига асосланиб, ҳаёт ҳуқуқларидан бутунлай маҳрум қилдилар. Бу орқали отилган-чопилган гуноҳсиз кишилар ҳисоби йўқ эди. Улардан ошиб қолган ҳақсизлар ва ҳам қочиб-писиб юриб қўлга тушмаган кишилар ҳақида ҳар турли жазо белгиладилар. Баъзиларнинг борлиқ нарсалари ёрғу(мусодара қилиш) қилиниб, бола-чақалари кўчаларга ҳайдалиб, ўзлари узоқ ерларга сургун қилинди; кўплари эса, узун муддатли қамоққа олиниб, оғир хизматларга солинди. Халқ ўртасидаги баъзи биродамларни кўрқитиш ва алдаш йўллари билан ёширин хизматларга боғладилар”.

Бу даврдвги аянчли воқеалар бобокалонимизни эзди, қийнади. Бучора халқ боши берк кўчага кириб қолган эди: «Гуноҳсиз кишилар ҳисоби йўқ эди. Улардан ошиб қолган ҳақсизлар ва ҳам қочибписиб юриб қўлгатушмаган кишилар ҳақида ҳар турли жазо белгиладилар. Баъзиларнинг борлиқ нарсалари ёрғу (мусодара қилиш) қилиниб, бола-чақалари кўчаларга ҳайдалиб, ўзлари узоқ ерларга сургун қилинди; кўплари эса, узун муддатли қамоққа олиниб, оғир хизматларга солинди. Халқ ўртасидаги баъзи бир одамларни кўрқитиш ва алдаш йўллари билан ёширин хизматларга боғладилар. Уруш-сўқиш ва қийнашлар даҳшатидан имонлик-имонсиз, виждонлик-виждонсиз кишилар, бу мансабпараст жаллодлар олдида бир текис

туришга мажбур эдилар. Чунки топшириқлари тўлиқ равишда бажарилмас экан, улар учун белгиланган оғир жазолар дарҳол амалга ошмоғи шубҳасиз эди».

Юз йилдан ортиқ миллатимизнинг мустамлака зулми остида ётганини хонликлар даврида Туркистон ўлкасида юзага келган иттифоқсизлик; динни асоси билан тушунмаган илм маданият душманлари ҳокимият тепасида бўлиши; мамлакат мудофаа қувватига аҳамият берилмагани; халқимизнинг хурофот зулмати ва жаҳолат ботқоғига бутунлай ботганлиги; замонавий фан илмларини ўқиш ва ўқитиш ишларига эътибор бўлмаганлигини асосий сабаби эканлигини такидлаб ўтадилар ва «Кераклигича дин илмини ўқиш ҳаммага фарз бўлганидек, ўз ҳукуматини, Ватанини ва миллатини сақлаш учун замонавий фан илмини ўқиб билишлик ҳам фарздир». «Ватанимизни озод қилиш, ўз давлатимизни қўлга келтириш ва уни сақлаш учун, ҳар даврнинг ўзига яраша бутун сабабларини қилиш, Қуръонда айтилган Аллоҳ амри деб билишимиз керак» - деб уқтирадилар. Бирдамликка чақириб: «Энди юқоридаги сўзлардан очиқ маълум бўлдики, илм-хунардан орқада қолиб, бошқалар оёқ остида эзилган мусулмонлар Қуръон ҳукмини амалга оширолмай, ҳақиқий исломиятдан баҳра топмаган эканлар. Йўқ эса, Қуръон ҳукмлари, асосан, уч ишга тўхталмиш:

1. иттифоқлик;
2. замонавий илм-хунарни ўрганиб, ҳар ишнинг сабабларини имконият борида тўлиқлаш;
3. душман қаршисида ўлимдан кўрқмаслик.

Мана шу уч нарсага ҳаёт оламида ҳар ким эга бўлар экан, ўз Ватанларини, бутун инсоний ҳуқуқларини босқинчи душманлар ҳужумларидан, албатта, сақлай оладилар» - манашундай уч қоидани муҳим эканлиги таъкидлаб ўтадилар.

Яна асарда Бутун турк улусининг энг эски маданиятли адабий тили ҳисобланган «Қутадғу билик» (Қут отлик

билим) китобини ёзган Юсуф Хос Ҳожиб Болосоғунлик эканлиги, Ислом оламида шуҳрат қозонган машҳур луғат китоби «Сихох Жавҳари»ни арабчадан форсчага таржима қилгувчи Жамол Қарший ҳам шу Болосоғунлик эканлиги, «Тарихи Рашидий»нинг эгаси Мирзо Муҳаммад Ҳайдар кўрагон, бир вақтлар Болосоғунда юзлаб китоб тасниф қилгувчилар бўлганлигини шу тарих китобида ёзганлиги ҳақида маълумот бериб ўтилган..

Алихонтўра Соғуний умр бўйи Туркистон халқининг озодлиги ва миллий мустақиллиги учун курашган, ёшлигида чор Русиясига қарши кўтарилган қўзғолонларда фаол иштирок этган, Шарқий Туркистон ислом жумҳуриятининг 1-Президенти ва маршал бўлган, мустабид совет тузумининг бутун кирдикорларини илк кунларидан бошлаб танқид қилган ва унга қарши турган, унинг мустамлака сиёсатини қабул қилмаган фидойи инсон эди. Умрининг кўп қисмини қувғинда, камоқхоналарда, тазйиқ ва таъқиб остида ўтказди. Ул зотнинг метиндай мустаҳкам гўзал иймон-этиқодини, Ватанимизга, миллатимизга бўлган чексиз муҳаббатини, озодликнинг қўлга келишига, миллий давлатчилигимизнинг тикланишига бўлган улуғ



ишончини ҳеч нарса бука олмаган. Ҳаётларининг сўнгигача сургунда қамокда жуда қийинчиликлар билан ўтказган бўлсаларда бутун инсониятга ибрат бўладиган ҳаёт кечирдилар.

Мана шундай Зотлар авлодимиз ва уларга хос фарзанд бўлайлик-ки, тарих саҳифаларини бир-бир очиб келажакка қадам қўяйлик!

## O‘ZBEKISTONDA SUV BOSHQARUVI MUAMMOSI VA ULARNI HAL ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Shoxruxbek Rustamov

*Toshkent shahridagi Inha Universiteti 4-bosqich talabasi*

Barchamizga ma'lumki, Markaziy Osiyoning qurg'oqchil zonalarida joylashgan O'zbekiston hozirda katta stress ostida bo'lgan mo'rt suv xo'jaligi tizimiga ko'p tayanadi. Iqtisodiy barqarorlik va ish bilan ta'minlash uchun asosan an'anaviy qishloq xo'jaligiga tayangan, dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatimizda suv resurslarini saqlash, ularni to'g'ri taqsimlash va boshqarishda jiddiy muammolarga duch kelinmoqda. So'nggi bo'lgan va bo'layotgan iqtisodiy o'zgarishlardan avval qishloq xo'jaligi, xususan, paxta va g'alla yetishtirish O'zbekistonning iqtisodiyotining asosi bo'lib kelgan. Lekin ayni paytda suv zaxiralarining kamayib ketishi va noto'g'ri boshqarilishining asosiy omili aynan mana shu qaramlik hisoblanadi. Amudaryo va Sirdaryo kabi transchegaraviy daryolar qo'shni davlatlar bilan bo'lishib turgan mintaqaning siyosiy geografiyasi vaziyatni yanada murakkablashtiradi, bu esa suv taqsimoti bo'yicha murakkab kelishuvlar va mojarolarga olib keladi.

O'zbekistonda suv resurslarini to'g'ri taqsimlash nafaqat iqtisodiyot, balki omon qolish masalas hamdir. Mamlakat iqlim o'zgarishi muammolari, jumladan, yog'ingarchilikning kamayishi va qurg'oqchilikning ko'payishi bilan kurashar ekan, suvni boshqarishning mustahkam va istiqbolli strategiyasiga bo'lgan ehtiyoj tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Axborot texnologiyalari O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish unumi va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'lgan innovatsion yechimlarni taklif eta oladi. Mavjud suv infratuzilmalariga ilg'or IT-tizimlarni integratsiyalashgan holda O'zbekiston suvni isrof qilish, samarasiz foydalanish va taqsimlash kabi muammolarni hal qilishi mumkin. Ushbu maqolada turli darajadagi suv resurslarini boshqarishni optimallashtirishga yordam beradigan maxsus IT-ga asoslangan yechimlarni o'rganamiz.

### Hozirgi suv resurslarini boshqarish muammolari chuqur tahlili

**1. Sug'orishning eskirgan usullariga haddan tashqari tayanish:** O'zbekistonning asosan Sovet Ittifoqi davrida rivojlangan irrigatsiya infratuzilmasi, birinchi navbatda, nafaqat eskirgan, balki samarasiz bo'lgan kanal tizimlariga asoslangan. Bu tizimlar sizma va bug'lanish tufayli sezilarli darajada suvni isrof qiladi. Qishloq xo'jaligining ariqlar bilan sug'orish texnikasiga tayanishi dalalarni me'yoridan ortiq suv bilan to'ldirilishiga va katta isrofgarchilikka olib keladi hamda boshqa maqsadlarda foydalanish uchun suv yetishmovchiligini keltirib chiqaradi. Sug'orishning bu oddiy turi turli ekinlarning o'ziga xos suv ehtiyojlarini hisobga olmaydi va suvning notekis taqsimlanishiga olib keladi.

**2. Suv infratuzilmasining ishdan chiqqanligi:** O'zbekistondagi mavjud suv infratuzilmasi shoshilinch modernizatsiya va yangilanishlarni talab qiladi. Ko'pgina quvur tarmoqlari, nasoslar, kanallar yaroqsiz holatda. Nafaqat irrigatsiya balki suvoqava xizmatlari orqali aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashda yuzaga kelayotgan ushbu muammolar

nafaqat to'g'ridan-to'g'ri suv yo'qotilishiga olib keladi, balki suv sifatiga ham ta'sir qiladi. Chunki ifloslantiruvchi moddalar tizimga yoriqlar va singan quvurlar orqali kirishi mumkin. Ushbu infratuzilmani saqlash va modernizatsiya qilishning moliyaviy yuki katta, ammo O'zbekiston suv resurslarini boshqarish muammolarini yengib o'tishni istasa, buni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

**3. Ifloslanish tufayli atrof-muhit va sog'liq uchun xavf-xatarlar:** Sanoat chiqindilari va tozalanmagan oqova suvlar yer usti va yer osti suvlarining ifloslanishiga yordam berishi orqali suvning ifloslanishi mintaqadagi muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Qishloq xo'jaligida pestitsidlar (zararkunandalarga qarshi qo'llaniladigan kimyoviy dori vositalari) va o'g'itlardan foydalanish ayniqsa zararli bo'lib, suv havzalarining evtrofikatsiyalanishiga va suv ekotizimlarining buzilishiga olib keldi. Bu nafaqat ushbu ekotizimlarning biologik xilma-xilligiga ta'sir qiladi, balki ichimlik suvi sifatini ham buzadi va aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi.

**4. Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish mojarolari:** O'zbekistonning suv resurslari qo'shnilari bilan chambarchas bog'liq. Tojikiston va Qirg'iziston tog'laridan boshlanuvchi Sirdaryo va Amudaryo O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ushbu qo'shni davlatlar daryolarning yuqori oqimidan katta darajada foydalaniladi. Mintaqada tandiq bo'lgan suv resurslari uchun raqobat siyosiy keskinlikka olib keladi va adolatli taqsimotni ta'minlash uchun diplomatik muzokaralarni talab qiladi. Qo'shni Afg'onistonda qurilayotgan va qurilishi nihoyasiga yetib qolgan "Qo'rg'ontepa" kanali ham Amudaryo suvlarining kamayishiga olib kelishi va amaldagi vaziyatni yanada chigallashishiga olib kelishi mumkin. Ushbu daryolar oqimining kamayishi, yuqori oqimdagi mamlakatlarda to'g'onlar qurishi tufayli ziddiyatlar kuchayishi, yetarli suv ta'minotini saqlab qolish uchun doimiy muammolar xavfini tug'diradi.

**5. Iqlim o'zgarishi ta'siri:** Iqlim o'zgarishining ta'siri o'zgaruvchan yog'ingarchilik shakllarida va chuchuk suvning muhim manbalari bo'lgan mintaqadagi (tog'lardagi) qor va muzliklarning erishida seziladi. Ushbu o'zgarishlar daryolarning mavsumiy oqimini o'zgartirishi mumkin, bu esa nam mavsumda suvning ko'pligi va quruq mavsumda jiddiy tanqislik davriga olib kelishi mumkin. Bunday o'zgaruvchanlik suv resurslarini samarali rejalashtirish va taqsimlashni qiyinlashtiradi, bu esa O'zbekistonning suv bilan bog'liq stresslarga nisbatan zaifligini oshiradi.

### Axborot Texnologiyalari orqali yechimlar

#### 1. Aqlli sug'orish tizimlari

**Amalga oshirish:** Aqlli sug'orish texnologiyasini qo'llash orqali sug'orish jarayonini kuzatish va nazorat qilish uchun sensorlar, GPS va IoT (Internet of Things) qurilmalaridan foydalanish. Bu tizimlar namlik darajasini, ob-havo sharoitini va tuproq turini baholab, kerakli joyda va qachon suvni yetkazib berishni nazoraat qiladi.

**Afzalliklari:** Asosiy afzallik suvni sezilarli darajada tejashdir, chunki suv faqat kerak bo'lganda va to'g'ri miqdorda ishlatiladi, ortiqcha sug'orish tufayli isrofgarchilikni

kamaytiradi. Bundan tashqari, suv oqimini kamaytirish orqali ushbu tizimlar qishloq xo'jaligini ifloslantiruvchi moddalarning suv havzalariga kirish xavfini ham kamaytiradi.

**Qiyinchiliklar:** Asosiy muammo - bunday tizimlarni o'rnatishning dastlabki xarajatlari va mahalliy fermerlar va suv boshqaruvchilarini texnologiyadan samarali foydalanishga o'rgatish zarurati.

2. Ilg'or suv monitoringi tizimlari:

**Amalga oshirish:** Bu oqim tezligi, bosim va suv sifati kabi turli parametrlarni o'lchaydigan suv tarmoqlari bo'ylab tarmoqqa ulangan sensorlarni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Keyinchalik bu sensorlar tomonidan to'plangan ma'lumotlar teshiklar orqali ortiqcha suv isrofini aniqlash, suvga bo'lgan talabni tahmin qilish va ta'minotni yanada samarali boshqarish uchun murakkab dasturiy ta'minot yordamida tahlil qilinadi.

**Afzalliklari:** Kengaytirilgan monitoring suv taqsimlash tizimidagi muammo tufayli suv isrofi va undagi samarasizlikni erta aniqlashga yordam beradi, bu esa tezroq chora ko'rishga va suv yo'qotilishini kamaytirishga olib keladi. To'g'ri ma'lumotlarni yig'ish suvni rejalashtirish va boshqaruv qarorlari uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

**Qiyinchiliklar:** Ushbu ilg'or tizimlarni eski infratuzilmaga integratsiya qilish texnik jihatdan qiyin bo'lishi mumkin va katta investitsiyalarni talab qiladi.

3. Suv resurslarini boshqarish dasturi:

**Amalga oshirish:** Suvni boshqarish landshaftining yaxlit ko'rinishini ta'minlash uchun turli manbalardan (datchiklar, ob-havo stantsiyalari va an'anaviy suvdan foydalanish hisobotlari) ma'lumotlarni birlashtira oladigan suv resurslarini boshqarish bo'yicha kompleks dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va joriy etish.

**Afzalliklari:** Bunday dasturiy ta'minot suv iste'molini tahlil qilish va kelajakdagi suv ehtiyojlarini tahmin qilish orqali turli sektorlarda suvdan foydalanishni optimallashtirishga yordam beradi. Bu suv resurslarini, ayniqsa, eng yuqori talab davrida yoki tanqislik davrida yaxshiroq taqsimlash imkonini beradi.

**Qiyinchiliklar:** Har xil turdagi ma'lumotlar va tizimlar o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlash murakkab bo'lishi mumkin va manfaatdor tomonlar tomonidan suvni boshqarishning an'anaviy usullariga nisbatan qarshilik ham bo'lishi mumkin.

4. GAT va masofadan zondlash:

**Amalga oshirish:** Suv resurslarini xaritalash va tahlil qilish uchun geografik axborot tizimlari (GAT) va masofadan zondlash texnologiyasidan foydalanish. Bu suv havzalari, sug'orish tizimlari va yerdan foydalanish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash uchun sun'iy yo'ldoshlar, dronlar yoki samolyotlardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin.

**Afzalliklari:** GAT va masofadan zondlash suvning geografik taqsimoti, suv havzalarining salomatligi va inson faoliyatining suv resurslariga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Ushbu ma'lumotlar tabiatni muhofaza qilish strategiyasini rejalashtirish va amalga oshirish uchun juda muhimdir.

**Qiyinchiliklar:** sun'iy yo'ldosh va havo texnologiyalari bilan bog'liq yuqori xarajatlar va to'plangan ma'lumotlarni sharhlash uchun maxsus ekspertiza zarurati.

5. Suvdan foydalanish tartibi va savdosi uchun blokcheyn texnologiyasini qo'llash:

**Amalga oshirish:** Suvdan foydalanish tartibini va fermerlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida suv savdosini osonlashtirish uchun blokcheyn texnologiyasini joriy etish. Ushbu tizim suv taqsimoti savdosining shaffof, xavfsiz va samarali usulini ta'minlaydi, adolatli foydalanish va taqsimlashni ta'minlaydi.

**Afzalliklari:** Blokcheyn suvdan foydalanish tartibi bo'yicha yuzaga keladigan nizolarni kamaytirishi, ushbu qoidalarga rioya etilishini ta'minlashi va suv savdosining shaffof mexanizmini ta'minlashi mumkin. Shuningdek, u suvdan foydalanish va kelib chiqishini kuzatish, javobgarlikni oshirishga yordam beradi.

**Qiyinchiliklar:** Muammo texnologiyaning keng qo'llanilishi va suvni boshqarishda blokcheyn operatsiyalarini qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy bazaga bo'lgan ehtiyojda yotadi.

Axborot texnologiyalarini O'zbekistonning suv xo'jaligi amaliyotiga integratsiyalash suv resurslarini monitoring qilish, taqsimlash va saqlash usullarini sezilarli darajada yaxshilashga olib kelishi mumkin. Garchi bu IT-yechimlar, xususan, xarajat va texnik tayyorgarlikka bo'lgan ehtiyoj nuqtai nazaridan qiyinchiliklarga duch kelsa-da, uzoq muddatli foyda samaradorlikni oshirish, chiqindilarni kamaytirish va suv resurslarining barqarorligini oshirishni o'z ichiga oladi. Suv resurslarini boshqarish strategiyalarida IT-ga ustuvor ahamiyat berish orqali O'zbekiston hozirgi va kelajakdagi suv muammolarini yanada samarali hal qilishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining O'zbekiston bo'yicha hisobotlari (<https://www.fao.org/europe/news/detail/water-smart-greenhouses-in-uzbekistan/en>)
2. UNECE - Concept for the Development of Water Resources of the Republic of Uzbekistan for 2020–2030 and Water Strategy
3. Osiyo Taraqqiyot Banki – O'zbekistonda suv resurlarini Boshqarish (<https://www.adb.org/news/videos/managing-water-resources-uzbekistan>)
4. UNECE - Water resources and water policy in the Republic of Uzbekistan (<https://unece.org/environment/documents/2022/10/presentations/water-resources-and-water-policy-republic-uzbekistan>)
5. Global Water Partnership - Uzbekistan Water Strategy 2023

**ALISHER NAVOIYNING “TUN OQSHOM KELDI-YU KELMAS...”  
G‘AZALIDA OSHIQONA VA ORIFONA RUHIYAT UYG‘UNLIGI**

**Maxmudjonova Muborak Farxodjon qizi**

**Xabibullayeva Nafisa Sherali qizi**

*Namangan davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti talabalari*

**Annotatsiya.** Millatimiz quyoshi Mir Alisher Navoiy meros qoldirgan har bir bayt ulkan xazina, baytlar silsilasi anglatadigan ma’nolar esa buyuk merosning bugungi kundagi zalvorini belgilaydi. Shoirning har bir g‘azali o‘qilganda, kishiga bir olam ma’no, yangidan o‘qilganda, yana bir olam ma’no va mohiyat o‘z eshiklarini ochadi. Mazkur maqolada ayriliq va hijron o‘tida kuyayotgan oshiqning oqshom mahali chekkan iztiroblari aks etgan “Tun oqshom keldi-yu...” g‘azalidagi ishqiy va irfoniy g‘oyalarning uyg‘unlikda ifodalanishi to‘g‘risida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** tasavvuf, vahdat ul-vujud, tun, tong, hijron, vasl, oshiqlik, oriflik

**Абстрактный.** Каждый куплет, оставленный Миром Алишером Навои, солнцем нашей нации, является огромным сокровищем, и смыслы серии куплетов определяют современное значение великого наследия. При прочтении каждой газели поэта перед человеком открывается мир смысла, а при прочтении заново – другой мир смысла и сути. В данной статье говорится о гармоничном выражении романтических и мистических идей в газели «Тун Акшом Келди-ю...», отражающей страдания возлюбленного, сгорающего в пылу разлуки и эмиграции

**Ключевые слова:** Суфизм, вахдат уль-вуджуд, ночь, утро, хиджран, васл, любовь, мудрость

**Annotation.** Every couplet left by Mir Alisher Navoi, the pride of our nation, is a great treasure, and the meanings of the couplet determine the present day’s significance of the great legacy. When each ghazal of the poet is read, a lot of meanings can be felt and understood. There is the discussion about the harmonious expression of romantic and mystical ideas in the ghazal “Tun aksham keldi-yu...” which depicts the sufferings of a lover in the hijran

**Key words:** Sufism, vahdat ul-vujud, night, dawn, hijran, appointment, infatuation, orifianity

## KIRISH

Alisher Navoiy va uning g‘azallari xususida gap ketganda, o‘zbek adabiyotining zabardast shoiri Maqsud Shayxzodaning Navoiyga bergan ta’rifi buyuk haqiqat ekanligi eslanadi. Darhaqiqat, Navoiy – “g‘azal mulkingning sultoni”. Shoir g‘azallari botinidagi ma’nolar ochilsa, tunganmas dur-u javohirlar ko‘rinaveradi. Quyida tahlil etiladigan “Tun oqshom keldi-yu kelmas...” g‘azali serma’no, o‘zida har turli tovlanishlarni aks ettiruvchi, tasavvufiy, ishqiy, g‘oyaviy yuksak asar sanaladi.



## ADABIYOTLAR TAHLILI

Buyuk shoir Alisher Navoiy haqida hozircha birinchi ma'lumot 875-hijriy - 1470-melodiy yilda yozilgan "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" (ikki saodat bag'ishlaguvchining boshlanishi va ikki dengizning birlashuvi) nomli tarixiy asarda uchraydi. [1:655] Qolaversa, shoirdan keyin yashab o'tgan yuzlab olimlar o'z risolalarida Navoiy va uning ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirishgan. XX asrdagi navoiyshunoslik o'z ko'lamining kengligi va bosib o'tgan yo'lining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Bu davrda A.Fitrat, S.Ayniy, O.Sharafiddinov, V.Mahmudiy, Oybek, Erkin Vohidov, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, N.Komilov kabi o'zbek navoiyshunoslari tomonidan tadqiqotlar amalga oshirildi. Mustaqillikdan keyin shoir ijodini o'rganish yangicha ahamiyat kasb eta boshladi. Alisher Navoiyning yigirma tomlik mukammal asarlar to'plami nashr etildi. Bugungi kunda Navoiy ijodi nafaqat, o'zbek, turkiy, balki jahon navoiyshunoslari tomonidan o'rganilmoqda, yosh tadqiqotchilar yangi-yangi tadqiqot ishlari e'lon qilinmoqda.

## MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Sakkiz baytdan iborat "Tun oshom keldi-yu..." g'azali hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Mazmuniga ko'ra oshiqona, ya'ni oshiqning hijrondagi iztiroblarini, kechinma-hislarini ifodalaydi. Shu jihatdan uni sharhi hol usulida yozilgan asarlar sirasiga kiritish mumkin. Ammo zohiriy ma'nolari bilan oshiqona bo'lib ko'ringan ushbu g'azalda orifona (tasavvufiy) ma'nolar ham aks etadi, umuman, Alisher Navoiyning aksar g'azallarida zohiriy va botiniy ma'no, "dunyoviy" ishq bilan "ilohiy ishq", boshqacha aytganda, "majoziy" ma'nolar bilan "haqiqiy" ma'no birga qo'shilib, biri ikkinchisini taqozo etib keladi. Ikki ma'nolilik, ikki yo'nalishli tasvir mazkur g'azalga ham xos, shuning uchun sharhi ham ana shu ikki jihatni ochib berishga xizmat qilishi kerak. Navoiy oshiqning hijron aro chekkan iztiroblarini tabiatdagi ajoyib holatlar bilan hamohang tarzda chuqur hissiyot va teran tafakkur bilan yoritib beradi. Oshiqning ayriliqdagi holati – tun, faqat visolgina unga tongni hadya qiladi. Oshiq "tun oqshom" kelgani, lekin "shabiston"ning "sham"i bo'lgan ma'shuqasi kelmaganidan azobda:

Tun oqshom keldi-yu kelmas mening sham'i shabistonim,

Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

Notanish so'zlarga e'tibor qaratsak, "shabiston" – tun, zulmat, "parvona" bo'lsa, o'zini o'tga urib halok qiluvchi hasharotdir. Matla'da hazrat Navoiy ajoyib tasvir yaratgan: oshiqning zulmat ichra kechayotgan hayotiga sham bo'lib, yorug'lik olib kiradigan yori oqshom kelsa-da, kelmaydi. Oshiq orzusi ana shu sham nurlariga o'zini urish edi, lekin hijron azobidan shunday anduhdagi, uning ohlari olamga o't bo'lib yoyilmoqda, jon esa shu o'tda "parvonadek kuyar". Bu – baytning "dunyoviy", oshiqona" sharhi. Uning tasavvufiy ma'nosi esa baytning bunchalar go'zal yaralishi vositasidir. Chunonchi, tun, shom-vahdatga qarama-qarshi kasrat (ko'plik) martabalari, taayyunot pardasi. Oh – ishq g'ulg'ulasining til bilan ifodalab bo'lmaydigan avj lahzasi. Hijron – Haqdan, ilohdan boshqaga yuz o'girish, ko'ngilning vaqtincha o'zga tashvishlar bilan band bo'lishi, parda orqasida qolishi. [2:405] Ana shu ma'nolardan kelib chiqib matla'ning orifona mazmunini

quyidagicha ifodalash mumkin. “Allohdan uzoqlashtiradigan foniy havaslar meni egallab boryapti, kasrat bilan mashg‘ulman, Haqdan boshqalarga e‘tibor qilib undan uzoqda azobdaman, dunyo tashvishlari bilan ovoraman, vahdat, ilohiy fayziyatga erishish g‘ami esa qalbimni o‘rtamoqda...” Navoiy bu misralar Haq nuriga g‘arq bo‘lib, uning jamoli haroratida parvona kabi yonmaguncha Haqqa yetib bo‘lmasligini, solik vujudi batamom yo‘qolib, iloh olamiga qo‘shilib ketishi kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan.

Ne g‘am ko‘rguzsa, ko‘ksun porasi choki giribonim,

Ko‘runmas bo‘lsa, ko‘ksun yorasidin dog‘i pinhonim.

Mazkur bayt matla‘da ifodalangan ma‘noni yana-da boyitadi. “Giribon” so‘zi “yoqa” degan ma‘noni anglatadi. Oshiq yorga shunchalar mushtoqki, yor qancha “g‘am ko‘rguzsa” ham, u yoqasi choklarini yirtib, ko‘ksini ochib kutib oladi. Agar yor ko‘rinmasa, ko‘ksidagi chandiqlar-u yaralar yana pinhonligicha qoladi. “Yoqa yirtish” – tongning otishini anglatuvchi istioradir, chunki yoqa yirtilganda, odamning ko‘kragi ko‘ringan kabi tun pardasi yirtilganda tong namoyon bo‘ladi, ya‘ni ilohiyot jamoli ko‘rina boshlaydi. Navoiyning Samarqandda gadodan sotib olgan baytning birinchi misrasi: “Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq”, ya‘ni “Ko‘kragim tongning ko‘ylagidan chokroq. [3:16] Bu yerda subhning pirohani – tong pardasi, yoqaning yirtilishi emas, balki ko‘krakning chokchok bo‘lishiga tashbeh qilingan. Demak, asliyatda, agar yoqalari chokidan yirtilsa, oshiq ko‘ksining o‘zidayoq tong otib ketishi mumkin. Faqat buning uchun yana yetarlicha mehnat, o‘rtanish, azoblanish, yonish kerak. Ikkinchi baytdagi “ko‘ksun”, “g‘am”, ko‘r” so‘zlari takror qo‘llanib, holatga aniqlik berish, ta‘kidlashga xizmat qilgan.

G‘amidin durri maknundek, sirishkim oqti Jayhundek,

Muzayyan qildi gardundek jahonni ashki g‘altonim.

“Muzayyan” – bezakli, “g‘alton” – “yumaloq katta dur”. Bayt sharhini quyidagicha izohlash mumkin: Yor g‘amidan yashirin dur kabi ko‘zyoshlarim Jayhundek oqdi va jahonni gardun kabi bezadi, ya‘ni so‘fiylik yo‘lida ko‘rgan sitamlarim, dard-u azoblarim hayotimni, balki butun bir dunyoni ko‘rkam qildi. E‘tibor berilsa, qofiyadosh so‘zlardan ko‘p foydalanilgani sababli bayt o‘ziga xos ritmda o‘qiladi. Bu esa ta‘did she‘riy san‘atiga asos bo‘ladi. Bundan tashqari tanosub, istiora, tashbeh kabi san‘atlardan mohirona foydalanilgan.

Falak ham to‘ldi kavkabdan, quyosh ham tushti ashhabdan,

Kelib tushmasmu markabdan mening xurshidi rahshonim.

Bu o‘rinda foydalanilgan “kavkab” so‘zi yulduzga, “ashhab” so‘zi, “markab” so‘zi esa ga nisbat beradi. Quyosh “ashhab” dan tushgandan so‘ng osmon hijron tufayli “kavkab”larga to‘lib ketdi, olamlarni yorug‘ qiladigan jonso‘z parivash esa hamon “markab”dan tushgisi kelmaydi. Bu o‘rinda ham ilohiy vaslga intilayotgan solikning iztiroblari o‘zgacha ritmda, tanosub, istiora, ta‘did, mubolag‘a vositasi bilan yuqori darajada ifodalanmoqda.

Jahonni zulmat etti chah, bu zulmat ichra o‘ldum, vah,

Manga bo‘lsang ne Xizri rah etib, ey obi hayvonim.

Yuqoridagi “chah” so‘zi chuqur o‘rani, “rah” so‘zi yo‘l ma‘nosini anglatadi. Baytda o‘xshatish, istiora, tanosub, tazod hamda talmeh, nido san‘atlaridan foydalanilgan. Xizr alayhissalom Qur‘onda nomlari keltirilmagan bo‘lmasa-da, ulamolar nazdida Muso alayhissalomga uch nasihat qilgan “Allohning quli” sanaladi. [4:270] Xalq orasida ham turli mifologik tasavvurlar borki, Xizr alayhissalom “obi hayot”( tiriklik bulog‘i)ga aynan zulmat ichida ega bo‘lgan. Bundan tashqari “xizr” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “yashil” demakdir. Xizr alayhissalom doim yashil to‘n kiyib yurgan deyiladi. Bu xususiyatlar hisobga olinsa, ilohiy yor yodini faromush etib, nafsoniy istaklar, o‘tguvchi hoy-u havaslar bilan zulmat qa‘riga quladim va to‘g‘ri yo‘lni topolmay zorman, qani edi, menga Xizr alayhissalom kabi to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsang, menga hamroh bo‘lsang va jahonga yashillik, yosharish ato etsang, - deya nido qilayotgan oshiq va orif timsoli gavdalanadi.

Dema ko‘kdin quyosh ketmish, falakka tiyralik yetmish,  
Ul oy hajrida tor etmish falakni dudi afg‘onim.

“Dud” so‘zining “tutun” ekanligi anglansa, bu misralarda notanish so‘z uchramaydi. Shoir tinglovchiga yuzlanadi: ko‘kdan quyosh ketgani uchun osmon tiyra bo‘ldi, deb o‘ylamaki, falakni tor va qorong‘u qilgan mening yor hajrida tortgan afg‘onlarim tutuni bo‘ladi. Quyosh, oy, falak so‘zlari birgalikda tanosubni yuzaga keltirgan. Tasavvufiy ma‘nosi mushohada qilinsa, Allohning tajallisiga bo‘lgan zorlik orifning foniy umri mazmunini egallagan, umrida shodlik bo‘ladimi, qayg‘u bo‘ladimi, barchasining mezoni Alloh ishq, Alloh lutfi.

Quyosh qochib yuzin uydi, shafaq o‘tqa tushub kuydi,  
Falakka dog‘lar qo‘ydi g‘amingdin so‘zi pinhonim.

Mazkur o‘rinda ham ma‘nosi tinglovchiga mavhum bo‘lgan so‘z yo‘q. Orif ilohning asrorlarini bilishga chog‘lanaveradi, lekin mushkulotlar orasida qoladi, quyosh qochib yuzini uyadi, shafaq o‘tga tushib kuyadi, lekin Alloh yo‘lida chekilgan iztiroblar, oz bo‘lsa-da, sirlardan voqif bo‘lib aytilgan yashirin bittagina so‘z, hatto falakka dog‘lar qo‘ya oladi. Allohning tilsimlari kalitini qo‘lga olgan orif-chi?!

Navoiy kibi hijrondin, bu oqshom o‘ldum afg‘ondin,  
G‘amim yo‘q bo‘yla yuz jondin, yetib gar kelsa jononim.

An‘anaviy tarzda g‘azalning maqtasida shoir taxallusi qo‘llangan. “Navoiy kibi hijrondin...” Demak, oshiq - Navoiyning o‘zi. Oshiq bu oqshom afg‘onlari orasida o‘ladi, lekin uning yuz joni bo‘lsa, hammasini berishga tayyor, oshiqda jon g‘ami yo‘q, faqat jononi yetib kelsa. Agar orif Allohning tajallisiga erishsa, hajrdan visolga do‘nsa, uning iztirobda kechgan umri-yu ayriliqda o‘rtangan jonidan ne naf?! Maqsad – komillik. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, ruh taraqqiy etgani sari u jismga sig‘may qoladi, koinot bilan aloqa bog‘lab, olam asroridan xabar berib, mo‘jizalar ko‘rsata boshlaydi. Ruh va jismdan iborat insonni ilohiy olam bilan chegara jism olami orasidagi chegara deb ataydilar va tongga o‘xshatadilar. Chunki tong tun bilan kun orasidagi chegaradir. Tongdan keyin qorong‘ulik ketib, quyosh porlab chiqqanday, inson ruhi ham asta-sekin jism qorong‘uligi – zulmatini tark etib, musaffo ruh olami, nurlar olamiga talpinmog‘i darkor [5:6]. Kunning

oftobidan bahra olgan inson esa ana shu issiqlik taftini, avvalo, jismida, so‘ng qalbida his qiladi.

#### **XULOSA**

Ko‘rinadiki, kutilayotgan tong, aslida, oshiqning o‘zi edi. Agar u zulmatni yengib, o‘z tongini farahli qilsa, albatta, ma‘shuqa keladi. Shuningdek, dunyo g‘amlariga e‘tibor qilmay, ularga yon berib, qalbini Allohning uyiga aylantirgan orifga ham Alloh, albatta, lutf qiladi. Navoiy birgina g‘azalga keng ko‘lamli mavzu va g‘oyani singdira olgan. Uning shoirlik mahorati so‘zlardan o‘z o‘rnida va keragicha foydalanganida, yangi metaforik birikmalar tuzganida, qarama-qarshi va ma‘nodosh, talaffuzdosh so‘zlarni ipga tizganida yaqqol namoyon bo‘ladi. She‘rning ilohiy ma‘nolari ko‘lami nihoyatda kengki, ularni tushunmoq uchun yetarli miqdorda tasavvuf va tariqat haqida ma‘lumotga ega bo‘lish kerak. Biroq har qanday kishi g‘azalni o‘qiganda, estetik zavq oladi, uni o‘zicha talqin qilish va tushunishga harakat qiladi. Navoiyning ulkan xazinasini esa she‘riyatga oshno qalblarni ko‘zini olib, o‘ziga qarataveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Matla‘i sa‘dayn. – T.: O‘zbekiston, 2008. 655-b.
2. Mustalahoti urafo, Sayyid Ja‘far Sajjodiy, 405-b.
3. Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar, Vohidov E. 2013. 15-18b.
4. Ilohiynoma, Shayx Farididdin Attor. T.: Musiqqa, 2007. 270-b
5. Tasavvuf, Komilov N. Ilmiy risola, kh-davron.uz, 6-b.
6. arxiv.uz

**KOMPYUTER LINGVISTIKASI – XXI ASRNING  
DOLZARB SOHASI SIFATIDA****Yaxyoyev Yashin Sheraliyevich***Tilshunos-pedagog, Toshkent viloyati Bo‘ka tumani**MMTB tasarrufidagi 2-umumta‘lim maktabi ingliz tili o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada kompyuter lingvistikasiga oid bir qancha dolzarb fikrlar yoritilgan bo‘lib ularning yechimiga oid ilmiy qarashlarning kirish qismi sifatida baholagan tushunchalar berilgan. Kompyuter lingvistikasi va unga bog‘liq kasb egalarning fan sohasi jihatidan ajralib qolganligiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Kompyuter lingvistikasi, fan sohasi, sun‘iy intellekt, ijtimoiy yordamchi texnologiya, tilshunos, kompyuter dasturlovchisi, lingvist-dasturchi*

XX asrning o‘rtalarida kibernetikaning rivojlanishi fan tarixida kuzatilmagan tutash sohalar kesimidagi yangi fanlarning shakllanishiga asos bo‘ldi. Jumladan, biologiya va injeneriya fanlari kesimida bionika fani yuzaga keldi. Hisoblash texnikasi va lingvistikasi kesimida bir qator nomlar bilan atalgan tutash soha vujudga keldi. Bu fan dastlab, matematik lingvistikasi, struktur lingvistikasi, hisoblash lingvistikasi deb nomlangan. Hozirda kompyuter lingvistikasi degan muqim nomga ega bo‘ldi. Bu fanning shakllanishida ikki omil qayd etiladi: 1) lingvist tadqiqotchilar zamonaviy aniq fanlar (asosan, matematika) lingvistikada yetishmayotgan aniqlikni ta‘minlashda yordam berishiga umid bildirdilar. EHMning paydo bo‘lishi bu umidni mustahkamladi. Ko‘pgina tilshunoslarga avval boshdanoq kompyuter nafaqat tez ishlaydigan arifmometrlar, balki matn ustida bajariladigan amallarni avtomatlashtirishning qudratli vositasi ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Ko‘p mehnat talab qiladigan jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyati yuzaga keldi. Masalan, matnlarni statistik tahlil qilish, turli lug‘at va leksik kartotekalarni to‘plash avtomatik tizim asosida olib borildi; 2) kompyuter paydo bo‘lgach ular bilan aloqaga kirishishga hali tayyor bo‘lmagan foydalanuvchilarning muloqotini ta‘minlash muammosi tug‘ildi. Bunday foydalanuvchilar uchun eng maqbuli kundalik faoliyatlaridagi tabiiy til hisoblanar edi. Ammo bu tarzda o‘zaro munosabatni tashkil etish uchun, dastavval, insonlarning o‘zaro muloqot jarayonida ining tabiiy tildan foydalanish qonunlari va xususiyatlarini tushunish kerak bo‘lar edi. An‘anaviy tilshunoslik bu masalalar bilan shug‘ullanmagani ma‘lum bo‘ldi. Kompyuter lingvistikasi – kompyuter uchun mo‘ljallangan lingvistik ta‘minot (kompyuter lingvistikasi imkoniyatlari subyekt sifatida maydonga chiqadi); Kompyuter lingvistikasi – kompyuterda bajariladigan lingvistikasi<sup>65</sup>.

Kompyuter lingvistikasi – sun‘iy intellekt bilan bog‘liq yo‘nalish bo‘lib, matematik modellashtirish yordamida yuzaga keladigan soha. Kompyuter lingvistikasining muhim tushuncha kategoriyalaridan “freymalar” (vaziyatning tematik tipiklashgan bilimlar

<sup>65</sup> Xolmanova Z. *Kompyuter lingvistikasi*. Toshkent, 2019. -9-10B.



deklarativ namoyishi uchun mo‘ljallangan kotseptual strukturalar) , “ssenariy” (stereotip vaziyat yoki stereotip xulq haqidagi bilimlar namoyishi uchun taqdim qilingan konseptual strukturalar), “plan” (aniq maqsadlardagi yutuqlarga olib boruvchi bilim strukturalari, imkoniyatlar) bir qator masalalarning yoritilishiga xizmat qiladi<sup>66</sup>.

Shuni ta’kidlash lozimki, barchamiz bu fan sohasi bilan kunimizning eng ko‘p qismini birga o‘tkazmoqdamiz desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, ovozli(yordamchi) sun‘iy intellektlar va online tarjimonlar shular jumlasidandir.

Kompyuter lingvistikasi – lingvistikaning shunday tarmog‘iki, uning ajralmas hamrohi texnologiya va tenologik dasturlarning barchasi. Masalan, mazkur fan sohasi yordamida biz bugungi kunda kompyuter sohasining quyidagi bosqichlarini rivojlantirib bormoqdamiz:

- matnlar ustida ishlash, janrlarni va so‘zlar o‘rtasidagi aloqadorliklarni aniqlash;
- bir tildan boshqa tilga inson omilisiz tarjima qilish;
- nutqni tanib olish va audio yozuvlarni matnga aylantirish;
- matnlarni noldan yaratish.

Fikrimizga misol tariqasida insoniyatni hayratga solgan ChatGPT – kompyuter lingvistikasining mahsulotidir. Ushbu mahsulot bugungi kunda barcha sohada yetakchilik qilib kelmoqda. Uning taraqqiyotiga hissa qo‘shish uchun jahon mutaxassislik sohasida kompyuter lingvistikasi mutaxassislariga tezkor ehtiyoj sezilmoqda.

Bugungi tezkor sur‘atlarda rivojlanayotgan zamonda kompyuter lingvistikasining vazifalarini quyidagicha etib belgilash lozim:

1. Inson omilisiz tarjima instrumentlarini yaratish va xorijiy til matnlarini yaratish.
2. Yozish va o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lmagan insonlar uchun axborotlarini yetkazish.
3. Internetda paydo bo‘layotgan kundalik eng doiradagi matnlarni qayta ishlab chiqish, muhim mavzularni aniqlash va dolzarb ma’lumotlarni ajratib olish.
4. Insonlar bilan muloqotga kirisha oladigan sun‘iy intellekt dasturlarini yaratish.
5. Ijtimoiy yordamchi(ovozli) texnologiyalarni rivojlantirib borish.

Kompyuter lingvistikasi kasbining egasi kim? Unga qanday talablar qo‘yish mumkin? Fanning aniq va gumanitar yo‘nalishga bo‘linishi barchamizga ma’lum, bu huddi matematika ya’ni aniq fanlar o‘qituvchisidan kasbi jarayonida nutq ravonligi jumlaviy tushunchalarni imlo va uslubiy xatolarsiz o‘quvchi oldida ifolab berishiga o‘xshaydi. Huddi shu holatni texnologiya-kompyuter dunyosiga ko‘chirishimiz komptuyer lingvistikasi kasbini tushuntirib bergandek go‘yo.

Tulshunos va kompyuter dasturlovchisi bu ikki kasb bir-biridan nimani talab qilmoqda? “Til sistema sifatida aynan matematikaning o‘zidir. Matematika aniq fan bo‘lib, formulalar munosabati orqali reallashadi. Til ham matematika singari aniqlikni talab qiladi va unda ikki yoki undan ortiq elementlarning o‘zaro munosabati bir butunlikni tashkil etadi”<sup>67</sup>.

<sup>66</sup> Боярский К. Введение в компьютерную лингвистику. Санкт-Петербург, 2013.-С.4

<sup>67</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. –T., 2011.



O‘zbek tilining kompyuter uslubini shakllantirish milliy til mavqeyini yuksaltirishga, ma’lumotlarni ona tilida qabul qilish imkoniyatiga zamin hozirlaydi. O‘zbek tili kompyuter uslubining mezonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin<sup>68</sup>:

- a) aniqlik, qisqalik, lo‘ndalik; bir qiymatlilik;
- b) jahon andazalariga moslik;
- d) barcha uchun birdek tushunarli bo‘lish (muayyan bir fikrning umum tomonidan bir xil tarzda qabul qilinishi);
- e) turli badiiy tasvir vositalari, modallik, sinonimlikdan xolilik (sinonimlardan dominanta so‘zlar tanlab olinadi);
- f) so‘zlar, asosan, bir ma’nolilik kasb etadi, ko‘chma ma’nolar e’tiborga olinmaydi (ya’ni bu uslubda so‘zlarning faqat denonativ semalari qamrab olinadi);
- g) kompyuter talablari qat’iy hisobga olinadi, simvollar, modellar, kodlardan foydalaniladi.

O‘zbek tilining kompyuter uslubini yaratish ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Bu quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

-o‘zbek tili axborot uslubining yuzaga kelishi shu tilda ma’lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi;

-kompyuter tizimining o‘zbek tili asosida ishlashini ta’minlaydi; kompyuter tizimidagi buyruqlarning shu tilda amalga oshirilishiga zamin yaratadi;

-o‘zbek tilidan rus tiliga (rus tilidan o‘zbek tiliga), o‘zbek tilidan ingliz tiliga (ingliz tilidan o‘zbek tiliga) tarjima dasturlari takomillashadi;

-o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish imkoniyati yaratiladi; ijtimoiy sohalarga doir matnlarda yo‘l qo‘yilayotgan imloviy nuqsonlar bartaraf etiladi;

-barcha soha mutaxassislarining savodxonligi ortadi.

Tilshunosda barcha til muammolarini hal etuvchi bilim bor. Kompyuter dasturchisida barcha texnologiyalarga dasturlarni yarata olish qobiliyati mavjud. Kim kimga ko‘proq muhtojdir? Ayni damda mazkur sohaning ikkiga bo‘linib olganligi dolzarb savollarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan ushbu muammoni hal etishda kelajak bizdan kompyuter lingvistikasi sohasining mutaxassisini talab qilmoqda, ya’ni kompyuter dasturchisi dastur yaratayotgan va uni qayta ishlayotgan, takomillashtirayotgan davrda tilshunoslik bilimlariga mukammal darajada ega bo‘lsinki, yonida tilshinosga ehtiyoj sezmasligi kerak.

<sup>68</sup> Xolmanova Z. *Kompyuter lingvistikasi*. Toshkent, 2019.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent, 2019.
2. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. –T., 2011.
3. Боярский К. Введение в компьютерную лингвистику. Санкт-Петербург, 2013.
4. Qarang:<https://lpgenerator.ru/blog/что-такое-компьютерная-лингвистика/#zadachi-kompyuternoj-lingvistiki>

**JAZONI IJRO ETISH KOLONIYALARIDA SAQLANAYOTGAN VA  
TERGOV HIBSXONALARIDA XO‘JALIK XIZMATIGA OID ISHLARNI  
BAJARISH UCHUN QOLDIRILGAN MAHKUMLARNING HUQUQLARI VA  
MAJBURIYATLARINING UMUMIY TASNIFI.**

**Egamberdiyev Zafar To‘lqin o‘g‘li**

*5-son Tergov hibsxonasi Tshkiliy bo‘lim Yuridek ta‘minlash guruhi katta yuriskonsulti,  
leytenant*

**Inson huquqlari** – [shaxsning](#) hayotiy [ehtiyoji](#), yashashi, kamolot topishi, uning [jamiyat](#), [davlat](#) va boshqa [shaxslar](#) bilan aloqasi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlaridir.

**Inson huquqlari** – insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da‘volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo‘lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoklarga, zo‘ravonlikka, inson sha‘nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o‘z sha‘ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e‘tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog‘liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo‘lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to‘xtatib qo‘yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to‘xtatishga (bekor qilishga) yo‘l qo‘yilmaydi.

[O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida](#) inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan (18-52-moddalar). [O‘zbekiston Respublikasida](#) barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, [jinsi](#), [irqi](#), [millati](#), [tili](#), [dini](#), ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar (18-modda). Jumladan, yashash huquqi – har bir insonning uzviy huquqi. Inson hayotiga suiqasd qilish – eng og‘ir jinoyat hisoblanadi (24-modda). Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi; qiynoqqa

solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (25-26-moddalar). Har kim o‘z sha‘ni va obro‘sigga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga; fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi xuquqiga ega (27-29-moddalar). Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi (31-modda).

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustunligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan keng huquqiy muhit vujudga keltirildi. Totalitar tuzumning tazyiq va zo‘ravonligidan huquqiy me‘yorlar sari keskin burilish yasaldi. Respublika qonunlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me‘yorlar va andozalarga muvofiklashtirish, mazkur sohada Milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, Inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo‘shilishda davom etib, bu hujjatlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishning, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar shu hujjatlar talablariga so‘zsiz rioya qilishining mexanizmi yaratildi. Inson huquqlari va kafolatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7,8,9,10-boblarida berilgan<sup>69</sup>.

Sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, Jazoni ijro etish koloniyalarida jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlar ham, ayrim cheklanishlarni hisobga olmaganda barcha fuqarolar uchun belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklarga ega bo‘ladilar. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e‘tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi,. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar” – deb ko‘rsatilgan. Shu normaga asosan jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlar ham barcha fuqarolar kabi bir xil huquq va erkinliklarga egalar. Mahkumlar, jazoni ijro etish koloniyalarida saqlanib jazo muddatini o‘tayotganlari uchun, ularga O‘zbekiston respublikasining jinoyat-ijroiya kodeksi bilan alohida huquq va majburiyatlar belgilangan. Xususan O‘zbekiston respublikasining jinoyat-ijroiya kodeksining 8-moddasida mahkumlar huquqiy

<sup>69</sup> [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

holatining asoslari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘libunga ko‘ra: Mahkumlar, ushbu Kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan istisno hamda cheklashlar inobatga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega bo‘ladilar va majburiyatlarni bajaradilar. Mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquqlar, erkinliklarga ega bo‘lishlari va majburiyatlarni bajarishlari mumkin. Mahkumlarga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala yoxud jazo turlarining qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. 9-moddasida mahkumlarning asosiy huquqlari ko‘rsatilgan, unga ko‘ra mahkumlar,

jazoni o‘tash tartibi va shartlari to‘g‘risida, o‘z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot olish;

jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma‘muriyatiga, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga o‘z ona tilida yoki boshqa tilda taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat etish;

o‘z taklif, ariza va shikoyatlariga murojaat etilgan tilda javob olish. Murojaat etilgan tilda javob berishning iloji bo‘lmagan taqdirda javob O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida beriladi. Javobni intizomiy qismga jo‘natish va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs murojaat etgan tilga tarjima qilib berish jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ tomonidan ta‘minlanadi;

tushuntirish berish hamda yozishmalar olib borish, zarur hollarda tarjimonning shu jumladan surdotarjimonning xizmatidan foydalanish;

o‘quv, badiiy va boshqa xil axborot materiallaridan foydalanish;

sog‘lig‘ini saqlash, shu jumladan tibbiy xulosaga ko‘ra ambulatoriya-poliklinika va statsionar sharoitda tibbiy yordam olish;

ob-havo sharoiti yo‘l qo‘ysa, ishdan bo‘sh vaqtida toza havoda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish;

jazoni ijro etish muassasasining psixologik xizmat ko‘rsatish xodimlari tomonidan ko‘rsatiladigan psixologik yordamni olish. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning psixologik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishi faqat ularning roziligi bilan amalga oshiriladi;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq xavfsiz mehnat sharoitiga ega bo‘lish, dam olish, ta‘tilga chiqish, shuningdek mehnatiga haq to‘lanishi;

ijtimoiy ta‘minot, shu jumladan qonunchilikka muvofiq pensiya olish.

Mahkum ajnabiy fuqarolar shuningdek o‘z davlatlarining diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari bilan, O‘zbekiston Respublikasida diplomatiya va konsullik

muassasalari bo‘lmagan mamlakatlarning fuqarolari esa, ularning manfaatlarini himoya qilishni o‘z zimmasiga olgan davlatning diplomatiya vakolatxonalarini bilan aloqa qilib turish huquqiga ega.

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlarida hamda referendumda ishtirok etish huquqiga ega. Shu bilan bir qatorda mahkumlar uchun majburiyatlar ham belgilab berilgan bo‘lib, O‘zbekiston respublikasining jinoyat-ijroiya kodeksining 13-moddasida Mahkumlarning asosiy majburiyatlari ko‘rsatilgan, unga ko‘ra mahkumlar,

jazoni o‘tash tartibi va shartlariga rioya etishga;

jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma‘muriyatining qonunga asoslangan talablarini bajarishga majburdirlar. Yuqorida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlar faqat jazoni ijro etish kolonyalarida saqlanayotgan mahkumlar uchun joriy qilinadi.



UDK: 9.908

AMIR TEMURNING 1391 YILDAGI KONDURCHA DARYOSI BO‘YIDAGI  
JANGIDA QO‘SHINNI BOSHQARISH TARTIBI  
ПОРЯДОК УПРАВЛЕНИЕ ВОЙСКАМИ АМИР ТИМУРА В БИТВЕ НА  
РЕКЕ КОНДУРЧА В 1391 ГОДУ  
ORDER OF COMMAND OF THE ARMY AT AMIR TEMUR’S 1391 BATTLE  
OF KONDURCHA RIVER

**Mamajonov Soyibjon Halilovich**

*Farg‘ona Davlat Universiteti harbiy ta’lim  
fakulteti o‘qituvchisi, dotsent.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Amir Temurning 1391 yildagi kondurcha daryosi bo‘yidagi jangida qo‘shinni boshqarish tartibi haqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O‘rta maxsus ta’lim muassasalari talabalariga O‘rta davrning buyuk sarkardasi Amir Temurning harbiy san’ati sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo‘ljallangan.*

**Kalit so‘zlar:** *Beklarbegi, bosh qo‘mondon, ming begi, I-darajali amir, II-darajali amir, bahodir faxriy unvoni, suyurg‘ol.*

**Аннотация:** *В этой статье кратко описывается порядок управление войсками Амира Тимура в битве на реке Кондурча в 1391 году. Данная статья предназначена для того, чтобы учащиеся высших и средних специальных учебных заведений ближе познакомились с секретами военного искусства великого полководца средних веков Амира Темура.*

**Ключевые слова:** *Бекларбеги, главнокомандующий, мин беги, Эмир I ранга, Эмир II ранга, почетное звание Бахадура, суюргал.*

**Abstract:** *This article briefly describes the order in which Amir Timur's troops were led in the battle of the Kondurcha River in 1391. This article is intended for students of higher and secondary specialized educational institutions to become more familiar with the secrets of the military art of the great commander of the Middle Ages Amir Temur.*

**Keywords:** *Beklarbegi, commander-in-chief, ming begi, I darajali amir, II darajali amir, Bahadir honorary title, suyurgol.*

Amir Temurning buyuk sarkardaligi uni qo‘shinni yakka boshchilikda boshqargani va sarkakdalrni to‘g‘ri tanlay olganligidadur. Sohibqironning buyrug‘i bo‘yicha dongdor komandirlardan to‘rttasi birinchi darajali qo‘mondon – beklarbegi lavozimiga tayinlangan. Bitta harbiy boshliq bosh qo‘mondon amir - ul - ulamo vazifasiga tayinlanib, u bevosita Oliy Bosh Qo‘mondonga bo‘ysungan.

Harbiy qismlarni boshqarish uchun yana o‘n ikkita harbiy boshliqlar tayinlangan. Birinchi bek mingta chavandozlardan tashkil topgan birinchi guruhga, ikkinchi bek–ikki ming otliqlardan iborat ikkinchi guruhga qo‘mondonlik qilgan, uchinchi bek uch minglik

otliqlarga boshchilik qilgan. Xuddi shu tartibda o‘n ikkinchi bek o‘n ikki minglik otliq otryadning tepasida turgan.

Quyida toifadagi harbiy boshliq, toifasi bo‘yicha yuqori bo‘lgan harbiy boshliqqa so‘zsiz bo‘ysungan.

Amir Temur qo‘shinining turli qismlari va bo‘linmalariga uch yuz o‘n uchta beklar qo‘mondonlik qilgan, ulardan yuztasi – o‘n begilar, yuztasi – yuz begilar va yuztasi – ming begilarni tashkil etgan. Yirik qo‘shin birlashmalari Amir Temurning o‘g‘illari, nabirali va Shayx Nuriddin, Xo‘ja Sayfuddin, Shohmalik, Ollohdod, Jahonshohdek mashhur sarkardalar tomonidan boshqarilgan.

Rag‘batlantirishni qo‘llash keng qo‘llanildi: maqto‘v, maoshga qo‘shimchalar, sovg‘alar, lavozimlar, unvonlar (botir, bahodir va boshqalar), qismlar uchun bayroqlar berilgan.

Uddaburonliklari va jasoratlari bilan o‘zlarini ko‘rsatgan saralangan jangchilar munosib taqdirlanganlar va o‘n begi darajasiga ko‘tarilganlar, keyingi jasoratlari uchun yuz begi, undan keyin esa ming begi lavozimini egallaganlar.

Jasur jangchilar va bahodirlar jangda ko‘rsatgan jasoratlari uchun yuqori lavozimlarni egallaganlar va jamiyatning e‘tiborli kishilari toifasiga kirganlar. Ular gurzi, chodir, maxsus belbog‘, qilich va jangovar nayzalar bilan taqdirlanganlar.

G‘animning otryadini qirib tashlagan ming begi I-darajali amir unvonini olgan. Dushmanning yirik otryadini mag‘lub etgan I-darajali amir II-darajali amir unvoniga sazovor bo‘lgan. Jang maydonida mardlik va jasorat namunalari ko‘rsatgan oddiy jangchining oylik maoshi oshirilgan. Jang maydonidan qochgan jangchilar o‘ljani taqsimlash marosimiga qatnashish huquqidan mahrum etilganlar, janglarda ko‘plab yarador bo‘lgan jangchilarga g‘amxo‘rlik va katta ehtirom ko‘rsatilgan.

Biror bir davlatni zabt etgan yoki dushman qo‘shinini tor-mor etgan harbiy boshliq bahodir faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan va unga burg‘u va nog‘ora berilgan. Biror bir g‘anim shahzodasining yirik qo‘shini ustidan qozongan g‘alabasi uchun beklar ham xuddi shunday hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘lganlar.

Dushman qo‘shinini qochishga majbur etgan o‘n begi shahar garnizonining boshlig‘i (dorug‘a) etib tayinlangan, xuddi shunday qahramonligi uchun yuzbegi–viloyat hokimi, ming begi–viloyat amiri (vali) lavozimiga ega bo‘lgan.

U yoki bu davlatni zabt etgan amirga ushbu davlatning yerini imtiyozli asosda boshqarish uchun suyurg‘ol (sovg‘a) sifatida berilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida suyurg‘ol yerni boshqarishning ommabop usuli bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib kelgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan 12 amir nog‘ora va jangovar bayroq olgan. Bosh qo‘mondon nog‘ora va jangovar bayroqdan tashqari burg‘u va ikkita shtandartga (tumantug‘ga, chortug‘ga) ega bo‘lgan.

Mingbegi bayroq va karnay (ko‘raga) olgan, yuzbegi va o‘n begiga nog‘ora berilgan. Qo‘shin qo‘mondonining bayrog‘i, nog‘orasi va burg‘usi bo‘lgan. Kastiliya qirolligining elchisi – Klavixoning guvohlik berishicha, harbiy boshliq tinchlik davrida ko‘k rangdagi, zardan tikilgan ko‘ylak kiyib yurgan. Ular boshlariga telpak (burk) kiyib yurganlar. Bosh

kiyimlarining ostidan uch qator kokillari ko‘rinib turgan bo‘lib, bu belgi Amir Temur armiyasining jangchilari ekanliklarini bildirib turgan.

Dushmanning harbiy kuchlari va uning mudofaa inshootlari to‘g‘risida, g‘anim davlatining ichki ahvoli haqida aniq ma‘lumotlarni olish uchun Amir Temur o‘zining eng yaxshi razvedkachilarini (josuslarni) jo‘natgan. Faqatgina kerakli ma‘lumotlarni olgandan keyingina qo‘shin harbiy yurishni boshlagan. U mahalliy aholi vakillaridan yo‘lboshchilarni (kajarchi, kacharchi) tanlashga ham jiddiy e‘tibor bergan.

Amir Temur o‘zining to‘satdan beradigan zarbalari bilan mashhur bo‘lgan. Dushman qo‘shinining soni ma‘lum bo‘lganidan keyin uning armiyasi tun qorong‘isida dushmanning lageriga yashirincha yaqinlashgan va tongda hujumga tashlangan. Uning qo‘shini qattiq intizomi, yuqori harakatchanligi, chidamliligi va janglarda jasorati bilan ajralib turgan.

Jang arafasida shakllanadigan jangovar tartibga katta ahamiyat berilgan. Qo‘shin hech tomonga burilmasdan va ko‘rsatilgan yo‘ldan og‘ishmasdan olg‘a harakatlangan.

Tinchlik davrida ov (charg‘a) asosiy mashg‘ulotlardan biri bo‘lgan, ovga urushga tayyorlovchi maktab singari ahamiyat berilgan va u ko‘plab uyushtirilgan. Uning qo‘shini nafaqat tekisliklarda jang olib borish san‘atiga ega bo‘lgan, balki tog‘larda ham mohirlik bilan harakatlangan.

Sohibqironning qo‘shini harbiy yurishlarni bahorda, yozda va kuzda amalga oshirgan. Qishni o‘z o‘tovlarida o‘tkazishni afzal ko‘rganlar. Harbiy yurishga otlanish muddati yaqinlashuvi bilan jangchilar hamma kerakli qurol-yarog‘lari va anjomlarini tartibga keltirganlar. Belgilangan vaqtda qo‘shin saf tortib yo‘lga tushgan. Uning ortidan hamma kerakli narsalar ortilgan aravalar (ug‘ruq) harakatlangan.

**Yakka A’lambobo** – Qorako’l tuman Ziyorat qishlog’ida joylashgan. Yosh marhum go’daklar ko’miladigan qabrison. Yakka –alohida, bitta, a’lam – bayroq ya’ni, bitta bayroq ma’nosi, shuningdek olim so’zining talaffuzda o’zgarishi natijasida a’lamba o’zgargan degan taxminlar mavjud. Qabrison uchun asos bo’lgan mazkur nom haqida tarixiy manbalarda ma’lumot uchramadi. Buxoro amirligida a’lam- din arbobi lavozimi mavjud. Yakka A’lam ya’ni mazkur qishloqdagi yagona din arbobi nomiga qo’yilgan bo’lishi mumkin.

**Ka’bapo’shbobo** – Qorako’l tuman Yangiqal’a va Quvvacah qishloqlari orasida joylashgan qabrison. Patta daraxtining kovagidan chiqib turadigan shifobaxsh chashmaga ega joy. Avliyoda Ka’bapo’shboboning qabri va sag’anasi bo’lmasada, ramziy tarzda tug’ ko’tarilgan. Qabrisonda yoshi uch asrga teng keladigan o’ymakor ustunlar qadimda bu yerda masjid yoki xonaqoh bo’lganligidan dalolat beradi. Buxoroning boshqa hududlarida ham shu nomdagi qabrisonlar mavjud. Qishloq aholisi qabrisondan o’tgan asrning 80-yillaridan foydalana boshlagan unga qadar aholi marhumlari Bobojo’sh bobo mozoriga dafn qiliingan.

**Yakkamozor, O’qchibobo** – Quyi Yangibozor qishlog’ida joylashgan qabrison. Dastlab hududda birgina mozor bo’lgani bois qishloq aholisi uni Yakkamozor deb atashgan. Erta yoshda vafot etgan chaqaloqlar dafn qilinadi.

**Boboxo’ja** – Qorako’l tuman Jig’achi qishlog’ida joylashgan qabrison. Qabrisonga Osiyo qishlog’ining marhum kishilari dafn qilinadi. XVII asrning 30-yillarida Boboxo’ja ismli nufuzli, ilmi, badavlat kishi bo’lgan.

**Hazrati Yoqub Eshonbobo** – Qorako’l tuman Jig’achi MFYda joylashgan qabrison. Kamida uch asrlik tarixga ega mazkur qabrisonda qora tug’ ko’tarilga. Qora tug’ kubroviylik va shialaikning ramzidir. Hazrati Yoqub Eshonbobo 17 asrning o’rtalarida Eronning Mashhad shahridan Xorazmga, keyinchalik Buxoroning Qorako’l vohasiga kelgan o’n ikki imom shajarasidan bo’lmish Imom Rizo avlodlaridandir. Bu hududlar Hazrat Yoqub Eshonga Subhonqulixon tomonidan taqadim etilgan va keyinchalik bu yerdan qabrison sifatida foydalanib, mozorga u zotning avlodlari, so’fiylar, xalifalari, muridlari va hozirgi kunda qishloq aholisi marhmlari dafn qilib kelinmoqda.

**Qandimli bobo** – Qorako’l tuman Qoraun qishlog’i cho’lida joylashgan qabrison. Oq tug’ ko’tarilgan. Qabrison o’tgan asrning 20-yillariga foydalanishgan, undan so’ng Qorako’ldaryoning suvi kamayib bu yerlarga yetib kelmagach aholi qishloqning ichkari qismiga ko’chib o’tadilar va shu yerda yangi qabrison bunyod etadilar. Shunday bo’lsada yaqin kunlarga qadar ko’chmanchi qozoq chorvadorlari bu qabrisondan foydalanishgan. Tarkibi: Qandim + li (yasovchi qo’shimcha) bobo

**Ahmad Saidbobo** – Qorako’l tuman Qoraun qishlog’ida joylashgan qabrison. Hozirda aholi bu qabrison foydalanishmaydi. Qadimda mazkur qabrison o’rnida

Said Ahmad qishlog‘i bo‘lgan. Zarafshon suvlarining bu hududgacha yaxshi yetib kelmasligi natijasida aholi bu joylardan ko‘chib ketgan. Qorako‘l hududida Said Ahmad nomi bilan mashhur bir necha avliyo o‘tgan. Ulardan biri Said Ahmad Buxoriy – Sayyid Atodir. Yana biri Amir Haydarning yaqin qarindoshi Sayyid Ahmadxo‘ja naqibdir. Amir Haydar unga in‘om etgan mol-mulklar orasida Qorako‘l vohasidagi yerlar, yaylovlar ham mavjud edi. Shuningdek, mazkur qabriston yassaviylik tariqati vakillaridan bo‘lmish Hazrat Sayyid Ahmad valiyning tabarruk qadamjolaridan biri bo‘lish ehtimoli ham mavjud. U zotning qabrlari Sanmarqand atrofida joylashgan.

**Do‘stmatbobo** – Qorako‘l tuman Qorahoji qishlog‘ida joylashgan qabriston. Qabristonda yetti qabr ustida tug‘ ko‘tarilgan. Qorahoji, Qora Qulonchi, Qulova qishloqlarining kata va kichik marhumlari dafn etiladi. Qishloq aholisining aytishicha, Do‘stmatbobo Jizzax viloyatining Baxmal tumanidan shu qishloqqa imomlik qilish uchun kelib, bu yerda turg‘unlashib qoladi va shu yerda vafot etadi. Baxmal tumanida ham shu nomli ziyoratgoh mavjud.

**Hazrati Shayx Bilobobo** – Qorako‘l tuman Shakarbek qishlog‘ida joylashgan qabriston. Shakarbek, Moyak, Sho‘robod, Yangibozor, Chatqash qishloqlari marhumlari dafn qilinadi. Qabristonda Hazrati Shayx Bilolboboga nisbat beriluvchi beshta oq tug‘ ko‘tarilgan sag‘ana mavjud. Turkmanistonning Lebab va Toshovuz viloyatlarida ham shu nomli qabriston mavjud.

1.	Qandimlibobo	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Qabriston	Buxoro viloyati Qorako‘l tumani	Xalq deputatlari Qorako‘l tumani Kengashining 06.10.2020 y. 87/12-VI-sonli qarori	Mirzaqal‘a mahallasi
2.	Ahmad Saidbobo	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Qabriston	Buxoro viloyati Qorako‘l tumani	Xalq deputatlari Qorako‘l tumani Kengashining 06.10.2020 y. 87/12-VI-sonli qarori	Kamolot mahallasi
3.	Do‘stmatbobo	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Qabriston	Buxoro viloyati Qorako‘l tumani	Xalq deputatlari Qorako‘l tumani Kengashining 06.10.2020 y. 87/12-VI-sonli qarori	Qorahoji mahallasi
4.	Hazrati Shayx Bulbulbobo	Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari	Qabriston	Buxoro viloyati Qorako‘l tumani	Xalq deputatlari Qorako‘l tumani Kengashining 06.10.2020 y. 87/12-VI-sonli qarori	Shakarbek mahallasi

**Muhokama.** Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Qorako‘l tumanidagi qabriston nomlari, ular haqidagi tarix, xalqlar turmushi, xalqning ishonch e‘tiqodidan darak beradi desak. Yuqorida ko‘rganimizdek, ba‘zi qabriston nomlarining yaratilishi antroponimikaga asoslanadi. Masalan, Do‘stmatbobo ni oladigan bo‘lsak avval antroponim ya‘ni kishi ismi o‘sha masjid joylashgan qishloqqa o‘tgan. Keyinchalik esa qishloq nomi masjid nomiga aylangan. Boshqa masjid nomlari esa bevosita masjid joylashgan qishloq nomi bilan atalgan. Ya‘ni bir toponim boshqa bir toponim yasalishiga asos bo‘lgan. Do‘rmon masjidi misolida esa qadim rivoyat yotganiga amin bo‘lamiz. Umuman olgand, masjidlar milliy

qadriyatlarimizni ado etadigan ulug‘ maskan hisoblanadi. Ammo achinarlisi shuki, ba’zi bir masjidlar eski bino, tashlandiq joyga aylanib qolgan. Ba’zilari esda tabiiy ofatlar tufayli butunlay nurab ado bo‘lgan. Hozirchao‘z tashqi qiyofasini saqlab qolgan masjidlarimiz ham e‘tiborsizlik natijasida butunlay yo‘qolish xavfi ostida turibdi. Ta’mir lab foydalanayotgan masjidlarimizning ham tarixi hali yetarli darajada ochiqlanmagan. Milliyligimizdan xabar beruvchi bu inshootlar haqida hali ancha izlanishlar harakatlar talab qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E. Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. - Namangan, 2006.
2. Qorayev S. Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milli jamiyati nashriyoti. T:-2006
3. Raximovna U. N. Tasavvuf ta’limoti va g‘arb adabiyoti //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – C. 117-119.
4. Umurova N., Samadova S. Oriental Motives on “The Fifth Mountain” By Paulo Coelho //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. 2.
5. Fayбуллаев С. Қорақўл воҳаси тарихий топонимлари атласи. Тошкент, Lesson Press нашриёти, 2021 йил 190 бет
6. С.С.Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. “Дурдона” нашриёти, 2012 йил 272-бет
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б.
8. Axmatova I.H. “Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Nukus 2023-yil 12-13-aprel. “Buxoro janubiy tumanlarida Arabxona toponimining leksik xususiyati” 420-424-betlar
9. Axmatova I.H. Philology and sociology ilmiy jurnal. “Qorako‘l tuman toponimlarining fonetik va tarkibiy tuzilishi” 10-16-betlar
10. Axmatova I.H. “Buxoro janubiy tumanlarida “Rabot” asosli toponimlarning semantik xususiyatlari” “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali 8-son 30.06.2023. 100-105 betlar
11. Axmatova I.H. “O‘rta Osiyodan Ando‘lagacha: Turkiy xaqqlar tili, tarixi, madaniyati va etnografiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2023-yil 19-oktabr. Olot tumani tarkibidagi etnonim asosli toponimlar tahlili. 145-147

12. Axmatova I.H. “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Navoiy-2023. Qorako’l tumani ayrim nekronimlarining semantik xususiyatlari. 389-392

13. Axmatova I.H. International scientific and practical conference: youth, science, education: topical issues, achievements and innovations nomli xalqaro Chexiya konferensiyasi. Analysis of color defining words in the names of Karakol district. 4 bet

14. Axmatova I.H. “Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar” ilmiy-online jurnal. № 4 - 2022. Jondor tumanidagi ayrim avliyo nomlari etimologiyasi va lisoniy tadqiqi. 4 bet.



## АНАЛИЗ ФЛОРЫ КРУПНЫХ РАСТЕНИЙ ВОДОЁМОВ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

**Бердикулова Наргиза Юсуфжоновна**

*стажер-исследователь.,*

**Азимова Дильноз Эргашевна.**

*Доцент Джизакского государственного педагогического университета.*

*[Tel: +99894-221-18-97.](tel:+99894-221-18-97), [nargizaberdiqulova9@gmail.com](mailto:nargizaberdiqulova9@gmail.com)*

**Аннотация:** В данной работе изучен растительный покров бассейнов реки Сангзор и Зоминского водохранилища и создана крупномасштабная карта растительности. Созданная карта будет использована для сохранения генофонда растений Бахмальского и Зоминского районов и предотвращения происходящих там процессов опустынивания. Результаты исследований служат дополнительным ресурсом для наук геоботаники, картографии, экологии и географии. Его могут использовать работники перечисленных отраслей, охраны природы, сельского хозяйства, лесного хозяйства, животноводы, преподаватели, студенты и натуралисты.

**Ключевые слова:** Сангзор, Зоминского водохранилища, Бахмаль, Зомин, Западно-Туркестанском, Ходжа-Бакирганской котловины, Антропоген.

**Abstract:** In this paper, the vegetation cover of the Sangzor River and Zomin reservoir basins was studied and a large-scale vegetation map was created. The created map will be used to preserve the plant gene pool of Bakhmal and Zomin districts and to prevent the process of desertification taking place there. The results of the research serve as an additional resource for the sciences of geobotany, cartography, ecology and geography. It can be used by the listed fields, conservation, agriculture, forestry, livestock workers, teachers, students and naturalists.

**Key words:** Sangzor, Zomin reservoir, Bakhmal, Zomin, West Turkestan, Khoja-Bakirgan basin, Anthropogen.

О флоре Туркестанского хребта недостаточно полных сведений. Проведенные исследования отражают флору некоторых небольших участков ареала. ЭМ. Демурина писала, что в Западно-Туркестанском хребте и его отрогах обнаружено 1139 видов, относящихся к 67 семействам, 413 родам. Этот показатель, безусловно, является информацией, полученной в ходе геоботанических исследований, и не отражает в полной мере флористический состав столь обширной территории (с горами Нурата).

Выяснение флористического состава Туркестанского хребта.

Г. Исследования Гафарова имели большое значение. Автор изучил флористический состав Ходжа-Бакирганской котловины, расположенной в восточной части Туркестанского хребта, и показал встречаемость на этой территории 1463 видов, относящихся к 90 семействам и 532 родам. Полученные результаты показывают, что

этот бассейн является одной из самых богатых флор на северных склонах Туркестанского хребта. Позже Н. Сулайманов установил, что во флоре бассейна Аксув в центральной части северных склонов Туркестанского хребта обнаружено 1139 видов высших растений, принадлежащих к 531 роду и 102 семействам.

Зоминский заповедник, расположенный в западной части хребта, уже много лет находится вне поля зрения цветоводов. В 1937 году М.Г. Попов и В.А. Андросова для бассейна Гуралаш до недавнего времени признавались единственным опубликованным списком для Зоминского заповедника. А. По данным Эсанкулова установлено, что на территории Зоминского государственного заповедника (заповедник расположен в Зоминском и Бахмальском районах) обнаружено 103 семейства, 1192 вида, принадлежащих к 534 родам. Эта флора ограничена искусственными границами и включает горную и высокогорную растительность. В ходе многолетних геоботанических исследований, проводимых на водоразделе Замина, большое внимание уделялось также сбору флористических данных, краткий их анализ представлен ниже.

Классификация растительного покрова Сангзорской котловины. Таксономическая классификация-изучение растений природно-географических зон, геоморфологических, высотных уровней (районов), отдельных областей, административных и природных округов имеет научное и практическое значение. Процесс классификации позволяет оценить характер количественных и качественных показателей научных данных, полученных в результате исследования.

Классификация растительного покрова бассейна Сангзора Е.М. Цитируется по книге Демуриной. Материал в нем датируется 1937 и 1956 годами, но является неполным. Его классификация включает 9 типов, 17 формаций и 148 ассоциаций. С тех пор прошло более 50 лет.

П.К. Новая классификация Закирова для Центральной Азии показывает 9 типов, 20 подтипов, 52 ксенотипа и 340 формаций. Мы П.К. Приведем классификацию, приняв классификацию Закирова и внося некоторые изменения.

Спектр ведущих семейств, определенный в ходе геоботанических исследований, несколько отличается от общего спектра флоры, например, спектра Зоминского государственного заповедника.

Антропогенные изменения растительного покрова включают *Astreaceae* (*Centaurea*, *Cirsium*, *Onopordon*, *Picnemon*, *Cousinia*), *Lamiaceae* (*Perovskia*, *Ziziphora*, *Origanum*), *Boraginaceae* (*Lappula*, *Trichodesma*, *Arnebia*), *Poaceae* (*Taeniatherum*, *Aegilops*, *Hordeum*), больше *Caryophyllaceae* в рудеральном пространстве. Ведущими являются сообщества (*Stellaria*, *Cerastium*), виды *Ranunculaceae* (*Ranunculus*).

Флористический состав сообществ, подвергшихся антропогенной модификации и преобразованных в разной степени (по индексам Б, В), существенно отличается от общего спектра флоры бассейна. Поэтому проанализирован флористический состав растительных сообществ, распространенных в растительном покрове бассейна Зоминсува. В результате возникают группы социальных и несоциальных видов,

образующих сообщества дифференцированных.

Хотя социальные виды не занимают большого места в составе флоры, они активно участвуют в формировании сообществ, а их общая численность составляет 85 видов. В эту группу вошли виды, численность которых в геоботанических описаниях отмечена символами  $cor3-cor1$ ,  $sp3-sp2$  по шкале Друде. Группа асоциальных видов, то есть количество видов, численность которых соответствует символу  $sp1-sol$  в сообществе, составляет 431 вид. Социальные виды, принимающие активное участие в формировании состава сообщества, можно разделить на подгруппы: 1. Растения с обилием  $cop3-cop1$  являются основными строителями сообществ. В бассейне Зомина они состоят из 18 видов, таких как *Onobrychis echidna*, *Juniperus seravschanica*, *J. turkestanica*, *Festuca valesiaca*, *Elytrigia trichophora*, *Artemisia tenuisecta*, *A. ferganensis*. 2. Установлено, что средняя активная, то есть обилие видов  $sp3-sp2$ , составляет 67. Примеры: *Anisantha tectorum*, *Ziziphora tenuior*.

Ареологический анализ доминирующих видов в покрове бассейна Зоминсува показал, что они относятся к 17 типам ареала:

1. Западно-Памиролойский тип - охватывает южную часть Туркестанского хребта и большую часть Зеравшана, Хисара и Дарваза. Однако горные хребты Восточного Памира и Алой не включены. К этому типу в качестве доминирующих видов относятся *Artemisia sogdiana*, *Amygdalus bucharica*.

2. Памиролойский тип - охватывает весь Памир - Олой (Туркестан, без восточной части Олоя, Зарафшана, Хисаря, Каратегина, Петра 1, Дарваза, Академии наук и Западного Памира). К этому типу в качестве доминирующих видов относятся *Cousinia verticillaris* и *Acantholimon erythraeum*.

3. Западно-Тяньшань-Памиролойский тип включает Западный Тяньшань и Памиро-Олой. К этому типу ареала относятся доминирующие виды *Onobrychis echidna*, *Ceracus erythrocarpa* и *Polyn Fergansky*.

4. Горный среднеазиатский тип. Этот тип расположен на границе Среднеазиатской провинции (Памиро-Алой без Западного Тяньшаня и Восточного Памира) и включает такие доминанты, как *Artemisia lehmanniana*, *Rosa kokanica*.

5. Копетдогско-горный среднеазиатский тип расположен на границе горной Средней Азии и горного Туркменистана и простирается до Северного Афганистана и Восточного Ирана, а иногда и до гор Болхаш. Типовой диапазон включает *Amygdalus spinosissima*.

6. Тарбагатайско-Горно-Среднеазиатский тип расположен на границе Горной Средней Азии, Юнгор-Олатоги, Тарбагатая, Кульджи и Синьцзяна и включает можжевельник *turkestanica*.

7. Туронного типа. Оно граничит со склонами среднеазиатских равнин и окружающей их горной системой и частично простирается до Кульджи, Кашгара, Северного Афганистана и Ирана. К этому типу относятся *Girgensohnia oppositiflora*, *Artemisia diffusa*, *Salsola sclerantha*, *Alhagi pseudalhagi*.

8. Среднеазиатский тип. Он находится в пределах хребтов Средней Азии от

Тарбагатая до Копетдога и частично простирается до Западной Монголии и Китая, Афганистана и Северного Ирана. К такому типу среды обитания относится *Bromus oxyodon*.

9. Ирано-среднеазиатский тип встречается в юго-восточной части Ирана, на Кавказе, иногда на Алтае и Сынцзяне. К этому типу ареалов относятся виды *Artemisia tenuisecta*, *Cullen drupacea*, *Origanum tythanthum*.

10. Гималайский тип охватывает Западные Гималаи, Афганистан, Среднюю Азию, часть Тибета, Западный Китай, Монголию и Алтай. В состав входят доминирующие виды, такие как *Scorzonera acanthoclada*, *Juniperus seravschanica*, *J. semiglobosa*.

11. Восточно-древнесредиземноморский тип. От Балкан и Малой Азии до Западных Гималаев и Алтая она охватывает Сирию, Иран, Кавказ и частично Тибет и Сынцзян. К этому типу ареала относятся *Lonicera nummulariifolia*, *Elytrigia trichophora*, виды *Carex pachystylis*.

12. Древнесредиземноморский тип. Он охватывает территории от Испании и Марокко до Западных Гималаев, Западного Китая и Западной Монголии, а также частично до Центральной Европы. К этому типу относятся *Rosa canina*, *Hordeum Bulbosum*, *Poa Bulbosa*, *Bromus danthoniae*, *B. tectorum*, виды *Aegilops triuncialis*.

13. Евро-Центрально-Азиатско-Сибирский тип - включает границы Средней Азии через Европу до Южной Сибири. К этому ареалу относится вид *Taeniatherum crinitum*.

14. Сибирско-алтаско-среднеазиатский тип – охватывает равнины и горы Средней Азии, Западного Китая, Алтая, Монголии, Даурии, южную часть Западной и Восточной Сибири, частично распространяется до Северного Ирана и Кавказа. К этому типу относится *Festuca valesiaca*.

15. Аркто-горный тип - на границах Арктики и гор Евразии и Северной Америки, к которому относится мятлик альпийский.

16. К палеарктическому типу относятся виды, распространенные в умеренных и субтропических областях голарктического флористического мира на границе Нового Света. К этому типу относится *Aeluropuslitoralis*.

17. К плурегиональному типу относятся виды, распространенные как минимум в двух флористических мирах. Содержит виды *Phragmites australis*.

Среди ареальных типов доминирует древнесредиземноморский тип, включающий 6 видов. Это указывает на то, что древнее Средиземноморье является одним из типов территорий, богатых видами. Далее типом ареала с относительно большим количеством видов является Турон, включающий 4 вида. Выделяют 5 типов ареала, из них 3 типа: Помиролай, Западный Тяньшань – Помиролай, Иран – Среднеазиатский, Гималайский и Восточный – древнесредневековый.

Полное изучение места зарегистрированных видов в растительном покрове связано также с анализом их биоморфологического состава. Для этого в нашей работе И.Г. Мы использовали упрощенную версию классификации форм жизни Серебрякова.

На исследуемой территории выявлено 268 видов многолетних растений. Они составляют 51,94% флоры бассейна. Однолетние растения состоят из 176 (34,11%)

видов. Встречается 11 видов двулетних растений (2,13%), 18 видов полукустарников и полукустарников (3,49%), 31 вид кустарников (6,01%) и 12 видов деревьев. Во флоре исследуемой территории очень мало древесных форм, 12 видов (2,33%), из них 3 вида представлены вечнозелеными деревьями - можжевельниками.

По специфической геоструктуре горных районов котловина Зоминсува также резко различается по своим районам в зависимости от высоты над уровнем моря. Для анализа флоры крутых регионов использовали Q.Z. Мы использовали геоморфологическую схему вертикальных растительных регионов Закирова: пустыня, холм, гора, высокогорье. Распределение видов по крутым склонам неравномерно. В размещении растений по крутым участкам можно увидеть следующие особенности. Наибольшее количество видов – 368 – относятся к горным растениям. Из них 164 уникальных для горы видов составляют 31,78%. Чистые горные растения состоят из 64 (12,40%) видов. В пустыне выявлено 148 видов, из них 7 видов специфичны для этого региона (1,36%). Зарегистрировано 4 вида чисто высокогорных растений (0,78%) и выявлено 15 видов, встречающихся в высокогорном районе. 24,81% (128 видов) флоры грунтовых вод сосредоточено в холмисто-горных районах, 14,15% (73 вида) - в пустынно-холмистых районах.

Выделяют 3 вида растений, характерных для всех высотных регионов.

(*Poa Vulbosa*, *Anisanta tectorum*, *Ixiolirion tataricum*), составляет 0,58%.

Преобладание горных растений во флоре водораздела Зомина показывает уникальность флоры горных районов Средней Азии. Также обилие холмистой и пустынной растительности объясняется тем, что эти регионы раскинулись на больших широтах в вертикальном направлении.

Почти 40% всех видов растений, занесенных в «Красную книгу» Республики Узбекистан, исчезают из нашей флоры в результате беспланового и чрезмерного выпаса скота.

В результате масштабного антропогенного воздействия в водоразделе Зомина численность многих видов быстро сокращается. 10 видов флоры бассейна занесены в «Красную книгу» Республики Узбекистан.

Проблемы охраны растительного покрова и его эффективного использования тесно связаны с изучением растительных ресурсов территории. Во флоре Зоминского водохранилища много полезных растений. Они использовались человеком с древних времен и используются до сих пор. Бассейн считается одним из регионов с богатой флорой в Центральной Азии и обладает разнообразными растительными ресурсами. Все растения флоры еще недостаточно изучены для конкретных целей, но можно с уверенностью сказать, что растительный покров бассейна Зоминсува является не только кормовой базой для скота и кладовой генофонда различных съедобных растений, но также считается источником многих лекарственных, кулинарных, ароматических, декоративных и других полезных растений. Однако независимо от того, являются ли растительные ресурсы возобновляемыми, не следует забывать, что неразумное использование может не только разрушить основу растительного



покрова, но и привести к необратимым негативным изменениям. Все это требует эффективного использования таких богатств на научно обоснованной, системной основе и с учетом уникальности природных процессов.

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ССЫЛОК

1. Виппер П.Р. Арчевники Средней Азии как тип растительности // Ботан. журн. 1953. – № 3. – С. 429–431.
2. Гончаров Н.Ф. Очерк растительности центрального Таджикистана / Тр. Таджикско-Памирской экспедиции. – М., Л.: 1936. – вып. 26. – С. 4-29.
3. Попов М.Г. Избранные сочинения. – Ашхабад: АН Туркм. ССР, 1958. – С. 43–220.
4. Попов М.Г. Растительность Самаркандской области / Сб. Науч. тр. ин-та каракулеводства. – Самарканд, 1960. – вып.10. – С.136-140.
5. Панков М.А. Тупрокшунослик. – Тошкент: Фан, 1963. – 503 б.
6. Агафонов М.В., Сиворакша Г.С. Естественное возобновление арчи в Зааминской лесной даче // Труды Узбекской лесокультурной и агромелиоративной опытной станции. – Ташкент, 1936. – № 1. – С. 5-87.
7. Акжигитова Н.И. Естественная растительность голодной степи и её хозяйственное значение / Очерки по географии растительного покрова УзССР. – Ташкент: Фан, 1969. – С. 152-179.
8. Акжигитова Н.И. Особенности строения корневых систем основных эдификаторов Юго-Западных Кызылкумов // Проблемы освоения пустынь. – Ашгабат: Ёлым, 1971. – № 1. – С. 75-82.
9. Акжигитова Н.И. Галофильная растительность – *Halophyta* / Растительный покров Узбекистана и пути его рационального использования. В 4-х т. – Ташкент: Фан, 1973. Т. 2. – С. 211-302.
10. Акжигитова Н.И. Эфемеровая растительность – *Ephemerophyta* / Растительный покров Узбекистана и пути его рационального использования. В 4-х т. – Ташкент: Фан, 1976. Т. 3. – С. 8-72.



## DARS JARAYONIDA YOZMA NUTQ USTIDA ISHLASH

**Kenjebayeva Roza***Qoraqalpoq davlat universteti**Qazaq tili va adabiyoti kafedrası*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ona tili darslarida grammatik qoidalarni nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirish haqida gap ketadi. Shuning bilan birga grammatik qoidalar ustida ish olib borish jarayonida amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar bo‘yicha ham ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** grammatik qoida, nutqiy ko‘nikma, tovushdosh so‘zlar, bilim, malaka, ko‘nikma.

**Abstract:** This article deals with the orientation of grammar rules to the development of speaking skills in mother tongue classes. At the same time, information on practical and creative work carried out in the process of working on grammatical rules is presented.

**Key words:** grammatical rules, speaking skills, consonant words, knowledge, skills, skills.

Bugungi ta‘lim oldida turgan asosiy talab ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash, erkin fikrlash va fikr mahsulini har qanday sharoitda bimalol bayon qila oladigan shaxsni etishtirishdir. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi faoliyatida tez-tez duch keladigan so‘z qashshoqligi, fikrni mantiqan to‘g‘ri bayon qila olmaslik, o‘z fikrlarini izchillikda bera olmaslik, asosiy mavzudan chetga chiqish, ijodiy tafakkurning yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi salbiy holatlar barchasi grammatik qoidani bilishdan nariga o‘tmaslik natijasida kelib chiqadi. Bundan qutilishning asosiy yo‘li esa grammatik qoidalarni nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirishdan iboratdir. O‘qituvchi har bir darsda ijodiy-amaliy ishlardan, topshiriqlardan va didaktik o‘yinlardan foydalansa, o‘quvchi nutq faoliyatining rivojlanishiga qiyinchiliksiz erishadi. Bugungi kun: «O‘quvchi ona tilining qonun-qoidalarini bilsa, aytib bersa, u savodli yozadi»,- degan fikrlardan mutlaqo voz kechishni talab qiladi. Chunki ona tilining qonun- qoidalarini bilish boshqa, undan amaliy ish jarayonida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish boshqa. Bugungi davr tilning ijtimoiy vazifalari va tarbiyaviy ahamiyatini faqat o‘qituvchigina emas, balki o‘quvchi ham sezishini, his qilishini talab qilmoqda. Zeroki, insonning o‘zi uchun gapirib, o‘zi uchun yozmasligini, aksincha, kishilar uchun gapirib, kishilar uchun yozishini o‘qituvchi ham o‘quvchilar ham ijtimoiy zaruriyat deb anglamoqlari shart. Mana shulardan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni ona tili darslarida mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ular ongida ma‘naviy-ma‘rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg‘ulotlarni o‘quvchi nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olinmoqda.

Darslarni tashkil etish ishlari o‘quvchilarning nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shuning uchun til ma’ruza orqali emas, balki nutq ko‘rinishlarini tahlil qilish va o‘zlashtirish, esda saqlash orqali o‘rganiladi.

Darhaqiqat, o‘quvchilar o‘rganilayotgan til hodisalarini badiiy matndan ajratsa, so‘z ma’nolari ustida ishlasa, ajratgan til faktlarini og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay bilsa, o‘quvchining matn tahlil qilish malakasi orta borsagina ona tili mashg‘ulotlarining bosh maqsadiga erishilgan hisoblanadi.

Ona tilidan dars beruvchi o‘qituvchi haqiqiy ijodkor bo‘lishi, ta’lim jarayonida o‘quvchining mavzuni tinglash, anglash va erkin, mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo‘naltirilgan faoliyatini rag‘batlantirishi, o‘z fikri, g‘oyalarini o‘zgaralarga yetkaza bilish ko‘nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy-ma’naviy tarbiyasi bilan shug‘ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an’analarimizga hurmat, ona-Vatanga muhabbat tuyg‘usi kabi zaruriy hislarni singdira bilishi lozim.

O‘quv mashg‘ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, o‘quvchilarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o‘qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda. O‘quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha bolalar o‘qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma’lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o‘zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o‘zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qolar ekanlar. Chunki o‘quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko‘rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko‘plab o‘quv materiallarini xayolidan o‘tkazadi.

Grammatik tahlilni DTS talablariga xizmat qildirish uchun til bo‘limlarini o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish, uni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jarayonda ona tili ta’limining bo‘limlararo hamda fanlararo aloqasi natijasi yaqqol ko‘zga tashlanadi, tilni tizimiy o‘rganishning amaliyotga ijobiy ta’siri samarasi seziladi. Jumladan, tilshunoslikning fonetika va leksikologiya bo‘limlarini bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rgatish nutqiy ko‘nikmlarni mukammal egallashda juda qo‘l keladi. Bilamizki, paronimlik hodisasi tovushlar va harflar bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham paronimlik hodisasi leksikologiyada o‘rganilsa ham biz bu so‘zlarning talaffuzini va imlosini, albatta, fonetika bilan, ya’ni yuqoridagi fonetik qoidalar bilan bog‘liq holda o‘rgatsak maqsadimizga osonroq erishamiz. Chunki shu singari so‘zlarning ma’nolarini farqlashga o‘rgatish, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llay bilishiga ko‘niktirish o‘quvchilar savodxonligini yaxshilashda ham, ularning nutqini boyitishda ham muhimdir. Paronim so‘zlar vositasida turli so‘z o‘yinlari hosil qilish esa o‘quvchilarni so‘z ma’nosini teran idrok qilishlariga, nozik ma’nolarni ilg‘ay olishlariga o‘rgatadi. Agar dars jarayonida paronimlarning faqat grammatik qoidasini o‘rgatish bilan cheklansak o‘quvchilar bu so‘zlarni yozish va talaffuz qilish jarayonida juda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi. Shuning uchun har bir grammatik qoidani amalga tadbiiq etishga harakat qilishimiz va bu qoidalar ustida ishlashda, albatta, qiziqarli amaliy mashqlar va didaktik o‘yinlar o‘tkazishimiz zarur.

Yana shuni aytib o‘tish joizki, juda ko‘p o‘quvchilarimiz ma‘nodoshlik (sinonimlar), shakldoshlik (omonimlar), zid ma‘nolilik (antonimlar) kabi hodisalarning qoidalarini juda yaxshi bilishadi. Lekin shu so‘zlardan o‘zlarining og‘zaki yoki yozma nutqida maqsadga muvofiq foydalana olishmaydilar. Bu salbiy holatlarni o‘quvchilarning gap tuzish, matn yaratish, yozma ishlar yozishi jarayonida yaqqol payqashimiz mumkin. Bu narsa qoidani quruq yodlatish natijasida kelib chiqadi. Natijada o‘quvchilarda nutqiy qashshoqlik va so‘z qo‘llashda uslubiy bilimlarning yetishmasligi kabi holatlar kelib chiqadi. Mana shu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun o‘qituvchi o‘sha qoidalarni amalda to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradigan amaliy mashqlar ustida juda ko‘p ishlashi lozim.

Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun: berilgan so‘zlarga sinonimlarni tanlash; tegishli matndan, darslikdagi mashqlar yoki badiiy asarlardan sinonim so‘zlarni ajratib yozish; sinonim so‘zlar asosida saylanma diktant o‘tkazish; har bir sinonim so‘zning ma‘no noziklarini izohlash kabi mashqlar bajarilishi mumkin. Zeroki, yangilangan ta‘lim mazmuni xususiydan umumiyga qarab borishni, til haqida qoidalarni emas, balki tilning o‘zini, uning lug‘at boyliklarini o‘rganishni nazarda tutadi. Ushbu boylikni o‘z nutqida to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish usullarini o‘rganish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, fikr mahsulini o‘z istedodi, fikr doirasi, tilning ichki imkoniyatlardan foydalanib, matn yoki she‘riy ifoda sifatida yuzaga chiqara olish shu kunning talabidir. Bunday ko‘nikma va malakalarni izchillikda rivojlantirish hamda yosh avlodni nutqiy taraqqiyot sari yo‘naltirish DTS ning talabidir. Mana shu talabdan kelib chiqqan holda o‘quv mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqtning asosiy qismini amaliy ishlar egallashi lozim. O‘quvchidagi nutq zahirasini boyitish, og‘zaki va yozma nutqini ijodiy tafakkurni rivojlantirish, fikrni to‘g‘ri va muxtasar ifodalash malakalarini shakllantirish til ta‘limida eng muhim va zaruriy masala hisoblanadi.

Har fanning o‘qitilishi, ijobiy samarasi undan olingan natija bilan baholanadi. Ona tilidan olingan so‘nggi natija esa nutqni og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, aniq, ravon, qisqa ifodalash ko‘nikmalarining to‘liq shakllanganligi va rivojlanganligida ko‘rinadi. Ona tilidan ta‘lim berishda o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi munosabatlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ya‘ni o‘quvchi ta‘lim jarayonining faol ishlovchisiga aylantirilsa, o‘qituvchi esa bu jarayonning boshqaruvchisiga aylansa ona tili ta‘limining samaradorligi ta‘minlangan bo‘lardi.

Xulosa qilib aytganda, muallim har bir o‘tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi zarur. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, o‘zida hosil qiladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o‘z navbatida o‘quvchining mashg‘ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o‘quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur. Demak, maktabda o‘qitish jarayonining, asosan, ona tili ta‘limining asosiy vazifasi o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilish, ularni o‘z fikrini mantiqan izchil va

usluban savodli qilib bayon etishga o‘rgatishdan iboratdir. Bu esa, albatta, grammatik qoidalarni nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirish orqaligina amalga oshiriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ne'matov X., G‘ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish. Toshkent, 1997 yil.
2. Mirzaqulov T. Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari. Toshkent, "O‘qituvchi" nashriyoti, 1994 yil.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
4. Xodjaev B.X. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo‘llari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: TDPU.
5. G‘ulomov A. Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. Metodik qo‘llanma «O‘qituvchi», Toshkent 1995.
6. Yo‘ldashev B., Rajapova K. «Matn tilshunosligi» O‘quv-uslubiy qo‘llanma. //Samarqand, 2011. SamDU nashriyoti.
7. Rajapova K. M. «Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga tizimli yondashish zarurlari» Ukraina. Konferensiy. 26- 27- mart 2020- yil.

## A COMPREHENSIVE ANALYSIS OF KINESTHETIC AND OCULISTIC REPRESENTATION IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY TEXTS

**Surayyo Abdulxafizova**

*Tutor,*

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

*abdulxafizovas@gmail.ru*

**Abstract:** *This article presents a comparative analysis of kinesthetic and oculistic representation in English and Uzbek literary texts, examining how these sensory modalities are utilized to immerse readers into the worlds created by authors. Through examples from renowned works in both languages, the article explores the cultural nuances and narrative significance of bodily movement and visual perception in literature.*

**Keywords:** *Kinesthetic representation, oculistic representation, cultural nuances, bodily movement, cultural landscapes.*

Literature, often hailed as a reflection of the complexities inherent in human existence, acts as a multifaceted mirror that captures the essence of emotions, experiences, and narratives. Through a diverse array of sensory means, authors endeavor to convey the depth and breadth of the human condition. Central to this endeavor are kinesthetic and oculistic representations, which serve as powerful conduits for immersing readers into the richly woven tapestries of literary worlds.

Kinesthetic representation within literature encompasses the vivid portrayal of bodily movements, gestures, and sensations that elicit a visceral response from readers. In the realm of English literature, authors wield the potent tools of imagery and descriptive language to animate characters and scenes through physical action. Consider, for instance, the elegant dance sequences in F. Scott Fitzgerald’s seminal work, “The Great Gatsby,” where the fluid movements of the characters serve as a window into their innermost desires and conflicts. Similarly, in J.R.R. Tolkien’s epic saga, “The Lord of the Rings,” the gripping battle sequences pulsate with tension and urgency, drawing readers deeper into the heart of the narrative.

Likewise, Uzbek literature harnesses the power of kinesthetic representation to evoke sensory experiences and convey cultural nuances. In the works of esteemed writer Chingiz Aytmatov, for instance, the subtle nuances of characters’ gestures and movements unveil layers of emotion and social dynamics within the fabric of Kyrgyz society. Similarly, in the writings of Abdulla Qahhor, the physicality of labor and everyday activities serves as a backdrop against which larger narratives of identity and struggle unfold, providing readers with insights into the intricacies of Uzbek culture and society.

In essence, kinesthetic representation serves as a cornerstone of literary expression, enabling authors to imbue their works with depth, resonance, and authenticity. Whether through the graceful movements of characters in English literature or the nuanced gestures

depicted in Uzbek literature, kinesthetic elements serve as conduits for emotional engagement and narrative immersion, enriching the reader's experience and fostering a deeper understanding of the human condition. On the other hand, oculistic representation delves into the realm of visual perception and imagery, beckoning readers to envision landscapes, settings, and characters within the literary realm. In English literature, authors employ a rich tapestry of descriptive language and metaphorical imagery to create vivid mental pictures. From the windswept moors of Emily Brontë's "Wuthering Heights" to the bustling streets of Charles Dickens' Victorian London, oculistic elements serve as portals, transporting readers across time and space.

In the context of Uzbek literature, oculistic representation serves as a reflection of the region's rich visual heritage and cultural landscapes. Renowned writers such as Hamid Olimjon and Erkin Vohidov masterfully evoke the vibrant colors, intricate patterns, and awe-inspiring scenery of Central Asia. Through their words, readers who invited to immerse themselves in the sights and sounds of Uzbekistan, experiencing its beauty and complexity firsthand. Despite the linguistic and cultural disparities between English and Uzbek literary traditions, both share a common aspiration: to construct immersive worlds that resonate with readers on a profound sensory level. Whether through the dynamic portrayal of bodily movement or the evocative depiction of visual beauty and symbolism, authors harness the intrinsic power of language to elicit emotional responses and stimulate intellectual engagement.

The nuanced portrayal of kinesthetic and oculistic elements in both English and Uzbek literary texts stands as a testament to the enduring power of storytelling as a vehicle for human expression. Across diverse cultural landscapes, authors harness the sensory modalities of bodily movement and visual perception to create immersive worlds that resonate with readers on a profound level. Through the exploration of these sensory modalities, readers are afforded a glimpse into the richness and diversity of human experience as captured within the pages of literature. Whether traversing the windswept moors of English classics or delving into the vibrant tapestry of Central Asian landscapes, readers are invited to immerse themselves in worlds teeming with life, emotion, and meaning. Moreover, the comparative analysis of kinesthetic and oculistic representation underscores the universal themes and shared humanity that transcend linguistic and cultural boundaries. Across languages and cultures, authors employ these sensory means to evoke emotions, provoke thought, and illuminate the human condition, thereby forging connections and fostering empathy among readers. In this way, the representation of kinesthetic and oculistic means serves not only as a celebration of the diversity of literary traditions but also as a reminder of the universal truths that unite us as human beings. Through the lens of literature, readers gain a deeper appreciation for the richness, complexity, and beauty of the human experience in all its myriad forms.



**REFERENCES:**

1. Eagleton, Terry. “Literary Theory: An Introduction”. Wiley-Blackwell, 2008. (Refer to relevant chapters on Structuralism, Post-structuralism, and Semiotics)-P.78-80.
2. Barthes, Roland. “The Pleasure of the Text”. Hill and Wang, 1975. (Refer to Chapter 1: Text and Pleasure)-P.123.
3. Genette, Gérard. “Narrative Discourse: An Essay in Method”. Cornell University Press, 1983. (Refer to Chapter 1: Introduction).-P.345-348.
4. Eco, Umberto. “The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts”. Indiana University Press, 1979. (Refer to relevant chapters on Semiotics and Reader Response).-P.276-280.
5. Culler, Jonathan. “Literary Theory: A Very Short Introduction”. Oxford University Press, 1997. (Refer to relevant chapters on Literary Theory)- P.198.
6. Fitzgerald, F. Scott. “The Great Gatsby\*” Charles Scribner’s Sons, 1925.
7. Tolkien, J.R.R. “The Lord of the Rings”. Houghton Mifflin, 1954.
8. Aytmatov, Chingiz. Selected Works. Progress Publishers, 1980.
9. Qahhor, Abdulla. Selected Works. Sharq nashriyoti, 2005.

**JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA JAZO MUDDATINI O‘TAYOTGAN MAHKUMLARNING SAYLOVLARDA ISHTIROKI.****Egamberdiyev Zafar To‘lqin o‘g‘li***5-son Tergov hibsonasi Tshkiliy bo‘lim Yuridek ta‘minlash guruhi katta yuriskonsulti,  
leytenant*

Saylov — ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o‘z saylov huquqini amalga oshirishi — ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri. Saylov o‘tkazish tartibi va qoidalari, odatda, har bir davlatning konstitutsiyasi va boshqa konstitutsiyaviy huquqiy hujjatlarda belgilanadi. Xususan Konstitutsiyamizning O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — oktyabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi, bundan ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan muddatidan ilgari saylov o‘tkazish hollari mustasno. Saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so‘ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o‘zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Saylov o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi. Saylov bo‘yicha tartib qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida ham belgilangan. kodeksining 5-moddasida sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida

saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmasligi belgilangan. Saylov kuni 18 yoshga to‘lgan, qamoqda saqlash joylarida ushlab turilgan hamda qamoqqa olingan shuningdek, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar esa ovoz berish huquqiga ega ekanliklari belgilangan. Saylovlar o‘tkazilishi bo‘yicha

Saylovoldi tashviqoti — saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir.

Nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, siyosiy partiyalar va ularning vakillari saylovoldi tashviqotini (bundan buyon matnda tashviqot deb yuritiladi) qonunda belgilangan shakllarda va usullarda amalga oshirish huquqiga ega.

Tashviqot nomzodlarni va partiya ro‘yxatini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan e‘tiboran boshlanadi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida tashviqotga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tashviqotni saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko‘rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek pul mablag‘lari to‘lash bilan qo‘shib olib borish taqiqlanadi.

Noto‘g‘ri axborotni tarqatish, shaxsga doir ma‘lumotlarning maxfiyligini buzish, shuningdek nomzodlarning sha‘ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma‘lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.

Quyidagilarning saylovoldi tashviqotini olib borishi taqiqlanadi:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo‘linmalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining, sudyalarning;

saylov komissiyalari a‘zolarining;

diniy tashkilotlar professional xizmatchilarining.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga o‘z mansab va xizmat mavqeyidan saylovoldi tashviqoti vaqtida har qanday siyosiy partiyaning yoki nomzodning foydasiga yoxud unga qarshi foydalanishi taqiqlanadi.

Ovoz berish saylov kuni soat 8.00 dan 20.00 gacha o‘tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to‘g‘risida uchastka saylov komissiyasi saylovchilarni saylovdan kamida o‘n kun oldin xabardor qiladi

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan saylov uchastkalarida saylov qutilarini soat 20.00 dan oldin ochish va ovozlarni sanab chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi

Ovoz berish binosiga kelgach, saylovchi uchastka saylov komissiyasining a‘zosiga o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatadi hamda saylovchilar ro‘yxatiga imzo qo‘yadi. Shundan keyin unga saylov byulleteni beriladi. Biron-bir sababga ko‘ra saylovchilar ro‘yxatiga familiyasi kirmay qolgan saylovchilarning familiyalari saylovchining shaxsi,

fuqaroligi va yashash joyini tasdiqlovchi hujjat asosida saylovchilar ro‘yxati ilovasiga kiritiladi.

“Jimjitlik” hikoyasining qahramoni Tolibjon ham ana shunday o‘zligini izlagan yigitlardan. Inson o‘zligini o‘zidan izlashi mumkin. Tolibjonda ham bu masala o‘ziga xos kechadi. Bu masala unda milliy qadriyatlarni idrok etish, tarixga vorislik bilan bugunning robitalarini bog‘lash, hayotda o‘z o‘rnini topish asnosida emas, serg‘alva XX asrning qononiyatlari buzulib, uning bokira vujudini zo‘rma-zo‘rakilik bilan, hatto, payhon qilib egallash avj olayotgan sharoitlarda bir oddiy insoniy sokinlikni qo‘msash jarayonida ro‘y beradi. Muallif hikoyaga yakun yasamaydi, balki xulosa chiqarishni, qahramon haqida mulohaza yuritishni o‘quvchining o‘ziga qo‘yadi.

Xullas, iste‘dodli adib, Said Ahmad ijodidan o‘rin olgan hikoyalarning poetik xususiyatlari, ularning qaysi davr va muhitda yaratishidan qat‘iy nazar, mukammal asarlar ekanligidan dalolat beradi. Ba‘zi hikoyalarda sobiq sho‘rolar davrining murakkab xususiyatlari, inson xarakteri va ruhiyatiga singdirilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida yaratilgan hikoyalarda adibning o‘ining murakkab hayoti, adolat va adolatsizliklar, jamiyatdagi haq va haqsizliklar, erk va erksizlar juda mahorat bilan talqin etilganligini kuzatish mumkin. Bu tushunchalarning barchasi, iste‘dodli adib Said Ahmadning o‘zbek hikoyachiligining taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rni, va ijodining muhimligidan dalolat beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. Ўқув қўлланма. – ошкент, 2011. – 508 бет.

2. Normamatovich, N. A. (2023). Artistic thought in the process of globalization and logical consistency. international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(01), 90-94.

3. Шарфиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Тошкент, “Шарқ”, 2004. 354-355-бетлар.

4. Норматов У. Уфқларнинг чин ошиғи. –Тошкент, “Yurist-media markazi” nashriyoti, 2008. –Б 96; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент, “Маънавият”. Рисола. 2000. –Б. 112; Х.Дониёров. С.Мирзаев. Сўз санъати (Маҳорат ва тил ҳақида). –Тошкент, 1962; Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. –Тошкент, “Шарқ”, 2006. –Б.392; Мамажонов С. Услуб жилolari. –Тошкент, Фафур ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –Б.220; Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. –Тошкент, Ўқитувчи, 2012. –Б.328; Маматов А. Фразеологик стилистика масалалари. –Тошкент, 1991. –Б. 120; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. ДДА. – Тошкент, 2000. –Б.56; Аҳмедова Ш. Саид Аҳмад ҳажвиётида бадиий маҳорат. НДА. – Тошкент, 1994. –Б.29; Аҳмедова Ш. Юмор жилolari. – Тошкент, Фан, 1994. –Б.52; Nasirov, N. A. (2021). The history of literary translation from uzbek into english. Academic research in educational sciences, 2(6), 1011-1022; Муҳаммад аш-Шантий (Иордания). Ўзбек ҳикоясидан уч намуна (Фафур Ғуломнинг “ўғригина бола”си, Абдулла Қаҳҳорнинг “бешиги”, Саид Аҳмаднинг “келинлар кўзгалони” ҳақида). Ўзбек ҳикоялари араб адабиётшунослари талқинида. Рисола. Ғоя муаллифи ва таржимон Маҳмуда Сайдумарова. – Тошкент, “Адабиёт”, 2023. – Б. 188.

5. Nasirov, A. (2023). Erkin A’zam ijodining o’ziga xosliklari haqid // Ustozlar uchun. 15(1), 78-84.

6. Nasirov, N. A. (2019). The translation problems of utkir khoshimov’s works into english. Иностранные языки в узбекистане, (3), 133-141.

7. Nasirov, A. N. (2019). Stylistic units and compositional impartiality. Theoretical & Applied Science, (12), 568-571.

8. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.

8. Mukhammadaliyeva, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4).

9. Shavkatovna, T. M. (2023). BO’LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO’LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O’RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI

RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 6-8.

10. Shavkatovna, T. M. (2021, June). THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER. In Archive of Conferences (pp. 22-24).

13. Normamatovich, N. A. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE, 12(586-571).

11. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academica: An International multidisciplinary Research journal* ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF, 7, 498-501.

12. NASIROV, N. A. (2019). THE TRANSLATION PROBLEMS OF UTKIR KHOSHIMOV'S WORKS INTO ENGLISH. *Иностранные языки в Узбекистане*,(3), 133-141.

13. Ahmadjonovna, K. M. (2024, February). XORIJIY TILNI OSON VA QIZIQARLI O‘RGANISH TO‘G‘RISIDA. In *Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium) (Vol. 4, pp. 20-23)*.

14. Xusanova, M. (2023). SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 163-163.

15. A'zamjonovna, X. S., & Azimidin, N. (2023). ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIY KONFLIKT. *Ustozlar uchun*, 15(1), 72-77.

16. Nasirov, A. (2012). *Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. Tashkent, "Fan" publishing house*, 160.



**MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINI  
BAJARISHNING TA'LIMIY-NAZARIY ASOSLARI  
(Nodavlat oily ta'lim muassasalari misolida)**

**Botirov Azizbek Mirzakarimovich**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annatatsiya:** *Ijodiy izlanishlar, talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish jarayonidagi o'z-o'zini boshqarish tamoyillari haqida so'z yuritiladi. Jahon sivilizatsiyasiga nazar solish shuni ko'rsatadiki, har bir shaxs individuallik xususiyatiga ega ekan, ang avvalo, uning ma'naviy olamini namoyon etuvchi tafakkur tarzi, dunyoqarashining ifodasi kabi jihatlarga nazar solinadi. Shu jihatdan, har bir individ o'z tafakkur dunyosiga ega ekan, uning olam va odamni anglashdafi tafakkur dunyosi birlamchi darajaga ko'tariladi. Buning asosida esa, shaxsning kamolatga etishishi yo'lidagi izlanishlari, o'qib o'rganishi va o'zligini anglashga bo'lgan ehtiyoj bilan chambarchas bog'liqligi haqidagi tushunchalar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *barqarorlik, izlanish, ijodkorlik, tafakkur, dunyoqarash.*

**САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ ОБУЧАЮЩИЕ ЗАДАЧИ  
УЧЕБНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛНЕНИЯ  
(В случае негосударственных семейных  
образовательных учреждений)**

**Ботиров Азизбек Мирзакаримович**

*Ташкентсий Кимё международногo университета, научный сотрудник*

**Аннотация:** *обсуждаются творческие исследования, принципы самоуправления в процессе выполнения самостоятельных учебных задач учащихся. Взгляд на мировую цивилизацию показывает, что каждый человек обладает индивидуальностью, и в первую очередь рассматриваются такие аспекты, как образ мышления, показывающий его духовный мир, выражение его мировоззрения. В этом отношении, поскольку каждый индивидуум имеет свой собственный мир мысли, его мир мысли поднимается на первичную ступень в его понимании мира и человека. Исходя из этого, тесно связаны понятия поиска человеком зрелости, обучения и необходимости реализации своей личности.*

**Ключевые слова:** *устойчивость, поиск, творчество, мышление, мировоззрение.*

**INDEPENDENT STUDY ASSIGNMENTS EDUCATIONAL  
AND THEORETICAL BASIS OF EXECUTION  
(In the case of non-state family educational institutions)**

**Botirov Azizbek Mirzakarimovich**

*Toshkent Kimyo international university,*

*Independent researcher*

**Abstract:** *creative research, the principles of self-management in the process of performing independent educational tasks of students are discussed. A look at the world civilization shows that every person has individuality, and first of all, aspects such as the way of thinking that shows his spiritual world, the expression of his worldview are looked at. In this respect, as each individual has his own world of thought, his world of thought rises to the primary level in his understanding of the world and man. On the basis of this, the concepts of a person's search for maturity, learning, and the need to realize his identity are closely related.*

**Key words:** *stability, search, creativity, thinking, outlook.*

Sharq xalqarining hayotigaga yoki jahon sivilizatsiyasiga nazar solar ekanmiz, insoniyatning tinimzsiz harakati, izlanishlari samarasi o‘laroq, hayotiy murakkabliklar, ziddiyatlar kurashlar ham maydonga kelganligini inkor etib bo‘lmaydi. Insoniyatning tarixidagi bunday xususiyatlar XX asrga kelib yanada reallik kasb etdi, buning boisi uning qalb kechinmalari, harakatlari o‘rtasidagi uyg‘unlikning asta-sekin tartibsiz halda aks etishi bilan bog‘liqdir. Bu qarashlarning zamirida har bir shaxs o‘z tafakkuri mahsuli bo‘lgan tushunchalra teranroq yondoshish, uni anglash, his etish kabi qator muammolarni ham yuzaga chiqardi.

O‘tgan asr boshlaridagi jadidchilik harakatining buyuk namoyondasi, ma’rifatparvar shaxs Mahmudxo‘ja Behbudiy qayd qilganidek: “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozumdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga paymol bo‘lur” [1,2-bet]. O‘tgan asr boshlarida qayd etgan bu qarashlarning zamirida, hayotiy haqiqatlar mujassamlashgan edi, chunki dunyoviy fan va limning zaruarti, insonning tafakkur dunyosiga ta’siri kabi xususiyatlarning asosida olamni anglash tushunchasi mujassamlashgan. Zamonaviy ilm va fandan bebahra qolish, bu inson ujun juda katta fojia ekanligini alohida qayd etgan. Shuning uchun asrlar davomida shakllangan falsafiy-ma’rifiy qarashlarning zamirida ilim olish, uning mohiyatini tafakkurda sintezlash, borliqni, o‘zlikni anglashga uzviy bog‘lanishini ham inkor etib bo‘lmaydi.

XIX asr so‘ngi choragi va o‘tgan asr boshlarida aql-idrokini, barcha imkoniyatini texnika taraqqiyotiga qaratishga intildi va buning uddasidan ham chiqdi. Bundan kelib chiqadigan asosiy maqsad esa, insonlarning mushkulini oson qilish edi. Shu maqsadda qancha-qancha ixtirolar maydonga keldi: elektir energiyasi kashf etildi, ishlab chiqarish dastgohlari takomillashtirildi, sanoat, fan, temir yo‘l, transport, radio, telefon va hakoalar yaratildi. Bularning hammasini zamirida limning birlamchiligi, uning mohiyatini, nazariyasini amaliyotga tadbig‘i bilan bog‘liq ediki, ammo bu tushunchalarni barchasini inson omili bilan yuzaga chiqarish an’anasini alohida qayd etish zarur.

Istiqlol tufayli qadriyatlarimiz asosli tiklanib, yangicha tafakkur tarzi qaror topdi. Barcha sohada bo‘lgani kabi, pedagogikada ham jiddiy izlanish, amaliy tushunchalar shakllanib ulgurdiki, buning barchasi insonni, bevosita talabalrning keng dunyoqarashli shaxs sifatida shakllanishiga imkoniyat yaratdi. “XXI asr odami – zamondoshlarimiz bugungi dunyoning olamiy (global) muammolarini bilish, uni echish, kurashish uchun juda yuksak aqliy mustaqillik va aqliy kenglik – boshqa sohalardan xabardorlik, intellektual salohiyatga ega bo‘lishlari talab etiladi” [2, 18-bet].

Asosli qayd qilinganidek, XXI asr insoniyat tafakkuridagi evrilishlarni, uning erk va erksizligini, moddiy va moddiy boyliklarini yuzaga chiqardi. Bu jarayonda shaxs kategoriyasi, uni g tafakkur dunyosi turfa xil xislatlarini namoyot etib keldi, ammo ongli, tafakkurli shaxsgina o‘zining ruhiy-ma’naviy olamini yuzaga chiqarish imkonini yuksaltirib keldi. Bularning barchasida shaxsning mustaqil qarorlari, tushunchalari birlamchilik qila boshladi.

Bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlarni sanab o‘tarkan nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol va ijobiy xususiyatlar – aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolarni rivojlantirish asosida shaxsning o‘zini rivojlantirish imkoniyatini yuzaga chqarish mumkinligini asoslaydi.

“Zamonaviy tarbiyashunoslik ilmida ta’lim-tarbiyaning vazifasi o‘quvchini zarur bilimlar yig‘indisi bilan ta’minlash doirasidan chiqib va uning oldiga o‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish hamda boyitish, o‘quvchida bilimlarni izchil ravishda to‘ldirish, bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojni qondirish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlay olish ko‘nikmasini shakllantirish kabi sifat jihatdan yangi talablar qo‘yilayapti” [3, 12-bet].

Maktabdan o‘quvchi o‘z ma’naviy olamini boyitishga harakat qilishi, keyinchalik talabalik davriga kelib o‘z-o‘zini boshqarishdagi mustaqil ko‘nikmalarni yuzaga keltirish bilan birgalikda, hukumlar chiqarish, xulosa qilish imkonini kengaytiradi. Bu jarayon esa keyinchalik, talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini yanada teranlashtiradi.

Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish ko‘nikmasi ham, ularning maktab davridagi faoliyati bilan chambarchas bog‘lanib ketadi. Bu izchillikning mohiyati shundaki, o‘quvchida umumta’lim jarayonidayoq, mustqil xulosalar chiqarish imkoniyati kengroq va asosliroq yaratilsa, ularning tushunchalarida ham ovziga xos tafakkur tarzining namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘z fanining xususiyatlaridan, sfitsifikasidan kelib chiqib, muammoli vaziyatlarni yuzaga chiqarishi, bunda talabaning faol ishtirok etishini ta’minlashi, ularning mustaqil tushunchalarini va mulohazalarini boyishiga bevosita asos bo‘ladi.

Shu o‘rinda poliyak olimi V.Okonning muammoli ta’lim xususiyati haqidagi qarashlariga nazar solaylik: “Muammoli vaziyatlarni tashkil etish, muammoning shakllinishi, bu jarayonda talabalarda ko‘rsatilgan yordam, muammo echimining tekshirilishi, bu jarayonda o‘lashtirilgan bilmlarni tizimlashtirish va mustahkamlash singari faoliyatlar yig‘indisidir” [4, 28-bet].

Darhaqiqat, qo‘yilgan muammoning nazariy xususiyatlaridan kelib chiqib, talabalarning mustaqil qarashlarini mulohazalarini tinglash jarayonida, xulosa va hukumlarning chiqarilishidagi matiqiylik, izchillik kabi xususiyatlarga jiddiy nazar solish zarurati ham yuzaga chiqadi. Har bir tushunchani to‘g‘vri izohlanishi, talabning mustaqil ishga bo‘lgan yondoshuvini ham naoyon etishi, tabiiy hol.

Pedagog, faylasuf olim Ya. Lernerning bu haqidagi qarashlariga diqqat qilinsa masalaning mohiyati yanada teranroq namoyon bo‘ladi: “Talaba uchun yangi bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni ta‘limning maqsad va vazifalariga monand ravishda o‘qituvchi rahbarligidagi izchil faoliyatidir” [5, 67-bet]. Dars jarayonida qo‘yilgan muammoning u yoki bu darajada tahlil etilishi talabada ma‘lum bir tushunchani shakllanishiga xizmat qiladi, ammo shu mavzuni to‘ldirish, qarashlar va xulosalarini boyitish uchun qo‘shimcha nazariy-amaliy manbalar bilan shug‘ullanishini talab etadi.

Nodavlat oily ta‘lim muassasalarining talabalari ham boshqa oily o‘quv yurtlarining talabalari barcha huquqlarga ega ekanligini qayd etgani holda, ularning mustaqil ta‘lim topshiriqlaning bajarishga, mustaqil xulosalar chiqarishga bo‘lgan intilishlarining birlamchilik xususiyatini ham ta‘kidlash joizdir. Bu jarayonda ularning doimiy faoliyati, o‘zlashtirish jarayonlariga jiddiy e‘tibor berishni talab etadi.

Qayd qilingan tushunchalarga asoslangan holda, oliy ta‘limning asosiy vazifalaridan biri ham, yuksak ma‘naviyatli, intellektual rivojlangan, ijodiy ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash va ishlab chiqarishga etkazishdan iboratdir. Barcha oliy ta‘lim muassasalari har doim nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, shu bilan uzviy birlikda, talabalarda shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy faol qobiliyatlarni ham shakllantirish va rivojlantirish zaruratini yuzaga chiqargan.

Shu munosabat bilan, oliy ta‘limda talabalarning o‘zini boshqarish tizimini rivojlantirish, uning pedagogik salohiyatini chuqur o‘zlashtirish, talabalarni ijtimoiy jarayonlarga faol jalb etish va ularning barcha ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan jarayonlarni ham inobatga olish lozim. Talaba o‘zini nazorat qilishning mohiyatini teran anglagan holda harakat qilimog‘I, har bir mavzuni o‘rganishda olingan tushunchalarni boyitib borishi, bu yuzasidan muloqotlar uyushtirishi, jamoaviy bo‘lib bahs-munozaralarni shakllantirish, xulosalar chiqarishga intilishini ham namoyon eta olishi kerak.

Bu jarayondagi tushunchalar esa, talabalar uyushmalarining pedagogik salohiyatini samarali yuzaga chiqarishni talab etadi. “Ma‘lumki, odam ongingning yuksak belgilaridan biri uning o‘zini anglashdir. O‘zini anglash shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Odam o‘z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va olamga ta‘sir etuvchi subyektdir. Barcha idrok etiladigan, tasavvur qilinadigan narsalar uning uchun obyektidir. Ana shu nuqtaiy nazardan olganda, odamning o‘zini anglashi subyektiv tarzda o‘zini “men” deb his qilishda ifodalanadi” [6, 140-bet].

Ta‘kidlanganidek, inson qachonki o‘zligini anglasagina, olam va odamga, atrofga teranroq nazar soladi. Ana shu xususiyatni bolalarda oilada shakllantirish, keyinchalik umumta‘lim maktabida rivojlantirish va oily ta‘limda esa yanada yuksaltirish yo‘lidan borish lozim. Cunki inson ijtimoiy zot bo‘lganligi uchun ham, unga o‘zligini anglash imkoniyati berilgan. Shuning

uchun faqat ijtimoiy hayotda, shaxslar bilan muloqotda yoki turlicha munosabatda odamning o‘zini anglashi, o‘zini men deb bilishi vujudga keladi va shakllanib beradi. Tushunchalarning zamirida oily ta‘limga kirgan, tahsil olayotga talabaning mustaqil ishlarni bajarishgacha bo‘lgan jarayoni, faoliyati ham muhim rol o‘ynaydi.

Barcha manbalarda inson shaxsi ikki omil vositasida rivojlanib, ko‘nikmalari shakllanib borishi qayd etilganligini kuyzatish mumkin. Bu xususiyatning birinchisi biologic omillarning ta‘siri bo‘lsa, ikkinchisi esa, inson tug‘ulib o‘sgan tashqi ijtimoiy muhitning ta‘siri o‘zining mohiyatini ko‘rsatadi. Shaxsga uzoq muddat beriladigan ijtimoiy-ta‘lim tarbiyaning ta‘sirini ham alohida qayd etish lozim. Chunki bola organizmi yillar davomida rivojlanib, tashqi muhitning ta‘sirini yaxshiroq, asosliroq anglay boshlaydi. Ana shu anglashning zamirida ham shaxs kamolati, mustaqil qarorlar qabul qilish jarayoni juda muhim hisoblanadi.

Barcha ta‘lim muassasalari kabi nodavlat oily ta‘lim muassalari rivojining hozirgi bosqichida talabalar tashabbuskorligi, faolligi, o‘zini o‘zi nazorat qilishi kabilar muhim o‘rin tutadi. Ular o‘z kelajaklarini, faoliyatini ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy-madaniy muhit bilan uyg‘unlashgan holda quradilar. Nodavlat oily ta‘lim muassalarida talabalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish, o‘zini nazorat qilishni rivojlantirish asosida tadqiqot muammosi aniqlanadi, bu talabalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish va o‘zini nazorat qilishning pedagogik salohiyatini yangilash mumkin bo‘lgan sharoitlarni aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Ayniqsa, talabalarning mustaqil o‘qishini tashkil etish va bu jarayondagi ularning faoliyatini nazorat qilish, keyinchalik ularning o‘zlarida hokum va xulosalar chiqarish imkonini kengaytiradi. Talabalarda immunitet shakllanadiki, bu esa ularning mustaqil harakat qilishga ishonchni uyg‘tadi. Aynan shu holat ularning salohiyatini, ijodiy muloqot qobiliyatini, mustaqil faoliyat yuritish holatlarini teranroq anglash imkonini beradi.

Talabaning mustaqil tushunchasi uning hukmlarida, anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun talabaning hukmlari, xulosalari bevosita uning tafakkur dunyosi bilan uzviy birlikda shakllanadi. Shu jihatdan: “Hukmda biror nima haqida yoki biror kimsa haqida tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsa hukm mavzui bo‘ladi. Hukmlarda buyumda biror belgilarning borligi yoki yo‘qligi – uning boshqa buyumlar bilan bog‘lanishi va munosabatlari tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Shu sababli hukmlar sifatiga qarab bir-biridan farq qilinib, tasdiqlovchi hukm va inkor qiluvchi hukm deb aytiladi. Shu hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar esa hukmlarning mazmunini tashkil qiladi” [7, 195-bet].

Asosli qayd qilinganidek, hukm chiqarish tasdiqlash va inkor etish jarayonini yuzaga chiqarar ekan, uning tafakkurini, dunyoqarashini shakllanishi va ifoda tarzini ham namoyon etishga harakat qiladi. Chunki tafakkur qilgan talaba olamni, insonni, belgilangan mavzularning asosini anglash bilan dialektik birligida, mustaqil qarashlarini yuzaga chiqaradi. Bu qarashlarning zamirida talabaning dunyoqarashi, uning anglash tamoyili birlamchi darajaga chiqishini ham ta‘minlaydi. Talabaning mustaqil o‘zlashtirish jarayoni uning tafakkuruini bevosita va bilvosita yuzaga chiqirash imkoniyatini kengaytiradi. Chunki belgilangan fanning zaruriy mavzularini mustaqil o‘rganish, talabaning tushunchasini



teranlashtiradi, hukmlar chiqarishga imkon beradi. Bu holatlar talabaning mustaqil qarashlarini bayon etishga asos bo‘ladi.

Talabalar olgan bilimlarni chuqurroq va to‘liqroq, ongli va samarali bo‘lishi uchun o‘quv faoliyati nazoratiga alohida e‘tibor qaratilishi lozim. Bu nazorat “tashqi” - o‘qituvchi tomonidan va “ichki” - talabaning o‘zi tomonidan bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi har doim ham har bir talabaning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini nazorat qila olmaydi. Talabalarda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bu muammoning eng samarali yechimi bo‘lishi mumkin.

Talabalarda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarining mavjudligi mustaqil ta‘lim topshiriqlarining qanday tashkillashtirilishi bilan belgilaniladi. Mustaqil ta‘lim topshiriqlarilash, mehnat qilish, o‘z faoliyatini baholash, o‘z ishlarini va harakatlarini nazorat qilish qobiliyati muammoni hal qilishning eng to‘g‘ri yechimi ekanligi ko‘plab olimlar tomonidan e‘tirof etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik shartlari kam o‘rganilganligi, talabalarni o‘zini boshqarishga tayyorlash tizimi ishlab chiqilmaganligi, o‘zini nazorat qilishning o‘quv jarayonida o‘rni va ahamiyati pastligini bildiradi. Mavjud muammolarning yechimi talabalar tomonidan mustaqil amalga oshirilishining psixologik-pedagogik xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan.

Ta‘lim jarayonidagi o‘zgarishlarnig, islohatlarning barchasi talabalarga kengroq imkoniyat berishga qaratilganligini ham alohida qayd etish lozim. Taraqqiy etgan jamiyatning yuzaga kelishi uchun bugungi yoshlarimiz, ilmi, salohiyatli shaxslar sifatida shakllangan bo‘lishi kerak. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish g‘oyasini amalga oshirish, bu esa mustaqil hayotga qadam qo‘ishga intilayotgan talabalarning ham o‘zini boshqarish, asosli xulosalar chiqarish, erkin fikrlash zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Bu kabi muammoni hal qilishda tashabbuskorlik maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktab va oliy ta‘lim dargohlariga tegishli bo‘ladi. Chunki o‘sib kelayotgan avlod taqdiri uzluksiz ta‘lim tizimi bilan uzviy birlikda bo‘lsagina, uning mahiyati va samarasi yorqinroq namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlashning mavjud tizimi, maktablarda o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, davlat tomonidan qo‘yilgan barcha talablarga to‘liq javob berishga qaratilgan choralar, tajribalar amalga oshirilmoqda.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Behbudiy M. Ehtiyoji millat / Samarqand gazetasi, 1913-yil, 30-iyul.
2. Ганиев И. Миллат ва ахлоқ. Монография. – Тошкент, “Muharrir” нашриёти, 2022. 15-бет.
3. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. – Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. – 404 bet.
4. Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва, Просвещение, 1988. – 320 с.
5. Лернер И.Я. Проблемное обучение. – Москва, Просвещение, 1974. – 298 с.
6. Mo‘minova L.R va boshqalar. Maxsus psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashri, 2022. – 272 bet.
7. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2021. – 500 bet.
8. Маджидова, Р. У., Мухиддинова, Х. С., & Султонова, Ш. М. (2015). Тилшуносликка кириш.
9. Маджидова, Р. (2018). РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА В СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТРАКТОВКАХ. Farg'ona davlat universiteti, (1), 20-20.
10. Djumaniyozova, Z. (2024). PROVERBS AS AN OBJECT OF AXIOLOGICAL LINGUISTICS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(01), 56-65.
11. Urishevna, M. R. (2019). Representation of the linguistic world picture through a human factor. RELIGACIÓN. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(15), 234-240.
12. Madjidova, R. U. (2020). Antropotsentrik maqollarning aksiologik tadqiqi (o‘zbek va rus tillari materiallari asosida). Filol. fan. dok.... diss. avtoref.
13. Маджидова, Р. У. (2024, May). АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ ШКАЛА ОЦЕНКИ ОБРАЗА ЧЕЛОВЕКА В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЦАХ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 10, pp. 501-504).
14. Urishevna, M. R. N. (2024). THEORETICAL BACKGROUND AND THE ROLE OF TERMINOLOGY IN LINGUISTICS. worldly knowledge conferens, 6(2).
15. Majidova, R. U. (2023). LANGUAGE AS A COMMUNICATION TOOL: UNDERSTANDING ITS FUNCTIONS AND IMPLICATIONS. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
16. Mamatov, G. B. R. (2024). IMPLEMENTATION OF THE EDUCATION SYSTEM OF EUROPEAN COUNTRIES. Innovations in Technology and Science Education, 3(19), 135-139.
17. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.

18. Mukhammadalievna, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4).

19. Shavkatovna, T. M. (2023). BO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 6-8.

20. Shavkatovna, T. M. (2021, June). THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER. In Archive of Conferences (pp. 22-24).

21. Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 152-156.

**BADIIY ASARDA TUSH TALQINI,  
XARAKTER VA RUHIYAT BIRLIGI****Nasirov Azimidin Normamatovich***Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,**Samarqand filiali prefessori,**filologiya fanlari doktori*

**Annatsiya:** *badiiy asarning asosiy xususiyati hayot voqeligini talqin etar ekan, uning zamirida inson xarakterining turli, ruhiy istiroblari va muhit t'siridagi qatama-qarshiliklar, konfliktlar uning ma'naviy olamini yoritish uchun asos bo'ladi. Shu jihatdan, insonni anglash naqadar murakkab bo'lgani kabi, uning xarakteri va ruhiy olamini talqin etish ham ijodkordan juda katta hayotiy tajriba, mahorat talab etadi. Badiiy obrazning olamini, ruhiyatini talqin etish esa badiiylik mezonlarini yuzaga chiqishiga imkon beradi. Bu xususiyatlar yaxlit badiiy asar misolida o'rganildi.*

**Kalit so'zlar:** *xarakter, ruhiyat, tush, kechinma, psixologizm, mahorat.*

**ТОЛКОВАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИИ ИСКУССТВА,  
ЕДИНСТВО ХАРАКТЕРА И ДУХА****Насиров Азимидин Нормаматович***Ташкентский Кимё международный университет, Самаркандского филиала,**доктор филологических наук, профессор*

**Аннотация:** *основной особенностью художественного произведения является интерпретация реальности жизни, в основе которой лежат противоречия и конфликты, вызванные влиянием окружающей среды и различными духовными устремлениями человеческого характера, которые становятся основой для освящения его духовной жизни. мир. В этом отношении, как трудно понять человека, так и интерпретация его характера и духовного мира требует от художника большого жизненного опыта и мастерства. Интерпретация мира и духа художественного образа позволяет выявить критерии художественности. Эти особенности были изучены на примере целостного художественного произведения.*

**Ключевые слова:** *характер, психика, мечта, опыт, психология, умение.*

**THE INTERPRETATION OF A DREAM IN A WORK OF ART,  
UNITY OF CHARACTER AND SPIRIT****Nasirov Azimidin Normamatovich***Tashkent Kimyo International University,**Samarkand branch, doctor of philological sciences, professor*

**Annotation:** *the main feature of the work of art is the interpretation of the reality of life, and at its core, contradictions and conflicts caused by the influence of the environment and the various spiritual aspirations of the human character become the basis for illuminating his spiritual world. In this respect, just as it is difficult to understand a person, the interpretation of his character and spiritual world also requires a lot of life experience and skill from the artist. Interpreting the world and spirit of an artistic image allows the criteria of artistry to emerge. These features were studied on the example of a complete work of art.*

**Key words:** *character, psyche, dream, experience, psychology, skill*

XX asr jahon tarixi va taraqqiyotida o‘ta dalg‘ali murakkab kechgan davr sifatida e‘tirof etiladi, buning zamirida inson va jamiyat, inson va muhit, sotsial va kapital lagerlar o‘rtasidagi murakkabliklarning mahsuli sifatida tarix sahifalaridan o‘rin oldi. Shunday murakkab jarayonni insoniyat boshidan kechirar ekan, uning ruhiy-ma‘naviy olamidida katta evrilishlar ham yuzaga keldi. Shunday bo‘lsa-da, insonni anglashga bo‘lgan intilish tinimsiz harakatda bo‘ldi.

O‘tgan asrning yirik faylasuflari K.Yung, E.Fromm, J.Kempbell, M.Eliade, V.Odaynik, J.Xobbek, E.Semoels, M.Fordaxmlar psixoanalitik metodning turli qirralarini, o‘ziga xos tamoyillari va xususiyatlarini, uning mifshunoslikdagi funksiyalarini ko‘rsatib berishga intildi. Natijada, o‘tgan asr boshida bu oqimga shunchaki vaqtinchalik modernistik oqim sifatida qaragan bir qator faylasuflar, olimlar psixoanalitikaning mifshunoslikdagi, nafaqat mifshunoslik, balki falsafa, estetika, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, etika, psixologiya va san‘atdagi o‘rnini ko‘rsatib berganliklarini e‘tirof eta boshladilar.

San‘atning zamirida inson mavjud ekan, uning turli qirralarini u yoki bu darajada talqin etishga intilib kelganligini alohida qayd etish mumkin. Asrlar davomida shakllanib kelayotgan bu tushunchaning zamirida ham, insonni anglashga bo‘lgan qarashlar, talqinlar mujassamlashganligi, tabiiy. Shuning uchun insonning murakkab xarakter qirralarini anglash, his etish, tasavvur qilish, bilan birgalikda, uning badiiy obrazining shakllanishiga dir qarashlarda ham turlicha mulohazalar bildiriladi.

Ong osti hislari insonni hamisha poeziya bilan, tabiat bilan yaqinlashtirib turadi, unda ijodiy hissiyot tug‘diradi. K. Yung: “Hozirgi odam fan va texnikaga sarflayotgan ijodiy qudratini qadimda ajdodlarimiz miflarni yaratishga sarflagan edi”, deydi [1,13-bet]. Insondagi ijod qilish hissi, ijodiy ruh ong osti tuyg‘ulariga xos bo‘lgan tushunchalar yig‘indisidir. Spu sababli folklorda, u qanchalok qadim bo‘lmasin, inson ruhiyati ham ma‘lum bir ramzlarda, majozlarda o‘z ifodasini topib keldi. Shuning uchun bunday qarashlarning zamirida inson psixologiyasi, uning ruhiy-ma‘naviy olami mujassamlashgan bo‘ladi.

Badiiy asar ma‘lum bir davrning asosiy g‘oyasini tashiydi, ilgari suradi unga singdiradi. Bu xususiyatni o‘zida mujassamlashtiruvchi shaxslar ya‘ni davr qahramonlari orqali ijodkor yuzaga chiqaradi [2,74-bet]. Davrning etakchi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxs ham o‘z navbatida oila, jamiyat, muhit va tarixiy voqelik ta‘sirida shakllanadi, harakat qiladi. O‘z davrining etuk shaxslari har bir voqea hodisa, muhit va sharoitga o‘zining bevosita ta‘sirini o‘tkazadi. Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar ekan, badiiy xarakterlarni yaratadi,

shu orqali o‘z mahoratini namoyon qiladi. Yozuvchi hayotni tasvirlari natijasida odamlarning yashash tarzi, xulqi, psixologiyasi, o‘y-mushohadalari, orzu-intilishlarini ko‘rsatib beradi. «Xarakter kishilarning ma’lum toifasiga xos xususiyatlarni ma’lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yoqqol ko‘rinadi» [3, 153-bet].

Shuning uchun xarakter muallif estetik idealini tashiydi. Badiiy asarda xarakter muayyan psixologik sharoitda harakat etish natijasida namoyon bo‘ladi. «Xarakter insonning ko‘piroq tabiatdan olgan ruhiy va jismoniy xususiyatlari majmuasidir. Inson shaxsida esa jamiyatning sotsial mohiyati aks etadi. Inson shaxsi muht ta’siri ostida o‘z xarakteri imkoniyatlari doirasida o‘zgaradi»m [4, 153-bet]. Hayotda shunday murakkab xarakterlar bo‘ladiki, o‘z ta’sirini muhitga o‘tkazadi, yoki o‘sha muhit qurboniga aylanadi.

Adabiyotshunos M. Qo‘shjonov qayd etganidek: «Xarakter muayyan dunyoqarashdagi san’atkor idealini ifodalaydigan real hayotiy shaxsdir» [5, 120-bet]. Hayotiy voqealar jaroyonida inson xarakteri turli vositalar ta’sirida shakillanib, aniq iroda yo‘nalishiga ega bo‘lgan shaxsga aylanadi. «Shaxs fovqulodda murakkab, nodir butunlikdir [6, 202-bet]. U o‘zining ma’naviy olamida insoniyatni ijtimoiy-maishiy, biologik va boshqa jihatlardan muhitga bog‘liqligini mujassam etadi» [7,11-bet].

Yozuvchi Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasi» romanidagi badiiy psixologizm aniq tarixiy davrdagi shaxslar psixologizmi bo‘lib, davr ruhini to‘la qonli ochishga, badiiy xarakterni yaxlit shakillanishiga xizmat qilgan. «Adabiyotda sharoit o‘z mustaqilligiga ega, u odamlarning ongiga bog‘liq emas, ob’ektiv qonuniyatlarga ko‘ra rivojlanuvchi konkret tarixiy vaziyatning in’ikosidir. U xarakterni aniqlaydi, qahramonning xatti-harakatiga, hissiyot va kechinmalariga, so‘zlariga o‘z muhirini bosadi» [8, 41-bet].

Romanda Ulug‘bek hayotining so‘ngi damlari asos qilib olinsa-da, real tarixiy zamon asarda ruhiy-badiiy zamon sifatida o‘z aksini topadi. Ulug‘bek xarakterini yoritishda tarixiylikka asoslanib, uning shohlik, olimlik bilan bir qatorda ruhiy iztiroblarini haqqoniy ko‘rsata olgan [9, 74-bet]. Bu xususiyatni yuzaga chiqarishda ong oqimi, ichki manolog, tush, mulohaza yuritish, dialog, tabiat tasviri kabi psixologik vositalardan unumli foydalanadi [10, 44-bet].

Ayniqsa, tush tasviri faqat ruhiy kechinmalarni emas, balki, qahramon xarakterini ochishga, kitobxon uni teranroq anglashga ham asos bo‘ladi. Tush tasviri romanda etakchi o‘rin egallaydi [11,124-bet] Romanda tush talqini “Qahramonlar ichki dunyosini, ularning nozik kechinmalarini ochish maqsadida ishlatila boshlandi» [12,72-bet].

Darhaqiqat, romanda bu tasvir vositasini mahorat bilan talqin etilganligini ko‘ramiz. Masalan: «- Sulton Muhammad Tarag‘ay! – dermish u, qavog‘i yozilmay. – Men seni o‘n to‘rt yashar chog‘ingda Movarounnahr taxtiga o‘tqazganimda umudim shu edimi? Qani aytchi, Movarounnahr sultoni: men bu dashti azimda Xoja Ahmad YAssaviyga bu maqbarai muazzamni nechun qurdirdim? Murodim ne edi manim?... –Bumaqbarai muaazzamni qurdirishdan muddaoingiz ul piri murshid Xoja Ahmad Yassaviy haziratlarining pokiza ruhini shod etmoqdur, qiblagoh... -Ha, pokiza ruhlarini shod etmoq!.. Oltin taxtimni senga ishonib



topshirg‘animda ne bo‘ldi? Ana, pastga qara! Quzg‘un Baroqbek suvoriylari shaharni zabt etar, bu muqaddas dargohni toptar, xor qilar!.. Mirzo Ulug‘bek qarasa, atrofdagi shahar ko‘chalarida, ikki yoni rasta mavzellarida qalmoqbashara suvoriylar, oysimon egri qilichlarini o‘ynatgan yasavullar suron solib ot o‘ynatishar, uylarga o‘t qo‘yishar, hamma yoqduv va yong‘in ichida qolgan emish» [15, 7-bet].

Bu o‘rinda oldinda yuz berishi mumkin bo‘lgan voqealar silsilasidan Mirzo Ulug‘bekni ogahlantiradi. Tush talqini asosida tarixiy shxsning dratil hayotiy lahzalarini, ichki ziddiyatlarini badiiy talqin etgan. Roman sujetidan o‘rin olgan tush talqinlarning o‘ziga xos badiiy funksiyasi borligini alohida qayd etish lozim.

Tush motivi qismat darakchisi vazifasini ham bajarmoqda deyish mumkin. Chunki o‘sha kuni erta tongdayoq o‘n nafar yigit xabar olib keladiki, Baroqxon Yassi va Sig‘noq shaharlarini, atrofdagi qishloqlarni talon-taroj qilib, oddiy xalqqa zulm qilayotganini aytganda, uning sabablarini o‘ylab qoladi [13, 118-bet]. Shuning uchun ham bu tasvirlar qahramon ruhiyatini teran anglashga, davr muhitini his etishga xizmat qiladi. Asar voqealari bilan uzviy birlikda rivojlanib boradi. O‘sha kuniyoq Mirzo Ulug‘bek jangga otlanadi, Sig‘noq yonida, Sayhun bo‘ylaridagi suronli jangda qattiq mag‘lubiyatga uchraydi [14,72-bet].

«-Bu tun... Bu tun tushimda... Ustodni ko‘rdim... -Tushimda... jannatmakon ustod kaminani qattiq koyidilar. Bu bevafo saltanatni deb ilm-fandan yuz o‘girding, dedilar. Taxt sohibi bo‘lamen deb, shunday etuk salohiyatni juvonmarg qilding, dedilar» [15,11-bet]. Tasvirlardan ko‘rinadiki, qahramon ruhiyatida kechayotgan qarama-qarshi kechinmalar uning xarakter xususiyatlarini, ilm yo‘lida qilgan zahmtlarini, shohlik yo‘lidagi ziddiyatli kurashlarini namoyon qiladi. Mirzo Ulug‘bek qalbida mujassamlashgan qarama-qarshi ikki qutubning, shohlik va olimlikning bir qalbda mujassamlashganini, bu yo‘ldagi adolat uchun kurashlarini haqqoniy tasvirlab beradi.

Romanda faqat Mirzo Ulug‘bek ruhiyatini yoritish uchun emas balki, Abdulatif Mirzoning ruhiy, ma‘naviy dunyosini ochishda tush tasviridan o‘rinli foydalanadi, chunki qahramonni psixologik jihatdan xarakterlovchi vositadir. Tush orqali adib asar qahramonlarining ichki dunyosini, ruhiy olamidagi ziddiyatlarni, kechinmalarini talqin etadi. Abdulatif Mirzo ruhiy qiynoqlarda azoblanishini tush epizodi orqali ziddiyatlarga boy ruhiy olami yoritiladi. SHuningdek o‘z otasining o‘limiga sababchi bo‘lgan shahzodaning fojiali taqdiridan darak beradi va orzu-umidlarining qurboniga aylanish jarayoni asoslanadi. Mirzo Ulug‘bekning eng ishonchli amirlaridan biri bo‘lgan Amir Jondar unga xiyonat qilib Abdulatif Mirzo tomonga o‘tgan edi. Ammo o‘z ishiga keyinchalik afsus qiladi: «Yo rab! Yomg‘irdan qochib, do‘lga tutildim degani shudir!.. shon-shuhrat orttiramen deb, bu bemehr xunrezga yo‘liqdimmu?-dedi amir Jondor... Al qasosil minalhaq! Bu savdo va nadomatlar a‘lohazratlarining begunoh kesilgan boshi, to‘kilgan qoni uchun qaytgan bir jazo emasmu?»-degan alamli o‘y o‘tadi xayolidan. Tez orada esa Abdulatif Mirzoga qarshi fitna uyushtira boshlaydi. Bu holat tush talqini orqali yoritiladi. «Sadoqati zohir qulingiz sizday valin‘emat pushtipanohimga kiyik ovlab, tog‘larda yurgan edim. Bu kun bir kiyikning boshini keltirdim! Uni esangiz barcha g‘urbat, barcha xastalikdan forig‘ bo‘lib, qushday engil tortasiz,



davlatpanoh!.. –Barcha dardingizga davo bo‘ladur, tatib ko‘ring, davlatpanoh! Shahzoda barkashni olib, dasturxonni ocharmish. Oltin barkashda... qonga bo‘yalgan uning o‘z boshi tirjayib yotarmish!.. Barkash qo‘lidan tushib, qonga bo‘yalgan boshi erga yumalab ketarmish» [15, 301-302-betlar].

Tarixda padarkush deb nom olgan shahzoda hayoti ham fojialardan iborat ekanligidan dalolat beradi. Bu holat esa, tush talqini orqali yanada asoslanadi. Ruhiiy qiynoqlar girdobidagi olami haqqoniy yoritiladi, Uning tanazzul sari ketayotgan hayoti jonlantiriladi, hamda Abdulatif fojiasining xilma-xil omillari, tarixiy muhit, sharoit, o‘z qismatidagi chigalliklari, ruhiy olamidagi evrilishlari yorqin bo‘yoqlarda tasvirlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Юнг К.Г. К вопросу о подсознании // Человек и его символы. – Москва, Серебряные нити, 1997. – С.13
2. Izzat Culton. Adabiyot nazariyasi. – T., “O‘qituvchi”, 2005, 103-bet.
3. Nasirov A. Poetics of Adil Yakubov’s novels. Monograph. – Toshkent, “Fan” publishing house, 160, 1012.
4. Адабиёт назарияси. Икки томлик. Биринчи том (Адабий асар). –Т., «Фан», 1978, 153-бет.
5. Қўшжанов М. Ҳаёт ва қаҳрамон. – Тошкент, Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. 120-бет.
6. Nasirov A. Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida obrazlar yaratish. Uluslarasi Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKCLAD) 4(2), 200-205, 2020.
7. Nasirov A.N. International Journal on Orange Technologies. 3(3), 71-76, 2021.
8. Сариян С. История. Современность. Личность. Москва, 1980, 11-бет.
9. Nasirov A.N. International Journal on Orange Technologies. 3(3), 71-76, 2021.
10. Nasirov A.N. Features of Symbolic Interpretation. International Journal on Orange Technologies 3(3), 71-76, 2021.
11. Nasirov A.N. Artistic thought in the process of globalization and logical consistency. International Journal of social science Interdisciplinary Research. 2023. 120-126-s.
12. Умуров Ҳ. Ўзбек романчилигида бадиий психологизм. – Toshkent, «Ўқитувчи», 1982, - 94 бет.
13. Nasirov, A. (2012). Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. Tashkent, " Fan" publishing house, 160.
14. Normamatovich, N. A. (2021). Features of Symbolic Interpretation. International Journal on Orange Technologies, 3(3), 71-76.
15. Ёқубов О. Улуғбек Хазинаси. Роман. – Toshkent, O‘zbekiston, 1994. – 248 бет.
16. Vozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.

17. Mukhammadalievna, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4).

18. Shavkatovna, T. M. (2023). BO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 6-8.

19. Shavkatovna, T. M. (2021, June). THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER. In Archive of Conferences (pp. 22-24).

20. Normamatovich, N. A. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE, 12(586-571).

21. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov’s novels. *Academicia: An International multidisciplinary Research journal* ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF, 7, 498-501.

22. NASIROV, N. A. (2019). THE TRANSLATION PROBLEMS OF UTKIR KHOSHIMOV’S WORKS INTO ENGLISH. *Иностранные языки в Узбекистане*,(3), 133-141.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA TARJIMACHILIK TARAQQIYOTI

**Abduxoliqova Zebo O‘tkirovna**

**Annatatsiya:** *adabiyotning asosiy xususiyatlaridan biri insonshunoslikdir, shu bois badiiy asarlar davrlar osh turli xalqlarning asarlarini o‘qish o‘rganishga imkon yaratilgan. Buning asosida tarjima asarlar asosida o‘qish, tahlil etish an’anasi shakllanib keldi. Tarjimachilikning o‘z tarixi, taraqqiyoti, badiiy qonuniyatlari mavjud. Maqola doirasida ana shu tushunchalarning mustaqillik yillariga kelib, yangi bosqichga ko‘tarilganligini, uning ijobiy tamoyillarini tahlil qilishga jazm etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tarjimachilik, interpritatsiya, ijodkor, badiiylik, matn.*

## ПЕРЕВОД В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ПРОГРЕСС

**Аннотация:** *одной из основных характеристик литературы является антропология, поэтому художественные произведения созданы как возможность читать и изучать произведения разных народов. На основе этого сформировалась традиция чтения и анализа переводных произведений. Перевод имеет свою историю, развитие и художественные законы. В рамках статьи предполагается проанализировать положительные начала этих концепций, которые за годы независимости поднялись на новый уровень.*

**Ключевые слова:** *перевод, интерпретация, автор, художественность, текст.*

## TRANSLATION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE PROGRESS

**Annotation:** *one of the main characteristics of literature is anthropology, therefore, artistic works have been created as an opportunity to read and learn the works of different peoples. Based on this, the tradition of reading and analyzing translated works was formed. Translation has its own history, development, and artistic laws. Within the framework of the article, it is intended to analyze the positive principles of these concepts, which have risen to a new level by the years of independence.*

**Key words:** *translation, interpretation, creator, artistry, text.*

Xalq hayotining buriish pallalarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy-ma'naviy sohalarida tub o'zgarishlar kuzatiladi. Millat ko'zgusining asosi bo'lgan adabiyot ham bunday sharoitda jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. 90-yillarda jamiyatdagi erkinlik badiiy adabiyot va tarjimalarni ham keskin o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bunday holat, ya'ni shakliy-

mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo‘lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo‘lgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz qo‘lga kiritgan mustaqillikdan so‘ng ko‘plab sohalarga, xususan madaniyat va adabiyotni o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Shu jumladan, xorijiy mamlakatlar tili va adabiyotiga ham e‘tibor kuchaydi. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish uchun qulay zamin yaratdi. Jahon xalqaro madaniy va ma‘naviy boyliklari bilan tanishish esa o‘z milliy merosimizni munosib baholash imkonini kengaytiradi. Bu borada badiiy asar tarjimalarining o‘rni ham beqiyosdir. Har bir xalq adabiyoti boshqa xalqlar adabiyoti bilan aloqada rivojlanib kelgan. Tarixga nazar tashlasak, biror bir xalq madaniyatini boshqa xalqlar madaniyatining ta‘siridagi «sof» rivojlanganligini uchratmaymiz. O‘zbek xalqining madaniyati, ma‘naviyati, adabiyoti ham uzoq tarixiy davrlar davomida Sharq va G‘arb ma‘rifatidan bahramand bo‘lgan holda rivojlanib kelganligini kuzatish mumkin.

Aytish joizki, bizning ajdodlarimiz juda qadim zamonlardan boshlab tarjimadan foydalanib kelganlar. Tarjimashunoslikning fan sohasi sifatida qaror topishi bilan uning tarmoqlari, ya‘ni tarjima tarixi, tarjima nazariyasi va tarjima tanqidi ham rivojlandi va jahon adabiyotidagi bu an‘anlarni o‘zida mujassamlashtirib, rivojlanib bormoqda. Bu tushunchalarning va nazariy qarashlarning barchasi badiiy tarjima xususiyatlarini o‘rganish asoaida yuzaga kelganligini ham qayd etish lozim. Tarjima nazariyasi ikki til orasidagi qiyosiy tahlildan iborat bo‘lib, bir tildan ikkinchi tilga amalga oshirilayotgan tarjimaning hamma tur va ko‘rinishlarini qamrab oldi.

Keyinchalik esa tarjimada lisoniy (lingvistik) tarjimashunoslik va badiiy tarjimashunoslik yo‘nalishlari paydo bo‘ldi. Tarjimani faqat lisoniy yoki faqat badiiy yo‘nalishda o‘rganish durustroq samara bergan emas. Shuning uchun ham, har ikki yo‘nalishni birlashtirgan lisoniy-badiiy tadqiqotlar keyingi yillarda yanada takomillashib borayotganligidan dalolat beradi.

Tarjimashunoslik fani adabiy-estetik jarayonga ta‘sir etib, adabiy tanqidning tarkibiy qismi hisoblangan tarjima tanqidini vujudga keltirdi. Buning natijasida tarjima va vatan adabiyoti, tarjima va ta‘sir, tarjima va badiiy til, tarjimon mahorati va uslub masalalari keng va chuqur o‘rganiladigan bo‘ldi. Bularning hammasi tarjimashunoslik o‘zbek adabiyotshunosligi fani taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir etganligi natijasida uning ufqlari ham kengayganligini, ayniqsa, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasi bilan o‘zaro ma‘lum ma‘noda birlashib, bu yo‘nalishning rivojiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Hozirgi kunda ham mustaqil O‘zbekistonda milliy madaniyatimiz, bir tomondan, qadimiy boy milliy qadriyatlarimizdan oziqlanib, rivojlanib kelayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, jahon madaniyatining umuminsoniy qadriyatlaridan ta‘sirilanib, shakllanib, rivojlanib borayotganligini kuzatish mumkin.

Darhaqiqat, biz har bir milliy madaniyatning yashashi va ravnaqi uchun tarixiy zarurat sanalgan millatlararo aloqalar avj olayotgan davrda yashamoqdamiz. Jamiyat rivojining ushbu bosqichida ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, adabiyotshunoslik mavqeining oshib borishi badiiy ijod va madaniyat sohalari qatorida ijtimoiy ong rivojiga ham ta‘sir o‘tkazmoqda. Bu holat esa adabiyotlararo aloqalar va ta‘sir masalalariga ham daxldordir. Turli ko‘rinishdagi adabiy aloqalar esa barcha davrlarda adabiyotning yashashi va taraqqiyoti uchun muhim

sanaladi. Shu ma'noda, badiiy asarlarning shaxs va jamiyat ma'naviy kamolotida tutgan o'rni va ahamiyatiga munosib baho berish, yaratilajak asarlarning barkamol saviyada bo'lishi, buning uchun jahon adabiyoti va adabiyotshunoslik an'alarini o'rganish, o'zlashtirishni ham talab etmoqda.

«Agar tarjima bo'lmaganida, milliy madaniyatlar va insoniyatning buyuk daholari bunyod qilgan o'lmas fan va san'at obidalari bir-birlari bilan abadiy uchrashmaydigan qoyalar va inson oyog'i etmaydigan orollar shaklida yakkalanib qolgan bo'lardi» [1, 3-bet]. Shuning uchun ham ma'lum bir xalqning san'ati yoki adabiyotini olamga mashhur qiladi. Shu nuqtai nazardan, braziyalik yozuvchi Paulo Koeloning «Alkimyogar» romani dunyo kitobxonlari tomonidan sevib o'qilayotgan asarlar qatoridan o'rin olganligi sir emas. U qisqa vaqt ichida 120 dan ortiq tilga tarjima qilindi. «Tarjima yo'li bilan milliy madaniyatlar bir-birlarini boyitadi. Ijtimoiy hayotning qaysi bir jabhasiga qaramang, u erda katta tarjimaning hayotbaxsh ta'sirini ko'rasiz. Tilda, tafakkurda, madaniy-adabiy hayotda, san'atda-hamma joyda uning o'ziga xos ta'siri sezilib turadi. Tarjima, ayniqsa, so'z san'ati bo'lgan badiiy adabiyotda katta o'rin tutadi» [1, 6-bet].

Tarjima orqali xalqlarning adabiyoti, tafakkur tarzi, tarixi, madaniy va ma'naviy olami bilan tanishamiz. Minglab kitobxonlar qalbini to'lqinlantirgan, insonni yashashga, hayotga undaydigan asarlardan biri Paulo Koeloning «Alkimyogar» asarini o'zbek tiliga o'girilishi ham bejiz emas. Asar uch munaqqid Ozod Sharafiddinov, Aziz Said, Ahmad Otaboevlar tomonidan tarjima etildi. Tarjimonlarning o'ziga xos badiiy mahorati, asarning rus tilidagi portugal tilidan A. Bagdanovskiy tarjimasi asosida qiyosiy o'rganish, har uchala tarjimonning badiiy mahoratini ko'rsatish orqali, bugungi tarjimachilik taraqqiyotini, uning yutuqlarini izohlash va tahlil qilish zaruratini tug'dirdi. Bu esa o'zbek adabiyotidagi tarjimachilik jarayonidagi o'zgarishlarni ham tahlil qilish imkonini beradi.

Tarjima nazariyasining asoschilaridan biri professor G'.Salomov yozadi: «Ma'lumki, tarjima tillar, adabiyotlar, didlar uchrashuvigina emas, balki tarixan tarkib topgan milliy va adabiy an'alarining ham duchlashuvi, uyg'unlashuvi mahsuli. Mana shu uchrashuvda turli adabiy mayllar mahsullarining baholanishi va talqini sodir bo'ladi. Ana shundan moslashtirish mayli zuhr eta boshlaydi. Moslashtirish mayli ongli ravishda ham, beixtiyor, ya'ni tarjimonning xohishidan tashqari ham sodir bo'lishi mumkin» [2, 124-bet]. Badiiy tarjima shunday san'atki, u bir tilda yaratilgan asarni boshqa tilda so'zlovchi kitobxonlarga etkazar ekan, o'girilayotgan asar asliga mos ekanligiga kafil bo'lmog'i darkor. Har bir san'at na'munasi o'zi bunyod etilgan tilda, ya'ni asl nusxasidagina «mutloq to'g'ridir», - degan qarash ham mavjud.

Tarjima qilishdan maqsad asl nusxani egallash, saqlash va etkazishdir, lekin o'z ma'nosiga ega bo'lmagan yangi asar yaratishdan iborat emas. Shuning uchun tarjimonning maqsadi qayta yaratish deb qaraladi. Tarjima jarayonida bir tilning materiali o'rnini boshqa tilning materiallari egallaydi, binobarin, tilga aloqador barcha badiiy vositalarni tarjimonning o'zi, o'z ona tilida yangidan yaratadi. SHunday qilib, til jozibasida tarjima chinakkam o'z xususiyatini qaytadan namoyon qiladi.



Badiiy tarjima nusxasi ko‘chirish emas, balki interpretatsiyadir (lotincha interpretatio – so‘zidan olingan bo‘lib, «tushuntirish, talqin qilish» ma’nolarini beradi). Tarjimonning estetik e’tiqodi, uning ixtiyoridan tashqari, tarjimada iz qoldiradi. Psixologik nuqtai nazardan tarjima jarayonida analiz va sintez bosqichlari voqe bo‘lib turadi. Bu bosqichlarning muntazam ketma-ket sodir bo‘lishi shart emas, ular beixtiyor intuitiv ravishda yuz beradi. Ammo tahlil ish paytida yuz beradi va tarjimaning yuzaga kelishiga imkon yaratadi.

«Har bir jabhaga yangilanish nafasi kirayotgan va milliy ma’naviyatimizni yuksak darajaga ko‘tarish dolzarb masalasi hal qilinayotgan hozirgi davrda tarjimonlardan jahon adabiyoti durdonalari namunalarini aks ettirgan asliymonand tarjima asarlarini yaratish talab qilinmoqda. Asliymonand tarjimaga erishish uchun esa asliyat-badiiy estetik qiymati, ikki xil lisoniy vositalarning lug‘aviy muvofiqliklari hamda asliyat mansub bo‘lgan xalqlarning moddiy, ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq omillar tarjimada to‘laqonli aks ettirishi lozim» [3, 191-bet].

Keyingi yillarda tarjimaga jiddiy e’tibor qaratilayotgani ham bejiz emas, chunki dunyo xalqlarining nodir durdonalarini tarjima etish orqali o‘sha xalqlar badiiy asarlarining shakllanish jarayonini, undagi o‘zgarishlarni inson olamidagi turli xil qirralarni yoritish, talqin etish an’analari ham o‘rganiladi [4]. Jahon adabiyotidagi bu kabi talqinlar esa, keyinchalik ma’lum bir xalq adabiyotining o‘zgarishiga, uning etakchi tomonlarini badiiy talqin uchun asos qilib olinishiga imkoniyatlar yaratadi. Inson tafakkuridagi turfa xil ziddiyatlar talqinini his etish bilan bir qatorda uning murakkab qirralarini ham anglaydi [5].

Tarjimashunoslik turli ishlar tutashgan joyda paydo bo‘ladi. Chunki tarjima jarayonida ikki madaniyat, ikki xil milliy-uslubiy xususiyat, ikki xil to‘qnash keladi [6]. Tarjimon ana shu to‘qnashuvlar ichida ijod qilib, «uchinchi bir adabiyot»ni yaratadi. Bu milliy adabiyotlarni bog‘laydigan ko‘prik bo‘lib, unda ikki xalq ruhi aks etadi [7]. Chunki tarjimon tilmoch yoki kosib emas, san’atkor degan xulosaga kelindi. «Badiiy tarjima – qayta yaratish san’ati» degan qoida qabul qilindi. Tarjimada ana shu ijodiylik o‘ziga xos tahliliy o‘rganish davri bilan bog‘lanib ketishini chex olimi Irji Leviy nazariy jihatdan tahlil qilib yozadi: «Badiiy tarjimada tarjimon mutloq «xolis» bo‘lishi mumkin emas, tarjimon ijodkor sifatida «o‘zligini namoyon etadi», u asarga aralashadi, uning mazmunini talqin (interperitatsiya ) etadi» [8, 5-bet], degan fikrni dalillaydi.

Tarjimaning eng xarakterli tomonlaridan biri ham, uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so‘z san’ati ekanligidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, balet ham san’at, ammo so‘z san’ati emas, u erda umuman nutq ishtirok etmaydi ham, muallifning muddaosi, asarning g‘oyasi, balerinaning mahorati - bular hammasi musiqa, raqs, harakatlar bilan ifoda etiladi.

### FAOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Саломов Ғ ва бошқалар. Таржимон маҳорати. –Тошкент, «Фан», 1979. – 280 бет.
2. Ғайбуллоҳ ас-Салом . Эзгуликка чоғлан, одамзод. 2-китоб. – Тошкент, «Шарқ », 1997. – 220 бет.



3. Умурзоков Т. Аслиймонанд таржима муаммолари // Жаҳон адабиёти. 2010. №1, 190-195-бетлар.

4. Normamatovich, N. A., & Elmira, J. (2020). Novel thinking and artistic conflict in shoyim butayev's novels. *European journal of molecular & clinical medicine*, 7(3).

5. Nasirov, A. (2012). *Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. Tashkent, "Fan" publishing house*, 160.

6. Normamatovich, N. A. (2021). Features of Symbolic Interpretation. *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 71-76.

7. Nasirov, A. N. (2019). **STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY**. *Theoretical & Applied Science*, (12), 568-571.

8. Левий И. Искусство перевода. Перевод с чеш. и предисловие Вл. Россельса. – Москва, «Прогресс», 1974, стр.

9. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). **THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS**. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 352-354.

10. Mukhammadaliyeva, B. G. (2023). **THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK**. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(4).

11. Shavkatovna, T. M. (2023). **BO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI**. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(3), 6-8.

12. Shavkatovna, T. M. (2021, June). **THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER**. In *Archive of Conferences* (pp. 22-24).

13. Normamatovich, N. A. (2019). **STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY**. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE*, 12(586-571).

14. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academicia: An International multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF*, 7, 498-501.

15. NASIROV, N. A. (2019). **THE TRANSLATION PROBLEMS OF UTKIR KHOSHIMOV'S WORKS INTO ENGLISH**. *Иностранные языки в Узбекистане*, (3), 133-141.

16. Normamatovich, N. A. (2023). **ARTISTIC THOUGHT IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION AND LOGICAL CONSISTENCY**. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 12(01), 90-94.

17. Nasirov, N. A. (2021). The history of literary translation from uzbek into English. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1011-1022.

**URUSH MAVZUSIDAGI ASARLARDA  
XARAKTER TALQINI VA OBRAZLAR OLAMI****Asadova Shahnoza Vahobjon qizi***SamDU 2-kurs magistranti*

**Annatatsiya:** *badiiy adabiyotda urush mavzusidagi asarlarda davr muammolari, uning turli xususiyatlari, muhit, inson ziddiyatlari talqin etildi va etilmoqda. Urush mavzusidagi asarlarda ham, inson va uning o'rtasidagi kurashlar, ziddiyatlar bilan birgalikda, muhit va insonning urushdagi holatlari talqinetildi. Ammo istiqlol o'zbek adabiyotidagi urush mavzusidagi asarlarda mag'lublar g'oliblar mavjud emas, faqat inson fojialari mujassamlashganligini asoslashga intilgan.*

**Kalit so'zlar:** *inson, muhit, kurash, fojia, hayot, ruhiyat, xatakter.*

**НА ТЕМУ ВОЙНЫ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ  
ХАРАКТЕРОВ И МИР ОБРАЗОВ****Асадова Шахнозы дочь Вахабджона***магистр 2-курса СамГУ*

**Аннотация:** *проблемы эпохи, ее различные особенности, окружающая среда, человеческие конфликты интерпретировались и интерпретируются в произведениях на тему войны в художественной литературе. В произведениях на тему войны наряду с борьбой и конфликтами между человеком и самим собой интерпретировались окружающая среда и условия жизни человека на войне. Однако в произведениях на тему войны в независимой узбекской литературе проигравшие пытались обосновать, что победителей не бывает, а есть только человеческие трагедии.*

**Ключевые слова:** *человек, среда, борьба, трагедия, жизнь, психика, характер.*

**IN WORKS ON THE SUBJECT OF WAR CHARACTER  
INTERPRETATION AND WORLD OF IMAGES****Asadova Shahnoza Vahabjon's daughter***2nd year graduate student of SamGU*

**Annotation:** *the problems of the era, its various features, environment, and human conflicts were and are being interpreted in works on the subject of war in fiction. In the works on the subject of war, together with the struggles and conflicts between man and himself, the environment and the conditions of man in the war were interpreted. However, in the works on the subject of war in the independent Uzbek literature, the losers tried to justify that there are no winners, but only human tragedies.*

**Key words:** *person, environment, struggle, tragedy, life, mentality, character*

Uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan insoniyat taraqqiyoti davomida, olamni anglash yo‘lini izladi, bu esa badiiyatda keyinchalik o‘z ifodasini topdi. Donishmandlarning ta’kidlashlaricha, inson hayotning past-u balandini, oq-u qorasini anglab yetishi uchun uning butun umri kamlik qilar ekan. Mazkur haqiqat barcha uchun ham bir xil bo‘lishi mumkinmi, degan savol tug‘iladi. Bu savolga javobni ijodkorlarning yaratgan asarlaridan topish mumkin. Zero, har qanday badiiy asar hayotning in’ikosi, unda bir qatra bo‘lsa ham, albatta, hayot haqiqati yotadi [1, 44-bet].

Afg‘on urushining ikki yillik talotumlarini bevosita boshidan o‘tkazgan adib Qo‘chqor Norqobil o‘zining “Daryo ortidagi yig‘i” qissasi orqali inson turmushning achchiq-chuchugini totishi uchun bir necha yil kifoya qilishi mumkinligini teran ifodalab bergan. Aksariyat hollarda urush mavzusini yoritishga bag‘ishlangan asarlarni o‘qiyotganda kitobxonlar urushning qay tarzda olib borilishi, janglardagi ur-surlarga e’tibor qaratishadi.

Aslida, har bir yozuvchining ushbu mavzuga murojaat qilishidan maqsadi urushning inson ruhiyatidagi evrilishlarga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlash, uning salbiy oqibatlarini yaqqol namoyon etishdan iboratdir. Ayni shu maqsadni Qo‘chqor Norqobilning “Daryo ortidagi yig‘i” qissasida kuzatish mumkin.

Asarning bosh qahramoni – muallifning o‘zi bo‘lib, o‘zi qatori urushga yangi kelgan askarlar kabi janglarga chiqishga, qahramonlik ko‘rsatishga oshiqar edi, urushning qanday olib borilishini ko‘rishga qiziqar edi: “Har kuni oshxonada idish-tovoq yuvish-u omborxonadan oziq-ovqat tashishga boraverishdan ko‘ra xavotir-u qiziqish aralash haqiqiy jangga borishni afzal ko‘rayotgandik. Kim biladi, inson hamisha o‘z oldida sodir-u muqarrar voqealarni ko‘rishga shoshilaverar?” [1,6-bet]. Ushbu qissada qahramon afg‘on urushiga endi jalb etilgan, urushning achchiq sinovlaridan bexabar, ishonuvchan, rahmdil yosh yigit sifatida gavdalanadi.

Qahramon urushning birinchi shafqatsizligini zindonda saqlanayotgan “dux”(sobiq sho‘ro hukumatiga qarshi bo‘lgan mahalliy aholi vakillari sobiq sovet askarlari tomonidan shunday nom bilan atalgan)ga nisbatan qo‘llanilgan jazoda ko‘rdi. Mahbus hech qanday aybi yo‘q ekanligini tan olgan bo‘lsa ham unga turli qiynoqlar solayotganliklari uni hayron qoldiradi. Dushmanning ko‘p yolg‘onlarining guvohi bo‘lgan askarlar uchun mahbus eng xatarli odam bo‘lib ko‘rinadi. Yosh askar, nahotki, inson shunchalik shafqatsiz, odamlar bir-biriga shuncha azob berishi mumkinmi, deb o‘ylaydi. Ikkinchi dahshatni u Bagramdagi talotumda ko‘rdi. Ko‘z oldida minalashtirilgan hududda jismi tilka pora bo‘layotgan askar o‘rtoqlarini ko‘rgach, ruhan azob chekadi:

“Eng yomoni ruhan zarba yemoqda edik. Hech qanaqa otishmasiz, og‘ir ahvolda qoldik. Xuddi ko‘zi ko‘r odam singari talmovsirash judayam ayanchli edi. Bir qadam xato yursak, portlaymiz. Tanamiz tilka-pora bo‘ladi, naslimiz quriydi. Bu – sharmandali urushning yana bir sharmandali ko‘rinishi, inson hayotining sariq chaqaga ham arzimaslighi, xo‘rlilik ustiga haqorat muhrining bosilishi edi” [2,13-bet]. Aynan mana shunday ko‘rgiliklarning guvohi bo‘lgach, uning qalbida beshafqatlik, o‘z hayoti uchun kurash tuyg‘usi vujudga keladi.

“Allaqanday, hali senga noma’lum, lekin bo‘lishi muqarrar vahima hokim. Diling betaskin. Qalbingda g‘ulu. Xavotir har daqiqa xuruj qilaveradi. Bo‘lajak xavf-u xatar oldida shaylanish naqadar og‘ir kechadi” [2,14-bet]. Asardan olingan ushbu parchadan ko‘rinib turibdiki, qissa qahramonidagi urushga bo‘lgan avvalgi qiziqish so‘nib, uning o‘rnini xavotir egallaydi. Bu xavotir faqat o‘z jonini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqish emas, balki qahramonlik, jasurlik bilan emas, haqoratli tarzda begona yurtlarda halok bo‘lishdan, oilasi, ota-onasidan bevaqt ajrab qolish hissi edi. Askarning jang, qon, talafotdan iborat kunlari uning tinchligini buzardi. Hatto tunlari tushida ham o‘z-o‘zi bilan kurash olib borardi, alahsirab chiqar edi:

“Mashina ichi go‘yo qonga liq to‘lgan-u, unda mening xayolimdan elas-elas o‘tayotgan ota-onam, ukalarim suzib yurganday. Men esa qopqa tepasida turib ularni kuzatayapman. Ana otam, keyin ukam sho‘ng‘iyotir. Qonli girdob uzra onamning chehrasini ko‘rib qolaman. Ana u ham... ko‘rinmay ketdi... Tag‘in girdob yuziga chiqdi. Sochlari qip-qizil... –Ona-jooon!!! O-o-o!!!” [2,18-bet].

Insonning hayotdagi o‘rni, uni inson deb tan olinishiga imkon beradigan tuyg‘ulardan biri va asosiysi g‘ururdir. Bu fazilatning yo‘qligi esa insoniy illatlarning urchishiga sharoit va muhit rolini o‘taydi. G‘ururi yo‘q misoli temir odamga o‘xshaydi. O‘zi qilishi lozim bo‘lgan ishni, buyurilgan yumushni qoyilmaqom qilib bajaradi. Evaziga hech narsa so‘ramaydi.

Temir odam uchun zaryad kifoya qilgandek, g‘ururi yo‘q odam uchun esa tirikchiligi o‘tsa bo‘ldi. Insonni o‘zini tutolmaydigan holatga olib keladigan narsa uning tuyg‘ularining toptalishi va adolatsizlik qilinishidir [3, 92-bet]. Hali yosh bo‘la turib ko‘plab yo‘qotishlar, azoblarni ko‘rgandan so‘ng, u insonlar bir-birlarining qadrlariga yetishlari kerakligini anglaydi. Chorikordagi jangda Rinat va harbiy vrachlar bilan yaralanganlarni Bagramdagi tibbiy punktga olib borish topshirig‘ini bajaradi. Ushbu jangdagi kuchli yo‘qotishlar, og‘ir kechgan jang natijasida asar qahramonining ahvoli og‘irlashadi. Do‘sti Rinatning qistovi bilan harbiy gospitalga davolanish uchun boradi.

Asarda badiiy konflikt shu darajada kuchayib boradiki, uni u yerdagi holat aslo qoniqtirmaydi. Palatada urushda bir yarim yil xizmat qilgan mushtumzo‘r Andrey va uning buyruqlarini so‘zsiz bajaruvchi to‘rt askar bor edi. Qissa qahramonini ajablantirgan holat jangchilarning urushda jang qilishdan ko‘ra bir zo‘ravonning buyruqlarini bajarishni afzal ko‘rishlari edi [4, 1012-bet]. Ayniqsa, u nimjon va irodasi sust yigit Gavrilovga achinadi. U kuni bilan palataning pollarini tozalash vazifasini bajarar edi. Gavrilov hech qanday kasal bo‘lmasa ham xizmat muddati tugagunga qadar jangda qatnashib halok bo‘lmaslik uchun shu yerda kun ko‘rishni ma‘qul ko‘radi. Bu yo‘lda esa, u va unga o‘xshaganlar har qanday yumushlarni bajarishga tayyordirlar. Lekin Gavrilov mutlaqo mute odam emas. Andrey va uning yordamchilari asar qahramoniga o‘z hukmlarini o‘tkazmoqchi bo‘lganlarida unga yordam beradi. Asarning asosiy qahramoni – askar yigit g‘ururini poymol qilmay, ularga qarshi kurashadi. O‘z vijdoni, g‘ururini saqlab qoladi. Ularga o‘xshab gospitalda yolg‘on hayot bilan kun ko‘rishdan ko‘ra mardlarcha jangga chiqishni afzal ko‘radi. Ko‘rinib turardiki, u bu yerda sog‘ayish o‘rniga, aksincha, tinchligini yo‘qotadi. Kasalxonadagi yolg‘onchilik, zo‘ravonlik, betartiblik uning sog‘ligini tiklashga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini bilib, bosh vrachdan harbiy qismga qaytishga ruxsat so‘raydi.

“Kulib tur, azizim” asarining bosh qahramoni – shoir, afg‘on urushi qatnashchisi, urushda olgan jarohati, keyinchalik turg‘unlik davridagi nohaqliklarga qarshi kurashish jarayonida kechgan ko‘pdan-ko‘p qiyinchiliklar, dilgirliklar tufayli og‘ir ahvolda kasalxonaga tushib qoladi. Shifokorlar uning hayotini saqlab qolish uchun bor imkoniyatini ishga soladilar. Ammo asosiy gap – shoirning qay ahvolda shifoxonaga tushib, qanday sog‘ayganida emas, balki shu vaqt mobaynida uning ruhiyati, ong-u shuurida yuz bergan o‘zgarishlardadir.

Sho‘ro davri siyosati tufayli afg‘on yurtida urush boshlanadi. Bu urushda ittifoq davlatlarining barchasidan harbiy xizmatga chaqirilgan yigitlar jalb qilinadi. Shoir ham shundaylardan biri, afg‘on urushi qatnashchisi. Shifoxonada davolanish jarayonida uning o‘y-xayolini ana shu urush fojialari, jang maydonida kechgan xunrezlik masalalari egallab oladi [5, 80-bet]. Ko‘zini yumgan hamon bu dahshatli manzaralar shoirni tinch qo‘ymaydi, u alahsiray boshlaydi:

“Kazarmada ikki kun dong qotib uxladim. Shkafimda jangga chiqqan kezlar beriladigan “quruq ovqat” ... bor edi. Ovqatlanaman, uxlayman. Ayqash-uyqash manzaralar paydo bo‘ladi. Nina Grigorevnaning qon sizgan chehrasi, o‘sha o‘lik askarlar qiyofasi, yaralangan mayor, yig‘layotgan leytenant, son-sanoqsiz texnikalar, qurol o‘qtalغان, sallali, mahalliy kiyimdagi afg‘onlar xayolimdan bir-bir o‘tar, uyqu aralash kimlar bilandir gaplashardim. Bu, judayam og‘ir hol edi...” [2, 122-123-betlar].

Qissada qahramon xarakteri, hayotiy prinsiplarini yaqqol namoyon etuvchi epizodlar juda ko‘p. Asar voqealari qahramon o‘y-xayollari orqali beriladi. Bu o‘ylar tartibsiz kechadi. Ayni shu usul asar qahramonining ichki tuyg‘ularini, qalb evrilishlarini, uning ruhiy holatini ishonarli, haqqoniy tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoirning o‘zi ta‘kidlab o‘tganidek, u qaysar edi. U urushdan qaytgach, faqat o‘z tinchligini o‘ylab yasholmaydi. Bu kabi talqinlar insonni o‘zligini anglashga bevosita xizmat qilganligini, tipiklashtirish asosida ijodkor yuzaga chiqargan.

Adabiyotshunos olim U.To‘ychiyev qayd etganidek: “Tipiklik belgisi detallar, xarakterlar, sharoitlar, joylar va hodisalarga nisbatan qo‘llaniladi” [6, 365-bet].

Badiiy asardagi talqinlarning zamirida vijdotsizlik, ikkiyuzlamachilik, iroda va o‘z yashash prinsipiga ega bo‘lmagan qo‘g‘irchoq odamlar fojialarini qiyoslaydi va ularni fosh qiladi. Badiiy obrazda yaxshilik tamoyillari mavjud bo‘lsa bu xususiyatlar talqin etiladi. Televideniyeda teleboshlovchi bo‘lib ishlayotgan shoir xalqning dardini o‘z dardidek qabul qilib, kishilar manfaatini ko‘zlovchi, jamiyatda mavjud kamchilik va nuqsonlarni fosh qiluvchi obraz sifatida faoliyat yuritib, televideniyedagi ko‘rsatuvlarida ham haq gapni aytishdan qochmasdi: “Hayotni boricha hikoya qilaman, shundayligicha ko‘rsataman, ekranning vazifasi u, unga tikilib turgan millionlab nigohlarga cho‘p suqolmayman, ekranda aldash shu xalqqa nisbatan xiyonatdir”, deb o‘ylardi” [2, 87-bet].

Bir kuni shoirdan betob bo‘lgan jurnalist o‘rniga jonli efirda intervyu olishni iltimos qilishadi. Suhbatda jurnalist ham, mehmon ham muammo va kamchiliklar haqida haqqoniy fikr yuritishadi, biroq qissa qahramoni shu harakatlari uchun rahbarlardan ogohlantirish oladi. Yozuvchi qissada nafaqat urush fojiasi, balki tinchlik davridagi qo‘rqoqlik, nafsga mutelik,



ikkiyuzlamachilik ham jamiyat rivoji uchun to‘siq ekanini yorqin misollar yordamida ko‘rsatib bera olgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nasirov, A. N. (2023). Odil Yoqubovning “Qaydasan Moriko” qissasida pesaj va xarakter talqini // Ustozlar uchun. 15(1), 40-47.
2. Норқобил Қ. Қуёшни ким уйғотади? // Қиссалар, ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2007.
3. Normamatovich, N. A. (2023). Artistic thought in the process of globalization and logical consistency. international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(01), 90-94.
4. Nasirov, N. A. (2021). The history of literary translation from uzbek into english. Academic research in educational sciences, 2(6), 1011-1022.
5. Nasirov, A. (2023). Erkin A‘zam ijodining o‘ziga xosliklari haqid // Ustozlar uchun. 15(1), 78-84.
6. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011. – 508 бет.
7. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.
8. Mukhammadalievna, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4).
9. Shavkatovna, T. M. (2023). BO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO‘LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 6-8.
10. Shavkatovna, T. M. (2021, June). THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER. In Archive of Conferences (pp. 22-24).
13. Normamatovich, N. A. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE, 12(586-571).
11. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov’s novels. Academics: An Internatioonal multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF, 7, 498-501.
12. NASIROV, N. A. (2019). THE TRANSLATION PROBLEMS OF UTKIR KHOSHIMOV’S WORKS INTO ENGLISH. Иностранные языки в Узбекистане,(3), 133-141.



13. Ahmadjonovna, K. M. (2024, February). XORIJIY TILNI OSON VA QIZIQARLI O‘RGANISH TO‘G‘RISIDA. In Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium) (Vol. 4, pp. 20-23).

14. Xusanova, M. (2023). SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR. Farg'ona davlat universiteti, (1), 163-163.

15. A'zamjonovna, X. S., & Azimidin, N. (2023). ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIY KONFLIKT. Ustozlar uchun, 15(1), 72-77.

16. Nasirov, A. (2012). Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. Tashkent, "Fan" publishing house, 160.

## KASB-HUNARGA OID SO‘ZLAR XUSUSIDA

M.K.Mamadaminova

*BuxDU tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kasbiy so‘zlarning funksional uslublarda qo‘llanishi, leksik-semantik guruhga mansub birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit sozlar:** *kasb-kor, kasbiy faoliyat, professional qadriyatlar, professionalizmlar, lingvokulturologik birlik, paralingvistik vositalar, noverbal muloqot*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается употребление профессиональных слов в функциональных стилях, специфика единиц, принадлежащих к лексико-семантической группе.*

**Ключевые слова:** *профессия, профессиональная деятельность, профессиональные ценности, профессионализм, лингвокультурное единство, паралингвистические средства, невербальное общение.*

**Abstract:** *This article examines the use of professional words in functional styles, the specifics of units belonging to the lexical-semantic group.*

**Key words:** *profession, professional activity, professional values, professionalism, linguistic and cultural unity, paralinguistic means, non-verbal communication.*

Jahon va o‘zbek tilshunosligida kasb-korni ifodalovchi birliklar turli aspektda tadqiq etilgan, mazkur leksik-semantik guruhga kiruvchi birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan, aniqlangan. Rus tilshunos T.K.Ivanovning kasb-korni ifodalovchi birliklarning yasalişini o‘rganadi va uning fikriga ko‘ra: “O‘zlashma elementlar respient tilining morfologik xususiyatlariga moslashadi, og‘zaki lug‘atida paydo bo‘ladi, so‘zlashuvchilar tomonidan o‘zlashtirilganligini ko‘rsatadi”.

Ma‘lumki, har bir kasbda ma‘lum bir sohada ishlaydigan mutaxassislar uchun maqsad, ma‘no va yo‘nalishni belgilovchi qiymat imtiyozlari tizimi mavjud. Maqsad va vazifalar kasbga mos keladigan qiymat tizimlaridan kelib chiqadi. Bundan tashqari, professional qadriyatlar, bir tomondan, ijtimoiy qadriyatlarning konkretizatsiyasi, ya‘ni, butun jamiyat rivojlanayotgan paytdagi axloqiy ko‘rsatmalar va afzalliklarni aks ettiradi, boshqa tomondan esa, kasbiy qadriyatlar ma‘lum bir kasbda mavjud va ma‘lum bir kasbiy faoliyatni tartibga solish mexanizmi rolini o‘ynaydi. Kasbiy guruhlar va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar quyidagicha amalga oshiriladi: kasblar ma‘lum, tanlangan ijtimoiy qadriyatlarni tan oladi, jamiyat esa o‘z navbatida kasbning mavjudligini tasdiqlaydi va uni jamoatchilik tomonidan tan olinishini ta‘minlaydi.

Insonning kasbiy faoliyati nafaqat mehnat mavzusiga qaratilgan. Muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda sodir bo‘ladigan kasbiy faoliyat jarayonida subyekt, moddiy va ijtimoiy muhit ta‘siri ostida shaxsning shaxsiyati shakllanadi, ma‘lum qiymat yo‘nalishlari, faoliyat va aloqa me‘yorlari, fe‘l-atvor xususiyatlari va boshqa psixologik-ijtimoiy jihatlariga ega shaxsning maxsus kasbiy turi shakllanadi. Ammo, “mehnat faoliyati” kontseptsiyasining fan

sohasini “kasbiy faoliyat” toifasi tarkibiga to‘liq kiritish to‘g‘risida bayonot noto‘g‘ridir. Chunki, mehnat faoliyati nafaqat insonning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq emasligini ta’kidlash lozim.

Kasbiy mehnat faoliyati tashqarisida insonning faoliyati har xil va kasbiy faoliyat singari shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga jiddiy ta’sir qiladi.

Manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra “kasb” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, polisemantik so‘z *kasaba* fe’lining “o‘z mehnati bilan mablag‘ topmoq” ma’nosini, arab tilida “foйда” “daromad”, “maosh” ma’nolarini ifodalaydi. Bu so‘z o‘zbek tilida quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Inson faoliyatida ma’lum soha uchun tajriba, tayyorgarlik talab etadigan hunar;
2. Odat qilingan ish faoliyati; Bundan tashqari, “kasb” so‘zi qatnashgan jumlar ham og‘zaki nutqda keng tarqalgan:

- a) ega bo‘lmoq, egallamoq; aks etmoq, ahamiyat kasb etmoq;

- b) biror mashg‘ulotni odat qilmoq, doimiy ish-mashg‘ulotiga aylantirmoq; kabi ma’nolarni beradi.

Tilning lug‘at tarkibi va uni tashkil etuvchi so‘zlar bir qator umumiy xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Leksikologiya leksikani xuddi shu umumiy xususiyatlari nuqtayi nazaridan o‘rganadi.

Shu ovrinda qisqa xulosa qiladigan bo‘lsak, kasb-hunarga doir lisoniy birliklar lingvistik “adabiy” elementlar negizida shakllanadi va tahlil qilinadi. O‘zbek tili izohli lug‘atida kasb-hunarga oid terminlarning leksik ma’nosi ish faoliyatni bajaruvchi shaxsni aniqlab hamda ularni leksik-semantik guruhlariga ajratadi. Kasb-kor va hunar bilan bog‘liq paralingvistik vositalarni noverbal muloqotda ifoda etilishi tadqiqiga bag‘ishlangan monografik ishlar ahamiyatini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. O‘zbek tili izohli lug‘atida “**kasb**” so‘zi “hunar” so‘zi bilan juftlashib talqin qilinadi.

Zamonaviy tilshunoslikning inson va uning kasbiy faoliyatini ifodalovchi til leksikasiga oid terminologik birliklar tadqiqi va tavsifi kasb-hunarga oid atamalar, so‘zlar, terminlar til maydonida qo‘llanilish chegarasi, sohalararo integratsiyasi faollashuvi, so‘zlashuv leksikasida belgilangan chegarasiga ega bo‘layotganligi hamda muayyan til lug‘atlarida hajmi kengayib borayotganligi ham quvonarli holdir.

Kasb-hunarga oid leksik birliklarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, taraqqiy etishiga xalqlarning ko‘p ming yillik turmush tarzi, urf-odatlar, mashg‘ulotlari asos bo‘lgan. Bu birliklar qo‘llanilish darajasiga muvofiq faol, nofaol, tarixiy-etimologik shakliga ko‘ra arxaik, zamonaviy lug‘atga yoki o‘zlashma qatlamiga mansubligi kabi xususiyatlari mavjud bo‘lib, o‘zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug‘ullanib kelganligi ma’lumdir.

Kasb-hunar leksikasi – (*professionalizmlar*) muayyan kasb yoki hunar egalari nutqiga xos so‘z va tushunchalar majmui. Boshqa tildan so‘z olish, shevaga xos so‘zlar, umumxalq tiliga xos ma’nosi o‘zgartirilgan so‘zlar Kasb-hunar leksikasining shakllanishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Bir buyum, narsani turli kasb kishilari tomonidan xilma-xil (mas, „qozon“– qandolatchilarda „potila“ va b.) nomlanishi ham K.-h. l.ni yuzaga

keltirishi mumkin. Kasb-hunarning rivojlangan tarmog‘i (mas, tibbiyot, texnika va boshqalar) leksikasi boy bo‘lib, shu sohalarga oid alohida adabiyotlar ham nashr etilgan.

Aytish joizki, “... o‘zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shug‘ullanib keladi. Shuning uchun O‘zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulochilik, naqqoshshoqlik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, chorvachilik, kosibchilik va hokazolar shular sirasiga kiradi. Turli kasbhunarga doir so‘zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o‘zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so‘zlarga boy. Masalan: kulolchilikda dog‘ chil (xum yasashda ishlatiladigan asbob), aspak yoki ob yog‘ och, bandak, bog‘ich (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi) kabi so‘zlar, suvoqchilik sohasida bozi (tokcha yoki), andava (asbob), loykash (kishi), mola gazcho‘p (asbob) kabi maxsus so‘zlar bor. Ular shu hunar egalari tilida qo‘llanadi va ular uchun tushunarlidir. Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat faoliyatini ko‘rsatishda kasb-hunarga doir so‘zlardan foydalanadilar”<sup>78</sup>.

Fan-texnikaga oid terminlarning, umuman, til lug‘at tarkibining boyishida va xalqning moddiy madaniyat tarixini o‘rganishda ular muhim manba hisoblanadi. Kasb-hunarga oid so‘zlar chegaralangan qatlam so‘zlari hisoblanadi. Kasb-hunar leksikasidan badiiy asar tilida ma‘lum uslubiy maqsadlarda foydalaniladi. Bunday so‘zlarning ma‘no xususiyatlari esa lingvokulturologik birlik sifatida yuqoridagi kabi izohlarni talab qiladi. Kasb-hunar leksikasi badiiy adabiyotda muayyan personaj xususiyati, tabiatini chuqurroq yoritishda badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

---

<sup>78</sup> Sharipova M.B. Ona tili va bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. Buxoro, 2024

## IJTIMOYIY TARMODA FAKE NEWSNING TARQALISHI VA UNI ANIQLASH USULLARI

**Ziyodullayeva Xumora**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi*

**Annotasiya.** Ushbu tezisdagi ijtimoiy tarmoqda fake newsning tarqalishi va uni aniqlash usullari keltirilgan. Shuningdek, mazkur mavzu doirasida xorijiy tadqiqotchilarning tajribalaridan kelib chiqqan holda ularning fikrlari umumlashtirilib, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Fake, phishing, ijtimoiy tarmoq, soxta, ma’lumotlar.

**Abstract.** This thesis presents the spread of fake news in the social network and methods for its identification. Also, within the framework of this topic, based on the experiences of foreign researchers, their opinions were summarized and suggestions and recommendations were made to users of the social network.

**Key word:** Fake, phishing, social network, fake, data.

### KIRISH

Bugungi kunga kelib, yangi texnologiyalar foydalanuvchilarga g‘oyalarni keng auditoriyaga oson va tez yetkazish imkonini beradi, bu esa g‘oyalarni talqin qilish usuli va ularning ishonchliligiga ta’sir qiladi. Har bir ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi shunchaki “*ulashish*” tugmachasini bosishi orqali xabarni avtomatik ravishda qayta nashr etishi va yangi xabarni keng auditoriyaga yetkazishi mumkin. G‘oyalarni tarqatish aholining muhim masalalar to‘g‘risida xabardorligini oshirishi, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Yolg‘on xabarlar tarqalishi jabrlanuvchining obro‘-sig‘a jiddiy zarar yetkazishi, demokratiyani yemirishi va jamoat manfaatlarini buzishi mumkin. Soxta yangiliklar bor narsani ko‘rsatishga qaratilgan har qanday qalbaki, soxta xabarlar, g‘iybat, uydirma, va maxfiy-yashirin qoidalar aralashmasidan iborat. Bu hodisa oshkor etish osonroq bo‘lgan azaldan mavjud yolg‘on axborotdan ko‘ra xavfliroqdir. Soxta yangiliklar yolg‘on-yashik xabarlar tarqalishdan kelib chiqadi, biroq bu hodisaning yangiligi zarar keltirishga astoydil urinishdan iboratdir. Asossis, uydirma xabarlar tarqatishdan maqsad kimnidir yoki nimanidir yomonlab ko‘rsatish, noto‘g‘ri, soxta axborot tarqatish orqali axborot iste’molchilari orasida, auditoriyada muayyan tashkilot, idora davlat arbobi, siyosiy shaxs, taniqli odamlarga nisbatan ishonchsizlikni paydo qilishdan iborat.

Umuman olganda fake newslar bugun yoki kecha tarqalmagan. Uning tarqalish tarixi uzoq o‘tmishga taqaladi. Misol uchun, *Garth S. Jowett va Viktoriya O‘Donnell* o‘zlarining mashhur “*Propaganda and persuasion*” ya’ni “*Targ‘ibot va ishontirish*” kitobida yozganidek, Chingizxon (1162-1227) va uning jangchilari bosmaxonalarda o‘zlarining shavqatsizligi hamda otliqlar soni haqida mish-mishlar tarqatishgan[1]. Soxta ommaviy axborot vositalarining paydo bo‘lishi birinchi marta XVI asrda qayd etilgan[2].

Ijtimoiy axborot vositalarida fake newsni aniqlaydigan botlar va trollar shuningdek, noto‘g‘ri ma‘lumotlarni aniqlab beradigan bir qancha texnologiyalarni misol keltirsa bo‘ladi. Masalan, Amerika nodavlat tashkiloti demokratiya xavfsizligini ta‘minlash uchun (*The Alliance for Securing Democracy*) “*Hamilton*” boshqaruv paneli va qidiruv vositasini ishlab chiqdi. Boshqaruv paneli va qidiruv vositasining maqsadi turli xil axborot vositalarida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan hukumat xabarlarining yo‘nalishi va tarqalishining oldini oladi[3]. Shuningdek, u yeda taqdim etiladigan ma‘lumotlar chuqur tahlil qilinadi. **Indiana** universiteti “*Botometr*” deb, nomlangan dastur ishlab chiqqan. Ushbu dasturning vazifasi *Twitter* orqali AQShda qanday mavzular va kontent targ‘ib qilinayotgani haqida jamoatchilikni xabardor qilishdan iborat[4]. Shuningdek u *Twitter* akkauntining faoliyatini ham tekshiradi.

Shu o‘rinda, **Google** kompaniyasining *Sho‘ba* korxonasi *Jigsaw* muhandislari va tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan “*Perspective*” loyihagini alohida ta‘kidlash kerak. Mazkur loyihaning maqsadi mashinalarni o‘rganish imkoniyatlari orqali veb-saytlarni sharhlash sohasini yaxshilashga qaratilgan. Shuningdek, “*Perspective*” “*Nyu-York Tayms*” bilan 10 yil mobaynida hamkorlik qilib kelmoqda[5].

#### XULOSA

“*Fake news*” atamasining o‘zi birinchi navbatda yangiliklar tarqatish kanali sifatida ijtimoiy tarmoqlarning o‘sishi tufayli keng tarqaldi. Insonlar tabiatida haqiqiy holat baribir yashiriladi, degan gumonda yolg‘on mazmundagi axborotni qabul qiladi. Shuning uchun yolg‘on axborot qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, unga ishonch kuchliroq va haqiqat yuzaga chiqquniga qadar odamlar orasida aylanib yuradi. Bu bir tomondan, axborotni o‘z vaqtida oshkor qilmaslik bilan ham bog‘liq. Shuning uchun soxta yangiliklarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi oson. U yoki bu axborot rasmiy manbalarda chop etilmagach, turli kanallarda, bu sohada professional bo‘lmagan insonlar tomonidan voqealarning noto‘g‘ri talqin qilingan holda tarqalishi mana shunday oqibatlarni ham keltirib chiqaradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jowett G., O'Donnell V. Propaganda and Persuasion. SAGE Publications, 2015. 480 p.
2. Standage T. The true history of fake news // The Economist 1843 Magazine.june/july2017.URL:<https://www.1843magazine.com/technology/rewind/the-true-history-of-fake-news>
3. <http://dashboard.securingsdemocracy.org>
4. <https://t.me/c/1964083659/3504>
5. Greenberg A. Inside Google's Internet Justice League And Its Ai-Powered War On Trolls // Wired. 19.09.2016. URL: <https://www.wired.com/2016/09/inside-googles-internet-justice-league-ai-powered-war-trolls/>



## HALIMA AHMEDOVA SHE’RIYATIDA AYOL RUHIY OLAMI.

Jumanazarova Rayxon Jaloliddinovna

*Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek she‘riyatining iste‘dodli vakili Halima Ahmedova ijodi faoliyati tahlilga tortilgan. Jumladan, shoira Halima Ahmedova ijodida ayol ruhiy olami, hissiyoti, ko‘ngil kechinmalari o‘rganilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ayol, kechinma, dard, alam, iztirob, ishq, ko‘ngil.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье анализируется творчество Халимы Ахмедовой – талантливой представительницы узбекской поэзии. В частности, творчество поэтессы Халимы Ахмедовой исследует духовный мир женщины, эмоции и душевные переживания.*

**Ключевые слова:** *женщина, опыт, боль, печаль, страдание, любовь, сердце.*

**Annotation:** *In this article, the work of Halima Akhmedova, a talented representative of Uzbek poetry, is analyzed. In particular, the work of the poetess Halima Akhmedova explores a woman's spiritual world, emotions, and emotional experiences.*

**Keywords:** *woman, experience, pain, sorrow, suffering, love, heart.*

O‘zbek she‘riyati ko‘plab shoirlar, yozuvchilar ijodida turli xil obrazlar bilan boyitilgan ulkan bir borliqdir. Ko‘plab shoirlarimiz ijodida Ayol timsolini kuzatamiz, o‘rganamiz va tahlil qilamiz. Hususan, shoira Halima Ahmedova ijodida ham takrorlanmas obrazlarni ko‘rishimiz mumkin. “Quyosh”, “Yashillik”, “Haqlik”, “Daraxt”, “Ayol”, “Tabiat”, “Qishloq” shular jumlasidandir. Shoira ijodini kuzatar ekanmiz, “Ayol” timsoli orqali haqiqiy o‘zbek ayoli va uning naqadar sabrli, bardoshli, matonatli, chinakam o‘zbek ayoli ekanligini tushunishimiz mumkin.

Har kuni ko‘raman falaj o‘g‘lini  
Yelkasida ko‘tarib yurgan ayolni,  
Uning ko‘zlarida suzar xazonlar.

Lablari qirov ostida qolgan g‘unchadek pichirlaydi nenidir mahzun. ( 25 b.)

O‘zbek ayolining qanchalik kuchli, irodali, sabrli, matonatli ekanligi aynan shu satrlarda ifoda etiladi. Lablari bilan pichirlab, Allohga shukronalik keltirayotgani ifodalanadi. Yelkasida ko‘tarib ketayotgan hayotning og‘ir tashvishi sifatida ifoda topgan, falaj o‘g‘li, oila, ro‘zg‘or mashaqqatlarning barchasi ortida tinch-totuv hayot gavdalanadi.

Qo‘shni ayol esa har kuni ro‘zg‘or o‘chog‘iga

O‘tinday qalaydi bir quchoq baxtni. ( 19 b.)

Ayol ro‘zg‘orim deb yelib-yugurishi, yo‘qdan bor qilib har kuni o‘choq atrofida o‘tin qalab taom tayyorlashi va bu holat ham aslida bir quchoq baxt ekanligi tasvirlanadi.

Pista olmaysizmi?- so‘rar nogahon

Yo‘lning chetida pista sotuvchi xotin.

Men uni taniyman qomati bukilgan  
 Dunyoning javobsiz so‘roqlariday  
 Nigohlari bo‘m-bo‘sh, ko‘zlari bo‘m-bo‘sh.  
 Chaqilgan pistaning po‘choqlariday.... ( 27 b.)

Ushbu satrlar orqali shoira pista sotadigan ayol va uning ruhiy olamini gavdalantirib bera olgan. Yo‘l chetidagi pistachi ayolning ko‘zlari bo‘m-bo‘sh, xuddi chaqilgan pistaning po‘chog‘iga qiyos qilinadi. Unda hayot va tiriklikka bo‘lgan intilish, ayolning ichki kechinmalari oddiy sotuvchi ayol obrazi orqali tasvirlanadi.

Eski jun ro‘mol boshiga o‘rab,  
 Tanish kampir o‘tar yuki ko‘p og‘ir.  
 Qizargan ko‘zining qorachig‘ida  
 Ajalning jangidan o‘g‘irlangan sir. ( 50 b.)

Shoira ushbu satrlar orqali eski bo‘lsada, issiq, jun ro‘mol o‘ragan ayolning ichki kechinmalarini ochib bera oladi. Yelkasida turli xil tashvishlarni ortib olgan ayolning dardlari esa ko‘p og‘ir yukka qiyoslanadi. O‘zbek ayoli to umri tugab bo‘lguncha oilam, farzandim deb, ularni tshvishlari bilan yashashi, hattoki ajal bilan jang qilib, yashashga intilayotgan, haqiqiy ONA siymosi gavdalanadi.

Vaqtning tirnoqlari qonatadi boz,  
 O‘lgan ishqning eski yarasin tirnab.  
 Bu menman, shamollar yurtidan qaytib  
 Va hanuz o‘ziga qaytmagan Ayol. ( 63 b.)

Ayol siru sinoatga boy, unda ishq bor, unda sabr bor, unda matonat bor, unda kuch bor, unda haqiqat bor, unda kuchli yurak bor. Xotiralar ayol qalbini tirnab, unga ozor bersada, unda kechirguvchi dil bor. Shamol o‘z izmiga solib, qanchalik tebratib, ozor bermasin, uning changalidan qutilib, hanuz o‘zligini qidirayotgan Ayol va uning kuchli hissiyotlari tasvirga tortiladi.

Eshik jiringlaydi ( eshitmayman, yo‘q)  
 Kimdir uni qattiq va qattiq mushtlar,  
 Eshikni ochaman, rangpar bir ayol so‘raydi-  
 Eski nimangiz bor, sotib olaman?  
 ( O, jonimga tegdi eskifurushlar )  
 Deyman: juda ham eskirgan ko‘nglim bor, oling.  
 Ayol kalovlanib, ko‘zimga boqib,  
 Qo‘rqib shivirlaydi, uzr, xush qoling. ( 64 b.)

Eshik qoqib turgan ayolni qanchalik kuch bilan eshik qoqmasin, eshitishni hohlamagan ichkaridagi ayol, hamda eshik ortida eski narsalar sotib oladigan ayol obrazlari gavdalantiriladi. Bunda har ikki obrazning ortida chuqur mohiyat anglashiladi. Eskirgan ko‘nglini oling deya javob berayotgan ayolning ko‘ngil kechinmalarida o‘tmish, sog‘inch, dard, alam, iztirob, azob borligi tasvirlanadi. Eshik qoqqan ayol esa, kalovlanib, hayratda, uzr, xush qoling deya xayrlashadi.

Ko‘rinadiki, Halima Ahmedovanning ijodida bosh qahramoni inson va uning ko‘ngli,

ruhiyatidir. Inson botini, siyratining sirlari, ruhiy dunyosi tahlil qilinadi. Ba’zi bir shoirlar ayol tabiatini, voqelik hossalarni qanday ko‘ra olsa, shunday tasvirlashga harakat qiladilar. Halima Ahmedova esa, teran fikr tuyg‘ular asosida yaratishga kirishadi. Uning joziba kuchi shundaki, tuyg‘ular haqiqatning falsafiy ma’nolarini, fikrga cho‘mgan kechinmalarni gavdalandiradi.

Shoira ijodida insonparvarlik, borliqqa mehr, yurtsevarlik tuyg‘ularining rang tasvirlarda qo‘llanilishi insonni ezgulikka chorlaydi. Beixtiyor kitobxon har bir satrlarni qayta, qayta o‘qishga shoshiladi. Shoira har bir yaratgan obrazlari orqali kitobxonlar ko‘nglidan joy egallab bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘maydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ahmedova H. Yashil.-T.:O‘zbekiston, 2016
2. Ahmedova H. “Erk darichasi” Adabiyot va san’at, 1996.
3. Ahmedova H. “Tiyramoh” Adabiyot va san’at, 2005.
4. Rahimjonov N. “Badiiy kashfiyotlar tongi” , ( maqola) 2016.